

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

X. KAMILOVA, X. YUNUSXODJAEVA

MATERIALLARNI KONFEKSIYALASH

Darslik

5A150901 – Dizayn (kostyum dizayni)

5A320902 – Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va konstruktsiyalash,

5A111001 – Kasb ta‘limi (5320900 – yengil sanoat buyumlari konstruktsiyasini ishlash va texnologiyasi) mutaxassisligi bo‘yicha magistratura talabalari uchun mo‘ljallangan

Toshkent – 2014

Taqrizchilar:

S.Sh.Tashpulatov – «O'rta maxsus kasb ta'lim kadrlarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti» rektori t.f.d proff.

T.K.Ochilov – TTESI «Materialshunoslik» kafedrası dotsenti, t.f.n.

Darslikda materiallarni konfeksiyalashning asosiy tamoyillari, vazifalari va tashkillashtirish, konfeksiyalashning marketing va kiyim sifati bilan uzviyligi keltirilgan hamda kiyimlarning alohida guruhlari va turlari uchun materiallarni konfeksiyalash masalalari yoritilgan. Kiyim uchun asosiy va yordamchi materiallarning assortimenti va xossalarining tavsifi berilgan bo'lib, unda o'zbek milliy matolarining xususiyatlari keltirib o'tilgan. Tikuvchilik buyumlari va materiallari tizimlashtirilgan.

Shuningdek, darslikda talabalarning amaliy vazifalarni hal etishga ijodiy yondashuvi hamda olingan bilimlarni mustahkamlashga ko'mak beruvchi interaktiv o'qitish uslublaridan ham foydalanildi. Ushbu darslik magistratura talabalari, ilmiy xodimlar, tikuvchilik sanoati va savdo korxonalari xodimlari uchun mo'ljallangan.

MUNDARIJA

Kirish.....	5
I bob. Materiallar va kiyim-kechakning tasnifi	
1.1. Kiyim uchun materiallar to'grisida umumiy ma'lumotlar.....	8
1.2. Asosiy tushuncha va ta'riflar.....	8
1.3. Kiyim uchun materiallar tasnifi.....	10
1.4. Materiallarning standartlar bo'yicha tasniflanishi.....	23
1.5. Materiallarning preyskurantlar bo'yicha tasnifi.....	25
1.6. Mahsulotlarni shtrix kodlar bilan raqamlash.....	34
II bob. Kiyimlarning har xil guruhlari va turlari uchun materiallarni konfeksiyalashning tamoyillari	
2.1. Konfeksiyalashuv va marketing.....	39
2.2. Matolarning konfeksiyalashuv masalalari.....	42
2.3. Matolarning konfeksiyalashuvini tashkillashtirish.....	44
2.3.1. Kiyimning turi va navini belgilash.....	44
2.3.2. Kiyimning sifatiga talab o'rnatish.....	47
2.3.3. Matoning sifatiga talab o'rnatish.....	49
2.3.4. Mahsulot paketi uchun matolarni konfeksion tarzda tanlash.....	57
2.4. Mato va kiyimga bo'lgan umumiy talablar.....	61
2.5. Korset mahsuloti va ichkiyim uchun materiallarning konfeksiyalashuvi.....	72
2.6. Ko'ylak, bluzka, erkaklar ko'ylagi uchun materiallar konfeksiyalashuvi.....	77
2.7. Kostyum uchun materiallar konfeksiyalashuvi.....	87
2.8. Palto uchun materiallarning konfeksiyalanishi.....	94
2.9. Kurtka va yomg'irpo'sh(plash)lar uchun mo'ljallangan materiallarni konfeksiyalash.....	101
2.10. Bolalar kiyimlari uchun materiallar konfeksiyasi.....	102
2.11. Liboslarni yangilash va ta'mirlashda materiallar konfeksiya-	

lashuvi.....	108
--------------	-----

III bob. Liboslar uchun materiallarni tanlash

3.1. O'zbekistonning geografik joylanishi va iqlimi.....	112
3.2. Yuqori haroratli sharoitlarga mos kiyim loyihalash asos- lari.....	115
3.3. Libos uchun material tanlash ishlari.....	116
3.4. Kiyim-kechaklar uchun materiallar tanlashda ularga qo'yila- digan talablar.....	117
3.5. Kiyimlar uchun materiallar tanlashda hal etilishi kerak bo'lgan vazifalar.....	118
3.6. Libos uchun material tanlashning avtomatlashgan boshqaruv tizimi va uning tuzilishi.....	124
3.7. Tikuvchilik buyumlari uchun yangi materiallarni konfeksiyalash tizimi.....	127

IV bob. Libosning tuzilishi va bardoshliligi

4.1. Tikuvchilik buyumlarining ko'rik tasniflanishi.....	130
4.2. Libos qismlarining ko'rinish-tuzilish uslublari.....	133
4.3. Libos qismlarining ko'rinishini puxtalash uslubi.....	140
4.4. Tikuv mahsuloti, materiallar va paketlarning shaklan bardoshli- ligini baholash. Libosning shaklan bardoshliligiga ta'sir etuvchi omillar.....	145

V bob. Libosni tayyorlash jarayoniga ta'sir qiladigan material xususiyati.

5.1. Ulanadigan to'qimachilik materiallarini ip bilan birikkan para- metrlariga ta'siri.....	150
5.2. Buyumni tikish jarayoniga tikuv iplari xususiyatining ta'siri.....	155
5.3. Tikuvchilik buyumlarini nam-issiq ishlov berish jarayonida to'qimachilik materiallarning ta'siri.....	156
Glossariy.....	162

Foydalanilgan adabiyotlar.....	173
Ilova.....	176

K I R I S H

Tikuvchilik sanoatida kiyim-kechak eng muhim o'rinni egallaydi. Kiyimlarning assortimenti – tashqi ko'rinishi, bichimi, bejirimligi, tuzulishi, mavsumiyligi, fizik-mexanik xossalari bilan xususiyatlanadi. Kiyimning yuqori sifati, avvalo foydalaniladigan materiallarning sifatiga, ularning asoslangan tanloviga, buyumning modeli va konstruksiyasi aniq ishlanganligiga, tayyorlash texnologiyasiga bog'liq.

Kiyim-kechak va maishiy maqsadlarga mo'ljallangan oqartirilgan buyumlarni tayyorlash uchun qo'llanadigan asosiy turlarining zamonaviy assortimenti nihoyatda keng ko'lamlidir. Bular to'qimachilik materiallari (matolar, trikotaj va noto'qima matolar), tabiiy va sun'iy charm, plyonka materiallar, shuningdek, bezak materiallari (to'rlar, tasmalar, tesmalar va boshqalar) hamda qo'yilma materiallar (astar, qistirma, isituvchi, yelimlanadigan, tikuvchilik iplari va boshqalar)dir. Yuqorida sanab o'tilgan material turlari o'nlab va yuzlab xillarga ega, ularning har birini artikul – tuzilishi yoki xossalarining hech bo'lmaganda bitta ko'rsatkichi bilan mushtarak materiallardan farqlanuvchi mazkur materialga beriladigan shartli raqam bilan belgilash qabul qilingan.

Kiyim materiallarini konfeksiyalash – amaliy, ilmiy fan bo'lib, tikuvchilik buyumi paketiga materiallarni butlash tamoyillari, materiallarga va ularning assortimentiga bo'lgan talablarni o'rganadi.

Kiyim o'zi ichiga asosiy va qo'shimcha materillarni qamragan holda, har bir qatlami muayyan vazifalarni bajaradi. Shu bois, kiyim paketini shakllantiruvchi barcha materiallarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- Palto, kostyum, plash va boshqa buyumlar uchun asosiy materiallar. Matolar, trikotaj va noto'qima matolar, tabiiy va sun'iy mo'yna, tabiiy va sun'iy charm, kompleks materiallar;

- ko'ylaklar va oqlamalar uchun asosiy materiallar;

- kiyim detal (bo'lak)larining shakl chidamliligini oshirish, kiyimlarning alohida qismlarini kuchaytirish va mustahkamlash uchun kiyim orqali issiqlikni yo'qotishni pasaytirish uchun qistirma materiallar;

– kiyimning ichki tarafini bezash va foydalanishda qulaylik yaratish uchun astar materiallar;

– bezak materiallari (tesma, tasma, to'rlar, tikilmalar va boshqalar);

– kiyim furniturasini (tugmalar, ilgaklar, pistonlar va boshqalar);

– kiyim qismlarini birlashtirish uchun materiallar (tikuvchilik iplari, yelimlar).

Tikuvchilik buyumlarini modellashtirish-konstruksiyalash va unga ishlov berishning texnologiyasi ko'p jihatdan qo'llanadigan materialning turi, uning tuzilmasi, fizik-mexanik va estetik xossalariga bog'liq.

Kiyim-kechak ishlab chiqaruvchi korxonalarining samaradorligini va sifatini oshirish, shuningdek, material talabgirlikni pasaytirish uchun kiyimni loyihalashda va tayyorlashda materiallar xossalarining bir qadar to'liq hisobini olish talab etiladi. Kiyimni ishlab chiqarishning texnologik jarayoni, shuningdek, ishlatilishdagi shart-sharoitlari materiallar xossalarining o'zgarishlarini keltirib chiqaradi, bu esa kiyim-kechak uchun materiallarni tanlashda albatta hisobga olinishi lozim. Bularning barchasi asosiy materiallarni ilmiy asoslash va materiallar paketini konfeksiyalash zaruratini yuzaga keltiradi. Konfeksiyalashda shuningdek, tikuvchilik ishlab chiqarishi texnologik jarayoni natijasida hamda tikuvchilik buyumlari sifatining pasayishiga olib kelishga qodir bo'lgan tashqi va ishlab chiqarish muhiti omillarining materiallar tuzilishi hamda xossalari o'zgarishini hisobga olish zarur.

Har qanday tikuvchilik korxonalari, odatda nisbatan kichik assortimentdagi materiallardan muayyan turdagi tikuvchilik buyumlarini tayyorlashga ixtisoslashadi.

Kiyim-kechak tayyorlaydigan quyidagi korxonalarni farqlash qabul qilingan:

– matolardan buyumlarni tayyorlashga ixtisoslashgan tikuvchilik korxonalari;

– bichish usulida, ya'ni bichish yo'li bilan qismlarni tayyorlash, keyin esa olingan qismlarni choklash yo'li bilan birlashtirish usulida trikotaj gazlamalaridan buyumlarni tayyorlashga ixtisoslashgan tikuvchilik-trikotaj korxonalari;

– mo'ynadan buyumlarni tayyorlashga ixtisoslashgan mo'ynachilik korxonalari;

– oqlama buyumlarni va boshqalarni tayyorlashga ixtisoslashgan oqlama korxonalari.

Mazkur darslikda bayon etilgan materialni o'rganish va undan foydalanish o'z kasbiy vazifalarini malakali ijro etishni ta'minlaydigan talabalar, ilmiy izlanuvchilar bilimining shakllanishiga, bo'lg'usi mutaxassislarning zukkoligi va ishbilarmonlik malakasining oshishiga ko'mak beradi.

I BOB

MATERIALLAR VA KIYIM-KECHAKNING TASNIFI

1.1. Kiyim uchun materiallar to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Kiyim tayyorlash uchun materiallarni ikki guruhga bo'lish mumkin: to'qima, trikotaj va noto'qima materiallar.

To'qima materiallar – bular yigiruv, to'quv, to'qima va boshqa buyumlar: matolar, trikotaj va to'qima gazlamalar, yigirilgan ip va iplar, sun'iy charm va sun'iy mo'yna, shuningdek, to'qima va noto'qima materiallarning har xil turlari uyg'unligini o'zida ifoda etuvchi kompleks (jamlama) materiallardir.

Kiyim uchun to'qima materiallar assortimenti o'z ichiga tabiiy (zig'ir, paxta, jun, ipak), sun'iy (viskoza, polinoza, atsetat, siblon va boshqalar), sintetik (lavsan, kapron, anid, nitron va boshqalar) xomashyodan va yuqorida sanab o'tilgan tarkiblarning aralashmasidan ishlab chiqarilgan gazlamalarni o'z ichiga oladi. Xomashyo tarkibi, uning turli-tumanligi, to'qima gazlamalarning tuzilishi, ularning fizik-mexanik xossalarini, shakl saqlash xususiyatini belgilab beradi, materiallar paketini tanlashda, tayyorlash va foydalanishda, albatta ularni hisobga olish lozim. Noto'qima materiallar – tabiiy mo'yna, charm, plyonka materiallari, turli-tuman furnitura va boshqa buyumlar bo'lib, shuningdek, ularning assortimenti va xossalarini kiyim uchun ularni tanlashda, tayyorlashda hamda foydalanishda, albatta hisobga olish zarur.

Kiyim uchun materiallarning har xil turlarining to'qson foizdan ortiq qismini to'qima buyumlar tashkil etadi.

1.2. Asosiy tushuncha va ta'riflar. Assortiment (ingliz. assortment – kompleks, yig'ma) – materiallarning turlari.

Kiyim uchun matolar, trikotaj va noto'qima matolar hamda boshqa materiallarni ta'riflash (belgilash) uchun qo'llanadigan atamalar turli-tumandir. Misol uchun, klassik assortimentdagi matolar an'anaviy nomlarga ega bo'lib, ular ushbu matolarning; ishlab chiqarish (movut), tuzilmaviy (krep, diagonal), ba'zan oilaviy

(batist, jakkard) yoki geografik (boston, damast)¹ kabi belgilarini ifoda etadi. Bu nomlar sanoat va savdo amaliyotidan mustahkam o'rin olgan. Yangi matolarga beriladigan nomlar ba'zi hollarda tor maqsadlarni (ko'ylak, palto matosi), boshqa hollarda esa tayyorlash xossalarini (rang-barang to'qilgan gazlama, jakkard gazlamasi) belgilaydi.

Artikul (lot. articulus) – buyumning, tovarning turi, shartli raqami (yoxud belgisi) bo'lib, u boshqa mushtarak materiallardan hech bo'lmaganda tuzilishining yoki xususiyatining bitta ko'rsatkichi (iplarning qalinligi, zichligi, bezak turi, kengligi, to'qilish turi va boshqalar) bilan farqlanib turuvchi muayyan materialga, buyumlarga beriladi.

Konfeksiya (nem. konfektion – tayyorlash) – tayyor kiyim-kechak, oqlama, birinchi ehtiyoj uchun mo'ljallangan buyumlar: ko'ylaklar, shimlar, sviter va ommaviy ishlab chiqariladigan boshqa buyumlar.

Konfeksiyalash – buyum yoki kiyim-kechak paketi uchun ularning xususiyatlarini, modaning zamonaviy yo'nalishlarini hamda tikuvchilik ishlab chiqarilishi texnologik o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda, materiallarni to'g'ri, ilmiy asoslangan tarzda tanlash. Bu tanlov materiallar xossalarini yaxshi bilishga, kiyimning muayyan tashqi samarasiga erishish uchun, komfort, qulaylik, muayyan uzoq muddatlilik va ishqalanishga chidamlilikka erishish uchun foydalanish salohiyatiga asoslanadi.[19]

Kiyim paketi – odamning noqulay iqlim sharoitlaridan himoyalaniish uchun bir vaqtda kiyiladigan buyumlar majmuasidir. U nafaqat himoya va utilitar, balki estetik vazifalarni ham bajaradi va quyidagi buyumlar to'plamini o'z ichiga oladi: korset buyumlar, ichki kiyim (oqlama), yengil ko'ylak va ustki kiyim-kechaklar, bosh kiyimlar, poyabzal, paypoqlar, qo'lqoplar va shu kabilar. Bir vaqtda kiyiladigan buyumlarning miqdori yil mavsumlariga hamda iqlim shart-sharoitlariga bog'liq. Masalan, yozda bu faqat ichki kiyim va ko'ylak bo'lishi mumkin.

Tikuvchilik buyumlari paketi – palto, kostyumlar, plash, kurtkalar va shu kabi ko'pqatlamli kiyim turlariga kiruvchi materiallar. Masalan, erkaklar va ayollar paltosi materiallari paketi ikki va undan ortiq qavat (qatlam)lardan iborat: ustki material va astar; ustki material, astar, qistirma; ustki material, issiqlikni saqlovchi qistirma, astar; ustki material, qistirma, issiqlikni saqlovchi qistirma, astar va boshqa uyg'unliklar. Paket uchun materiallar tanlovi muayyan buyum turiga taqdim etiladigan xossalari hamda talablarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

GOST bo'yicha mahsulot sifati mahsulotning maqsadiga muvofiq holda, muayyan ehtiyojlarni qondirishga yaroqliligini taqozo etuvchi xossalari majmuasi sifatida belgilanadi. Kiyim uchun materiallar sifati standartlar bo'yicha yoki boshqa me'yoriy-texnik hujjatlar bo'yicha belgilanadi, sifat ko'rsatkichlari bilan baholanadi.

Sifat ko'rsatkichi – mahsulotning yaratilishi, foydalanish yoki iste'mol qilishning muayyan shart-sharoitlariga qo'llangan holda ko'rib chiqiladigan sifatining tarkibiga kiruvchi xossalari ko'rsatkichlarining (tavsifining) miqdoriy ifodasidir (masalan, ko'ylak matolarining havo o'tkazuvchanligi $100 \text{ dm}^3/\text{m}^2$; nam shimuvchanligi – 7–14% dan kam bo'lmasligi lozim).

Sifat – matoning xususiyati bo'lib, undan foydalanish shart-sharoitlari, tolali tarkibining turi, tuzilishiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkinligi va katta yoki kichikroq ahamiyatga ega u yoki bu xossalarning ko'rsatkichlari jamlanmasi bilan baholanadi. Chunonchi, ko'ylaklik yoki oqlama (ichki kiyimi) matolarining havo o'tkazuvchanligi plash yoki palto uchun mo'ljallangan matolarga qaraganda kattaroq ahamiyatga ega bo'ladi.

Sifat ko'rsatkichlari nomenklaturasi (lot. nomenclatura – ismlarning yozilishi) – mahsulot sifatini to'g'ri baholash uchun zarur bo'lgan asosiy sifat ko'rsatkichlarining jamlanmasi yoki ro'yxati (nomlanishi). Odatda, mahsulotning toifasi, turi va uning maqsadiga ko'ra belgilanadi.

Marketing (ingl. marketing, «market» – bozor, savdo-sotiq) – bozorni o'rganish va ishlab chiqargan tovarlarini sotishni kengaytirish maqsadlarida iste'mol talablariga faol ta'sir ko'rsatish bo'yicha tegishli kompaniyalar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar tizimidir [23].

1.3. Kiyim uchun materiallar tasnifi. Kiyim-kechakning har xil turlarini tayyorlash uchun materiallarning keng assortimentidan foydalaniladi.

Assortiment deganda turlicha belgilari bo'yicha o'xshash bo'lgan materiallarni tanlash tushuniladi.

Mato, trikotaj va noto'qima matolar kabi kiyim uchun materiallar assortimentining kattagina qismi uzoq yillar davomida o'zgarishlarsiz ishlab chiqarilmoqda. Materiallarning bu turlari klassik materiallar sirasiga kiradi. Assortimentning boshqa qismi to'qima kimyo tolalari, ip va materiallarni olish, zamonaviy texnologiyani joriy etish, bezaklarning yoki tashqi ziynatlashning yangi turlarini, ayniqsa, trikotaj matolar va boshqalar uchun yangi to'qima rasmlarni yaratish tufayli muntazam yangilanib bormoqda. Assortimentni yangilashga bo'lgan ehtiyoj ulgurji ko'rgazma savdolarini o'tkazish yo'li bilan, talabni, moda taraqqiyoti xususiyatlarini o'rganish asosida belgilanadi.

Kiyim uchun materiallar assortimentini maqsadli rivojlantirish va shakllantirish maqsadida ularning ishlab chiqarishga kelib tushishini hisobga olishni tartibga solishda, sotish va iste'molda barcha materiallarni tasniflash uchun me'yoriy-texnik jihatidan hujjatlashtirish ishlab chiqilgan [19]. Umumrossiya mahsulot tasnifnomasida (UMT) qabul qilingan hisobga olish tasnifi universal hisoblanib, u ishlab chiqarishning ko'pgina sohalarida qo'llanishi mumkin. Unda barcha mahsulotni umuman, (shu jumladan, matolarni, trikotaj, noto'qima matolar va kiyim uchun boshqa materiallarni) toifalarga, kichik toifalarga, guruhlariga, kichik guruhlariga va o'nlik razryadidagi yagona kodli belgilash turlariga bo'lishning yagona tamoyili qo'llanilgan. Birinchi va ikkinchi daraja (razrayad)lar (raqamlar) toifani anglatadi, uchinchi – kichik toifani, to'rtinchi – guruhni, beshinchi – kichik guruhni, oltinchi – turni bildiradi. Oxirgi to'rtta razryad (yettinchi, sakkizinchi, to'qqizinchi, o'ninchi) mahsulotning tur ichidagi guruhlanishlar uchun qo'llanadi.

Maishiy maqsadlarga mo'ljallangan matolar va noto'qima matolar OKPda 83 toifaga kiritilgan. U o'z ichiga o'nta kichik toifalarni oladi.

1– paxtadan ishlangan matolar va donali buyumlar;

2 – zig'ir toladan ishlangan va kanoptola-jun qoplar;

- 3 – zig'ir tolali matolar;
- 4 – zig'ir tola turidagi matolar;
- 5 – jun matolar;
- 6 – jun turidagi matolar;
- 7 – ipak matolar (shtapelsiz);
- 8 – kimyoviy toladan ishlangan matolar;
- 9 – noto'qima matolar.

Paxta ipli matolar uchun umumiy kod (raqam) 831000; zig'ir tolali uchun – 833000; jun tolali uchun – 835000; ipak tolali uchun – 837000; noto'qima matolar uchun – 839000. Har bir kichik toifada to'qqizta guruh ajratilgan.

Paxta tolali matolar kichik toifasi quyidagi guruhlardan iborat:

- 1 – chitli, xom surpli (boz), satin;
- 2 – oqlama;
- 3 – ko'ylak uchun;
- 4 – kiyim uchun;
- 5 – tukli, choyshab va mebel-bezama (dekorativ);
- 6 – astarli tik gazlama, sochiq va ro'mollar uchun;
- 7 – dag'al, idish uchun, qadoqlash uchun va dokali;
- 8 – texnik.

Paxta tolali matolarni keyingi kichik guruhlarga ajratilganidan so'ng, quyidagi kod belgilari olinadi.

- 831110 – chit matolar;
- 831120 – xom surp(boz) matolar;
- 831130 – satin matolar;
- 831210 – maxsus oqlama matolar;
- 831220 – mitkal oqlama matolar;
- 831230 – maxsus oqlama matolar;
- 831310 – sovuq mavsumiy ko'ylaklik matolar;
- 831320 – yozgi ko'ylaklik matolar;
- 831330 – erkaklar ko'ylaklari uchun matolar (tungi ko'ylak matolari);

831340 – qishki ko'ylaklik matolar;
831350 – kompleks ipli ko'ylaklik matolar;
831410 – sidirg'a bo'yalgan kiyimlik matolar (plash va chodir matolaridan tashqari);
831420 – olabula to'qilgan kiyimlik matolar;
831450 – olachipor kiyimlik matolar;
831460 – maxsus kiyimlik matolar;
831470 – qishki kiyimlik matolar;
831510 – tukli matolar;
831520 – paxmoq choyshablar;
831530 – pike choyshablar;
831540 – mebel-bezama (dekorativ) matolar;
831610 – astarlik matolar;
831620 – korset matolar;
831630 – tukli matolar;
831640 – sochiq matolar (paxmoq ya'ni, patlilaridan tashqari);
831650 – patli matolar;
831660 – ro'mol matolari.

Kichik guruhlarda paxta ipli matolar ishlanmasining turi yoki ishlov berish uslubiga ko'ra tasniflanadi. Masalan, yozgi ko'ylaklik matolar kichik guruhida (83132) quyidagi turlar ajratilgan: shishirilgan va merserlangan; sidirg'a bo'yalgan; sidirg'a bo'yalgan va merserlangan; olabula to'qilgan; olabula to'qilgan va merserlangan; oqlangan; merserlangan va boshqa tegishlicha turlarning belgilanishi – 831321, 831322, 831323, 831324, 831325, 831326, 831327, 831328, 831329.

Boshqa kichik guruhlarda matolarni tur(xil)larga bo'lish(ajratish)ning taxminan shu tamoyiliga rioya etiladi.

To'qimachilik sohasidagi mahsulotning tarmoq tasnifnomasida (OKP) aniq turlar, modellar, artikullar, o'n razryadli (raqamli) kod bilan belgilanadi. Masalan, 8313130632 quyidagilarni belgilab beradi: 83 – tayyor va noto'qima matolar; 831 – paxta tolali matolar va donali tayyor buyumlar; 8313 – ko'ylaklik guruhidagi paxta

tolali tayyor matolar; 83131 – bahorgi-kuzgi mavsum kichik guruhining tayyor paxta ipli ko'ylak matolari guruhi; 831313 – bahorgi-kuzgi mavsum ko'ylaklik guruhi shishirilgan (to'ldirilgan) kichik guruhi paxta tolali ko'ylaklik tayyor matolar; 831313063 – «Teatr» merserlangan, shishirilgan, jakkard matosi, art. 1063; 8313130632 – «Teatr» merserlangan, shishirilgan, jakkard matosi, art. 1063 pishiq bo'yalgan B seriyasi.

Zig'ir tolali matolar kichik toifasida (833000) 8331 guruhiga ajratilgan bo'lib, unga zig'ir tolali ko'ylaklik-oqlama matolar kiritilgan. Bu kichik toifaga quyidagi kichik guruhlar mansub.

- 1 – jakkard;
- 2 – tor jakard va karetali;
- 3 – xolstlar (kanopmato) va silliq sochiqlar;
- 4 – tor oq va nim oq matolar;
- 5 – keng oq va nim oq matolar;
- 6 – maxsus bezaksiz (ishlanmasiz) kostyum-ko'ylaklik matolar;
- 7 – maxsus bezakli kostyum-ko'ylaklik matolar;
- 8 – yupqa dag'al matolar;
- 9 – aralash (olabula) to'qilgan matolar.

Tegishli ravishda quyidagi kichik guruhlar belgilanadi: 83311, 83312, 83313, 83314, 83315, 83316, 83317, 83318, 83319.

Zig'ir tolali matolarning keyingi turlarga bo'lish, xuddi paxta tolali matolar kabi ishlov berishning xususiyatiga ko'ra amalga oshiriladi.

Jun tolali matolar kichik toifasida (835000) quyidagi guruhlar ajratilgan:

- 1 – ko'ylaklik;
- 2 – kostyumlik;
- 3 – paltolik;
- 4 – drap, tukli;
- 5 – ro'mollik;
- 6 – maxsus;
- 7 – poyabzal.

Kichik guruhda jun tolali matolar qo'llanadigan tolalarining turi va ishlov berish usuliga bog'liq holda sof jun, yarim jun, kamvol (mayin jun), yupqa movut va dag'al movutlarga ajratiladi. Kichik guruhlar quyidagi farqlanadi:

- 83511 – sof jun tolali kamvol ko'ylaklik;
- 83515 – jun tolali yupqa movut ko'ylaklik;
- 83521 – sof jun tolali kamvol kostyumlik;
- 83522 – jun tolali kamvol kostyumlik;
- 83524 – sof jun tolali yupqa movut kostyumlik;
- 83525 – jun tolali yupqa movut kostyumlik;
- 83526 – jun tolali yupqa movut kostyumlik (sheviot);
- 83527 – yupqa jun tolali yupqa movut kostyumlik (movut);
- 82531 – sof jun tolali kamvol paltolik;
- 83532 – jun tolali kamvol paltolik;
- 83535 – sof juntolali yupqa movut kostyumlik (drap);
- 83536 – bir qatlamli (qavatli) jun tolali yupqa movut pal'tolik;
- 83535 – bir qatlamli jun tolali yupqa movut paltolik (drap);
- 83538 – sof jun tolali dag'al movutli paltolik;
- 83539 – juntolali dag'al movutli paltolik.

Ipak matolar kichik toifasida (837000) quyidagi guruhlar ajratiladi:

- 1 – ko'ylaklik, bluza va kostyumlik;
- 2 – erkak ko'ylaklik;
- 3 – korset;
- 4 – astar;
- 5 – tukli;
- 6 – bezakli (dekorativ);
- 7 – plashlik;
- 8 – texnik;
- 9 – boshqalar.

Tegishli ravishda quyidagi guruhlar belgilanadi: 8371, 8372, 8373, 8374, 8375, 8376, 8377, 8378, 8379.

Kichik guruhlarga bo'lish tabiiy ipakdan va kimyoviy iplardan ishlab chiqilgan matolarning xomashyo tarkibini hisobga olgan holda o'tkazilgan, kichik guruhlardagi turlar esa, matolarni ishlab chiqish yoki ishlov berishni hisobga olgan holda belgilangan (krep, silliq, jakkard va atlas). Masalan, ko'ylaklik, bluza va kostyum matolari guruhida: 83711 – tabiiy ipakdan; 83712 – sun'iy iplar aralashtirilgan tabiiy ipakdan; 83713 – kimyoviy va tabiiy tolalar bilan aralashtirilgan tabiiy ipakdan; 83714 – sun'iy iplardan; 83715 – paxta tolasi aralashtirilgan sun'iy iplardan; 83716 – kimyoviy tolasi aralashmali sun'iy iplardan; 83717 – sintetik iplardan; 83718 – sun'iy iplar aralashtirilgan sintetik iplardan; 83719 – kimyoviy tolalar aralashtirilgan sintetik iplardan.

Bu kichik guruhlardagi turlar ishlab chiqish yoki ishlov berish xususiyatlariga ko'ra belgilanadi. Chunonchi, tabiiy ipakdan ishlangan ko'ylaklik bluza va kostyumlik matolar kichik guruhida ikkita tur ajratiladi:

837111 – silliq (sidirg'a) bo'yalgan; 837112 – shishirilgan (to'ldirilgan).

Kimyoviy tolali tayyor matolar (838000) kichik toifada ajratilgan. Bunda matolarni guruhlarga bo'lish, maqsadni hisobga olgan holda o'tkazilgan:

- 1 – kostyumlik;
- 2 – ko'ylaklik;
- 3 – erkak ko'ylaklik;
- 4 – bezakli (dekorativ);
- 5 – astarlik;
- 6 – poyabzal uchun;
- 7 – plashlik;
- 8 – texnik.

Kichik guruhlarga bo'lish xomashyo alomati bo'yicha, turlarga bo'lish esa, sirtining (yuzasining) holatiga ko'ra amalga oshirilgan.

Maishiy maqsadlardagi noto'qima matolar kichik toifasi (839000) quyidagi guruhlarga bo'lingan:

- 1 – maishiy matolar;
- 2 – poyabzal uchun;

- 3 – artish uchun;
- 4 – idish va qadoqlash uchun;
- 5 – texnik.

Guruhlarda xomashyo belgilariga ko'ra kichik guruhlar ajratiladi: paxta tolali, zig'ir tolali, jun va ipak tolali matolar. Assortimentni keyingi turlarga bo'lish, ishlov berilishiga ko'ra quyidagicha amalga oshiriladi: dag'al, oqartirilgan, bosma rasimli, olabula to'qilgan, sidirg'a bo'yalgan va patli noto'qima gazlamalar alohida ajratilgan. Mahsulotning tarmoq tasnifnomasida ***to'qimachilik sanoati mahsulotlari*** 84-toifaga birlashtirilgan.

Trikotaj polotnolar (847000) kichik toifasi shartli belgili gazlamalar guruhini o'z ichiga oladi:

- 847100 – paxta tolali;
- 847200 – sof jun tolali;
- 847300 – sun'iy iplar va iplardan;
- 847400 – sintetik iplar va iplardan;

847500 – yarim jun tolali iplardan yoki tabiiy, sun'iy, sintetik tolali va sof jun yoki yarim jun tolali iplarning aralashmasidan;

847600 – tabiiy, sun'iy va sintetik tolalar aralashsidan paxtadan iborat bo'lgan tolali iplardan;

847700 – tabiiy, sintetik tolali va sun'iy tolalar aralashmasidan;

847800 – tabiiy, sun'iy va sintetik tolalar hamda sintetik tolalar aralashmasidan.

Guruhlar trikotaj sanoati korxonalarida qayta ishlanishiga ko'ra 847110 dan 847810 gacha kichik guruhlariga bo'linadi va boshqa sohalar korxonlari bo'yicha esa 847820 dan boshlab ajratiladi. Turlarga keyingi bo'linish to'qilishini hisobga olish bilan amalga oshiriladi:

- 847121 – silliq (kulir);
- 847122 – futerlangan (taralgan, titilgan);
- 847123 – ikki lastlik (inter lok);
- 847124 – yupqa lastlik;
- 847125 – to'qilgan asosli (vertel, rashel);

847127 – fangali (lastli, fangali va jakkardli).

Sun'iy trikotaj mo'ynasi 848000 kichik toifasiga kiradi va ikkita guruh bilan ifodalanadi: 848700 – tabiiy yoki sintetik tolalar (iplar) bilan aralashtirilgan sun'iy tolalar (iplar) aralashmasidan tayyorlangan mo'yna; 848800 – tabiiy, sun'iy, sintetik tolalar (iplar) bilan sintetik tolalar (iplar) aralashmasidan tayyorlangan mo'yna.

848700 guruhida astar (848712) sifatida foydalaniladigan matolar ajratilgan, o'yinchoqlar uchun – (848713), 848800 guruhida esa quyidagi matolar ajratiladi: 848811 – ustki buyumlar uchun; 848812 – astar uchun; 848813 – o'yinchoqlar uchun; 848814 – texnik maqsadlarda; 848815 – bosh kiyimlar uchun.

MTT (OKP) tikuvchilik sanoati mahsulotlari **85 – tikuvchilik mahsulotlari** toifasiga kiritilgan. Ushbu toifada quyidagi kichik toifalar belgilangan:

851000 – ustki kiyim;

852000 – kostyumlik buyumlar;

853000 – ko'ylaklik buyumlar;

854000 – oqlama buyumlar va choyshablar;

855000 – maxsus kiyimlari (harbiy va militsiya formalaridan tashqari);

856000 – bosh kiyimlar (futer va trikotajdan tashqari);

857000 – ishchilar uchun va maxsus maqsadlardagi buyumlar;

859000 – boshqa tikuvchilik buyumlari.

851000 toifasida ayrim turdagi tikuvchilik buyumlarini raqamlash quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

851061 – bolalar uchun aralash matolardan plashlar;

851065 – kattalar uchun paxta tolali matolardan kurtkalar;

851066 – bolalar uchun paxta tolali matolardan kurtkalar;

851082 – aralash matolardan palto, plash va kurtkalar;

851100 – palto va yarim (kalta) palto;

851108 – bolalar uchun jun matolardan palto;

851110 – paxta tolali matolardan palto va kalta palto:

851111 – erkaklar uchun;

851112 – ayollar uchun;

851114 – maktab yoshidagi qizlar uchun;

851116 – maktabgacha va yasli yoshidagi qizlar uchun.

851120 – trikotaj matodan palto va kalta palto:

851121 – erkaklar uchun;

851122 – ayollar uchun;

851123 – maktab yoshidagi o'g'il bolalar uchun;

851124 – maktab yoshidagi qiz bolalar uchun;

851126 – maktabgacha va yasli yoshidagi qizlar uchun;

851130 – zig'ir tolali matolardan palto va kalta palto:

851132 – ayollar uchun.

851140 – sun'iy charm(plyonkasiz)dan palto va kalta palto:

851141 – erkaklar uchun;

851142 – ayollar uchun;

851143 – maktab yoshidagi o'g'il bolalar uchun;

851144 – maktab yoshidagi qiz bolalar uchun;

851145 – maktabgacha va yasli yoshidagi o'g'il bolalar uchun;

851146 – maktabgacha va yasli yoshidagi qiz bolalar uchun.

851150 – jun matolardan palto va kalta palto:

851151 – erkaklar uchun;

851152 – ayollar uchun;

851153 – maktab yoshidagi o'g'il bolalar uchun;

851154 – maktab yoshidagi qiz bolalar uchun;

851155 – maktabgacha va yasli yoshidagi o'g'il bolalar uchun;

851156 – maktabgacha va yasli yoshidagi qiz bolalar uchun.

851160 – sun'iy mo'ynadan va sun'iy qorako'ldan palto va kalta palto:

851161 – erkaklar uchun;

851162 – ayollar uchun;

851163 – maktab yoshidagi o'g'il bolalar uchun;

851164 – maktab yoshidagi qiz bolalar uchun;

851165 – maktabgacha va yasli yoshidagi o'g'il bolalar uchun;

851166 – maktabgacha va yasli yoshidagi qiz bolalar uchun.

851170 – ipak matolardan palto va kalta palto:

851171 – erkaklar uchun;

851172 – ayollar uchun;

851173 – maktab yoshidagi o'g'il bolalar uchun;

851174 – maktab yoshidagi qiz bolalar uchun;

851175 – maktabgacha va yasli yoshidagi o'g'il bolalar uchun;

851176 – maktabgacha va yasli yoshidagi qiz bolalar uchun.

851180 – plyonkali materiallardan palto va kalta palto:

851181 – erkaklar uchun;

851182 – ayollar uchun;

851190 – noto'qima matolardan palto va kalta palto:

851191 – erkaklar uchun;

851192 – ayollar uchun;

851200 – plashlar (yopinchiqlar shu jumladan):

851201 – bolalar uchun:

851210 – paxta tolali matolardan:

851211 – erkaklar uchun;

851212 – ayollar uchun;

851213 – maktab yoshidagi o'g'il bolalar uchun;

851214 – maktab yoshidagi qiz bolalar uchun;

851215 – maktabgacha va bog'cha yoshidagi o'g'il bolalar uchun;

851216 – maktabgacha va bog'cha yoshidagi qiz bolalar uchun.

851250 – jun matolardan:

851251 – erkaklar uchun;

851252 – ayollar uchun;

851253 – maktab yoshidagi o'g'il bolalar uchun.

Charm-teri sanoati mahsulotlarini ham o'z ichiga oluvchi **86 toifada** kiyim-kechak materiallari 863400 guruhiga kiritilgan bo'lib, 863451 va 863452 raqamlari bilan belgilangan tabiiy boyitilgan yuzali cho'chqa terilaridan tayyorlanadigan xrom

teri ifodalangan, shuningdek, 863461 raqami bilan belgilangan suvga chidamli qoplamali qo'y terisidan tayyorlangan xromli charm ifodalangan. Yirik shoxli qoramol terilaridan tayyorlangan kiyim va bosh kiyimlari uchun ro'yxat (spilok) 864511 belgisi bilan 864000 kichik toifasida ifodalangan.

Sun'iy charm va plyonkali materiallar 87 toifasiga kiradi.

871000 kichik toifasiga quyidagi raqam belgilariga ega bo'lgan sun'iy yumshoq charmlar kiritilgan:

871033 – kiyim uchun vinilis charm;

871057 – ustki kiyim uchun ko'piklantirilgan polimerli sun'iy charm (asosi – mato yoki trikotaj).

871110, 871120, 871130, 871150 kichik guruhlariga tolali asosdagi sun'iy yumshoq terilar tegishli polivinilxloridli, kauchukli, lateks va yangi qoplamali poliefiruret kiritiladi.

871200 guruhiga tolali tikilgan asosdagi sun'iy yumshoq tolalar kiritilgan, 871210, 871240, 871250 va 871280 kichik guruhlarda ular tegishli polivinilxloridli, poliamidli, poliuretanli va polivenilelast qoplamali charmlarga bo'linadi.

871300 guruhiga mato asosli yumshoq sun'iy charmlar kiritilgan. 871310, 871320, 871350 kichik guruhlariga tegishli polivinilxlorid, kauchuk va poliefiruretan qoplamali mato asosdagi sun'iy charmlar kiritilgan.

871410, 871430, 871450 kichik guruhlariga tegishli polivinilxlorid, lateks va poliefiruretan qoplamali, trikotaj asosli yumshoq sun'iy charmlar kiritilgan.

872000 kichik toifasiga quyidagi materiallar kiritilgan:

872113 – quyidagi raqam belgisi bilan plyonkali polivinilxlorid kiyim materiallari;

872508 –plashlik materiallar;

872518 – rezinalangan bir taraflama materiallar;

872528 – rezinalangan ikki tomonlama materiallar;

872538 – plyonka qoplamali, rezinalangan ikki tomonlama materiallar.

Porolonli jamlanma kiyim materiallari 872613 raqam belgisi bilan, 872600 guruhiga kiradi.

8728000 guruhida sun'iy barra va qorako'l mo'ynasi birlashtirilgan.

89 toifa mo'yna sanoati mahsulotlarini o'z ichiga oladi: ishlov berilgan terilar va buyumlar (kiyim-kechak va bosh kiyimlar, mo'ynali va qo'yteri-shuba, shu jumladan, usti charm hamda matoli yoki charm va matodan kombinatsiyalangan kiyimlar, yoqalar, mo'yna plastinalar, ayollarning mo'ynali buyumlari, qo'lqoplar, teri bo'laklari, qiyqimlar).

Predmet ixtisoslashuvi belgilariga ko'ra, 89 toifa quyidagi kichik toifalarga bo'linadi (uchinchi toifa raqamli):

891000 – ishlov berilgan terilar (par-mo'ynali chala tayyor buyumlar);

892000 – mo'ynali va qo'yteri-shuba ustki kiyimi;

893000 – mo'ynali bosh kiyimlar;

894000 – yoqalar, mo'ynalar, bichilmalar, plastinalar, ayollarning mo'yna buyumlari;

895000 – mo'ynali va qo'yteri-shuba qo'lqoplari (perchatki i rukavitsi);

896000 – mo'ynali va qo'yteri mo'ynali boshqa buyumlar;

897000 – teri bo'laklari, qiyqimlar.

To'rtinchi raqam toifasi guruhni anglatadi va (891 kichik toifasi uchun) tovarshunoslikda qabul qilingan xususiyatlarga ko'ra, tur (xil) belgilarini ochib beradi: zoologik, ovlash mavsumi, yashash joylari (qishki mo'ynali hayvonlar turlari, dengiz hayvonlarining terilari va boshqalar) yoki (892000, 894000 – 896000 kichik toifalari uchun) buyumlarning yiriklashtirilgan belgilarini ko'rsatadi (ochib beradi), (pal'tolar), kurtkalar, bosh kiyimlar, qo'lqoplar va boshqalar.

Beshinchi raqam toifasi (891000 kichik toifasi uchun) turni anglatadi, terilarning turlari bo'yicha mahsulotlarni ko'rsatadi va aniqlashtiradi. Yoki (892000 – 896000 kichik toifalar uchun) buyum turlarining jins-yoshga taalluqliligi alomatlarini (belgilarini) aks ettiradi (1 – erkaklar uchun, 2 – ayollar uchun, 3 – o'smirlar uchun, 4 – bolalar uchun) yoki (897000 kichik toifasi uchun) assortimentning turlari bo'yicha keyingi aniqlashtirish, belgilarini ko'rsatadi.

Oltinchi raqam toifasi (891000 kichik toifasi uchun) turni ko'rsatadi, terilarning turlari bo'yicha mahsulotni ochib beradi va aniqlashtiradi (mayin junli mo'ynali

qo'yterisi, qutb oq tulkisi, yosh shimol bug'usining mo'ynasi va boshqalar) yoki (892000–896000 kichik toifalar uchun) buyumning tayyorlanish, tuzilish xususiyatlari va ustki materialini ko'rsatadi yoki (897000 kichik toifasi uchun) bo'laklarning teri turlariga taalluqliligi (mansubligi) belgisini ko'rsatadi.

1.4. Materiallarning standartlar bo'yicha tasniflanishi. Mahsulot sifat ko'rsatkichlari bo'yicha davlat standartlariga muvofiq, barcha **matolar** assortimenti qo'llanadigan xomashyoning turi va sifatiga ko'ra, maqsadi (mo'ljallanganligi), tuzilishi, ishlab chiqarish usuli, asosiy va qo'shimcha ishlov berish turi, to'qimasiga ko'ra ajratiladi.

Matolar quyidagicha ajratiladi:

- xomashyoning turi – paxta, zig'ir, jun va ipak tolali;
- ip tuzilishi – karda tarokli apparat tizimida yigirilgan, iplar pnevmo-mexanik ipyigirish mashinalarining iplari va boshqalar;
- maqsadiga ko'ra – oqlama, ko'ylaklik, kostyumlik, paltolik va boshqalar;
- ishlab chiqarish usuli va asosiy ishlov berish turiga ko'ra – dag'al, sidirg'a bo'yalgan, olabula to'qilgan, bosma rasmlil va boshqalar;
- qo'shimcha ishlov berilish turiga ko'ra, metallangan matolar va boshqalar;
- buklanmaydigan, tamg'alab bosilgan appreturalangan (oxirgi ishlov berilgan), gofrlangan (buklama), kam kirishadigan;
- to'qilishiga ko'ra oddiy, mayda naqshli, jakkard va murakkab.

Mazkur tasnifdagi matoning maqsadi, asosiy belgilardan bo'lib xizmat qiladi. Chunki muayyan maqsaddagi matolar, umumiy talablarga muvofiq ishlab chiqilishi va sifatning aniq bir muayyan ko'rsatkichlariga ega bo'lishi lozim.

Davlat standartlariga muvofiq ravishda, maqsadiga ko'ra, paxta tolali matolar oqlama, ko'ylaklik, kiyimlik, sochiqlik, ro'mollik, choyshablik astarlik, qistirma, mebel-bezakli turlarga bo'linadi; zig'ir tolali matolar – oshxona uchun, oqlama, sochiqli, kiyimlik, bezakli, ro'zg'orbop bezatilgan; jun matolar – ko'ylaklik, kostyumlik, paltolik (shu jumladan draplar), choyshab, yopinchiq ro'mol, avra choyshab, ro'mol, sharf, dasturxon, astarlik; ipak matolar – ro'mol, oqlama (ichkiyim) va korset, erkak ko'ylak, mebel-bezakli va pardalik, astarlik, tukli,

plashlik, kurtka, to'shakbop, zontbop, attorlik, bo'yinbog'bop va choyshablik; kimyoviy tolali matolar – erkak ko'ylaklik, ko'ylak va kostyum-ko'ylak, kostyum, jinsi, plashlik, mebel, darpardalik, gilam, avra choyshab hamda dasturxonlar, boshga o'raladigan ro'mol va sharflar; noto'qima tolalar – kiyim-kechak uchun, poyabzalbop, sochiqbop, bezakli, qistirmabop, to'qimachilik-attorlik, choyshab, qalin ro'mol, salfetka, yerga to'shaydigan to'shamalar kabi turlarga bo'linadi. Kiyim uchun noto'qima matolar o'z navbatida, ko'ylak-kostyumlik, bluza-erkak ko'ylaklik, sport va plyaj kiyimlari butlamasi uchun, bolalar ichki kiyimi uchun, qistirma (ignalanadigan va yelimlangan), issiq (vatin, isituvchi, yelimlangan, hajmli gazlamalar), qistirmabop(mo'yna).

Barcha *trikotaj buyumlar* maqsadiga ko'ra, qo'llanadigan xomashyo turi, buyumni tayyorlash uslubi, buyumni ziynatlash yoki ishlov berish uslubini hisobga olgan holda guruhlanadi. Trikotaj buyumlar maqsadiga ko'ra quyidagicha ajratiladi:

- ustki kiyimlar – jemperlar, sviter, pidjak, ko'ylak-palto, ko'ylak, kostyum, sarafan, bluza, xalat, yubka, reytuzalar, shortlar va boshqalar;

- oqlamalar – fufayka, kalson, pantalon, trusiklar, pijamalar, kombinatsiyalar, mayka, cho'milish kostyumi, penyuar, erkaklar ko'yagi, raspashonka, polzunkalar va boshqalar;

- paypoq-noski – paypoqlar, polzunkalar, podsledniklar va boshqalar;

- qo'lqopbop– qo'lqoplar, varejkalar;

- bosh kiyimlar va sharflar – qalpoqlar, ro'mollar, sharf, palantinlar.

Qo'llanadigan xomashyo turiga ko'ra – paxta ipli, junli, aralash tolalardan, kimyoviy tolalardan, sintetik, sun'iy iplarning turli aralashmalaridan.

Buyumning trikotaj to'qilishi tuzilmasiga ko'ra – bittalik va qo'sh kulir; bittalik va qo'sh to'qilgan asos to'qimali;

Buyumni tayyorlash uslubiga ko'ra – muntazam va yarim muntazam to'qilgan; trikotaj matolardan bichilgan; trikotaj polotnodan to'qilgan hamda bichilgan bo'laklardan kombinatsiyalangan, shuningdek, boshqa turdagi materiallarni qo'llagan holda (charm, baxmalsimon charm, mato va boshqalar);

Buyumni bezaklash yoki ishlov berish uslubiga ko'ra – oqlangan (oqlama); bo'yalgan (gazlamada, buyumlarda yoki bo'yalgan, iplardan) shishirilgan (to'ldirilgan); zamshga o'xshatib ishlangan bosma naqshli, taralgan (titilgan), shakl berilgan; barqarorlashtirilgan; maxsus ishlov berilgan va boshqalar.

Sun'iy mo'yna davlat standartlariga muvofiq quyidagi turlarga bo'linadi:

- maqsadiga ko'ra – kiyim, bosh kiyimlar va bezaklash, kiyimning astari uchun, poyabzalning tagligi, bezakli buyumlar va o'yinchoqlar uchun;

- qo'llanadigan xomashyoning turi bo'yicha – sun'iy tola aralashmali sintetik tolalardan, kimyoviy tola aralashmali sof tolalardan, tabiiy tolalardan;

- mo'yna tolalarining uzunligi va ingichkaligini hisobga olgan holda, tukining tuzilishiga ko'ra – bir xilli hamda ko'p xilli turlarga ajratiladi;

- mo'ynaning tashqi ko'rinishi va ishlov berish (ziynatlash) uslubiga ko'ra – silliq, rang-barang to'qilgan, jakkard, tuki qirqilgan, tuki qirqilmagan, tukiga qo'y terisiga o'xshatib ishlov berilgan, bosma naqshli, rasmlı o'rilgan va tuki fasonli qirqilgan.

1.5. Materiallarning preyskurantlar bo'yicha tasnifi. Kiyim uchun materiallarning asosiy turlari, ularning qisqa tavsifi ko'rsatilgan holda, davlat standartlarida berilgan. Ishlov beriladigan har bir turga texnik ta'rif (TT) ishlab chiqiladi. Unda aniq bir mahsulotning tuzilish ko'rsatkichlari miqdori va asosiy xususiyatlari berilishi lozim. Kiyim uchun materiallarga shartnoma (erkin) narxlar joriy etilishiga qadar, shartli ravishda savdo yoki preyskurant narxlar mavjud bo'lib, bu tasniflanish quyidagilardan iborat edi.

Kiyim uchun materiallarning preyskurant tasnifi ularning maqsadi, ishlov berish uslubi, xomashyo tarkibi, ishlab chiqarishning umumiy hajmidagi ishlov berish usulini hisobga olgan holda, ularni ajratishni ko'zda tutgan. Texnik shartlarga muvofiq ishlov berilgan va bir-biridan hech bo'lmasa tuzilishining ko'rsatkichlariga yoki xossalriga ko'ra bir-biridan farqlanuvchi matoning, trikotaj yoki noto'qima matoning har bir turiga, charm va mo'ynaga (iplarning chiziqli zichligi, uzunasiga va ko'ndalang yo'nalishlardagi har 10 smdagi iplar soniga, yuza zichligi, kengligiga,

ishlov berilishiga, tashqi ko'rinishining bezalishiga hamda boshqa ko'rsatkichlariga ko'ra) artikul deb nomlangan shartli belgilash joriy etilgan.

Paxta ipli matolar artikuli ikki, uch yoki to'rtta sonidan iborat raqamlar bilan belgilangan bo'lib, u matoning preyskurant bo'yicha tartib raqamini anglatadi.

Paxta ipli matolar quyidagi guruhlariga ajratilgan: 1-chit; 2-xom surp; 3-oqlama (kichik guruhlar: xomsurp, mitkal, maxsus); 4-satin (kichik guruhlar: satinlar, kard lastiklar, satinlar va titilgan (taralgan) hamda chala titilgan lastiklar); 5-ko'ylakbop (kichik guruhlar: bahorgi-kuzgi, yozgi, qishki; kompleks ipli matolar); 6-kiyimlik (kichik guruhlar: sidirg'a bo'yalgan, maxsus, melanj va aralash to'qilgan, qishki); 7-astarbop; 8-tik gazlama; 9-tukli; 10-ro'molbop; 11-sochiqbop; 12-dag'al matolar; 13-mebel bezakli; 14-choybashbop (kichik guruhlar: paxmoq choyshablar, yozgi choyshablar); 15-idishlar uchun va qadoqlar uchun matolar; 16-doka va doka buyumlar; 17-texnik matolar.

Zig'ir tolali matolar preyskurantga muvofiq 16 guruhga ajratilgan. Maishiy maqsadlardagi asosiy matolar birinchi o'nta guruhda jamlangan: 01-keng jakkard; 02-jakkard va tor kareta; 03-kanopmato va sidirg'a (silliq) sochiqlar; 04-tor oq va nim oq gazlamalar; 05-keng oq va nim oq matolar; 06-kostyum-ko'ylakbop; 07-dag'al yupqa matolar; 08-aralash to'qilgan matolar; 09-xom dag'al matolar; 10-bortovkalar.

Ushbu guruhlarining har biri ikkita kichik guruhlariga bo'lingan, ulardan biriga sof zig'ir matolar kiritilgan, boshqasiga esa yarim zig'ir ipli matolar kiritilgan.

Zig'ir matolar artikuli beshta raqam bilan ifodalangan. Artikulning birinchi ikkita raqami, mato guruhining raqamiga muvofiq (01-16), uchinchi raqam xomashyo tarkibi va matoning kichik guruhini anglatadi: 1 raqami sof zig'ir ipli matolarga muvofiq, 2 raqami – yarim zig'ir tolali va aralash matolarga muvofiq bo'lgan. Artikulning 4 va 5 raqamlari, artikulning preyskurantdagi tartib raqamini ko'rsatadi.

Jun matolar preyskurantga muvofiq ravishda, ishlab chiqarish usuli va xomashyo tarkibini hisobga olgan holda oltita guruhga ajratilgan: 1 – mayin sof junli; 2 – mayin yarim junli; 3 – yupqa movutli sof junli; 4 – yupqa movutli yarim junli; 5 – dag'al movutli sof junli; 6 – dag'al movutli yarim junli.

Matolar guruhlari ishlatiladigan iplarning maqsadi va turini hisobga olgan holda, kichik guruhlarga bo'lingan. Quyidagi kichik guruhlar ajratilgan: 1 – ko'ylakbop (1–4 guruhlar uchun); 2 – kostyumbop silliq bo'yalgan (1, 2 va 4 guruhlar uchun); 3 – aralash to'qilgan va fasonli kostyumbop (1–4 guruhlar uchun); 4 – movutlar (3–6 guruhlar uchun); 5 – paltobop (1–6 guruhlar uchun); 6 – draplar (3–6 guruhlar uchun); 7 – tukli (5–6 guruhlar uchun); 8 – choyshab (odeyalo)lar (4–6 guruhlar uchun); 9 – maxsus (1–6 guruhlar uchun).

Jun mato artikuli to'rt yoki beshta sonli raqamlar bilan belgilangan. Artikulning dastlabki ikkita raqami, ya'ni birinchi raqam matoning guruhini ko'rsatadi va 1 dan 6 gacha o'zgaradi, bunda sof jun matolar uchun toq sonlar qo'llaniladi (1, 3, 5), yarimjunli matolar uchun esa, juft sonlar qo'llaniladi. Artikulning ikkinchi raqami matolarning kichik guruhini ko'rsatadi va 1 dan 9 gacha bo'ladi.

Ipak matolar preyskurantga muvofiq, xomashyo tarkibi va ishlatiladigan iplarni hisobga olgan holda sakkizta guruhga bo'linadi: 1 – tabiiy ipakdan; 2 – boshqa tolalar bilan aralash tabiiy ipakdan; 3 – sun'iy iplardan; 4 – boshqa tolalar bilan aralash sun'iy iplardan; 5 – sintetik iplardan; 6 – boshqa tolalar bilan aralash sintetik iplardan; 7 – sun'iy toladan yoki uning boshqa tolalar bilan aralashmasidan; 8 – sintetik toladan yoki uning boshqa tolalar bilan aralashmasidan. Guruhlar matoning tuzilishi, buyumning maqsadi va shakliga ko'ra tuzilgan yettita kichik guruhga bo'linadi: 1 – krep (1–4 guruhlar uchun); 2 – tagdo'zibop (1–8 guruhlar uchun); 3 – jakkard (1–4 va 6 guruhlar uchun); 4 – tukli (2, 4, 6 va 8 guruhlar uchun); 5 – maxsus maqsadlarga mo'ljallangan (3–7 guruhlar uchun); 6 – texnik; 7 – donali buyumlar (3, 4, 6 va 8 guruhlar uchun).

Ipak mato artikuli beshta sonli raqam bilan belgilanadi. Birinchi raqam matoning guruhiga muvofiqligini, ikkinchisi – kichik guruhga, oxirgi uchta son artikulning tartib raqamini anglatadi.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, preyskurant tasnifida barcha matolarni guruhlarga va kichik guruhlarga bo'lishning yagona belgisi bo'lmagan; maqsad bilan bir qatorda, mavsumiylik, tuzilish xossalari, ishlov berish va boshqalar kabi belgi-alamatlar qo'llaniladi.

Barcha noto'qima matolar, ularning xomashyo tarkibini hisobga olgan holda to'rtta toifa(klass)ga bo'linadi:

- 1 – paxta ipli (paxta-viskoza);
- 2 – yarim junli (aralash junli);
- 3 – ipak (kimyoviy tola va iplardan);
- 4 – zig'ir ipli.

Har bir toifada guruhlar matolarning tuzilishi, ularni olish uslubini hisobga olgan holda ajratilgan. Bunda mato turidagi noto'qima gazlamalar ajratilib, ishlov berish turiga ko'ra quyidagi matolar guruhlari ularning sirasiga kiritilgan:

- 1 – kanoptikma;
- 2 – iptikma;
- 3 – mato tikma;
- 4 – igna tikma;
- 5 – yelimli;

6 – kombinatsiyalangan va vatinlar, quyidagi guruhlar ularning sirasiga kiritilgan:

- 7 – kanoptikma;
- 8 – igna teshilmali.

Noto'qima matolarning mo'ljallanish maqsadini hisobga olgan holda, guruhlar quyidagi kichik guruhlarga ajratilgan:

- 1 – maishiy;
- 2 – artish uchun, idish uchun, qadoqlash uchun;
- 3 – poyabzalbop;
- 4 – sun'iy charm uchun asoslar;
- 5 – qistirmabop, filtrlagich, mebel uchun;
- 6 – isitish uchun mo'ljallangan.

Noto'qima to'qimachilik matolarning artikuli oltita sonli raqam bilan belgilanadi. Birinchi raqam to'qimachilik buyumining turini ko'rsatadi va doim 9 raqami bilan ifodalangan. Artikulning ikkinchi raqami tola tarkibini bildiradi va tasnifning raqamiga muvofiq keladi (1, 2, 3, 4), uchinchi – olish uslubini ko'rsatgan

hamda guruhga muvofiq keladi (1 dan 8 gacha o'zgargan), to'rtinchi raqam kichik guruhni va mato maqsadini anglatadi (1 dan 6 gacha), keyingi sonlar artikulning preyskurantdagi joylashuvining tartib raqamini anglatadi.

Trikotaj matolarning tasnifi, mato artikulini anglatgan holda [3] preyskurantda qayd etib qo'yilgan. Artikul kimyo-texnologik ishlov berish va ishlovning alohida turlari uchun qo'yilma(chegirma)larni aks ettiruvchi harfiy belgilarni qo'shgan holda, o'n ikkita sonli raqam bilan belgilanadi.

Sun'iy mo'ynaning artikuli ham mazmun qiymatiga ega bo'ladi. Uning birinchi raqami (9) to'qimachilik materiali turini ko'rsatgan, ikkinchisi – sun'iy mo'ynani olish uslubini anglatadi (1 – trikotaj, 2 – to'qima, 3 – yelimli); artikulning keyingi raqamlari sun'iy mo'ynaning preyskurantdagi joylashuvining tartib raqamini belgilab beradi.

Tabiiy charm artikulida birinchi raqam mo'ljallanish maqsadini anglatadi (9 – kiyimliklar guruhi), ikkinchisi – xomashyo turi (3 – cho'chqa, 7 – qo'y), uchinchisi – oshlash uslubi (2 – xromlangan), to'rtinchisi – charmning shakli (1 – butun), beshinchi va oltinchi – charmning preyskurantdagi tartib raqamini bildiradi.

Preyskurant tasniflash, yaqin vaqtlargacha materialni yetkazib berish uchun buyurtmalarni rasmiylashtirish, buyum tayyorlash uchun materiallarni tanlash maqsadlarida sanoatda keng qo'llangan. Ammo materiallarning preyskurantlarda qabul qilingan bo'linishini tasnif deb hisoblash ham mumkin emas edi. Chunki, ularda matolarni, noto'qima va trikotaj matolarni hamda boshqa matolarni guruhlariga, kichik guruhlariga ajratish uchun yagona yondashuv yo'q edi.

Materiallarning tuzilishini va xomashyo tarkibini aks ettirmaydigan materiallar artikulini belgilashning yangi tizimi. Yangi artikul «S» harfini o'z tarkibiga olib – u «erkin narx»ni, undan keyin esa, mazkur korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotning tartib raqamini ko'rsatuvchi son qo'yiladi hamda korxona nomini ko'rsatuvchi harf va raqamlar jamlanmasi qo'yiladi. Masalan, «Snegopad» kamvol ko'ylakbop matosining artikuli S – ON – 5 – 15 AYA/100; paxta ipli mato art. S – 12ME. Shartli belgi faqat bolalar assortimenti va harbiy maqsadlardagi matolar uchun

haqiqiylikicha qoldiriladi. Bularning barchasi shubhasiz, kiyim uchun materiallarni konfeksiyalashni qiyinlashtiradi.

Shunday qilib, OKPda va davlat standartlarida maishiy kiyim uchun materiallarda «maqsad» alomati (belgisi) amalda hal etuvchi hisoblanmaydi.

Har xil turdagi ko'ylakbop materiallarni konfeksiyalashda, tikuvchilik buyumlarini loyihalashda, ishlab chiqarishni modellashtirish bosqichlarini tayyorlashda, tikuvchilik va trikotaj buyumlarning konstruksiyalarini ishlab chiqish va tayyorlashda materiallarni ularning asosiy foydalanish belgisi – maqsadiga ko'ra tasniflash bir qadar maqsadga muvofiqdir.

Tarmoqlararo tasnifni ishlab chiqish uchun Rossiya tikuvchilik sanoati Markaziy ilmiy tadqiqot instituti tomonidan barcha maishiy to'qimachilik materiallarini hisobga olgan holda, uchta toifaga ajratish taklif etildi:

- kiyimbop (maishiy maqsadlarga mo'ljallangan materiallar);
- mebel-bezakli;
- maxsus (poyabzalbop, to'qimachilik-galantereya).

Toifalarni kichik toifalarga va guruhlariga bo'lish, materiallarni buyumlarning ijtimoiy maqsadiga muvofiq, aniq turi uchun torroq ko'lamda qo'llashni hisobga oladi, bu quyida ko'rsatib o'tilgan (1.1-jadval).

1.1-jadval

To'qimachilik materiallarni maqsadiga ko'ra tasniflash

Kichik toifa	Guruh
1	2
Kiyimbop	
Oqlama ichki kiyimbop	– Bolalar ichki kiyimi uchun – Xotin-qizlar ichki kiyimi uchun – Erkaklar ichki kiyimi uchun – Sport ichki kiyimi uchun
1	2

Erkaklar ko'ylagi	– Bluzkabop – Erkaklar ko'ylagi uchun
Ko'ylak-kostyumbop	– Ayollar ko'ylaklari uchun – Bolalar ko'ylaklari uchun – Bolalar ustki kiyimi uchun – Ayollar ko'ylaklari va kostyumlari uchun – Erkaklar kostyumlari uchun – Pidgejaklar uchun
Plashliklar	– Plash va kurtkalar uchun
Paltoliklar	– Bahorgi-kuzgi palto buyumlari uchun – Qishki palto buyumlari uchun – Barcha mavsumlarga palto buyumlari uchun
Astarliklar	– Cho'ntaklar uchun – Buyumlarning astarlari va englari uchun
Astarliklar	– Ko'ylaklar uchun, shu jumladan erkaklar – Ko'ylaklari va bluzalar uchun
Bosh kiyimlar uchun	– Yozgi bosh kiyimlar uchun – Bahorgi-kuzgi bosh kiyimlar uchun – Qishki bosh kiyimlar uchun
Paypoq-noski va qo'lqop	– Paypoq-noskibop – Qo'lqopbop
<i>Mebel-bezakli</i>	
Mebelbop	– Qoplama uchun – To'shak-g'ilofbop – Ichki jildbop
1	2

Bezakbop	– Gardin-to'rlari – Porter(parda)bop – Pardabop(shu jumladan, devor gilamlari) va gobelenlar – Polga tashlanadigan to'shamalar (shu jumladan polga yoziladigan gilamlar)
O'rinbopoqlamalar	– Prostinalar uchun – Choyshab jildlari va yostiqjildlar uchun – Sochiqbop
Oshxona uchun oqlamalar	– Dasturxonbop – Sochiqbop
Choyshablar uchun	– Yozgi choyshablar uchun – Qishki choyshablar uchun, shu jumladan qalin jun
Ro'molbop	
Maxsus	
Poyabzalbop	– Usti poyabzal uchun – Poyabzal tagligi uchun
To'qimachilik-galantereya	– Bo'yinbog'lar uchun – Boshqa galantereya buyumlari uchun – Bayroqlar uchun
Marosimlar uchun	– Marosim xizmatlari uchun

Maishiy kiyimlar uchun materiallar tasnifi aniq bir buyum uchun materiallarni konfeksiyalashga ilmiy asoslangan holda yondashishga, materiallardan maqbul foydalanish bo'yicha tavsiyalar berishga, kiyim uchun barcha materiallarning asosiy iste'mol xususiyatlarining me'yoriy ko'rsatkichlarini o'rnatishga imkon beradi.

Tasniflash bir xil maqsaddagi materiallar asosiy xossalarining ko'rsatkichlari bo'yicha xom ashyo tarkibi, tuzilishidan qat'iy nazar, bir-biriga o'xshash bo'lishi lozimligini ko'zda tutadi.

Taklif etilgan materiallar tasnifida maqsadiga ko'ra, oltita darajadagi tasniflashlar mavjud (1.2-jadval).

1.2-jadval

Materiallarni maqsadi bo'yicha tasniflash

Tasniflash darajasi	Mazmuni
1	2
Toifasi (klass)	Maishiy maqsadlardagi kiyim uchun materiallar
Kichik toifa	Kiyimlarni turli xillari uchun materiallarni maqsadi bo'yicha:
	paltobop, plashbop, kostyumbop, ko'ylakbop
	oqlama, yordamchi materiallar (astarbop, isitish uchun, qistirma, ishlov berish uchun)
Guruh	Ishlab chiqarish uslubi bo'yicha materialning turi: mato, trikotaj gazlama, noto'qima mato, kompleks materiallar, sun'iy mo'yna, sun'iy charm va zamsh, yelimlanadigan ip, yelimlanadigan to'r

1	2
Kichik guruh	Materiallarning tolaviy tarkibi
Kiyim turi	Mavsumiy belgilari bo'yicha: qishki, bahor- kuzgi, yozgi
Kiyimning kichik turi	Jins-yosh belgilari bo'yicha: erkaklar uchun, ayollar uchun, bolalar uchun

Bayon qilingan tasnif tabiiy charm va zamshdan boshqa barcha turdagi materiallarga joriy etiladi.

Kiyim-galantereya charmlari to'rtinchi toifaga tegishli bo'lib, uning doirasida maqsadiga ko'ra guruhlariga va turlarga bo'linadi:

I guruh – kiyim uchun charmlar; II guruh – galantereya charmlari, turlar uchun esa – texnologik va xomashyo belgilari bo'yicha (xomashyo turlari, oshlash turlari, ishlov berish uslubi va xususiyati, shakli (konfiguratsiya) va boshqalar).

1.6. Mahsulotlarni shtrix kodlar bilan raqamlash. 1977-yildan boshlab tovar mahsulotlarini avtomat ravishda identifikatsiyalash uchun mo'ljallangan, tovarlarni shtrix kodlari bilan (shtrixkodlar) raqamlash (kodlash) xalqaro tizimi keng qo'llana boshladi.

Shtrix kod – grafik (chizma) shartli tasvir bo'lib, turli qalinlikdagi vertikal (tik) shtrixlar(chiziqlar)dan tarkib topgan bo'lib, tovarlarni avtomat ravishda identifikatsiyalash uchun mo'ljallangan. Shtrix kod tovar (mahsulot) haqida avtomat ravishda axborot beruvchi maxsus qurilma vositasida o'qiladi, bu korxonalarga avtomat rejim(tartib)da mahsulotni hisobga olish, omborga joylashtirish, inventarizatsiya qilish va boshqa ishlarni bajarish imkonini beradi (1.3-jadval). Shtrix kodlar yorliqlarga va etiketkalarga tushirilishi mumkin.

**Ayrim davlatlarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotga shtrix kodlar qo'yish
uchun kodlar**

Shtrix kod	Davlatlar	Shtrix kod	Davlatlar
1	2	3	4
00-09	AQSH va Kanada	54	Belgiya va Lyuksemburg
30-37	Frantsiya	560	Portugaliya
380	Bolgariya	57	Daniya
383	Sloveniya	590	Polsha
385	Xorvatiya	899	Vengriya
400-440	Germaniya	64	Finlyandiya
460-469	Rossiya va MDH	690	Xitoy
47	Estoniya	729	Isroil
471	Tayvan	73	Shvetsiya
475	Latviya	76	Shveytsariya
477	Litva	789	Braziliya
482	Ukraina	80-83	Italiya
484	Moldova	84	Ispaniya
489	Gonkong	858	Slovakiya
45 va 49	Yaponiya	859	Chexiya
50	Buyuk Britaniya	869	Turkiya
520	Gretsiya	87	Niderlandiya
529	Kipr	890	Hindiston
539	Irlandiya	90-91	Avstriya

Mahsulotlar kodida mamlakatlarning harf bilan (harfli) belgilanishi

Belgisi	Davlat	Belgisi	Davlat	Belgisi	Davlat	Belgisi	Davlat
A	Avstriya	EC	Ekvador	LV	Latviya	RSM	San-Marino
AL	Albaniya	ET	Misr	M	Mal'ta	RUS	Rossiya
AND	Andorra	EW	Estoniya	MA	Marokko	S	Shvetsiya
AUS	Avstraliya	F	Frantsiya	MC	Monako	SF	Finlandiya
BU	Belorussiya	FL	Lixtenshteyn	MEX	Meksika	SLO	Sloveniya
B	Belgiya	GB	Buyuk Britaniya	N	Norvegiya	SR	Slovakiya
BG	Bolgariya	GR	Gretsiya	NL	Niderlandiya	SYR	Suriya
BR	Braziliya	H	Vengriya	P	Portugaliya	T	Tailand
C	Kuba	I	Italiya	PA	Panama	TJ	Xitoy
CDN	Kanada	IL	Isroil	PE	Peru	TR	Turkiya

CH	Shveysariya	IND	Hindiston	PK	Pokiston	UA	Ukraina
CO	Kolumbiya	IR	Eron	PL	Polsha	USA	AQSH
CZ	Chexiya	IRL	Irlandiya	PY	Paragvay	V	Vatikan
CRO	Xorvatiya	IRQ	Iroq	R	Rumniya	YU	Yugos-laviya
CY	Kipr	IS	Islandiya	RA	Argentina	ZA	JAR
D	Germaniya	J	Yaponiya	RC	Tayvan	CC	Konsullik korpusi
DK	Daniya	L	Lyuksemburg	RCH	Chili	CD	Diploma-tik korpus
E	Ispaniya	LT	Litva	RP	Filippin		

Shtrix kodning raqamli qatori 13 ta sondan iborat (Evropa kodlash tizimi – EANga muvofiq). EAN-13 (GOST R51201 – 98)da dastlabki ikkita yoki uchta raqam milliy tashkilotni anglatadi – korxona ro'yxatga olingan joy (mamlakat kodi); keyingi to'rtta yoki beshta raqam korxonaning milliy tashkilot ichidagi ro'yxatga olish raqami(kod)ini anglatadi, keyingi beshta raqam esa, mahsulotning korxona ichidagi tartib raqamini (tovar kodini) anglatadi. Kodning eng oxirgi raqami – kodning to'g'riligini tekshirish uchun nazorat raqamidir (nazorat razryadi, ya'ni toifasi).

Tovarlarni shtrix kodlari bilan raqamlash uchun kod har bir mamlakatga EAN UYUSHMASI tomonidan markazlashtirilgan holda taqdim etiladi. Ayrim mamlakatlarga kodlarning diapazoni ajratib berilgan, misol uchun, AQSH va Kanada 00-90, Frantsiyaga 30-37, Italiyaga 80-83 berilgan. Boshqa mamlakatlarga mamlakat kodini uchinchi toifada mufassallashtirish imkoniyati yaratib berilgan. Masalan, Rossiya va MDH mamlakatlarining kodi 460-469 diapozonda tavsiflanishi mumkin. Bir qancha mamlakatlarga bir yo'la uch toifali kodlar ajratilgan. Masalan, Kipr – 529, Irlandiya – 539, Isroilga – 729 ajratib berilgan. EANni kodlash tizimida kod tovarni shu tarzda identifikatsiya qiladiki, xalqaro savdodagi boshqa hech qanday tovar bunday raqamga ega bo'la olmaydi. Mahsulot shtrix kodini, mahsulotni tayyorlovchi korxona tamg'alaydi. 1.3. va 1.4-jadvallarida EANni xalqaro uyushmasi tomonidan berilgan, mahsulotni tayyorlovchi korxonalarning kodlari va harfli belgilari taqdim etilgan. Shtrix kodning oxiridagi «>» belgisi tovarning litsenziya bo'yicha tayyorlanganini anglatadi.

Nazorat uchun savollar

1. Tasniflashning nomini ayting?
2. Mahsulot sifati ko'rsatkichlari nomenklaturasini aks ettiruvchi davlat standartlarida keltirilgan kiyimbop materiallarning tasniflanishidagi afzallik va kamchiliklar nimalardan iborat?
3. OKPda keltirilgan materiallar tasnifi nimalarda ifodalanadi?
4. Trikotaj sanoati mahsuloti OKPda qanday tasniflanadi?
5. Maishiy maqsadlardagi matolar OKPda qanday tasniflanadi?
6. Noto'qima gazlamalar OKPda qanday tasniflanadi?
7. Sun'iy mo'yna standartlarga muvofiq ravishda qanday tasniflanadi?
8. Sun'iy charm va plyonka materiallarining OKP bo'yicha tasniflanishining xususiyatlari nimalardan iborat?
9. Sun'iy mo'ynaning OKP bo'yicha tasniflanishi xususiyatlarini aytib bering?
10. Tabiiy charmning OKP bo'yicha tasniflanishi xususiyatlarini aytib bering?
11. TSNIISHP(TMMITI) tomonidan taklif etilgan kiyimbop materiallar tasnifining mazmun-mohiyati nimalardan iborat?
12. Davlat standartlariga muvofiq noto'qima gazlamalarni tasniflanishini ko'rsatib o'ting?
13. Kiyimbop-galantereya charmlarining tarmoqlararo tasnifini aytib bering?
14. Shtrixli kod (chiziqli xosraqam) nima maqsadlar uchun mo'ljallangan?
15. Shtrixli kod nimani anglatadi?
16. Rossiyaga va MDH mamlakatlariga qanday kodlar taqdim etilgan?
17. Mahsulotning shtrixli kodi kim tomonidan tushiriladi (tamg'alanadi)?
18. Litsenziyalangan tovar, shtrix kodda qanday belgilanadi?

II BOB

KIYIMLARNING HAR XIL GURUHLARI VA TURLARI UCHUN MATERIALLARNI KONFEKSIYALASHNING TAMOYILLARI

Quyidagilar kiyimbop materiallarni konfeksiyalashning asosiy tamoyillari hisoblanadi: xavfsizlik va bezararlik (ekologiyalilik), samaradorlik, o'zaro moslik, o'zaro almashinuvchanlik.

Iste'mol xavfsizligi – eng asosiy tamoyil bo'lib, u materiallarda inson tanasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi moddalar, insonning hayoti yoki salomatligiga zarar yetkazish xavfining mavjudligi bilan bog'liq yo'l qo'yib bo'lmaydigan xatarning yo'qligida namoyon bo'ladi.

Materiallarni konfeksiyalash nuqtai nazaridan kiyim-kechak har qanday iste'molchi uchun xavfsizlik tug'dirmaydigan bo'lmog'i lozim. Ayni paytda, atrof-muhit uchun bezararlik (ekologiyalilik) tamoyiliga og'ishmay rioya etilishi lozim.

Samaradorlik materialni muqobil qo'llashga erishish va kiyimni ishlab chiqarish, realizatsiya (tasarruf) etish va foydalanishga erishishda ifodalanadi.

Bu tamoyil paket uchun materiallarni tanlashda, kiyim assortimentini shakllantirishda, shuningdek, kam harajat qilgan holda ishlab chiqarishning turli bosqichlarida zarur buyumlarning sifatini va miqdorini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

O'zaro moslik – materiallarning noxush o'zaro ta'sirini keltirib chiqarmaydigan holdagi birgalikda foydalanishga yaroqliligini belgilab beruvchi tamoyildir.

Mahsulot paketini butlovchi materiallarning o'zaro mosligi – uni tayyorlashda, foydalanishda, iste'molchilar talabini qondirishda sifatini saqlab qolishning qat'iy shartidir. Binobarin, o'zaro mos kelmaydigan to'qimachilik materiallarini, deylik, kirishadigan materiallarni qo'llash bo'laklarning va butun mahsulotning shakli buzilishini keltirib chiqarishi, yuvishdan yoki kimyoviy tozalashdan keyin buyumning o'lchamlari o'zgarishiga olib kelishi, buyumning sifati va tashqi

ko'rinishini yomonlashtirishi uni yaroqsiz holga keltirib qo'yishi, odamda yoqimsiz holatni yoxud salomatligi(o'zini his etishi)ning yomonlashuviga olib kelishi mumkin.

O'zaro almashinuvchanlik – bir xil talablarni qondirish maqsadlarida bir turdagi materialning boshqa turdagi material o'rnida qo'llash uchun yaroqliligini aniqlash tamoyilidir. Materiallarning o'zaro almashinuvchanligi ular o'rtasidagi raqobatchilikni yuzaga keltiradi va ayni paytda, mushtarak talablar hamda ehtiyojlarning har xil turdagi materiallar bilan qondirilishiga imkon beradi. Alohida olingan to'qimachilik materiallarining xossalari qanchalik yaqin bo'lsa, ular o'zaro almashtirib qo'llash uchun shu darajada yaroqli bo'ladi.

Buyumni butlovchi alohida materiallarning, aynan bir xil talablarni bajarish uchun boshqalari o'rniga qo'llanishga yaroqsizligi, o'zaro almashinuvchan materiallarning assortimentini shakllantirishda nihoyatda muhim rol o'ynaydi.

Kiyimbop materiallarning paket sifatida kiyim uchun konfeksiyalanishiga tuzilmaviy yondashuv, uni qatlamlar bo'yicha ko'rib chiqishni talab etadi: korset buyumlar, ichki kiyimlar, ko'ylak yoki kostyum, plash, kurtka yoki palto (bahorgi-kuzgi, qishki) va boshqalar.

2.1. Konfeksiyalashuv va marketing

Konfeksiyalashuv deganda, zamonaviy xalqaro amaliyotda aniq bir mahsulotni ishlab chiqarish uchun matolar to'plamini oqilona va ilmiy darajada asosli saralangani tushuniladi (ichki kiyim, yengil ko'ylak, palto, pidjak yoki boshqa ustki kiyim, poyabzal, interyer ashyolari va boshqa mahsulotlar).

Matolarning konfeksiyalashuvi tikuvchilik ishlab chiqarishdagi muhim va mas'uliyatli bosqich deb hisoblanadi: paket sifatida matolarni to'g'ri va asosli tanlashda kiyimlarning sifati va raqobati, foydalanish jarayoni vaqtida tashqi ko'rinishining barqarorligi hamda kiyimlarni parvarishlashni yengillashtirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Zamonaviy modaning tez o'zgaruvchanligi, taklif etilayotgan tovarlarning yuqori raqobatchanligi, zamonaviy ishlab chiqarish va mahsulot o'tkazishning

bozorga oid ob'ektiv shart-sharoitlari, shuningdek, kiyimlarda ham, bozor sharoitlarini tezda o'zgarib borishida iste'molchilarning talablarini hisobga olish hamda mahsulotning sifati va talabchanligini o'z vaqtida, juda aniq holda aytib berish mahorati qattiq talab etiladi.

Moda, tikuvchilik va kiyim ishlab chiqarish turtki bo'lish bilan bir qatorda, ichki qiyinchiliklar va qarama-qarshiliklarimizga zid holda o'z qonun-qoidalariga binoan rivojlanishda bardavom bo'ladi. G'arbiy Evropaning juda qimmat va yaxshi (har doim ham emas) sifatga ega import tovarlari bilan shiddatli raqobatda bo'lish, nisbatan arzonroq sanalmish Xitoy, Vetnam va boshqa janubiy-sharqiy tovarlarning ko'payishi, kiyim ishlab chiqarish bo'yicha mamlakat sanoatida taklif etiladigan xizmat majmuini hamda texnologiyalar xususiyati, foydalaniladigan materiallarning navlari, shuningdek, sifatini yaxshilash va tovarlar navini yaxshilash maqsadida jihozlarni sinchiklab ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Bunda, marketingda muhokama qilingan tovarlarga bo'lgan ehtiyojni ko'rib chiqish tizimini o'rganish, marketingning asosiy tartibini qo'llash muhim rol o'ynaydi.

Marketing deganda, mahsulotni sota bilish (o'tkazish) va ishlab chiqarish tizimlari majmuini tashkil etish tushuniladi, u xaridorlarning talabini avvaldan tadqiq etish asosiga qurilgan. Ushbu faoliyatni takror ishlab chiqarish uchun mahsulotni ijtimoiy boshqarishning effektiv vositasi sifatida ko'rib chiqish lozim.

Marketing faoliyatining muhim printsipi bu – talabga molik mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish, bizning mamlakatda yaqin o'tmishda bo'lgani kabi ishlab chiqarilgan tovarlarni tiqishtirmasdan, xaridorlarga o'zlari tanlagan mahsulotlarni taklif etish va ularning muammolarini yechishga imkoniyat berishdir. Bu kabi muammolar doimo mavjud bo'lgan va ular aholining har-xil guruhlari uchun turlichadir (yoshlar, keksalar, turli ijtimoiy guruhdagi odamlar va h.k.).

Har qanday tovar, to'qimachi va kiyim ikki iste'molchi vazifasini bajaradi: birinchisi – manfaatparastlik – u shundan iboratki, tovar o'zining to'g'ridan-to'g'ri vazifasini bajarishi kerak; ikkinchisi – bir-necha xil ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish, bu insonlarni turli xil ijtimoiy guruhlariga birlashishidan kelib chiqadi va bu vazifaning

ahamiyati birinchisiga qaraganda kam emas. Iste'molchilarning talabi uchun ko'phollarda tovarning ikkinchi vazifasi hal qiluvchi sanaladi. Shuning uchun konfeksiyalashuv – bu har qanday tovarni rejalashtirish va ehtiyojlar majmuini shakllantirishdan boshlanishi zarur. Tovarlarning aniq maqsadini belgilash, uni yangi yanada yuqori darajada ko'tarish demakdir.

Marketing va konfeksiyalashuv xaridorga oid bozor va tovarlarga bo'lgan ehtiyojni avvaldan tadqiq qilish asosida qurilgan. Bunday tizim, qachonki uyushmalar, korxonalar va aktsioner jamiyatlar o'z xo'jalik faoliyatining yetarli darajada erkinligiga ega bo'lsa, bunda ishlab chiqarish – tijoriy faoliyatni ko'tarish vositasi sifatida bozorda iste'molchi talabiga tezlik bilan javob berish va ilmiy yutuqlarga tayangan holda bozorda ro'y beradigan jarayonlarni boshqarishga ijozat beradi.

Marketingning maqsadi – savdo-sotiq, ishlab chiqarish va ilm orasidagi tashkiliy-boshqaruv va iqtisodiy uzilishlarni minimumga olib kelgan holda, ishlab chiqarishni bozor talablari va ehtiyojiga moslashish uchun sharoit yaratib berishdan iboratdir.

Rivojlangan mamlakatlarda, ayniqsa, AQSH, Yaponiya, Fransiya va boshqalarda, tikuvchilik va kiyimga bo'lgan iste'molchi talabi ko'pdan buyon va jiddiy ravishda o'rganilmoqda. Ijtimoiy tadqiqotlarga tayanib, ehtiyojlarni ko'rib chiqqan holda quyidagi ma'lumotlar olingan: bunda nafaqat bozor talabi qondiriladi, balki iste'molchining talabini oldindan aytib berish hamda bozorni boshqarish ham hisobga olinadi.

Bunda aholining yosh guruhlariga, ularning talabini qondirishda va shakllantirishda hisobga olinadigan alohida iste'molchi turlarga ajratishga katta ahamiyat beriladi. Iste'molchilarni bir necha xil turga bo'lish mumkin.

Ilg'or iste'molchilar (avangardistlar) – bu nisbatan iste'molchilarning kichik (8–9%) guruhi, ular boshqalarga nisbatan kiyinish hamda ko'rinishi bilan ajralib turishiga harakat qilishadi va o'z shaxsiyatini yanada yorqinroq ifodalashning yangi vositalarini izlashadi. Ularning yangilikka intilishini kiyim, poyabzal, aksessuar, soch

turmagi, pardosh vositalarini tanlashda modadan bir qadam ilgari yurgani bilan ifodalash mumkin.

Obro'li iste'molchilar (ular 11–12%ga yaqin) – zamonaviy rusumda kiyinishga intiladigan iste'molchi sanaladi. Firma belgisi yoki mashhur modelyerning nomi bor mahsulotlardan foydalanishi, moda bilan hamohang yurishiga kafolat berishini ta'minlaydi (so'nggi yillarda Guli, Versache, Armani, Kanishka va boshqa mashhur kutyuryelardan kiyinish obro'li bo'lib qoldi).

Mo'tadil iste'molchilar (taxminan 37–38%) – sifatli kiyimlarga o'ch iste'molchi sanaladi. Modaga intilishi bor, ammo yuqoridagi turlarga qaraganda kuchli emas. Bu kabi iste'molchilarning asosiy qismini yoshlar tashkil etadi.

Ishbilarmon iste'molchilar (29–30%) – yuqori sifatli kiyimning iste'mol xususiyatlariga – aslligi, chidamliligi, foydalanish vaqtidagi qulayliligiga e'tibor beradigan iste'molchidir. Xarid etilgan buyumlarning modaga mos kelishi, ular uchun katta ahamiyat kasb etmaydi.

Modaga befarqlar (13%ga yaqin) – ularga kiyimning universalligi muhim bo'lib, bunda moda hech qanday ahamiyatga ega emas.

Shiddatli bozor sharoiti kiyimlarni tayyorlashning ilk bosqichida, ularning sifatni ko'rib chiqishni talab qiladi. Bular badiiy konstruksiyalash, modelni tayyorlash va loyihani ishlash bosqichidir. Rassomlar, koloristlar hamda materialshunoslar ijodiy jamiyati, asosiy e'tiborni bozor sharoitida mahsulotni yuqori sifatga ko'tarishga qaratishlari lozim.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, kiyimdagi rassom-dizaynerlarning ishlovi, badiiy-konstruktiv xulosalari nafaqat kiyimning yangi shakllari va zamonaviy kiyimning tizmalarida, balki rang-barang bezak berilgan zamonaviy ranglardagi yangi yoki klassik materiallar, ularning tuzilish ko'rsatkichlari, tabiiy-mexanik xususiyati va shakliy qobiliyat, shuningdek konstruktiv-texnologik, ergonomik xususiyati, ishonchliligi, iste'mol qilish xavfsizligi, ekologikligini hisobga olgan holda asoslanishi zarur.

2.2. Matolarning konfeksiyalashuv masalalari. Matolar konfeksiyalashuvi asosiy va muhim sanalgan quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi: yuqori sifatga ega, bozor

iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh kiyimlarni yaratish. Ushbu maqsadga erishish uchun barcha aholi guruhlarining yuqori talablarini amalga oshirish masalalari qo'yiladi – bolalar, yoshlar, katta va keksa yoshdagilar kiyimi. Bu hollarda xaridorning kiyimga bo'lgan ehtiyojining o'sib borish differensiyalashuvi uning ijtimoiy holati, kasbiy mansubligi, daromad darajasi va boshqa qiziqishlari bilan bevosita bog'liqdir. Bunda birinchi navbatda, to'g'ri va asosli tarzda aniq bir mahsulot uchun matolarni tanlash lozim bo'ladi. Shu bilan bir qatorda assortimentni, matoning xususiyati va kiyimga bo'lgan talabni bilishga asoslangan holda paket uchun matolarni ratsional va to'g'ri tanlash muammosini kompleks hal etish nazarda tutiladi.

Kiyim asosiy va yordamchi (lekin ikkinchi darajali emas) matolardan tarkib topgan ko'pqatlamli va ko'pkomponentli mahsulot sanaladi. Mahsulot paketiga asosan qoplama, astarlik, qistirma matolar, furnitura, pardozlash va biriktirma materillar kiradi. Har bir komplekt materiallar xususiyati va sifatiga asoslanib, shuningdek zarur talablarni hisobga olgan holda, «inson – kiyim – atrof-muhit» tizimi bilan o'zaro bog'liq. Ushbu tizimning o'zaro aloqadorligi quyidagilar bilan asoslanadi:

- vazifasi bilan (kiyim nimaga mo'ljallangan – kundalik, sport, mehnat uchun, bayramona va .h.k.);
- adresati (manziliy) bilan (kiyim kim uchun mo'ljallangan – jins va yosh hisobga olingan holda hamda iste'molchilarning shaxsiy fazilatlarini);
- matoning turi bilan (kiyim nimadan tayyorlanadi – mato, trikotaj, mo'yna, charm va boshqalar);
- matoning sifati bilan (tuzilishi, qalinligi, ustki zichligi, ranglar uyg'unligi, tushe va .h.k.);
- atrof-muhit bilan (iqlimiy sharoitlar, mavsumiylik, predmet muhiti).

Konfeksiyalashuv doirasiga kiyimning turli asosdagi assortimenti – ichki kiyim, ko'ylak, kostyum, shim, yubka, kurtka, yomg'irpo'sh, palto va boshqalar uchun matolar tanlovi kiradi. Bunda albatta, maqbullik, ma'qullik, matolarning xususiyatidan to'g'ri foydalanish kabi talablar hisobga olinishi zarur.

2.3. Matolarning konfeksiyalashuvini tashkillashtirish.

Konfeksiyalashuvning murakkab jarayoni – matolarni bichishga va kiyimlarni ishlab chiqarishda texnologik jarayonga qanchalik tayyor ekanligiga qaratilgan bo'ladi. Ushbu jarayonda mato va (buyum) modelining aloqadorligini aniqlash va kiyimning keyinchalik inson salomatligiga ta'sirini ifodalash kerak.

Konfeksiyalashuv jarayonini tashkillashtirish quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- kiyimning turi va navini belgilash, aniq bir mahsulotni tanlash;
- tanlangan mahsulotga bo'lgan talabni belgilash;
- buyumlar to'plami va matolarga bo'lgan talabni belgilash;
- aniq bir mahsulot uchun matolar paketining konfeksion tanlovi.

Bunday hollarda matolarning xususiyati, kiyim uchun matolar navlarining ko'pligi, shuningdek kiyimning keng assortimenti ham hisobga olinmog'i lozim.

2.3.1. Kiyimning turi va navini belgilash

Konfeksiyalashuvni tashkillashtirishning boshlang'ich bosqichi – bu kiyimning sifati va o'ziga xos xususiyatlari hamda assortimentini aniqlash hisoblanadi.

OKP bilan muvofiq kiyimlar «Tikuv mahsulotlari»ning mustaqil 85-sinfiga ajratildi. Kiyim uchun matolarni tasniflashtirish kabi bosqichma-bosqich sinf, kichik sinf, guruh, kichik guruh, turli va ichki turdagi guruhlar o'nlik kodli ishora bilan belgilanadi.

1.5-jadval

OKP bo'yicha kiyimlarni kodli belgilash

OKP bo'yicha yuqori sinfli guruhlar								
Ichki turdagi guruhlar								
Sinf	Kichik sinf	Guruh	Kichik guruh	Tur				
1,2	3	4	5	6	7	8	9	10
85–(const)	+	+	+	+	+	+	+	+

Birinchi ikkita kod turkumi OKP bo'yicha mahsulot sinfini anglatadi 85–(const);

3-turkum – kichik sinf (1 – ustki kiyim; 2 – kostyum-ko'ylak mahsulotlari; 3 – ichki kiyim; 4 – bosh kiyim; 5 – maxsus kiyimlar va boshqalar);

4-turkum – mahsulotlar majmui guruhi, maqsadi bo'yicha o'xshash va loyihaviy-model yechimga yaqin (masalan, 1 – palto, 2 – yarim palto... 5 – ko'ylak, 7 – erkaklar ko'ylagi va h. k.);

5-turkum – xomashyo sifatida kichik guruh (1 – ip gazlamalar; 2 – zig'ir va aralash tolali gazlamalar; 3 – ipak, sun'iy, sintetik va aralash tolalardan to'qilgan trikotaj polotno, mato va gazlamalar; 4 – jun va yarim jun gazlamalar; 5 – noto'qima matolar va h. k.);

6-turkum – jins va yosh alomatlari bo'yicha turi (1 – erkaklar uchun ; 2 – ayollar uchun; 3 – maktab yoshidagi o'g'il bolalar uchun va h. k.);

7-dan 10-turkumgacha – tur bo'yicha tasnif.

Yagona o'nlik kod bilan belgilangan kiyimlarni tasniflashtirishni qo'llash kiyimni rejalashtirish, loyihalash va hisobga olish bosqichlarida hisob texnikasidan foydalanish zarur. Ular yuqoridagi 10 turkumda aniqlanadi.

Biroq kiyimni ishlab chiqarish va savdo-sotiq sharoitida qo'llashda, mutlaqo o'zgacha tasniflashtirishdan foydalaniladi.

Inson faoliyatining turli sohalarida foydalaniladigan zamonaviy kiyim uch sinfga bo'linadi – maishiy, sport, ishlab chiqarish [22].

Maishiy kiyim iqlim muhitining inson organizmiga salbiy ta'siridan muhofaza qilish uchun mo'ljallangan. Ushbu kiyim sinfi ko'p miqdorda bo'lish bilan bir qatorda turli-tuman hamdir. Ular kichik sinflarga bo'linadi: ichki kiyim, kostyum-ko'ylak, palto, korset, bosh kiyim, qo'lqop mahsulotlari.

Har bir kichik sinf ham turlarga bo'linadi. Masalan, kostyum-ko'ylakli buyumlarning kichik sinfi – pidjaklar, kalta kamzullar, nimchalar, shimlar, belburma kamzullar, smokinglar, ko'ylaklar, kostyum-ko'ylaklar, yubkalar va boshqalardan iborat bo'ladi.

Jins va yosh alomatlari bo'yicha kiyim quyidagi guruhlariga bo'linadi: erkaklar, ayollar va bolalar (chaqaloqlar uchun, bog'cha yoshidagi bolalar uchun, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun, boshlang'ich va yukori sinf o'quvchilari, o'smirlar).

Iqlimiy hududlar va yil fasllariga bog'liq holda kiyim guruhlari kichik guruhlariga bo'linadi: bahorgi-yozgi, yozgi, qishki, barcha mavsumiy (yilning barcha faslida foydalaniladigan).

Maishiy kiyimni aniq holatlarda foydalanilishiga qarab, har kungiga bo'lish mumkin (ishchi kostyum, ko'cha uchun, kundalik), uy ichi, bayramona holatlar uchun, estrada, dam olish uchun va boshqalar.

Sport kiyimi kichik sinflarga – sport turi bo'yicha, guruhlariga – jins va yosh alomatlari bo'yicha bo'linadi. U professional va havaskor sport kiyimini o'z ichiga oladi. Professional sport uchun mo'ljallangan kiyim nafaqat aniq bir sport turi (konki, boks, velosport va h. k.)ga mo'ljallangan bo'lishi, balki manfaat (amaliy, ergonomik) vazifalarga ham xizmat qilishi lozim. Havaskor sport uchun mo'ljallangan kiyim, manfaat vazifasi bilan birgalikda estetik vazifalarni ham bajaradi.

Ishlab chiqarish kiyimi uchta kichik sinfga bo'linadi: maxsus, idoraga oid (rasmiy kiyim) va texnologik (sanitar-gigiyenik).

U ishlovchilarni xavfli va zararli ishlab chiqarish omillaridan asrash uchun mo'ljallangan maxsus kiyim sanaladi. Ushbu kiyim o'z navbatida, himoya vositalariga qarab guruh va kichik guruhlariga bo'linadi (haroratning baland va past mexanik zararlanishidan, radioaktiv nurlardan, rentgen nurlanishdan, neft mahsulotlaridan v. b.).

Maxsus kiyim xuddi maishiy kiyim kabi quyidagi turlarga bo'linadi – kurtkalar, shimlar, kombinezonlar, yarim kombinezonlar, yomg'irpo'shlar va h.k.

Idora kiyimi o'z ichiga harbiylar, temir yo'lchilar, aloqachilar va h.k.larni oladi. Asosiy turlari: shinel, kitel, palto, ko'ylak, va bosh kiyim.

Texnologik (sanitar) kiyim xodimni mehnat ashyolari, asbob-uskunalaridan, shuningdek, xodimni umumiy ishlab chiqarish ifloslanishlardan muhofaza qilish uchun mo'ljallangan.

Kiyim tanlashning turi va sinfi asosida mahsulot o'ziga xos xususiyatini o'rnatish, uning asosiy xususiyati, foydalanish sharti va vazifasiga qarab, shuningdek, aniq bir mahsulot talabiga asoslanib loyihalashtiriladi.

Bayon etilgan tasnif, OKP tasnifiga qaraganda kompyuter texnikasi bilan ishlashda ancha noqulay, biroq u zamonaviy kiyimning mavjud ko'pxilligini tasavvur etishga va turli xil kiyimlarning to'plam qiluvchi matolarga qo'yilgan turli talablarini tushunishga yordam beradi.

2.3.2. Kiyimning sifatiga talab o'rnatish. Kiyimning sifatiga talab o'rnatish konfeksiyalashuvning keyingi bosqichi sanaladi.

Kiyimni insonning ikkinchi terisi deb atash mumkin. U tana atrofida issiqlikni bir xilda ushlab turish uchun muqobil sharoit, mikroiklim yaratadi, bu inson hayot faoliyati uchun nihoyatda muhim hisoblanadi, uning ishga layoqatliligi va sog'ligini yuqori darajada saqlaydi. Shuning uchun mahsulotga bo'lgan talab «kiyim – inson – atrof-muhit» tizimining o'zaro aloqasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Iste'molchilar bir tomondan, ishlab chiqaruvchilar boshqa tomondan da'vo qilgan, turli ko'rinish va vazifaga ega kiyim, murakkab talab majmuiga (GOST 4.45 – 86) javob beradi. Shuning uchun ushbu talablarning ko'pxilliligi ikki guruh ko'rsatkichlari – iste'molchi va ishlab chiqaruvchi yoki sifatning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari orqali baholanadi. (2.1. jadval.).

2.1. jadval

Kiyim sifatiga bo'lgan talab

Kiyimning sifat ko'rsatkichlari	
Iste'molchi	Texnik-iqtisodiy (ishlab chiqaruvchi)
Ijtimoiy	Standartlash va birxillashtirish
Funksional	Texnologik
Estetik	Iqtisodiy
Ergonomik	

Kiyimga bo'lgan talab va sifatning *iste'mol ko'rsatkichlari* inson uchun kiyimning bevosita, ijtimoiy va shaxsiy baholanishini aniqlaydi. Ushbu ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

- *ijtimoiy* – kiyimning o'lchamlari, assortimenti iste'molchi talabiga muvofiqligiga, kiyimga bo'lgan ichki va tashqi bozor raqobatbardoshligiga, iste'molchining talabini oldindan aytib berishiga turtki beradi;

- *funktsional* – mahsulotning foydalanish sharti, hamda aniq bir maqsadga muvofiqlik darajasini aniqlaydi; iste'molchining to'la yoki oriqligi, yoshi, o'lchami, shuningdek, uning tashqi ko'rinishi va psixologik fazilatlari darajasini aniqlaydi;

- *estetik* – kiyimning badiiy kontseptsiyasini va uning ijtimoiy estetik idealiga muvofiqlik darajasini, modelning va loyihalashning yangiligi (ya'ni, zamonaviy did va modaga muvofiqlik), model kompozitsiyasining mukammalligini aniqlaydi; kiyim o'z zamonasining ko'zgusi bo'lishi darkor;

- *ergonomik* – kiyim, uning alohida qismlari insonning antropometrik va psixofizik fazilatlariga bo'lgan muvofiqlik darajasini aniqlaydi, uning sanitar-gigiyenik normalarga muvofiqligi; turli kundalik va ishlab chiqarish sharoitida mahsulotdan foydalanish qulayligi;

- *ekspluatatsion* – foydalanish vaqtida kiyimning sifatini saqlash, barqarorlik darajasi va mustahkamligini aniqlaydi (matoning va birlashtiruvchi choklarning chidamliligi, kiyim chetlari va qismlarining shakliy bardoshliligi, tuzilish elementlari hamda matoning chidamliligi, ya'ni mustahkamligi).

Kiyimning *texnik-iqtisodiy (ishlab chiqaruvchi)* sifat ko'rsatkichlari kiyimning texnologiyasi va loyihalash uslublari, uni iste'mol qilish va tayyorlash uchun sarf bo'ladigan xarajatlarni hisobga olgan holda, uning tuzilishidagi texnik benuqsonlik darajasini aniqlaydi. Ushbu ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

- tuzilishni standartlash va bixilllashtirish, kiyimning loyihaviy tuzilishini konstruktiv va texnologik ketma-ketlik asosidagi darajasini aniqlaydi (barcha mumkin bo'lgan yechimlar ma'lumotidan yanada ratsionallikka qarab; mahsulotning seriyaviyligini ko'tarish va uni loyihalashtirish, tayyorlash va foydalanishga ketadigan sarf-xarajatlarni pasaytirish uchun zamin yaratish);

- ishlov berish ko'rsatkichlari texnologiya va tuzilishning darajasini, mexanizatsiyalash va avtomatizatsiyalash darajasini, mahsulotning mehnat va mato sarfini aniqlaydi;

- iqtisodiy ko'rsatkichlar, loyihalashtirish, texnologik tayyorlov, kiyimni bichish va tayyorlashga ketadigan sarf-xarajatlarga baho beradi. Ushbu ko'rsatkichlar o'zi bilan iste'molchi va texnik (ishlab chiqaruvchi) ko'rsatkichlarni bog'laydi hamda mahsulotga ishlov berish, tayyorlash va foydalanishda sarf etiladigan xarajatlarning iqtisodiy samaradorligini aks ettiradi.

- Aytilganlardan tashqari, ishlab chiqaruvchi ko'rsatkichlarga mahsulotning transportboplik talablariga javob beruvchi va uning huquqiy patentli ko'rsatkichlari kiradi [4].

2.3.3. Matoning sifatiga talab o'rnatish. Matoning xususiyatiga talab o'rnatish konfeksiyalashuvning eng muhim jarayonlaridan biri bo'lib sanaladi. Kiyim uchun matoning iste'molchi va texnik-iqtisodiy xususiyatini (uning birlamchi va guruhli ko'rsatkichlari) butun bir majmui, ishlab chiqarishning turli bosqichlarida shakllanib boradi va dastlabki xomashyo, tuzilish, mato bezagi hamda iste'molchi xususiyatlarini shakllantirishga turtki beradi.

Matoning xususiyatiga talabni o'rnatish uchun birinchi o'rinda, uning sifatini birlamchi va guruhli ko'rsatkichlarda aniqlash lozim (GOST 4.3-78).

To'qimachilik matolari sifatining birlamchi ko'rsatkichi, matoning aniq xususiyatidan birini (masalan, havo o'tkazuvchanligini) tavsiflaydi. Bu ko'rsatkich, ushbu xususiyatni o'lchash va tenglashtirish hamda birlamchi o'lcham ko'rsatmasini hisobga olgan holda, raqam shaklida tenglashtirish natijasini ifodalash orqali olinadi. Agar ko'rsatkichning son qiymati mato sifatining yaxshilanishi natijasida ko'tarilsa, uni pozitiv, agar kamaysa – negativ deb atashadi. Sifatning birlamchi ko'rsatkichlari o'lchamli, aniq birlikda ifodalangan va o'lchamsiz (ballar, darajalar va h.k.) bo'ladi.

Mato *sifatining guruhli majmuaviy* ko'rsatkichi birlamchi ko'rsatkichlarning ayrim sonlari (guruhlari)dan tashkil topgan va iste'molchi yoki texnik-iqtisodiy xususiyatlaridan birini tavsiflaydi. Masalan, gigiyenik ko'rsatkichlar guruhi: havo o'tkazuvchanlik, bug' o'tkazuvchanlik, giroskopiklik, elektrlanuvchanlik,

kapillyarlik, suv shimishi, issiqlik qarshiligining yig'indisi va h.k. Shuningdek, maishiy qulaylik ko'rsatkichi: yo'g'onligi, ustki zichligi, qattiqligi va boshqalar matoning ergonomikligini tavsiflaydi.

Me'yoriy-texnik hujjatlarda (masalan, GOST 4.3–78, GOST 24886–81 v.b.) aks etgan to'qimachilik matolarining guruhli, majmuaviy va birlamchi sifat ko'rsatkichlari nomenklaturasi, aniq bir izchillik va ta'rifga ega emas. Ko'pincha aynan bir xildagi birlamchi ko'rsatkich, turli xil guruh ko'rsatkichlarga taalluqli bo'ladi va matoning turli xususiyatlarini tavsiflaydi.

Kiyimning sifatiga o'rnatilgan talablar asosida matolar va alohida mahsulot to'plamlariga bo'lgan talab shakllantiriladi. Ushbu talablar kiyimning sinfiga, maqsadi va turiga qarab, foydalanish, shuningdek, iste'molchi va texnik-iqtisodiy sifat ko'rsatkichlari shartlarini hisobga olgan holda tavsiflanadi.

To'qimachilik matolarining sifatini baholash vaqtida, belgilangan standartlarda keltirilgan birlamchi sifat ko'rsatkichlarining aniq bir nomenklaturasi tuziladi. Ushbu nomenklatura katta miqdordagi ko'rsatkichlarni jamlaydi, sifat ko'rsatkichi hamda mahsulot parametrlari ham shular jumlasidandir. Shu bilan birga ushbu ko'rsatkichlar umumiy, barcha guruh matolari uchun majburiy, va maqsadiga ko'ra alohida guruhlar uchun qo'llaniladigan maxsus (qo'shimcha) ko'rsatkichlarga bo'linadi. Barcha ko'rsatkichlar bir nechta asosiy guruhlariga bo'lingan: maqsad, ergonomik, ishonch, nafosat, texnologik, xavfsizlik shular jumlasidandir. Turli tolalardan tarkib topgan mato uchun birlamchi ko'rsatkichlar soni 20dan 30gacha o'zgarib boradi.

To'qimachilik matolar xususiyatining keng ko'lami ko'pmiqdordagi guruhning xususiyatlari bilan baholanadi, ular kvalimetriyaga ko'ra sifatning miqdoriy bahosiga ega. Kvalimetriya qoidalariga ko'ra, to'qimachilik matoning sifati o'z holicha ierarxik tuzilmani ifodalaydi, uning yuqori bosqichlarida yanada umumlashtirilgan xususiyatlar, pastkisida esa – guruhlar va bo'lak xususiyatlar joylashgan.

Sifat ko'rsatkichi va xususiyatining umumiy nomenklaturasi, barcha xildagi sanoat mahsulotlarini butunligiga ta'riflagani uchun GOST 22851–77, to'qimachilik sanoat mahsulotlariga kiradigan aholi iste'moli tovarlariga esa – GOST 24886–81 joriy etilgan.

Kiyimga bo'lgan talab kabi, matoning sifat ko'rsatkichi murakkab majmuiga iste'molchi hamda ishlab chiqaruvchi tomonidan talablar qo'yiladi. Shuni hisobga olgan holda, mato sifatining barcha ko'pmiqdorli ko'rsatkichlari shartli ravishda ikki guruhga bo'lingan – iste'molchi va texnik-iqtisodiy.

Mato sifatining iste'mol ko'rsatkichlari. To'qimachilik matolarining sifat ko'rsatkichi va iste'mol xususiyatlari, iste'molchini kiyimga bo'lgan talabini aniqlaydi. Ushbu xususiyatlarga matoning tashqi ko'rinishi (xususiyatning tashqi ko'rinishi – fakturasi, bezagi, ranglar gammasi, yorqinligi, g'ijimlanmasligi, moda talablariga ko'ra tashqi bezakka muvofiqligi v.b.), hamda foydalanish jarayoni mobaynida matoning tashqi shaklini yaratish va saqlash qobiliyatlari kiradi.

To'qimachilik matolarning sifat ko'rsatkichi va iste'mol xususiyatlari nomenklaturasi, yuqorida aytilganidek, o'z ichiga vazifa, ergonomik, foydalanishda (iste'molda) ishonchlilik, nafasatlilik, iste'mol xavfsizligi kabi guruh ko'rsatkichlarini oladi.

O'z navbatida, nomenklaturasi 60tadan ko'p bo'lgan atamalarni o'ziga jam qilgan birlamchi ko'rsatkichlarni guruh ko'rsatkichlari o'z ichiga olgan. Ularning orasida nafaqat sifat ko'rsatkichlari, balki mahsulot parametrlari (tola turi va uning foiz tarkibi, iplarning pishiqligi va turi, to'qilish turi, to'qilish zichligi v.b.), shuningdek, geometrik ko'rsatkichlar (qalinligi, eni, bo'yi, tashqi zichligi) ham mavjud. Quyida yanada ahamiyatga molik bo'lgan sifat ko'rsatkichlari guruhining qisqacha tavsifi taqdim etilgan.

1.Maqsad ko'rsatkichlari kiyimning vazifasi mato bilan muvofiqligini tavsiflaydi va sifat ko'rsatkichining ikki kichik guruhlari – ijtimoiy maqsad va funktsional ko'rsatkichlar bilan belgilanadi;

- ijtimoiy maqsad ko'rsatkichlari to'qimachilik matoning muvofiqligini va binobarin, matodan ishlangan kiyimni iste'molchilarning ommaviy talabi va tovarning ushbu ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini tavsiflaydi. Bu kichik guruh shunday ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladiki, ular ijtimoiy adres va aholining iste'mol guruhi (erkaklar uchun, ayollar uchun, bolalar uchun) tomonidan matoni tavsiflaydi,

bunga muvofiq ravishda mato turli tashqi zichlik, turli tavsif tuzilmalari va turli xildagi tasviriy rang-baranglik yechimga ega bo'lishi lozim;

- funktsional ko'rsatkichlar matoning aniq bir kiyim turining belgilangan maqsadiga muvofiqligini tavsiflaydi. Ular matoga mo'ljallangan asosiy funktsiyalarni aniqlaydi va uning foydalanish doirasini yuzaga keltiradi. Masalan, ichki kiyimga mo'ljallangan matolar uchun gigroskopiklik, havo o'tkazuvchanlik, titilishga va ko'p yuvilishga chidamlilik ko'rsatkichlari muhim, kostyumga mo'ljallangan matolar uchun esa qattiqlik, g'ijimlanmaslik, shakl saqlash qobiliyati, kimyoviy tozalashga bardoshli v.b.

Maqsad ko'rsatkichlari estetik, ishonch hamda matoning turi va iste'molchini unga bo'lgan talabidan kelib chiqqan holda – ergonomik ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

2. To'qimachilik matolarning *ergonomik ko'rsatkichlari* mahsulotdan «inson – mahsulot – atrof-muhit» tizimi asosida foydalanish vaqtidagi qulaylik va shinamlikni tavsiflaydi. Bunda inson tanasining turli ergonomik talablarini mato bilan o'zaro muvofiqligi ham hisobga olinadi. Ushbu guruhga ikki kichik guruh ko'rsatkichlari kiradi, tanlangan matolarni insonning kayfiyati va ishlash qobiliyatiga, mahsulotdan foydalanish vaqtida qulayligiga ta'sirini tavsiflaydi:

- gigienik ko'rsatkichlar (namlik, gigroskopiklik, bug' o'tkazuvchanlik, sovuqdan himoyalaning imkoniyatlari v.b.), insonning hayot faoliyatining gigienik sharoitlariga matoning muvofiqligini aniqlaydi;

- qulaylik ko'rsatkichlari (tashqi zichlik, yo'g'onlik, dag'allik v.b.), insonning jismoniy va psixologik fazilatlarini mato bilan o'zaro muvofiqlik darajasini aniqlaydi.

3. *Ishonchlilik ko'rsatkichlari* matoda tashqi ko'rinish, o'lcham va shakl xususiyatlarini mahsulotning turli bosqichlarda yemirilishi, uning foydalanish vaqtidagi butunligi, shuningdek, uzoq vaqtga chidamliligini saqlab qoladi. To'qimachilik matolar uchun iste'moldagi ishonchlilik shaklan turg'unlik (nam ishlov berish va kimyoviy tozalash mobaynida shakli va o'lchamining saqlanib qolishi, g'ijim bo'lmasligi v.b.) va chidamlilik (tashqi ko'rinishning saqlanishi – bo'yoqlarni turli ta'sirlarga bardoshliligi, pillinglik, kirishish, tolali yuzani

yemirilishiga chidamliligi, ilmoqlarning yaxshilab mustahkamlanishi v.b.), shuningdek, bardoshliligi va uzoq muddatga chidamliligi (bukilish joylaridagi yemirilishga bardoshlilik, pishqlik xususiyatlari v.b.).

Ishonch ko'rsatkichlari to'qimachilik va noto'qimachilik matolardan bo'lgan mahsulotlarning puxtaligi va uzoq muddatga chidamliligini aniqlaydi.

4. *Estetik ko'rsatkichlar* matoning xususiyatlari va uning ko'rinishini aks ettiradi (badiiy-yorqin bezak, rang, rasm, tovlanish, tuzilish, bezak, material yuzasining sifati, shtrix va soyalar (tushyo), grif v.b.).

Ushbu ko'rsatkichlar matoning originallik va uslubiy muvofiqligini aniq bir davr uchun moda talablarini izohlaydi. To'qimachilik sanoat mahsulotlari uchun estetik ko'rsatkichlar birinchi darajali ahamiyatga ega – u mahsulotning ifodaviy axboroti, kompozitsiyaning yaxlitligi va ishlab chiqarish barkamolligini oldindan aniqlaydi.

5. *Texnologik ko'rsatkichlar* kiyimni tayyorlash jarayonidagi mato xususiyatlarini izohlaydi (masalan, inson ish faoliyati va salomatligiga qalin matoning ta'siri, mahsulotdan foydalanishdagi qulaylik).

6. Kiyim uchun matodan foydalanishdagi *xavfsizlik ko'rsatkichlari* matoning xavfsizligi va zarasizligi hamda insonni ushbu matolardan foydalanish vaqtida xavfli va zararli omillar ta'siridan himoya qila olish darajasini (masalan, matolarning allergiya qo'zg'ashi, kimyoviy tarkibining zaharliligi, yonuvchanlik, olovga chidamlilik, bakteriya va h.k.) aniqlaydi.

7. Mato sifatining *ekologik ko'rsatkichlari* uning tikuv mahsulotlarini qayta ishlash va iste'mol qilish jarayonining atrof-muhitga zararsizligini izohlaydi (masalan, qayta ishlash vaqtida chang zarralarining ajrab chiqish darajasi, zararli aralashmalar miqdori, o'tkir hidli gazli moddalarining ajrab chiqishi va h.k.).

Mato sifatining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari. Ushbu ko'rsatkichlarga standartlash, birxillashtirish, texnologik va iqtisodiy guruh kabilar kiradi.

Standartlash ko'rsatkichlari to'qimachilik matolarining tuzilishi, sifati va me'yoring standart ko'rsatkichlarga muvofiqlik darajasini aniqlaydi (tolali tarkibi, sirtining zichligi, ip asosining uzunlik zichligi, matoning qalinligi, sitilish va cho'zilishga moyillik, namlik va h.k.); *birxillashtirish ko'rsatkichlari* matoning

tuzilish parametrlaridagi maxsus talablarga muvofiqlik darajasini aniqlaydi (eni, to'qimachilik mahsulotining donabay uzunlik o'lchamlari va h.k.).

Texnologik ko'rsatkichlar (konstruktor-texnologik) matoning xususiyatlarini ishlab chiqarishga modellashtirish, loyihalash va kiyim tayyorlash texnologiyasiga bo'lgan ta'sirni izohlaydi (qalinligi, qattiqligi, burmabopligi, g'ijim bo'lish yoki bo'lmasligi, iplarning sitilishi va uzilishi, choklardagi iplarning tortilishi, butuniligiga deformatsiyalanishi). Ushbu ko'rsatkichlar aniq bir model va uning loyihasi, aniq matodan tayyorlangan mahsulotni ishlab chiqarishdagi muammolarni aniqlaydi, unga asosan matoning sarfi, chiqit miqdori, kengaytirish uchun qoldirilgan chok konstruksiyasi, uskuna, tikuv iplari va ignaning qanday turi tanlangani ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar aniq bir kiyim turi uchun sarf bo'ladigan aniq matodan foydalanishning iqtisodiy maqbulligini aniqlaydi, shuningdek, narx belgilaydi va mahsulotning hamyonbopligini ta'minlaydi (baho, matoning sarfi, qayta ishlashning qiyin kechishi, iste'moldagi ratsionallik, nav va h.k.). Iqtisodiy ko'rsatkichlar matoga bo'lgan umumiy talabning ahamiyatga ega bo'lgan qismini tashkil etadi. Ular u yoki bu mahsulotning mavjudligi va tayyorlanish imkoniyatini aniqlab beradi va bu holat, asosan, loyihalashtirish bosqichlarida amalga oshiriladi. Shu bilan bir qatorda, iqtisodiy ko'rsatkichlar mahsulotning mavjudlik jarayonini ham aks ettiradi. Uning estetik va funksional talablarga javob berishi, mahsulotning moda talablariga muvofiqligi, eng avvalo yuqori bahoni oladi. Ammo, vaqt o'tishi bilan, tabiiyki moda o'zgaradi, mahsulotning u yoki bu vazifasini yanada sifatli tarzda ta'minlab beradigan yangi matolar paydo bo'ladi. Natijada, tayyorlangan kiyimning narxi sezilarli darajada pasayib ketadi: uning ijtimoiy (axloqiy) bahosi yo'qoladi, biroq shunga qaramay, uning moddiy bahosi avvalgidek saqlanib qolishi ham mumkin.

5. *Texnologik ko'rsatkichlar* kiyimni tayyorlash jarayonida mato xususiyatlarini izohlaydi (masalan, inson ish faoliyati va salomatligiga matoning qalinligining ta'siri, mahsulotdan foydalanishdagi qulaylik).

6. Kiyim uchun matodan foydalanishdagi *xavfsizlik ko'rsatkichlari* matoning xavfsizligi va zarasizligi hamda insonni ushbu matolardan foydalanish vaqtida xavfli

va zararli omillar ta'siridan himoya darajasini (masalan, matolarning allergiya qo'zg'ashi, kimyoviy tarkibining zaharliligi, yonuvchanligi, olovga bardoshliligi, zamburug' v.b.) aniqlaydi.

7. Mato sifatining *ekologik ko'rsatkichlari* uning tikuv mahsulotlarini qayta ishlash va iste'mol qilish jarayonining atrof-muhitga zarasizligini izohlaydi (masalan, qayta ishlash vaqtida chang zarralarining ajrab chiqish darajasi, zararli aralashmalar miqdori, o'tkir hidli gazli moddalarning ajrab chiqishi va h.k.).

Sifatning ahamiyatli birlamchi ko'rsatkichining belgilanishi. Yuqorida ko'rsatilganidek, alohida turli matolarning sifatini aniqlash uchun birlamchi ko'rsatkichlarning katta miqdoridan foydalanishadi (ularning nomenklaturasi 20-30 nomdan iborat). Bu bir vazifani bajaradigan matoning kichik guruhi (10 ta nomgacha) uchun sifat darajasining tahlilini o'tkazishni sezilarli darajada murakkablashtiradi. Bir xil vazifaga javob beruvchi mato turlarining guruhi uchun bir necha o'nlikda o'zaro almashgan yoki mos matolarni o'zida jam qilgan tarzda, tahlilni o'tkazish mutlaqo mumkin emas. Yig'indidan iborat bo'lgan bahoga zaruriyat paydo bo'ladi, uning maqsadiga ko'ra foydalanishga yaroqliligini aniqlaydi va bir ko'rsatkichda mato sifatining eng muhim (asosiy) ko'rsatkichlarining butun bir majmuini birlashtiradi. Ushbu majmuaviy ko'rsatkich kiyim uchun turli matoning ahamiyatga molik bo'lgan sifat darajasini baholashga imkon beradi.

Sifatning guruhli ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda, mato sifatining umumiy baholanishdagi har bir birlamchi ko'rsatkichining ahamiyatliligi (zarurligi) aniqlanadi. Bunda mahsulotning sifatini baholashda kvalimetrik nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda, baholashning (GOST 23554.1-79) ekspert uslubidan keng foydalaniladi.

Mahsulot xususiyatlarining turli ahamiyatga egaligi mezon majmuasini qurishda hisobga olinadi, ya'ni sifatni umumiy baholashda ahamiyat kasb etadi. Qaysi bir ko'rsatkichning asosliligi zahirida mazkur xususiyatning va undagi ko'rsatkichning boshqa ko'rsatkichlar orasida mahsulot sifatiga bo'lgan munosabatining miqdoriy xususiyati tushuniladi. Demak, har bir xususiyat ko'rsatkichi bo'lak hissasini, sifatning umumlashgan ko'rsatkichini asoslilik koeffitsienti orqali xarakterlaydi.

Xususiyatning alohida ko'rsatkichlaridagi asoslilik ko'effitsientini aniqlash va yanada ahamiyatli xususiyatlarni ajratish uchun mutaxassis-ekspertlar guruhining savollariga asoslangan ekspert usulidan foydalaniladi. Bunda sifat ko'rsatkichining majmuasini o'rnatish uchun birlamchi ko'rsatkichning asoslilik ko'effitsientining yig'indisi birga teng bo'lishi kerak degan shart qo'yiladi: $\Sigma koef = 1$.

Xususiyat ko'rsatkichlarini tanlashda, aniq bir maqsadli matolarning sifatini baholashda ahamiyatsiz bo'lgan ko'rsatkichlar kiritilmaydi. (Masalan, ko'ylaklik matolarga, ya'ni aynan ushbu kiyim sinfiga ahamiyatli bo'lmagan issiqdan himoyalaniş ko'rsatkichi kiritilmagan). Sifatning umumlashgan ko'rsatkichi ham estetik xususiyatlarni o'z ichiga olmaydi, chunki ular instrumental uslub bilan baholanishi mumkin emas.

Sifatning estetik xususiyatlari. Kiyim uchun to'qimachilik matolari sifatining estetik ko'rsatkichlari, yuqorida aytilganidek, sifatning umumlashgan ko'rsatkichiga kiritilmaydi, chunki ular instrumental uslub bilan baholanmaydi. Bu ko'rsatkichlar, qoidaga binoan ballar bilan baholanadi. Biroq kundalik ahamiyatga ega matolar sifatining umumlashgan ko'rsatkichlarining asosliliği ekspert baholanish natijalari tahliliga ko'ra, uning darajasini umumiy baholashda estetik xususiyatlarning sifat ko'rsatkichi katta ahamiyatga ega. Ushbu ko'rsatkichlar guruhi odatda gigienik yoki shaklan turg'un ko'rsatkichlar bilan birinchi yoki ikkinchi o'rinlarni egallaydi.

Buni kundalik kiyimning, shu bilan birga matoning ham tashqi ko'rinishi, unga bo'lgan raqobatbardoshlik va iste'molchining mahsulotga bo'lgan talablarining shakllanishi muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan isbotlash mumkin. U yoki bu mahsulotni sotib olayotgan xaridor, birinchi navbatda o'zining estetik talablarini qondirish uchun mahsulotning tashqi ko'rinishiga e'tiborini qaratadi. Bunda u o'zining sub'ektiv his-tuyg'ulariga tayanadi (unga mahsulot yoqadi-yo'qmi, zamonaviy modaga talablariga javob beradimi yoki yo'qmi, uning imiji va shaxsiy fazilatlariga mos yoki yo'qmi va h.k).

Mato va undan yaratilgan mahsulotni o'zgaruvchan moda talablariga mosligi yoxud aniq madaniy an'analarga javob berishini faqatgina inson o'zining sub'ektiv idrokiga asoslanib belgilashi mumkin. Ushbu muvofiqlik yoki nomuvofiqlikning

ob'ektiv baholanishi faqatgina ekspert guruh, masalan, badiiy-texnik kengash ishtirokida bo'lishi mumkin. Ammo shuni ham unutmaslik kerakki, estetik xususiyatlar moda talablari tez-tez, har 2-3 yil ichida o'zgarib turishi sababli, matoning maqsadga muvofiqligini uzoq davr uchun aniqlay olmaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining estetik qo'rinishi tashqi bezakning o'ziga xosligiga bog'liq bo'ladi. Matoning fakturasi, to'qilishi, to'qilgan(trikotaj) yoki bosma surat, rangi va tusi, bezagi, yaraqlashi va h.k. – bularning barchasi badiiy-estetik bezakning umumiy tushunchasiga kiradi.

Matolarning tashqi bezak sifatining umumiy baholanishdagi muhimligini hisobga olsak, kundalik maqsadli to'qimachilik mahsulotlari standarti badiiy-estetik ko'rsatkichlarga bo'lgan talab orqali o'rnatiladi. Ushbu talablar, shuningdek, organoleptik (sifatning organoleptik ko'rsatkichi mahsulot sifatining miqdoriy qiymatini his qilish organlarining: ko'rish, sezish, hid bilish v.b. tahlili asosida aniqlash uchun xizmat qiladi) ko'rsatkichlarga ta'sir etadi, bulardan:

- badiiy-koloristik bezak (surat va rangning zamonaviy moda yo'nalishiga mosligi);
- tuzilishi (tolaviy tarkibi, to'qilishi, zichligi v.b.);
- bezak (maxsus ishlov bershganligi, appret bilan shimdirshganligi, bo'yash, tiqma, tukliliga, tush yo sifati v.b.).

Sifatning organoleptik ko'rsatkichi mahsulot sifatining miqdoriy qiymatini his qilish organlari: ko'rish, sezish, hid bilish v.b. asosida aniqlash uchun xizmat qiladi.

2.3.4. Mahsulot paketi uchun matolarni konfeksion tarzda tanlash

Matolar paketining konfeksion tanlovi tikuv mahsulotining aniq bir modeli uchun komponentlarning o'zaro muvofiq tanlovini o'z ichiga oladi, ya'ni aniq bir mahsulot yig'indisini (yoki bir tipdagi mahsulotlarning miqdorini aniqlash) konfeksion karta bilan mos holda, modelni tushirish jadvali, savdo tashkilotlari buyurtmasi yoki birlamchi buyurtma tushishiga binoan, mato va mahsulotga bo'lgan umumiy o'zaro muvofiq talabni hisobga olib, asosiy mato, astar, qo'shimcha va yordamchi ashyolar v.b. bilan ta'minlaydi.

Konfeksion kartalar har bir mahsulotning modeliga tuziladi va shakl (blank)ni ifodalaydi, unda modelning xomaki rasmi tayyorlanadi. Ushbu blankda o'lcham va bo'y ko'rsatiladi hamda bu model uchun (bo'lg'usi nav va rang) asosiy va astar mato namunalari mahkamlanadi. Yirik korxonalarda ommaviy yoki seriyaviy kiyim tayyorlashda munosib model uchun furnitura va bezak namunalari qoidaga binoan analogik kartaga joylanadi. Maishiy yoki kichik korxonalarda furnitura, bezak matolar namunasi asosiy va astar matolar bilan bir qatorda konfeksion kartada berilishi mumkin.

KONFEKSION KARTA

Mahsulot nomi_____ Tavsiya etiladigan o'lcham_____

Model_____ To'lalilik va yoshni hisobga oladigan guruh_____

Ishlab chiqargan tashkilot nomi _____

Tavsiya etiladigan mahsulotni parvarishlash uslublari_____

Model muallifi_____


Bezak nomi _____

	Mato vazifasi	Mato nomi	Namuna (yopishtirish lozim)

Konfeksiyalashuv jarayoni yoki kiyim uchun matoning konfeksion tanlovi, model va matolar aloqasini sxema ko'rinishida keltirish mumkin (2.1-rasm.).

Jarayonda mavjud texnologik va estetik talabga ko'ra, ikki xil aloqa ishtirok etadi: konfeksion va model, shuningdek ularning kombinatsiyasi. Konfeksiyalashuv jarayonida ikki element – model va asosiy mato ustun sanaladi. Ular ko'pincha mahsulot va unga muvofiq komponentlar (majmuaviy matolar) orasidagi aloqani

aniqlaydi. Tizimli biriktirma sxemalarining mavjudligi sabab, bir modelning majmuaviy mahsulotlarini loyiha mutaxassisining birinchi g'oyasiga muvofiqligini yanada to'g'ri aniqlashi mumkin. Bu tizimning unsurlari orasida to'g'ri va teskari birikmalar mavjud, ular mahsulot komponentlarining o'zaro ta'sirini aniqlaydi (masalan, asosiy mato va modelning o'zaro ta'siri yuzaga chiqariladi). Bu haqiqiy konfeksion fazilatlardan tashqari tashkiliy-texnologik sabablar, ya'ni omborda mato turining saqlanishi va miqdori, ushbu matoning tabiiy-mexanik xususiyatlari hamda geometrik parametrlari bilan o'zaro bog'liqligi.



2.1-rasm. Model va matolar aloqasi sxemasi

Shaxsiy (birlamchi) buyurtma bo'yicha «model – asosiy material» tizimiga mahsulot paketini yig'ishda buyurtmachining shaxsiy xususiyatlari va talablari model hamda konfeksion aloqalarga katta ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi paytda yangidan-yangi bo'g'inlar paydo bo'lmoqda, aloqalarning tashkiliy tizimi murakkablashib, yangilanmoqda. Zero, u mana bunday ko'rinishga ega: «buyurtmachi – model – asosiy material». Biroq konfeksiyalashuvning prinsiplari va asosiy masalalar avvaldagidek qolmoqda.

Matolarni konfeksion yig'ish vaqtida har bir paket komponentining ahamiyati va muhimligi kiyim turi va vazifasi bilan belgilanadi, shuningdek, keyingi bo'limda yanada yaqqol ko'rsatiladi. Bu yerda esa paketdagi material tarkibidagi ipning ahamiyatini ta'kidlab o'tmog'imiz zarur.

Tikuv iplari biriktiruvchi material bo'lib, mahsulotning asosiy komponenti hisoblanadi va to'plam jarayoniga shubhasiz muhim ta'sir ko'rsatadi. Alohida holatlarda, masalan, yengil ko'ylak yoki ichki kiyim tikish vaqtida asosiy mato va ipdan bo'lak boshqa komponentlar bo'lmasligi mumkin. Tikuv mahsulot komponentlari bilan to'g'ri va qarama-qarshi aloqasi bo'lgan ip, ularni qo'llash imkoniyatini bevosita aniqlaydi. Shu bilan birga ular ishlab chiqarish jarayonining bir maromda ketishiga ta'sir ko'rsatadi, chunki kerakli tur, raqam va rangdagi ipning yo'qligi mahsulot tikilishini sezilarli darajada murakkablashtiradi. Shuning uchun iplar tanlovida nafaqat model va asosiy materialning talabidan kelib chiqiladi, balki tikuv mahsulotining boshqa tarkibiy qismlarini ham hisobga olish lozim sanaladi. Barcha aloqalarni hisobga olish, unga bo'lgan talabni to'liq ravishda shakllantirishga imkoniyat yaratadi [6].

Ko'pqatlamli va ko'pkomponentli buyumlarni (masalan, qishki palto) yanada mayda tarkiblar va tugunlarga bo'lish mumkin, ulardan har biri butun boshli xususiyatlardan birini aks ettirishi ham ehtimoldan holi emas. Bu holda tikuv mahsulotining alohida unsurlariga hamda mahsulotga ushbu xususiyatlarining ta'sirini to'laligicha ko'rsatish lozim. Shunda «ip»ning komponentini uchta tarkibiy qism ko'rinishida tasavvur etish mumkin bo'ladi, bular – rang, raqam (matn) va pishiqligi yoki uni tur bo'yicha bo'lish ham mumkin: paxtalik, ipak, sintetik.

Konfeksiyalashuv jarayonining murakkabligi shundaki, unda korxona omboridagi cheklangan manbalar va konfeksioner tomonidan qayta ishlangan katta hajmdagi ma'lumotni aniqlash muhim sanaladi. Zero, bir xil asosiy materiallarni, astar v.b. korxona chiqaradigan turli modellarda qo'llash mumkinligini ham hisobga olish kerak.

Konfeksiyalashuvni tashkillashtirish darajasi nafaqat tikuv mahsulotlarining sifati va raqobatbardoshligiga, balki bichish vaqtida matoni ratsional va samarali

ishlatishga ham bog'liq. Har bir aniq buyum modeliga mato enining qandaydir cheklangan ko'pliklari mos keladi (ko'p hollarda bu ko'plik faqat bir elementni o'z ichiga olishi mumkin), bu ushbu model yoki buyumning bo'y-o'lchami uchun samarali hisoblanadi [6].

Ratsional kenglikdagi matolar uchun ishlab chiqilgan tikuv mahsuloti lekalalarini to'g'ri taxlash, andozalar orasidagi chiqindining minimal miqdorda bo'lishiga imkoniyat tug'diradi. Binobarin, ushbu modelga mos keladigan ma'lum kenglikdagi mato bo'laklari va tikuv buyumlarni to'plami yoki tanlov yo'li bilan materialdan sezilarli darajada muvaffaqiyatli foydalanish mumkin.

Tikuv buyumlar uchun to'plam materiallarining katta miqdorda mavjudligi (masalan, eng mukammallaridan biri – ayollar qishki paltosi) bayon etilgan sxema bo'yicha, uning muqabil variantdagi barcha komponentlarini topish nihoyatda mushkul. Yirik maxsus tikish korxonalarida katta miqdorda qayta ishlanadigan materiallar (va ularning parametrlarini) va turli xil modelning katta hajmdagi tikuv buyumlarini ishlab chiqarish, umuman mumkin emas.

Ushbu jarayonni EHM yordamida amalga oshirish nafaqat uni avtomatlashtirishga, balki katta hajmdagi ma'lumotlarni tezlik bilan qayta ishlashga ham yordam beradi. U shuningdek, tayyorlov-andoza sanoat tarmog'i boshqaruvi bilan bog'liq bo'lgan bir qancha shart-sharoit va cheklanishlarni, hamda boshqa masalalarni hisobga olgan holda, tikuv buyumlarini komplektatsiya qilish masalalarini yechishning optimal variantini taqdim etadi.

Boshqaruv va ishlab chiqarish jarayonida EHMDan samarali foydalanish uchun yetarli ma'lumot ta'minoti zarur, shuningdek, muvofiq jarayonlar uchun uning bir yo'nalishda bo'lish lozim. EHM yordamida konfeksiyalashuv jarayonini amalga oshirish asosiy ranglar va astarlik matolar, iplar, furnitura (yordamchi material) hamda ularning turi haqida ma'lumotlarni muvofiqlashtirish va kodlashni talab etadi.

2.4. Mato va kiyimga bo'lgan umumiy talablar

Konfeksiyalashuv deganda, nafaqat aniq bir buyum uchun materiallar paketini o'zaro tanlash jarayoni, balki uning sifatini aniqlaydigan xususiyatlarni oldindan

aytib berish imkoniyati ham tushuniladi. Ushbu jarayon «inson – kiyim – atrof-muhit» ko'p funksiyali tizimida masalaning aniq muqobil yechimini izlashdagi maksimal miqdordagi omillarni hisobga olishni nazarda tutadi.

Materiallarni tikuv buyumlari paketiga olish konfeksiyalashuvning asosiy tamoyili – kiyimlarga bo'lgan umumiy talablar bilan aniqlanadi. Kiyim va uning asosiy xususiyatlariga bo'lgan talablar mahsulotning turiga (pal'to, kostyum, ko'ylak v.b.), va uning maqsadiga ko'ra belgilanadi (erkak, ayol va bolalar pal'tosi, qishki va yozgi ayol va bolalar ko'ylagi v.b.).

Insonning kiyimi uning tana yuzasi bilan doimo o'zaro ta'sirda bo'ladi. Biror bir kiyimni kiygan vaqtida odamda issiqlik, salqinlik, sovuqlik, qulaylik va h.k. kabi hissiyotlar paydo bo'ladi. Bunday hollarda kiyim iqlim ta'siridan inson uchun nafaqat himoya vositasi bo'ladi, balki tana atrofida sun'iy mikroiklimni ham yaratadi. Ushbu mikroiklimning asosiy xususiyatlari bu – harorat, havoning nisbiy namligi va tarkibida karbonat kislota bo'lishidir (terini normal nafas olishi). Bu xususiyatlarlar asosan kiyimga bo'lgan tabiiy-gigienik talablarni o'zida aks ettiradi.

Kiyingan odam tanasining yuzasidagi *muqobil havo harorati* uning tabiiy faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Mutaxassislarning hisoblashicha, tinch holatida (o'tirgan holatda) kiyingan odam uchun tana yuzasi haroratining 30-33°C bo'lishi nafaqat qulaylik balki yaxshi kayfiyatni ham paydo qiladi (og'ir jismoniy mehnat qiladigan inson uchun 15°C) [7,27].

Bunday tana harorati inson organizmi va atrof-muhit orasidagi issiqlik muvozanati natijasida o'rnatiladi, u esa inson organizmidagi issiqlik chiqarish miqdorining – issiqlik chiqarish – issiqlik qaytarilishiga muvofiq bo'ladi.

Issiqlik qaytarishning har xil turi – o'zaro nisbati doimiy emas, u harorat, tashqi muhit havosining harakatlanishi, inson faoliyati turi va h.k.larga qarab o'zgarib turadi. Shunday qilib, libos matosi orqali issiqlik uzatib turiladi, ayniqsa, issiq o'tkazuvchanlik, havo qatlamlarida hamda libosning tashqi yuzasida issiqlikning tarqalishi va konvektsiya yo'li bilan amalga oshiriladi. Yuqori tashqi harorat hamda og'ir jismoniy mehnat bajarish natijasida issiqlik qaytarilishi bug'lanish orqali ortib boradi.

Libos ostida havoning nisbiy namligi (inson tanasi yuzasi va materiallar paketining pastki qatlami orasida) 35-60%ni tashkil etadi. Namlik teri yuzasidan atrof-muhitga doimiy ravishda o'tib turadi. Normal sharoitda inson mehnat qilayotganda hamda xotirjam holatda, tashqi havo harorati va libosga muvofiq holda teridan chiqadigan namlik libos matosi orqali shimilib ketadi, keyin esa atrof-muhitga bug'lanadi va tana quruq bo'lib qoladi. Libosning matosi va tuzilishi shunday tanlanishi kerakki, turli haroratda libos tagida ko'rsatilgan namlikni saqlash, tashqi muhit havosi namligi hamda teridan ter chiqarish darajasini ta'minlab turishi zarur.

Uzluksiz ravishda teri uglekislota chiqaradi va kislorod qabul qiladi (bu terining nafas olishi deb ataladi). Inson terisi nafas olishining normal darajasi, insonning normal hayot faoliyati sharoitida zarur hisoblanadi.

Libos osti qatlamidagi havoda ugleksilota tarkibi 0,8%dan oshmasligi lozim, chunki bu inson salomatligiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Tashqi havoning yuqori haroratida, qizg'in mehnat, yugurish yoki juda tez yurish, shuningdek juda issiq libos kiyish natijasida tanada qizish holati yuz beradi va teri yuzasidan nafaqat bug', balki ter ko'rinishidagi suyuqlik tarzidagi tomchi – namlik ajralib chiqadi. Ushbu namlikni tana yuzasidan shimib olish uchun libos yuqori gigroskopik holatda bo'lishi lozim. Libosni loyihalashtirishda ko'pter chiqarishning oldini olishda turli sharoitlar uchun yaxshi ko'rsatkichdagi mikroiklimli libos yaratish uslublarini bilish zarur.

Materiallar uchun muhim talab bu – atrof-muhit bilan inson organizmining normal issiqlik, havo va gaz almashinuvini, tana haroratining normal darajasi, teri namligi va teri nafas olishini ta'minlashidir. Bu talablar libos matosining muqobil ko'rsatkichlarining havo o'tkazuvchanlik, bug' o'tkazuvchanlik, gigroskopik, issiqlik qarshiligi va h.k.lar kabi xususiyatlar uchun ishlatilishi ham ehtimoldan holi emas. Ular kiyiladigan libosning inson hayot-faoliyati va tabiiy-iqlim mintaqasi sharoitiga bog'liq holda differentsiyalashishi mumkin. Ushbu mato xususiyatlari libosning gigienik talablarga mos bo'lgan va uni ergonomikligini tavsiflovchi asosiy parametrlari 2.1. jadvalda keltirilgan.

Mato xususiyatlari libosning gigienik talablarga mos bo'lgan va uni ergonomikligini tavsiflovchi asosiy parametrlari

Matoning xususiyatlari	Ich kiyim matolari		Ko'ylak, bluzka, sorochka matolari		Kostyum matolari		Astar matolar	Pal'to matolari
	Qishki libosda	Yozgi libosda	Qishki libosda	Yozgi libosda	Qishki libosda	Yozgi libosda		
Havo o'tkazuvchanligi $\text{dm}^3/(\text{m}^2 \cdot \text{s})$	50-100*	100 dan kam bo'lmagan	100 dan kam bo'lmagan	330-370* dan kam bo'lmagan	100 dan kam bo'lmagan	150 dan kam bo'lmagan	100 dan kam bo'lmagan	7-60 (shamol tezligiga bog'liq)
Bug' o'tkazuvchanligi $\text{g}/\text{m}^2 \cdot \text{ch}$	52-56*	56 dan kam bo'lmagan	50 dan kam bo'lmagan	56 dan kam bo'lmagan	40 dan kam bo'lmagan	40 dan kam bo'lmagan	50 dan kam bo'lmagan	40 dan kam bo'lmagan
Namligi (havo namligining konditsionligi) 65%), %	7dan kam bo'lmagan	7dan kam bo'lmagan	7dan kam bo'lmagan	7dan kam bo'lmagan	7-13	7dan kam bo'lmagan	7dan kam bo'lmagan	13dan kam bo'lmagan

* Gidrofil va gidrofob tolalardan qilingan matolar uchun.

Libosning *issiqlik himoya funksiyasi* insonni sovuqdan hamda issiqdan himoya qilishga yo'naltirilgan. Quyosh radiatsiyasi sharoitida $+25^{\circ}\text{C}$ dan ortiq haroratda inson organizmini qizib ketishidan himoya qiladigan libos bo'lishi kerak. Libos yordamida ultrabinafsha nurlanishining ko'payishini boshqarish mumkin: ayrim tana qismlarini ochish – bo'yin, qo'l, oyoq va h.k.lar albatta shunga mos xususiyatli matolar tanlanadi.

Mutaxassislarning ma'lumotiga ko'ra [7], eng kam qizib ketadigan xususiyatga ega zig'ir tolali matolar, kam quyosh nurini o'tkazish xususiyatiga ega – zig'ir tolali va pishiq paxtalik matolar (6-8%), ko'proq – ipak va shtapel (30-38%gacha).

Atrof-muhitning past haroratida libos himoya funksiyasini bajarishi lozim, ya'ni tashqi muhitda issiqlik yo'qotishni ushlab turish darkor. Bunday hollarda qoidaga ko'ra, yuqori issiqlik himoya xususiyatiga ega matolar ishlatiladi.

Libosning issiqlik qarshiligi sarfi insonning quvvat ketkazish miqdori, berilgan meteorologik sharoitlarda bo'lish vaqti, atrof-muhit harorati, shamol tezligi va libosning havo o'tkazuvchanligi orqali hisobga olinadi.

Libos uchun mo'ljallangan mato va boshqa materiallarning issiqlik qarshiligini aniqlash uchun eng avvalo, uning qalinligi, materialning kovakchanligi va hajmi, tolasi hamda kovakchalarida harakatsiz havo tarkibining miqdorini aniqlash lozim. Qanchalik qalin, hajmi kichik va ko'proq kovakchan bo'lsa, mato shunchalik ideal issiqlik izolyatori – harakatsiz havoli bo'lishiga yaqinlashadi.

Libosning issiqlik qarshiligining qiymat miqdori turli iqlim mintaqalaridagi qish oylarining sutkada o'rtacha qo'llanilishi 2.2. jadvalda keltirilgan.

Libosning issiqlik qarshiligi insonning 1 soat davomida turli iqlim mintaqasida normal issiqlik his qilishini ta'minlash uchun zarur.

2.2. jadval

Libosning issiqlik qarshiligining qiymat miqdori turli iqlim mintaqalaridagi qish oylarining sutkada o'rtacha qo'llanilishi

Iqlim mintaqasi	Libosning issiqlik qarshiligi, $m^2 \cdot ^\circ S/Vt$	
	O'rtacha tortilganda	Tana atrofida
II	0,44	0,70
III	0,37	0,59
IV	0,33	0,52
V	0,28	0,45

Libos paketini yig'ishda alohida libos turlarining issiqlik qarshiligi haqidagi taxminiy ma'lumotlardan foydalanish mumkin [7], 0,08dan boshlab o'zgarib turadi (yozgi ko'ylak) do $0,95 m^2 \cdot ^\circ C/Vt$ (issiqlashtirilgan arktik libos). Kostyum va yomg'irpo'sh o'rtacha 0,23—0,25 issiqlik qarshiligiga ega, demisezon palto — 0,3-0,4, qishki palto — $0,45-0,75 m^2 \cdot ^\circ C/Vt$ (paket materiallar zichligidagi palto 9-17 mm.).

Insonning jismoniy ehtiyojlarini qondirish va libos qulayligini yaratishda mahsulot hajmi va uning unsurlari katta ahamiyatga ega. Libosning katta hajmi insonning qo'shimcha quvvat ketkazishiga olib keladi va uning harakat aktivligini pasaytiladi. Bu kabi libosda inson tezda charchab qoladi, ayniqsa bu keksalar va bolalarga tegishli. Libos hajmining ortishi, eng avvalo issiqlik himoya xususiyatlari bilan ta'minlashga bog'liq (mo'tadil iqlim sharoitlaridagi qishki libos hajmi 8-10 kg. ni tashkil etadi, ya'ni inson tanasi hajmining 12-14 %, Uzoq Shimol sharoitida 15-16 kg, ya'ni 18%gacha) [27].

Libos hajmi matoning tashqi zichligi (1 m² hajmda), aniq mahsulot paketining qatlamlari miqdori, libos paketi qatlamlari va ularning o'lchamiga bog'liq. Matoning tashqi zichligi keng ko'lamda – ot 20 do 750 g/m²gacha o'zgarib turadi va materialning hamda tikuv mahsulotining maqsadini aniqlaydi. Turli maqsadga ega to'qimachilik materiallarning tashqi zichligining taxminiy qiymati 2.3. jadvalda keltirilgan.

2.3. jadval

Turli maqsadga ega to'qimachilik materiallari tashqi zichligining taxminiy qiymati

Materiallarning vazifasi	Tashqi zichligi, g/m ²
1	2
Korset materiallar	150-300
Ich kiyim matolari:	
paxtalik	80-200
Zig'ir tolali	120-170
Ko'ylak matolari:	
paxtalik	80-160
ipak	40-160
aralash	110-160
Ko'ylak, bluzka matolari:	
paxtalik	60-200
Zig'ir tolali	140-300
junli	140-250
ipak	20-260
astarli	50-150

1	2
Kostyumli, astarli matolar:	
paxtatolik	180-300
Zig'ir tolali	200-400
junli	220-350
ipak	150-230
Bortli qistirmalar	100-300
Palto matolari:	
junli	300-700
yomg'irpo'sh matolari	200-300
Trikotaj polotno:	
Ich kiyim, bluzka, ko'ylak uchun	35-250
Ust libos uchun	90-460

Libosning qulayligiga, odam o'zini yaxshi his qilishi uchun, uning jismoniy ehtiyojlarini qondirishga materialning egiluvchanligi va tarangligi hamda qattiqligi, bo'rmabopligi, g'ijim bo'lishi yoxud bo'lmasligi kabi tavsifli materiallar katta ahamiyatga ega (2.4—2.6 jadval). Xuddi shu ko'rsatkichlar libosning estetikligi va materialning texnologik ko'rsatkichlarida aks etadi.

2.4. jadval

Turli vazifaga ega materiallarning shartli qattiqligining taxminiy qiymati, [4].

Materiallarning vazifasi	Shartli qattiqligi, mkN • sm ²
1	2
Palto uchun matolar:	
	30 000-50 000
ayollar	20 000-100 000
Kostyumlar uchun mato	4000-9000
Ko'ylak va ko'ylaklar uchun mato	7000 gacha
Yoshlar uchun jinsi matolar:	50 000-120 000 (tanda bo'yicha) 5000-50 000 (arqoq bo'yicha)
O'rta va katta yoshdagilar uchun	20 000-50 000 (tanda bo'yicha) 10 000- 15 000 (arqoq bo'yicha)

1	2
Bolalar uchun	1000-25 000 (tanda bo'yicha) 5000-10 000 (arqoq bo'yicha)
Cho'ntak astari uchun mato	3000-10 000
Yelim qoplamali qistirma matolar:	
palto	2000-7000
kostyum	1000-5000
yomg'irpo'sh	1000-2000
ko'ylak	500-1000
Trikotaj matolar:	
palto	15000 gacha
kostyum	7000-10 000 (eni bo'yicha)
Cho'ntak astari uchun trikotaj polotnolar	1000 (uzunligi bo'yicha) 3000 (eni bo'yicha)

2.5. jadval

Turli maqsadga ega materiallar uchun bo'rmaboplik koeffitsientining taxmini
qiymati, [4].

Maqsadi	Qiymatdagi bo'rmaboplash bahosi Kd, %		
	yaxshi, ko'proq	qoniqarli	yomon, kamroq
Ipak	85	75-85	75
paxtalik	65	45-65	45
Junli:			
Ko'ylak	80	68-80	68
kostyum	65	50-65	50
palto	65	42-65	42

Ayrim turdagi to'qimachilik materiallar uchun g'ijim bo'lmaslik me'yorlari, [4]

Matolar	G'ijim bo'lmasligi, %, dan kam bo'lmagan	Davlat standart
1	2	3
Paxtalik sintetik smolali bezak bilan:		
ko'ylakli	220, 185 (yuvishdan so'ng)	29298-92
ko'ylakli	200,175 (yuvishdan so'ng)	
Kesma tukli paxtalik (baxmal)	150(190) (ximchistkadan so'ng) 135(175) (5 ximchistkadan so'ng)	9727-87
Zig'ir va yarim zig'ir tolali liboslar	25	15 968-87
Zig'ir va yarim zig'ir tolali kam g'ijim bo'ladigan bezakli liboslar	42	15 968-87
Tarkibida lavsan bo'lgan zig'ir- lavsanli:	50	15 968-87
50 %dan kam	55	15 968-87
50 % dan ko'p		
Tabiiy burama ipakdan bo'lgan ko'ylakli	30	20-723-89
Ipak va yarim ipak jakkard ko'ylak-kostyumli:		
sintetik	46	28 253-89
qolgani	30	28 253-89
1	2	3

Sintetik iplardan bo'lgan (tanda bo'yicha) va boshqa turdagi iplardan (arkok bo'yicha) ipak:	46	28 253-89
ko'ylakli	46	5 067-82
ko'ylak-kostyumli		
Ko'ylak-kostyumli viskozadan	50	
Toza junli ko'ylakli	0,3*	28 253-89
Yarim junli:		
Lavsan bilan	0,4*	28 000-88
Boshqa tolalar bilan	0,6*	28 000-88

* 18117—80 DST bo'yicha g'ijim bo'lmasligi ko'rsatilgan.

To'qimachilik materiallarining juda muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan nam ishlov berilgan va kimyoviy tozalashda – kirishib ketishning chiziqli o'lchamlarini o'zgarish ko'rsatkichidir.

Foydalanish vaqtida chiziqli o'lchamlarning o'zgarishi juda noma'qul va nobop bo'ladi, chunki bu libosning tashqi ko'rinishi hamda alohida elementlar shaklining o'zgarishiga olib keladi. Ushbu ko'rsatkich GOST bilan me'yorlashadi (2.7. jadval).

2.7. jadval

Turli matolar uchun libosning o'tirib qolishi me'yorlari

Mato turi	Libosning kirishtirib qolishi ruxsat etilganligi, %, dan oshmagan	
	tanda bo'yicha	arqoq
Paxtalik:		
ich kiyimli	5,0	2,0
sorochkali	2,0-3,0	2,0
ko'ylakli	3,5-5,0	2,0
Zig'ir va yarim zig'ir tolali:		
ich kiyimli	5,0-5,5	3,5-4,0
kostyumli (50 % lavsan)	3,5	2,0

Ipak va yarim ipak:		
Erkaklar kuylaklik	3,5	2,0
Tabiiy ipak va viskoza iplaridan ko'ylakli	3,5-50	2,0
Sintetik iplardan ko'ylakli	1,5	1,5
astarli	3,5-5,0	2,0
Jun:		
Toza junli yoki tarkibida viskoza tolalari 1dan 50%gacha bo'lgan ko'ylakli	3,5	3,5
Tarkibida kapron va lavsan 50%gacha bo'lgan ko'ylakli	1,5	1,5

To'qimachilik materiallarini pilling bo'lish va ishqalanishi nafaqat libosning tashqi ko'rinishiga, balki uning uzoq vaqtga chidamliligiga ham ta'sir etadi. Turli xil matolarning ishqalanishiga chidamligining taxminiy qiymatlari 2.8. jadvalda berilgan.

2.8. jadval

Turli xil matolarning ishqalanishiga chidamligining taxminiy qiymatlari

Mato turi	Ishqalanib ketishiga bardoshliligi, sikllar
1	2
Paxtalik:	
Ichki kiyim uchun	1400-2000
Erkak ko'ylagi uchun	300-800
Ko'ylak uchun	800-3000
Zig'ir tolali:	
Ich kiyim uchun	6000-15 000
Libos uchun	6000-100 000
Zig'ir lavsanli:	
kostyum-ko'ylak uchun	15 000
Tabiiy ipakdan libos uchun	75-110
ipak va yarim ipak ko'ylak-kostyum uchun	250-400

1	2
Kimyoviy va yigirilgan ipdan astar uchun	1000-1500
Toza jun va yarim jundan libos uchun	2000-4000
Kostyum uchun: Sof junli Yarim junli	2500-5000 4000-5000
Palto uchun: Sof junli Yarim junli	5000 14 000

2.5. Korset mahsuloti va ichki kiyim uchun materiallarning konfeksiyalashuvi. Ichki kiyim (ichdan kiyiladigan) – bu korset mahsulotlariga yoki bevosita inson tanasiga kiyiladigan buyumdur. Bunga ichki va tungi kuylaklar, penyuarlar, pijamalar, yubkalar, maykalar, kalsonlar, pantolonlar, kombinashkalar, sport fufaykalari, yo’l-yo’l ichki ko’ylak, raspashonkalar, polzunkalar (ishtonchalar) v.b. shuningdek, korset mahsulotlar – siynabandlar, gratsiyalar, yarim gratsiyalar, belbog’lar va h.k.lar kiradi.

Inson tanasiga tegib turib, uning 80%gacha yopib turadigan ich kiyim va albatta ich kiyim materiallari harorat, teri namligi va unga tegib turadigan havo qatlamiga muhim darajada ta’sir ko’rsatib, teri qatlamlarining me’yoriy bo’lishini ta’minlaydi. Ichki kiyim tanani ifloslanishdan, sovuq va qurib ketishdan saqlaydi.

Ichki kiyimlar, ayniqsa, bolalar kiyimi uchun materiallar konfeksiyalashuvi printsipli ergonomik talablar va foydalanish vaqtidagi ishonch talablari orqali aniqlanadi.

Ichki kiyimning muhim xususiyatlaridan uning gigienik ko’rsatkichlari va qulayligi tomonidan baholanadigan ergonomikligi hisoblanadi.

Ichki kiyim o’zining gigienik funktsiyasini bajarishini ta’minlash maqsadida ichki kiyim va korset materiallari, paypoq talabiga binoan havo o’tkazuvchan, gigroskopik va suv shimadigan bo’lishi kerak. U tomchili-suyuq namlik, ya’ni ter bug’lanishiga va ajralib chiqishiga to’sqinlik qilmasligi, teriga nam holatda yopishmasligi hamda noqulaylik tug’dirmasligi lozim. Ichki kiyim shimib olgan

namlik tashqi muhitga oson tarzda chiqib ketishi kerak. Ichki kiyimning iqlim sharoitiga muvofiq havo o'tkazuvchan, bug' o'tkazuvchan, gigroskopik taxminiy ko'rsatkichlari 2.1. jadvalda keltirilgan.

Materiallar qamroq elektrlanishga ega bo'lishi kerak (ruxsat etilgan maksimal elektrlanish $\rho = 1,12 \cdot 10^8 \text{ Om} \cdot \text{sm}$ havoning nisbiy namligi 64 %), qishki ichki kiyim uchun esa – biroz issiqlik o'tkazuvchan (issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti $K = 0,070 \text{ Vt/mK}$, [12].

Ichki kiyim qulayligi materiallarning tashqi zichligi (2.3. jadval), biroz qalinligi (0,24 do 0,54 mm.gacha o'zgarib turadi), yumshoqligi va yoqimli tushyo, egiluvchan va elastikligi (trikotaj mato)ga bog'liq.

Ichki kiyim materiallari foydalanishdagi ishonchli talablarga muvofiq bo'lishi lozim: ko'p yuvilishga bardoshli bo'lishi (70-80gacha); yassilik bo'yicha yemirilib ketishga chidamli bo'lishi (masalan, eng chidamsiz ipak matolar uchun – 500 siklgacha); iplarni ochilib ketishga chidamli 2,5 daN dan kam. Ipgazlamali ichki kiyimlarning kirishtirib qolishi arkok bo'yicha 3,5 %dan kam bo'lmagan va tanda bo'yicha 2,0%; zig'ir tolali – arkok bo'yicha 5,5 % dan kam bo'lmagani tanda bo'yicha 3,0 %; trikotaj polotnolar uchun – 3-12 % (ishlab chiqarish uslubiga qarab va GOST 26289-84 – tolali ashyo). Ichki kiyimlar turli ta'sirdagi bo'yalishga bardoshliligi juda pishiq yoki puxta guruhga kiradi (GOST 7913-74; GOST 7779-74; GOST 2351-77).

Korset materiallardan, ergonomik talablardan tashqari o'ziga xos talablar ham taqdim etiladi, bu ularning funktsionalligi bilan bog'liq: tarangligi, shakl saqlash xususiyatning o'zgarmasligi va mustahkamligi. Ushbu materiallardan bo'lgan buyumlar inson tanasi shaklining xushbichimligini ta'minlashi va shu bilan bir qatorda harakatini pasaytirmasligi ham lozim.

Korset matolarning shaklan o'zgarmasligi, uning qattiqligini (u 5000dan 130 000 mkN·sm²gacha o'zgarib turadi), cho'zilib ketishga bardoshliligini ta'minlaydi. Spandeks yoki kapron iplar to'plami va elastik bilan qo'shilgan holda laykra iplaridan bo'lgan trikotaj elastik matolarning shakli o'zgarmasligi plastik deformatsiyalar yig'masdan turli xarakterdagi ko'plab ta'sirlarga chidamli bo'lish xususiyatini

tavsiflaydi. Korset matolarda iplarning to'kilishi 3 mm.dan ko'p bo'lmasligi, iplarning ochilib ketishi esa –2-2,5 daN dan ko'p bo'lmasligi lozim.

Ko'rkam ichki kiyimlar uchun matolarga zamonaviy moda talablari aks etgan yuqori estetik talablar qo'yiladi (yuqori darajadagi ichki kiyim) – polotnolar ishlab chiqarishning puxtaligi, go'zal ranglar yechimi, kashta, tikish yoki jimjima to'rlarni o'z ichiga olgan nafis naqshlar majmui va boshqalar.

Oqartirilgan ipgazlamasining oqlik darajasi 82 %dan, zig'ir tolalilar – 80 % dan kam bo'lmasligi kerak. Tekis bo'yalgan polotnolar och mayin ranglarga bo'yaladi, bosmalari asosiy oq-jigarrangda ishlanadi (30-50 % maydonni egallaydigan rasm bilan).

Ertalabki libos uchun kechki kiyim ustidan penyuar yoki xalat kiyiladi. Ko'p hollarda ular kechki kuylak yoki pijama majmuida bo'ladi, unda ularning materiallari, bezagi, og'irligi va hajmi, ya'ni ularning rang va kompozitsion yechimi o'zaro shartlangan bo'lishi kerak.

Ichki kiyimning assortimentiga – ipgazlama, viskoza, atsetat, poliamid, poliamid-viskoza (50/50)lar kiradi. Bundan tashqari, ichki kiyim va cho'milish xalatlari uchun zamonaviy to'qilmagan mato hamda trikotaj tipidagi matolardan foydalaniladi.

Tabiiy, kimyoviy tolalardan va ularning aralashmalaridan bo'lgan ichki kiyim materiallarining gigienik xususiyati turlichadir. Bularni ichki kiyimdan foydalanish va tayyorlashda hisobga olish lozim.

Ichki kiyimni gigienik baholashda etalon bo'lib, paxta-mato va trikotajdan bo'lgan ichki kiyim hisoblanadi, inson tanasi ustidagi namlikni shimib olish hamda tashqi muhitga chiqarib tashlash xususiyatiga ega bo'lishi lozim. Bu kabi ichki kiyim o'zining gigienik xususiyatlarini yo'qotmagan holda, ko'p yuvishga chidamli bo'ladi.

Ipgazlama. Ichki kiyim ipgazlama assortimenti o'z ichiga: chitlar, xomsurplar, oqartirilgan mitkallar (ipgazlama matolarning oqartirilgan guruhi), muslinlar, ipak gazlamalar, batistlar, shuningdek jundan to'qilgan matolar, qishki kiyimlar hamda bolalar ichki kiyimi uchun foydalaniladigan pahmoq matolarni oladi.

Korset mahsulotlar uchun satin va jakkard matolardan, damast va gratsiyadan foydalanildi, ularni oqartirib, tekis bo'yab, «gratsiya» matosini esa bostirma gulli ham qilib chiqarishadi. Bundan tashqari, elastik bezakli ipgazlamadan bo'lgan korset matolar ishlab chiqariladi, ular yuqori chidamliligi bilan hamda turli deformatsiyalardan so'ng o'z shaklini qaytadan tiklab olish xususiyatiga ega.

Zig'ir tolali matolar. Ingichka zig'ir va yarim zig'ir tolali matodan bo'lgan ichki kiyim (tungi ko'ylaklar) yaxshi gigienik xususiyatlarga ega, ayniqsa faslning issiq kunlarida, chunki uning yuqori nam tortuvchanlik va sovutib turish ta'siriga ega. Zig'ir tolali matolarni oqartirilgan, yaltiroq yuzali qilib ishlab chiqishadi. Yarim zig'ir tolali matolar xira yuzali va toza zig'ir tolali matodan farqli o'laroq, asosi bo'yicha yuqori cho'ziluvchan bo'ladi.

Ipak matolar. Toza ipak matolar, masalan, krepdishin, nafaqat yaxshi gigienik ko'rsatkichlarga, balki go'zal estetik xususiyatga ham egadir. Biroq u qimmatligi sababli, asosan bashang ichki kiyimlar uchun ishlatiladi.

Ayollar libosi predmetlari uchun ipak korset matolar, atlas, damassy o v.b. qo'llaniladi. Ipak kimyoviy tolalardan bo'lgan materiallar juda keng qo'llaniladi.

Ichki kiyim uchun trikotaj matolar ayniqsa keng qo'llaniladi. Asosiy iste'mol xususiyatlarga ko'ra, ichki kiyimli trikotaj matolar ichki kiyim matolariga qaraganda sezilarli darajada ustundir. Ular yaxshi gigienik xususiyatga ega (2.9. jadval), yumshoq, elastik, yuqori cho'ziluvchanlikka ega, yemirshlishga chidamli.

Ichki kiyim trikotaj matolari oqartirilgan, och ranglarga bo'yalgan, olachipor to'qilgan va nafis bosma rasmlil qilib ishlab chiqiladi. Ular koloristik va estetik ko'rsatkichlarga ko'ra turlichadir.

Keyingi vaqtlarda yangilik va betakrorlikka ega yangi trikotaj polotno ishlab chikarilmoqda. Ular yo qo'lda to'qilganga o'xshatilgan bo'ladi, yoki mayda ko'z-ko'z kashta rasmlil, yuqori cho'ziluvchan bo'lib, yoqimli yumshoq tushyo bilan ajralib turadi. Korset ayollar mahsuloti, cho'milish kostyumlari uchun elastik trikotaj matolar keng ko'lamga ega, ular qomatga yopishib turishni ta'minlaydi, g'ijim bo'lmaydi, dazmolga muhtoj emas, oson yuviladi va tez quriydi. Yuqorida

ko'rsatilgan matolardan ichki kiyim tayyorlash uchun past tarkibli gidrofob tolali gidrofil materiallardan bo'lgan ichki kiyimlar eng yaroqlidir.

2.9. jadval

Turli tolali tarkibga ega ichki kiyimlik trikotaj matosining tabiiy-gigienik ko'rsatkichlari, [7].

Polotnolar	Havo o'tkazuvchanlik, $\text{dm}^3/(\text{m}^2 \cdot \text{s})$	Gigroskopiklik, %	Namo'tkazuvchanlik qiymati, g/ $(\text{m}^2 \cdot \text{ch})$	Suvshimibiganligi, %	Kapillyarlik mm
Ipgazlama	51-480	8-16	95-130	62-95	20-110
Viskozali	40-1350	13-24	100-120	65-80	102-160
Atsetatli	72-755	5-7	75-85	41-50	88-140
Poliamidli	42-280	3-4	56	25-56	8-65
Poliamid-viskozali (50/50)	25-140	7-8	77-87	30-39	80-105
Paxtalavsanli (50/50)	15-42	5-8	83-87	52-58	25
Polivinil-xloridli	25	0,2	52	21	27

* Matoning gigroskopikligi 98-100% nisbiy havo namligida aniqlangan.

Kimyoviy tolalardan bo'lgan ichki kiyimlar o'z tarkibi, qurilishi, yuza xarakteriga ko'ra, inson sog'ligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ayrim materiallar yuqori elektrlarsh, past sorbitsion xususiyatli, teri ajratmalarini past darajada shimib oladi, tez ifloslanadi va h.k.lar. Shu bilan birga sintetik materiallardan bo'lgan ichki kiyimlar juda chidamli va bir xil chiziqli o'lchamga ega. Sintetik tolalardan bo'lgan ichki kiyimni aniq shartlarga amal qilgan holda liboslar paketining birinchi qatlamida qo'llash mumkin: atrof-muhitdagi harorat intervallari va insonning jismoniy kuchi ketganda ko'p darajada teri ajratishi kuzatilmagan holda libosdan foydalanish; antistatik vositalardan foydalangan holda materiallarning past darajada elektrlanish natijasiga erishish. Ushbu libosning keyingi paket qatlamlarida gidrofil tolalardan bo'lgan materiallardan foydalanish mo'ljallanmoqda.

Sintetik tolalardan bo'lgan yuqori dag'allikdagi ichki kiyim materiallari inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, qichima, terining o'zgarishiga, organizmning tashqi to'qimalarining qon aylanishiga buzilishiga olib keladi.

Viskoza tolalardan bo'lgan ichki kiyim yuqori gigroskopiklik va havo o'tkazuvchanlik bilan ajralib turadi. Viskozali ichki kiyimning ipgazlamalisiga qaraganda issiqlikdan himoyalinish ko'rsatkichlari yuqori emas, shuning uchun undan faqat faslning issiq kunlarida foydalanish tavsiya etiladi. Atsetat va uchlarma atsetat tolalardan bo'lgan ichki kiyim materiallarining past darajadagi gigroskopiklik va yuqori darajadagi elektrlanishi hozirgi vaqtda ulardan ichki kiyim sifatida foydalanishning pasayib ketishishga sabab bo'lmoqda.

Mutaxassislarning tadqiqotlari natijasi bo'yicha [7], poliamid tolalar va paxta aralashmasidan bo'lgan ichki kiyim materiallarida paxta tarkibi 50%dan kam bo'lmasligi, poliefir tolalar va paxta aralashmasida – 60%dan kam bo'lmasligi, poliakrilonitril tolalar paxta aralashmasida – 90% dan kam bo'lmasligi lozim. Viskoza tola va polivinil-xlorid aralashmasida viskozali tolalar tarkibi 95 % dan kam bo'lmasligi kerak.

2.6. Ko'ylak, bluzka, erkaklar ko'ylagi uchun materiallar konfeksiyalashuvi. Ko'ylak, bluzka va erkaklar ko'ylagi mahsulotlari assortimenti turlicha, har kuni va uyda kiyish uchun shuningdek, tantana-marosimlarga (kechki ko'ylaklar, ansambllar, to'y mahsulotlari, kokteyl uchun ko'ylaklar, bitiruv oqshomi, estrada, diniy marosimlar uchun v.b.) mo'ljallangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi.

Qoidaga binoan, ushbu mahsulotlar libosning ko'pqatlamli paketida ikkinchi bo'lib hisoblanib, ichki kiyim ustidan kiyiladi.

Mavsumga qarab uy va kundalik ko'ylak-sorochka mahsulotlari yozgi, demisezon va qishkiga bo'linadi; bu assortimentga kiradigan ko'ylak va bluzkalar ayollar va bolalar, maktabgacha va maktab davri yoshlarnikiga bo'linadi; sorochkalar bo'lsa erkaklar va o'g'il bolalarnikiga bo'linadi.

Tantanalar uchun mahsulotlar (ularni bashang libos deb atashadi) mavsumga bo'linmaydi – ular ushbu holatning ahamiyatiga qarab mos bo'lishi kerak. Ularning bashangligi materialning rangi, fakturasi, yangiligi, modaning zamonaviy

yo'nalishiga mos keladigan, yaxshi va mohirona tanlangan bezak va zeb-ziynatlar bilan aniqlanadi.

Ko'ylak, bluzka va erkaklar ko'ylagi uchun materiallarning iste'molchi xususiyatlariga talablar va konfeksiyalashuv maqsadi, mavsumi, yoshiga qarab differentsial o'rnatiladi, shaxsiy iste'molchi uchun uning didi, moda yo'nalishi, moliyaviy imkoniyatiga bog'liq bo'ladi.

Ko'ylak va bluzkalarining konfeksiyalashuvida alohida tugun va qismlarning shaklan o'zgarmasligini oshirish uchun zichligi 110 g/m^2 gacha bo'lgan yengil va ingichka astarlik materiallardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Erkaklar ko'ylagi manjeti va yoqasi uchun materiallar tabiiy-mexanik xususiyatiga qarab tanlanadi. Bu termoyelimli astar material bir maromli, bir tomonlama xol-xol yuzali (276 artikul) yoki bir tekis polietilen yuzali astarli yoqa materialdir.

Kundalik va uyda kiyiladigan ko'ylak-sorochka mahsulotlarining eng muhim sifatlari bu ergonomiklik, xususiyatlarning gigienik ko'rsatkichlarini tavsiflaydi, libos qulayligi, saqlash xususiyatligi, ishonchliligi va estetikligini ta'minlab turadi.

Sovuqdan himoya qilish uchun mo'ljallangan mahsulotlarda konfeksiyalashuvda materiallarning asosiy funktsiyasi – issiqlik himoyasini hisobga olish lozim: materiallar inson terisi harorati $30-33^{\circ} \text{C}$ ni ta'minlashi kerak. Shu bilan birga bu materiallar sorbitsion va namo'tkazuvchan xususiyatga ega bo'lishi kerak, chunki u ichki kiyimdan o'tgan namlikni va inson tanasi yuzasining libos bilan tegishib turadigan namni shimib olishi kerak; ushbu mahsulotlarning havo o'tkazuvchanligi katta bo'lmasligi, issiqlik qaytarish qiymati – $0,11-0,20 \text{ m}^2 \cdot ^{\circ}\text{C/Vt}$ bo'lishi zarur.

Astar mahsulotlarda – ko'ylaklarda, ko'ylak-kostyumlarda, yubkalarda v.b. – konfeksiyalashuv vaqtida asosiy shartlarni hisobga olish lozim – to'plam materiallarga bo'lgan umumiy talablar.

Yozgi mavsum uchun mo'ljallangan buyumlarda, ko'ylak va sorochka materiallar tana yuzasini va kiyim ostidagi havoni sovutib turishi, tashqi issiqlikdan tanani qizib ketishiga qarshilik qilish kerak. Ularning gigroskopikligi, bug' va havo o'tkazuvchanligi yuqori ko'rastkichlarda bo'lishi lozim (2.1. jadval); yozgi ko'ylak va erkaklar kuylagi uchun materiallarning issiqlik qarshilik qiymati $0,08-0,09 \text{ m}^2$

·°C/Vt. Bu materiallar yuqori darajada nam shimish xususiyatiga ega bo'lishi kerak (60 %dan kam emas) teridan ajratilgan terni yo'qotish uchun yuqori nam tortuvchanligi –90 g/(20 m²·ch)dan kam emas.

Ko'ylak, bluzka va erkaklar kuylagining qulayligi insonning jismoniy holatini yaxshilab qoniqtirish, gigienalik va mahsulot og'irligi hisobiga, u to'qimachilik matolarning tashqi zichligi orqali aniqlanadi. Libosning o'tirib qolishi ham katta ahamiyatga molik, chunki u chiziqli o'lchamlarni, uning qismlarini, mahsulotni kiyish vaqtida, kimyoviy tozalash, namlab dazmollash va ko'p marotaba yuvish natijasida shaklini saqlab qolishda katta ta'sir ko'rsatadi.

Ko'ylak mahsulotlari uchun materiallarning bo'rmabopligining qattiqligi va g'ijim bo'lmasligi konfeksiyalashuvda katta ahamiyatga ega: ular mahsulotning shakl hosil qilishi va fason xususiyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi, modelning geometrik shaklini, uning vazifasini va estetik xususiyatini aniqlaydi. Ushbu holatlar tantana-marosimlar uchun mo'ljallangan ko'rkam libosni yaratgan vaqtda doim hisobga olinadi.

Materialning yumshoqligi va bo'rmabopligini yoki aksincha, qattiqligi ko'ylak, bluzka hamda ko'ylak-kostyum kiyiladigan tantanali holatning ahamiyatlilikini alohida ko'rsatib o'tadi.

Materialning rangi va sifati, uning tiniqligi, miltillashi va yaltirashi ko'rkam ko'ylak, bluzka, kostyum, ansambllarning alohida ifodali xususiyati deb hisoblanadi. Shuning uchun bu kabi libosni yaratganda ko'pincha ranglar uyg'unligini, ranglar tiniqligi yoki faktura yechimlari yoxud materialning rangi va faktura aloqasi tiniqligidan foydalaniladi. Kuchli ta'sirga bir yoki bir necha ranglar birikmasining och tiniqligiga erishish mumkin.

Uy va kundalik liboslar uchun materiallarning konfeksiyalashuvda – ishonchlilik talabi – pishiqlik xususiyatlari, ishqalanib ketish va ko'p marotaba bukilishlarga bardoshlilik hisobga olinadi. Ko'rkam libos uchun esa chidamlilik va mustahkamlik talablari ikkinchi o'ringa suriladi va ikkinchi darajali ahamiyatga ega.

Har kuni foydalanish uchun ko'ylak, bluzka matolarining bardoshlilik to'lali tarkibga va shu bilan birga: ipgazlama matolar uchun 800-3000 davr, tabiiy iplardan

ipak –100dan kam emas, aralash va sun'iy iplardan ipak – 200dan kam emas (GOST 22542-82 i GOST 28253-89), junli - 200dan kam emas (GOST 18976-73), zig'ir tolali 6000-10000 va zig'ir lavsanli –15 000 davrgacha (GOST 15968-87) bog'liq.

Ipak matolarda iplarni ochilib ketishga bardoshliligi tashqi zichligiga qarab 0,6—2,0 daN gacha bo'lishi kerak.

Ko'ylak matolarni turli ta'sirlardagi bo'yalishga chidamliligi bo'yicha, yuqori sifat bosqichidagi zig'ir tolalilardan tashqari, juda pishiq va pishiq guruhlariga (GOST 7913-74, GOST 11151-65, GOST 7779-75), zig'ir tolali esa – juda pishik (GOST 7780-69) guruhga kiradi. Tukli va baxmalli ipgazlama va ipak matolar bir tekis tukli yoki baxmalli bo'lishi lozim.

Ko'ylak-sorochka materiallarning badiiy-estetik xususiyatlari GOST 15007-88 tomonidan qabul qilingan namuna-etalonlarga javob berishi kerak.

Ko'ylak, bluzka va sorochka materiali assortimenti turlicha bo'lib, u to'qimachilik materiallarini – (ipgazlama, zig'ir tolali, yarim zig'ir tolali, ipak, yarim ipak, junli, yarim junli) shuningdek matolar, turli tukli tarkibga ega trikotaj va to'qilmagan polotnolar, noto'qimachilik matolarni ham o'z ichiga oladi – masalan, yupqa tabiiy teri (yubka, kamzul, figaro, ba'zida esa ko'ylaklar ham tikiladi) va yana yupqa mo'yna ham shular jumlasidandir. Mo'yna va teridan tikilgan ko'ylaklar shaxsiy iste'molchiga mo'ljallangan.

Bu kabi turli-tumanliklar ichida katta qismni an'anaviy holda tipik, ipgazlama, zig'ir tolali, ipak va junli matolar hosil qiladi.

Ipgazlamali asosan kundalik ko'ylaklar, bluzkalar va erkaklar kuylagi, sarafanlar, ansambl, ko'ylak-kostyum va boshqa turdagi yozgi assortimentdagi liboslar, shuningdek, uy ko'ylaklari va xalatlar, yozgi davr uchun bo'lgani kabi qish uchun ham mo'ljallangan.

Ko'ylak-sorochka matolarni tolali tarkibiga qarab bir xil (100% paxtadan bo'lgan) va bir xil bo'lmagan – aralash (70-80% paxtada va 20-30% viskoza tolali), shuningdek, paxtali yigirilgan ipning sun'iy iplar aralashsidan (viskozali, atsetatli) va paxtani (33%) va polinozli tola(67%) bilan aralash holda ishlab chiqilgan. Pnevnomexanik uslubda yigirilgan ipmato pishiqligini 20-30%ga kamaytiradi, lekin

uning yemirshlishga chidamligini oshiradi. Aralash matolar, agarda paxta tolasi tarkibi 50%dan ko'p bo'lsagina, paxtali viskoza, paxtali siblon, paxtali efir yigirilgan iplardan tayyorlanadi.

Viskoza tolalar ipgazlamali ko'ylak matolarga ipakdek mayinlik, yuqori bo'rmaboplikni beradi, biroq bunda nam ishlovlarga bardoshliligi pasayadi va libosni kirishib qolish darajasi ko'tariladi. Yuqori modulli siblon tolalarini qo'shish yupqa, ipakdek mayin tushyoli pishiq matolar ishlab chiqishga yordam beradi, paxta bilan aralash poliefir tolalarning bo'lishi uning chidamliligini va g'ijim bo'lsaligini oshiradi, biroq gigroskopikligini pasaytirib, qattiqligini ta'minlaydi.

Demisezon va qishki matolar assortimentiga tukli matolardan – duxoba, yarimduxoba va chiyduxoba kiradi.

Sovuq havo uchun ko'ylak-kostyumli matolar tashqi zichligi (130–194 g/m²), qalinligi va zichligi, kam darajada havo o'tkazuvchanligi bilan ajralib turadi. Nisbatan yangi va rivojlangan guruh hisoblangan ipgazlamar assortimentida demisezon ko'ylak-kostyum va erkaklar ko'ylagi matolarning tarkibida 25 va 33% poliefir tolalar mavjudligidir. Tuzilishi bo'yicha aniq bir darajada assortiment qaytariladi: siyraklashgan o'rilishli va atlas tasmali yengil matolar, ko'ylak stilli yanada zich to'qilgan yo'l-yo'l matolar, nepropryad effektli matolar.

Yangi ko'ylak-kostyum guruhini alohida ko'rib chiqish lozim, ular og'ir(153—227 g/m²) zich matolar, ba'zida dag'al to'qilish uslubidagi, polotnoli, rogojka, zig'ir tolali matolarga o'xshashlikni beradigan pereslejest effektli sarja to'qilmali bo'ladi. Bu kabi matolarni yoshlar uchun mahsulot tayyorlashda foydalaniladi – ko'ylak, ko'ylak-kostyum yoki bolalar kostyumlari.

Demisezon ko'ylaklar matosi assortimentidagi katta miqdordagi guruhini yo'l-yo'l matolar tashkil etadi. Ingichka, yengil yo'l-yo'l taramli ko'ylak uchun mo'ljallangan matolar yaxshilab ishlab chiqilgan katak, yo'l-yo'l chiziqli rasmlari, ba'zida esa bo'ylama relefli atlas tasmali chiziqlari bilan ajralib turadi.

Zig'ir tolali matolar – ko'ylakli, bluzkali, erkaklar ko'ylagi, ko'ylak-kostyumlilardan – asosan yozgi assortiment uchun foydalaniladi. Ular yaxshi gigienik ko'rsatkichlari va chidamlilikning yuqori ko'rsatkichlari orqali ajralib turadi.

Matolarning havo o'tkazuvchanligi $100 \text{ dm}^3/20 \text{ m}^2 \cdot \text{s}$ dan oshmasligi lozim; bluzka matosi uchun tekisligi bo'yicha yeyilib ketishiga bardoshliligi 3000 davrgacha, ko'ylak uchun – 5000 davrgacha, tarkibida sintetik tolalar mavjud bo'lgan ko'ylak-kostyum uchun (50%dan ko'pemas) – 7000 davrdan kam emas, (tarkibida 70 %gachasida – 12 000 davrdan kam emas). Zig'ir tolali matolarning bo'yashga bardoshliligi GOST 7780—78 talablariga mos bo'lishi kerak; mato qattiqligi $7000 \text{ kN} \cdot \text{sm}^2$ dan oshmasligi lozim.

Zig'ir tolalali ko'ylak-erkaklar ko'ylagi matolarining assortimenti ipgazlamalisiga qaraganda kamroq va xilma-xil emas. Ko'ylak va ko'ylak-kostyumlar uchun matolar faqatgina ikki artikul bilan belgilangan – 06154 va 06169. Ushbu matolarning gigiyenik xususiyatlari yuqoriligi bilan ajralib tursa ham, lekin yuqori darajada g'ijim bo'lishi, hatto turli maxsus bezaklardan so'ng ham namlik bilan ishlov bulish natijasida libos kirishib qolishi mumkin. Ko'ylak-kostyumli va ko'ylakli matolar – asosan zich, oqartirilgan, och mayin tusga bo'yalgan, yo'l-yo'l yoki bosma rasmlil bo'ladi. Matoning ko'pmiqdori polotnoli, pishiq chiviq gazlamali, asosida ipgazlamali yigirilgan iplar bo'lgan mayda yoki yirik naqshli o'rimlardan va arkokda zig'ir lavsanli yigirilgan ipdan ishlab chiqilgan. Kareta va jakkard o'rimli go'zal, ko'rkam matolar ommaviy kashta yoki to'rga o'xshash naqshli bo'lishi mumkin. Bluzkali va erkaklar ko'ylagilil matolar – kam g'ijim bo'ladigan, och bo'yalgan va oqartirilgan, ba'zida yo'l-yo'l matoli, ko'pincha esa to'rli o'rilishli bo'ladi. Bolalar libosi uchun zig'ir tolali ko'ylak matolar tarkibida sintetik tolalar yo'qligi yoki arzimasi (8%gacha) bo'lishi bilan xarakterlanadi. Asosan bu paxta zig'ir matolar, tashqi zichligi ($112—190 \text{ g/m}^2$), bolalar mavzuidagi bosma rasmlil bo'ladi.

Ipak matolar. Ko'ylak mahsulotlari uchun foydalaniladigan barcha turdagi va guruhdagi materiallardan ipak matolar assortimenti ko'p va xilma-xildir. Bu esa o'z o'rnida ko'ylak, bluzka, sorochka matolariga keng tanlash imkonini beradi – eng yupqa, yengil va hariridan to qalin, og'irigacha; tabiiy ipakdan klassik krepdan to yangicha ipgazlama, junli, zig'ir tolali va tabiiy ipakka o'xshash bo'lgan matolargacha.

Ipak matolarning ranglar uyg'unligi, tusi, rangdagi nozik farq, ochrangligi va oppoqlik butun gammasini o'z ichiga oladi.

Ipakli ko'ylak matolar quyidagi talablarga javob beradi: chiroyli ko'rinishga ega bo'lishi va uni mahsulotdan foydalanish mobaynida saqlab qolish, oz miqdorda kirishishi (2.7 jadval) va g'ijim bo'lishi (2.6 jadval), yuqori gigroskopik, havo va bug' o'tkazuvchanligi (2.1 jadval), tashqi ta'sirlarga qarshilik ko'rsatishi, yeyilishga chidamli va kam elektrlanuvchan bo'lishi lozim. Gul bosilgan, yo'l-yo'lli va tiniq bo'yalgan matolar turli ta'sirlarga bardoshli pishiq va puxta bo'yoqli bo'lishi kerak. Ko'ylak va erkaklar ko'ylagi matolari uchun assortimentda har xil turdagi rasmlar bo'lishi lozim, shu bilan birga bir turdagi rasmlar matoni turli iste'molchilar guruhi talablarini qondirish uchun kamroq miqdorda chiqarish lozim.

Ko'ylak-erkaklar ko'ylagi ipak tolali matolar tarkibiga ko'ra sakkiz guruhga bo'linadi.

Junli va yarim junli matolardan kundalik kiyim uchun ayollarning ko'ylaklari mahsulotlarini, ish va tantanavor holatlar uchun liboslar, shuningdek, bolalar assortimenti va erkaklarning ko'ylagi uchun keng qo'llaniladi.

Barcha junli va yarim junli matolar yaxshi issiqdan himoyalangan xususiyatiga ega, ular kam yoki umuman g'ijim bo'lmaydi. Poliefir tolali sof junli va yarim junli kamvol va yupqa movut matolar 0.3 dan, boshqa junli matolar esa 0.6dan oshmasligi lozim.

Namlik bilan ishlov berishda tanda va arkok bo'yicha chiziqli o'lchamlarni o'zgarishi ikkinchi guruh me'yorlaridan oshmasligi kerak (3,5 % va 2,0 % ga muvofiq). Krepva murakkab tuzilmali yigirilgan ipli hamda jakkard o'rinishdagi matolar uchun uchinchi guruh me'yorlari o'rnatilgan (5,0 % tanda bo'yicha va 2,0 % arkok bo'yicha).

Ko'ylaklik guruhiga kiruvchi jun matolarining namlik me'yori 13% gacha bo'lishi, yarim junli uchun esa – 7.0%dan kam bo'lmasligi lozim. Havo, bug' o'tkazuvchanlik va gigroskopiklik – gigienik xususiyatlarga talablar – iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda (2.1. jadval)da o'rnatilgan talablarga muvofiq bo'lishi kerak. Yemirilishga chidamliligi 2.8. jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlardan kam

bo'lmasligi lozim. Pillinglarning miqdori 1 sm² da, kamvol matolar uchun «1» dan oshmasligi, yupqa movut uchun esa «2» bo'ladi. Krepdan eshilgan, yigirilgan ipdan toza junli kamvol matolar uchun pilling yo'lga qo'yilmaydi.

Sof junli matolar kuyaga chidamli modda bilan shimdirilgan bo'lishi kerak; bolalar kiyimi uchun iste'molchi bilan kelishgan holda ular ushbu xususiyatsiz chiqarishlari mumkin.

Ko'ylaklik matolar bo'yoqqa chidamliligi bo'yicha GOST 11151—77 talablariga muvofiq bo'lishi lozim. Yuqori sifatli mahsulotlar uchun bo'yoqqa chidamliligi pishiq va o'ta pishiq guruh talablariga muvofiq matolardan foydalanish tavsiya etiladi.

Junli ko'ylak va erkaklar ko'ylagi matolarining assortimentiga sof junli va yarim junli kamvol matolar kiradi, ular assortimentining katta qismini va yupqa movut matolarning kichik guruhini tashkil etadi.

Ko'ylaklik klassik sof junli kamvol matolarga krepli to'qilishdan vujudga kelgan, ba'zida esa krepli burama yigirilgan iplar hisobiga, mayda dona-dona yuzali xarakterga ega kreplar kiradi. Ushbu matolar juda yaxshi gigenik xususiyatga ega bo'lib, harakatchan tuzilmali, egiluvchanligi, yaxshi bo'rmabopligi va yemirilshlga chidamliligi bilan ajralib turadi. Ko'ylak matolarining zamonaviy assortimentidagi yangi yo'nalish deb sarja va polotnoli to'qilma orqali ishlab chiqilgan sof junli kamvol olachipor ipli va yo'l-yo'lli flanellarni hisobga olish mumkin. Matolar yumshoq, yetarli darajada zichlikdagi tukli va iste'molchilarda yuqori talabga ega.

Ko'ylakli an'anaviy sof junli kamvol matolarga kashemir kiradi – sarja o'rilishdagi tiniq bo'yalgan matolar. Ularni jundan, viskoza va kaprondan ishlab chiqishadi; ular mayin iliq tushyosi, yaxshi burmabopligi bilan ajralib turadi, lekin g'ijim ham bo'ladi.

Yupqa movutli ko'ylakli matolar kam miqdorda ishlab chiqariladi. Bu asosan o'rilishda yarim junli matolardan ishlab chiqilgan. Ular yuqori bo'lmagan zichlik, yumshoq tukli, rasmni yopib turuvchi o'rilishli bo'ladi. Issiqdan himoyalangan xususiyati yaxshi, mayin, iliq tushyoga ega. Ulardan qishki va demisezon ayollar ko'ylagi, kostyum-ko'ylak, yubka va erkaklar ko'ylagini tikish uchun foydalaniladi.

Bolalar assortimenti uchun mayin matolar, «Kapalak» – ochiq yo'l-yo'l rasmi, «Malvina» – tiniq bo'yoqli yarim junli flanelar ishlatiladi.

Yupqa movutli ko'ylakli matolar, egiluvchan, qayishqoq bo'lib, tashqi shaklni yuzaga keltiruvchi, tikilishda qiyinchilik tug'dirmaydi. Tukli qoplamali bo'lgani sababli kam g'ijim bo'ladigan matolarga kiradi, biroq ular saqlash past darajada va yemirilishga chidamli, ayniqsa tarkibida sintetik tolalar aralashmasi bo'lsa, pilling paydo bo'lishi mumkin. Aralash yigirilgan ip tarkibida viskoza tolasining borligi matoning tarangligini pasaytiradi, ularning yuqori darajada g'ijim bo'lishi va qirishib qolishiga sabab bo'ladi.

Trikotaj matolar. Ayollar va bolalar ko'ylagi, bluzkalar, erkaklar ko'ylagini ishlab chiqarish uchun turli tolalar tarkibidagi, o'rilishidagi va rangdagi trikotaj polotnolar keng qo'llaniladi. Ularning gigiyenik xususiyatlari, yemirilishga chidamliligi, shakl o'zgarmasligi standart talablarga, zamonaviy koloristik bezak esa, foydalanishdagi qulaylik – eng talabchan iste'molchilar talablariga javob beradi.

Barcha trikotaj matolarda doimo havo o'tkazuvchanlikning yuqori ko'rsatkichlari ($470 \text{ dan } 2300 \text{ dm}^3 / (20 \text{ m}^2 \cdot \text{s})$) gacha, gigroskopikligi – 7%dan kam bo'lmagan, g'ijim bo'lmaydigan xususiyatga ega (70dan 90%gacha), o'rtacha qattqlikda (uzunligi bo'yicha $310 \text{ dan } 2590 \text{ mkN} \cdot \text{sm}^2$ gacha, eni bo'yicha esa $440 \text{ dan } 1190 \text{ mkN} \cdot \text{sm}^2$ gacha), baland bo'lmagan yuza zichligiga ega (250 g/m^2 gacha). Chiziqli o'lchamlarining me'yoriy o'zgarishlari xomashyo tarkibiga bog'liq holda o'rnatiladi (GOST 26 667–85).

Polotnolar elektrlanishining maksimal yo'l qo'yilgan ko'rsatkichlari: $r = 1,12 \cdot 10^8 \text{ Om} \cdot \text{sm}^2$; yengil ko'ylak va erkaklar ko'ylagi uchun issiqlik qarshiligining qiymati $0,08\text{--}0,09 \text{ m}^2 \cdot ^\circ\text{C/Vt}$ ichida bo'lishi, demisezon va uy kiyimi uchun – $0,25 \text{ m}^2 \cdot ^\circ\text{C/Vt}$ gacha bo'lishi kerak.

Ayollar va bolalar ko'ylagi, ko'ylak-kostyumlar, erkaklar ko'ylagi uchun trikotaj matolar assortimenti ko'pincha asos to'qilish uslubi bilan, kamroq esa – ko'ndalang to'qish yo'li orqali turli xil shakl o'zgarmas polotnolarni o'z ichiga oladi. Matolarni tukli tarkibiga ko'ra bir turda qilib (ipgazlamali, junli, viskozali, atsetatli) va har xil turdagi: aralash (viskoza va paxta, jun va viskoza, paxta va lavsan, jun va

nitron) va turli kompleks iplar birikmasidan (kapron va viskozali ipgazlama yigirilgan ip, nitron va kapron ipli jun yigirilgan iplar v.h.k.) va tuzilimlar kiradi.

Yaltiroq atlas sifat yuzali matolar cho'zilishlardan hosil bo'lgan silliq va rasmlı, bosma rasm va tiniq bo'yalganlarini viskoza iplarnı kapron, atsetat iplar, qiyalab tekislangan kapronlar birikmasidan yasama va rasmlı o'rilshida ishlab chiqiladi.

Trikotaj ko'ylaklar matosining istiqbolli assortimenti zig'ir tolali yigirilgan ipdan foydalanish hisobiga kengaymoqda va yangılanmoqda, shu bilan birga zig'ir lavsanlı, zig'ir lavsan uchtalik atsetatlı va boshqa shaklan o'zgarmaydigan zamonaviy tuzilmali matolar ishlab chiqiladi.

Yozgi ko'ylaklar uchun nafis to'r ko'rinishlı, file polotnolar, qo'l kashtasiga o'xshash rasmlı, uning kashta naqshi to'qilgan viskoza iplar kompleksi jilvasi bilan alohida e'tibor qaratilgan birikmalı jakkard polotnolardan foydalaniladi.

To'qilmagan matolardan asosan ko'ylak-kostyum, bluzka, bolalar kiyim-kechaklari, uy xalati, plyaj ansambli, sport kiyimi uchun foydalaniladi. Aytilgan mahsulotlar uchun matolar assortimenti kabi turlicha emas; kanopdan, ipdan va matodan tikilgan to'qilmagan matolar kiradi. Turli tolalar va iplardan foydalanish imkoniyati va tuzilishni o'zgartirish, kelajakda ushbu assortiment rivojlanishini istiqbolli deb, nisbatan qimmat bo'lmagan ishlab chiqarish taxmin qilinmoqda.

To'qilmagan matolarning asosiy standart talablari GOST 28 748-40da berilgan.

Matolarning tashqi zichligi 150-480 g/m²lar ichida bo'ladi; nam bilan ishlov berilgandan keyin chiziqli o'lchamlarining o'zgarishi – 3dan 7,5%gacha; havo o'tkazuvchanligi –300 dm³/(m² * s)dan kam bo'lmagan; turli ta'sirlarga bo'yoqning chidamliligi – 4 balldan kam bo'lmasligi kerak.

Kanopdan tikilgan to'qilmagan matolar yuqori g'ovaklik va gigroskopiklik bilan ajralib turadi; ular yaxshi burmalakmaydi, ularning cho'zilishi, ayniqsa ko'ndalangiga boshqa matolarning cho'zilishiga qaraganda ahamiyatlı darajada yuqori, shuning uchun libosni loyihalash vaqtida buni ham hisobga olish kerak.

Ipdan tikilgan to'qilmagan matolar turli tuzilmali bo'ladi. Ko'ylak va kostyum-ko'ylak mahsulotlari uchun zich tuzilmali, g'adir-budur, mayda donali, ba'zida esa qo'pol yuzali, turli xil kenglikdagi chiviqli, qalinligi 0.4dan 0.8 mm.gacha.

Bluzka va ko'ylak mahsulotlari uchun ipdan tikilgan matolarni yengil va ingichka (0,2—0,4 mm), ko'p hollarda olachipor ip effektli siyraklashtirilgan tuzilmali bo'ladi. Ba'zida esa matolar to'qilgan asosli trikotaj yoki matoga o'xshatiladi.

Xalat, cho'milish va plyaj libosi uchun matoli tikma to'qilmagan matolar asosan paxmoq va bir yoki ikki tomonli tukli halkadan ishlab chiqariladi. O'ngida joylashgan halqa bir tekis yaxlit qoplamali yoki aniq bir rasm yoki katakli bo'lishi mumkin.

Ko'ylaklik assortimentining noto'qma matolarini tayyorlash uchun paxta, yarim junli, ipak va zig'ir tolalardan foydalaniladi.

2.7. Kostyum uchun materiallar konfeksiyalashuvi. Ushbu holatda kostyum elementlarni majmui sifatida quyidagilardan tashkil topgan – pidjak (kalta kamzul), shim (yubka), nimcha; u erkaklar, ayollar, bolalar va o'smirlarniki ham bo'lishi mumkin. Odatda kostyum ichiga kiruvchi qistirma materiallardan foydalangan holda astari bilan tikishadi.

Kostyumbop liboslar paketining ikkinchi yoki uchinchi qatlami deb hisoblanib, ichkiyim va ko'ylak yoki ichkiyim va bluzka ustidan kiyiladi. Bu mavsumiy ko'pqatlamli mahsulotlar, yilning barcha faslida kiyilgani tufayli issiqlikdan himoyalovchi liboslar sirasiga kiradi.

Hozirda u alohida e'tibor qaratilgan eng ommabop kiyim turidir. Inson hayot faoliyati davomida butun kunini kostyumda o'tkazadi – ishda, transportda, bankda va h.k. Kostyumga qarab uning egasining nafaqat kasbini, balki o'z o'rnida did bilan kiyinishini, stili, hattoki xarakterini aniqlash mumkin.

Hisoblanishicha, erkaklarda kamida uch xil kostyum bo'lishi kerak – ish uchun (ishbilarmon), bo'sh vaqt uchun (sport tipida) va marosimlar uchun (agarda ular bo'lsa). Albatta, shu kabi kostyumlar turli xil matolardan tikiladi.

Ayollar kostyumi – bu kundalik xarakterga ega oddiy universal libos, mohirona tanlangan aksessuarlar va qo'shimchalar yoki o'zaro almashinadigan elementlar yordamida rasmiy-bayramona libosga aylanishi mumkin.

Ustki libosni loyihalashtirishdagi asosiy talablardan biri bu – yuqori darajadagi shaklan bardoshlilik konstruksiyasini yaratishdir, unga asosiy va yordamchi materiallardan ko'pqatlamli paketni shakllantirish orqali erishiladi. Konfeksiyalashuvning asosiy printsipli sifatida, mahsulot paketiga kiruvchi barcha materiallarga talablar birligi hisoblanadi.

Tabiiy-mexanik xususiyatlarning ko'rsatkichlariga talabning birligi 2.10. jadvalda berilgan.

2.10. jadval

Erkaklar kostyumi uchun materiallarning tabiiy-mexanik xususiyatlarning ko'rsatkichlariga talablarning birligi [20]

Xususiyat ko'rsatkichlari	Mato uchun me'yorlar		
	ustki qism	bort qismi	astar
Ishonchli talablar			
Yorilish kuchi, daN/sm	5-6	4	6
Cho'zilganda yorilish, %	15-14	-	30
Yemirilishga chidamlilik, davriylikda	5000	-	2000
Nam ishlovlardan qirishtirish qolishi	2	2	2
Kimyoviy tozalash, %	1	1	1
Bo'yoqqa chidamliligi, ballda	4-6	-	4
Texnologik talablar			
Yuza zichlik, g/m ²	240	230	80
Qattiqligi, mkN · sm ²	2000-	8-12sN	2000
G'ijim bo'lmasligi, %	80-90	50	50
Buzilishiga bardoshlilik, daN	8	-	2
Nam-issiq ishlovdan chiziqli o'lchamlarining o'zgarishi, %	1,5	1,5	1,5
Ergonomik talablar			
Havo o'tkazuvchanlik, dm ³ /(m ² · s)	40	40	100
Gigroskopiklik, %	7-14	7-14	7-14

Iste'molchi va kostyum materiallarining texnik-iqtisodiy xususiyatlariga, uning vazifasiga, yosh va jinsiga, undan foydalanish mavsumiga qarab, differensial ravishda talab qo'yiladi.

Kostyum materiallarining asosiy xususiyatining meʼyoriy koʻrsatkichlari tola tarkibi, yuza zichligi va ishlab chiqarish uslubiga qarab oʻrnatilgan: jun matolar uchun GOST 10641-88, GOST 23559-89; ipgazlama uchun – GOST 21790-76; zigʻir tola matolar uchun – GOST 15968-87; trikotaj matolar uchun – GOST 9997-82.

Qoplama kostyum materiallariga estetik talablar koʻp hollarda asosiy boʻlib hisoblanadi: materialning tasviriy-koloristik bezagi moda yoʻnalishiga, fakturasi va tushyosiga – oʻzining maqsadiga mos kelishi kerak. Taqdimot va marosimlar uchun erkaklar odmi kostyumiga, tantanavor kostyum va smokinglarga tiniq boʻyalgan toʻq (asosan qora rangdagi) matolar maʼquldir. Ushbu libos turi juda talabchan boʻlib, barcha komplekt materiallarni tanlash – astar, qistirma matolar va boshqalarni batafsil muhokama qilish kerak. Ishchi kostyumda mayda koʻrinmas chiviqlik yoki katakli maydatoʻr sifat oʻrimli matolardan foydalaniladi. Undan ham mustaqil yechimlarga, kombinatsiya va birikmalarga ham yoʻl qoʻyilgan, albatta ranglar gammasini hisobga olgan holda. Kundalik kostyumda kombinatsiyalangan variantlari bor: masalan, zamonaviy ranglar gammasini aks ettiruvchi paxmoq yoki charm pidjak, silliq sidirgʻa pidjakka chiviqlik yoki katak shim (hozirgi modaning ranglaridan foydalanib – koʻk rangning barcha tusi, jigarrang, pishgan olxoʻri rangi, yozda – oq rang, zigʻirning «ekologik» rangi v.b.)

Kundalik xarakterga ega ayollar ishchi kostyumi xonada, issiq kunlarda esa koʻchada ham kiyiladi, uning eng qulay varianti – silliq bir tusdagi yumshoq issiq tushyoli yoki aksincha, qattiqroq «quruqlik» tushyoli matodir. Biroq mayda kashta rasimli chiviqlik tvidla ham boʻlishi mumkin. Katakli mato klassik yoʻnalishdagi kostyumni biroz sportiv va har kunga kiyiladigan qilib qoʻyadi, lekin «Shanel» tipidagi kostyum doimo bashang koʻrinadi. Kostyum materiallariga boʻlgan muhim isteʼmolchi talablari ergonom talablar (gigiyena va qulaylik) hamda foydalanishdagi ishonchlilik (shaklan oʻzgarmaslik, gʻijim boʻlmaslik, yeyilishga chidamlilik) hisoblanadi.

Texnik-iqtisodiy talablar, ayniqsa texnologik koʻrsatkichlar (loyihaviy-texnologik) yanada ahamiyatga molikdir.

Kostyum ichki kiyim va ko'ylak bilan birga insonga kerakli issiq o'tkazmaslikni ta'minlaydi. Yozgi kostyum uchun materiallarga demisezon qishki libos paketiga kiruvchi kostyum materiallariga qaraganda yanada qattiq talablar qo'yiladi.

Yozgi kostyumlarni ba'zida astarsiz yoki yupqa yengil astarli qilib tayyorlashadi. Shuning uchun yozgi kostyum uchun materiallarga talablar insonni, issiq o'tkazmaslik, kerakli darajada havo o'tkazuvchanlik, gigroskopiklik, bug' o'tkazuvchanlik bilan ta'minlashdan iboratdir. Ushbu talablarga tarkibida kichik miqdordagi gidrofob tolalar bor gidrofil tolali va aralash tolali materiallar javob beradi. Yozgi va qishki mahsulotlar uchun kostyum matolarning issiqlik qarshiligining qiymat ko'rsatkichi TSNIISHP talablariga muvofiq $0,1 \text{ m}^2 \cdot ^\circ\text{S/Vt}$ ichida bo'lishi kerak. Kostyum matolarni turli ta'sirlarga bo'yoqning bardoshlilik pishiq va o'ta pishiq guruhga tegishlidir.

Mahsulotni eskirib ketishdan saqlaydigan, ichki tomonini bezash uchun mo'ljallangan astar materiallar, birinchi o'rinda inson qomatiga kostyumni yaxshi o'tirishini ta'minlashi lozim; ishqalanish va terga bo'yoqning (4 balldan kam emas) chidamliligiga ega bo'lishi, ishqalanishga chidamli bo'lishi kerak (GOST 22542-82 – matolar uchun va GOST 18976-73 – trikotaj matolar uchun); kichik koeffitsientli ishqalanishga ega silliq sirg'anuvchan yuzali bo'lishi, buyumni og'irlashtirmasligi lozim; rangi bo'yicha ustki materialga va moda yo'nalishiga mos bo'lishi, asosiy material hamda mahsulotdan foydalanish muddatiga muvofiq xizmat muddatiga ega bo'lishi kerak. Me'yoriy ko'rsatkichlarning asosiy xususiyati 2.3.-2.8. jadvallarda berilgan.

Astarbop matolar pidjak (kalta kamzul)ning alohida qismlarini deformatsiyalanishdan saqlashi hamda unga shakl saqlovchanligini berishi kerak. Buning uchun ular kam cho'ziladigan, kerakli darajada qattiq va qayishqoq, lekin shu bilan birga dag'al bo'lmasligi, buyumni og'irlashtirmaydigan hamda asosiy matoni kirishishiga ega bo'lishi lozim.

Mahsulotdan foydalanilgan vaqtda uning tashqi ko'rinishi va shaklining mustahkamligi, unga qarashning yengilligi bir xil turdagi tozalash va qarashga ega

aniq bir mahsulotlar materiali paketi orqali ta'minlanadi. U bo'lsa materiallar majmuining tola tarkibiga asosan o'rnatiladi.

Erkaklar pidjaki uchun ratsional paketlarni tanlash uch variantdan iborat, ular old qismini qotirma yopishtirishi uchun qotirma mato turi orqali farqlanadi. Birinchi variantda termik ko'p zonali qotirmadan foydalanish mo'ljallangan. U tashqi zichligi $280\text{--}320\text{ g/m}^2$ bo'lgan toza junli matodan kostyumlarni tayyorlash uchun ma'qul keladi. Ko'krak va yelka qismining shakl saqlash qobiliyatini kuchaytirish uchun maxsus termoyelimli materiallardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ularga porolondan bo'lgan qobirg'ali to'qilmagan matolar, to'qilmagan igna teshikchali materiallar, trikotaj tolali matolar kiradi. Ikkinchi variantda baxmalsifat termoyelim aralashmali astar matodan foydalanish mo'ljallangan. Uchinchi variantda – baxmalsifat termoyelim trikotaj matodan foydalaniladi. Oxirgi ikki variantda 280 g/m^2 gacha zichlikdagi yarim jun matolardan mahsulot tayyorlanishi uchun ma'quldir. Ko'krak qismidagi old tomonini kuchaytirish uchun uchirma bortli qistirmadan foydalaniladi, u ikki qatlamdan iborat, asosiy – yarim junli bortli matodan va qo'shimcha – termoyelim materialdan yoki birinchi variant paketidagi materiallardan.

Kattalar uchun qishki kostyumlarning tepa qismiga viskoza va atsetat tolali sintetik materiallardan foydalanishga yo'l qo'yiladi.

Kostyumlar uchun jun matolar taralgan mayin junli (ular assortimentda ko'pni tashkil etadi) va yupqa movutdan ishlab chiqilgan. Klassik yuqori sifatli sof junli kamvol matolar – bu bir tekis bo'yalgan bostonlar, triko, kreplar; yarim junli – bir tekis bo'yalgan jun gazlama(sheviot)lar, yupqa g'ijim gazmol(krep)lar diagonal va yo'l-yo'l triko, mayda naqshli aralash to'qimadan ishlab chiqilgan.

Yupqa movut kostyum matolari hozirda faqat yarimjunli qilib, ko'p hollarda esa tolalarning uch komponentli aralashmasidan ishlab chiqarilmoqda. Ular kamvollaridan juda qalinligi, og'irligi va mayinligi orqali farqlanadi. Ushbu kichik guruhdagi tipik matolari – bu movut, tvid, flanel, sheviot.

Ipgazlamali kostyum matolarga klassik matolar (diagonal, triko, moleskin), jinsi matolar, velvet-kord, chiviq-velvet va jinsini eslatadigan uchlangan atsetat hamda poliamid iplardan olachipor gazlamalar kiradi.

Ipak gazlamalar assortimentida kimyoviy tolalardan bo'lgan ipak gazlamalar (8-guruh). Ko'p hollarda ularni aralash poliefir, poliakrilonitril va viskoza tolalardan ishlab chiqishadi. Matoning tashqi ko'rinishi kamvol matoga o'xshaydi. Ularni bir tekis bo'yalgan, olachipor va arqog'i har xil rangli – yo'l-yo'l, katak, jakkard qilib ishlab chiqarishadi.

Zig'ir tolali kostyumlik matolar ko'ylak-kostyum guruhiga kiradi (06-guruh) va chegaralangan assortiment da ishlab chiqariladi: klassik yo'g'on ipdan siyrak to'qilgan dag'al gazlama (rogojka), kuchaytirilgan (ikkilamchi va uchlamchi) polotnoli to'qima bilan hamda zich, og'ir zig'ir lavsanli matolar oddiy va mayda kashtali o'rilshida ishlab chiqilgan.

Kostyumlar uchun trikotaj polotnolar sof junli va yarim junli qilib ishlab chiqarilgan. Assortimentning katta qismini shakl saqlash xususiyatlari yukori bo'lgan ikki komponentli (jun lavsanli, jun viskozali va jun nitronli) hamda uch komponentli (jun lavsanviskozali, jun-viskozali va jun-nitronli) tarkibida 30% dan 70%gacha jun bo'lgan polotnolar tashkil etadi. Yozgi kostyumlar uchun ipgazlama, paxta viskozali, paxta lavsanli va boshqa yigirilgan va oddiy iplardan ishlab chiqiladi.

Barcha kostyum trikotaj matolari yaxshi gigiyenik xususiyatlarga va ahamiyatli darajada chidamlilikka ega, estetik ko'rsatkichlarga ko'ra, ular modaning zamonaviy yo'nalishiga javob beradi, turli fakturaga va yoqimli tushyoga ega.

Teksturalangan poliefir ipli, jun ipli matolardan erkaklar kostyumi, pidjaklar va shimlar tayyorlash uchun foydalaniladi. Zig'ir, zig'ir lavsan, zig'ir lavsan triatsetat yigirilgan ip va zig'ir ipni boshqa turdagi iplar bilan aralashmasidan bo'lgan to'rsimon matolar – ayollar kostyumi uchun.

Bolalarning issiq kostyumlari va turli sport mahsulotlari uchun qimmat bo'lmagan va yaxshi issiqdan himoyalaynash xususiyatiga ega taralgan futerli matolar.

Kostyumlar uchun to'qilmagan polotnolar ko'p emas. Ularni to'qish-chatish yo'li bilan olishadi, bir tekis bo'yalgan bir tomonlama taralgan, bolalar mahsuloti uchun esa – tematik va tabiatga oid bostirma rasimli. Kostyumlar uchun to'qilmagan matolarga talab huddi shu vazifani bajaruvchi trikotaj mato va matolarga bo'lgan talab singaridir.

Pidjak, jaket, shim va yubkalar uchun tabiiy charm va zamsh chiroyli ko'rinishli, bir tekis va yaxshilab silliqlangan, zamonaviy andozali va rangli, zamsh bo'lsa – bir tekis tukli bo'lishi kerak. Charm yumshoq va tarang, elastik va chidamli bo'lmog'i lozim; charm matoning qalinligi 0,2 dan 1,0 mm. gacha bo'ladi.

Kostyum mahsulotlarini bezash, ta'mirlash va yangilash uchun tabiiy charm assortimentiga velyur, upuka, ko'n, shevret, lakli charm va boshqalar kiradi.

Sun'iy charm, uning tavsifi va assortimenti 3-bob 3.7.-p.da keltirilgan.

Kostyumlar uchun mo'ljallangan astarbop materiallar – gazlama va trikotaj matolar, turli xildagi tolali tarkib va bezaklardan tayyorlanadi.

Astarbop materiallar $100 \text{ dm}^3/(\text{m}^2 \cdot \text{s})$ miqdorda havo o'tkazuvchan, namni o'tkazuvchan va gigroskopik bo'lishi lozim, ammo zaryadlanishi kerak emas. Asosiy astarbop matolar bu – ipakli (viskozli – sun'iy tola va tselofan tayyorlash uchun ishlatiladigan modda va viskozatsetatli) hamda yarim ipakli (o'z ichiga viskozli va qayta ishlangan paxtadan yigirilgan ipni oladi) matolardir. Ba'zi bir astarbop matolarning asosi kapronli kompleks iplar va yashirin holdagi kapronlardan tayyorlanadi; shuningdek, bir qism astarbop matolar yigirilgan ip (qayta ishlangan paxtadan)dan iborat bo'ladi.

Gidrofilli tolalardan tayyorlangan astarbop materiallar assortimentining salmoqli qismini tashkil etishi bilan bir qatorda, asosan gigiyenik talablarni qondirishga xizmat qiladi. Gigiyenik nuqtayi nazardan bir turdagi gidrofob tolalardan tayyorlangan astarlarni qo'llash nomaqbul sanaladi. Astarbop materiallardagi sintetik va atsetat tolalar miqdori 50 % dan oshmasligi lozim.

Kostyumlar uchun mo'ljallangan astarbop materiallar, ya'ni matolar, trikotaj va noto'qima matolar mahsulotning ba'zi qismlaridagi shakl turg'unligini, deformatsiyadan himoya va muayyan uchastkalarning puxtaligini ta'minlaydi.

2.8. Palto uchun materiallarning konfeksiyalanishi. Paltobop mahsulotlar kiyimning yuqori qismidagi issiqni ushlab turuvchi ko'pqatlamli bo'lib, yuqori konstruksiyadagi shakl turg'unligiga ega. U o'z ichiga qishki, bahorgi-kuzgi, nofaslbop(fasllararo) yozgi, shuningdek, erkaklar, ayollar, bolalar paltosi hamda yarim palto, kurtka va shu kabilarni oladi.

Zamonaviy issiqni ushlab turuvchi, ayniqsa qishki kiyim bir qancha qatlamlardan iborat murakkab paketni tashkil etadi. Bular – ichki kiyim, choyshablar, yengil kiyimlar (ko'ylak, bluzka, yubkalar va h.k.) va palto. Palto o'z navbatida butun boshli bir materiallar paketlaridan iborat bo'lib, tuzilishiga ko'ra teng qiymat va teng qimmat, xossalar, shuningdek, bajarish funktsiyasiga ham ega.

O'zida issiqni ushlab turuvchi kiyimning ratsional paketini konfeksion saralashdan maqsad, kam massaga ega bo'lgan holda katta issiqqa qarshilik ko'rsatish va havoni o'tkazish paketiga erishishdan iborat. Shuningdek, kostyumni loyihalashda qay tarzda yagona talab printsipiga amal qilinsa, qolgan mahsulotlar paketiga kiruvchi materiallarga ham shunday munosabatda bo'linadi (2.10-jadval).

O'zaro aloqadorlikdagi kompleksning paltolar materiallari xossalariga bo'lgan talab, bevosita iqlim sharoitiga muvofiq, shuningdek mahsulot faslbop va yosh talablariga javob berishi ham lozim (2.11-jadval). Xususan, ergonomik ko'rsatkichlar guruhlari barcha holatlarda, ayniqsa, issiqlikni ushlab turuvchi paltoni gigiyena jihatidan ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, zamonaviy moda yo'nalishlariga mos ravishda materialning tashqi ko'rinishini ta'minlaydigan estetik guruh ko'rsatkichlari, yana foydalanish jarayonida mahsulotning tashqi ko'rinishining barqarorligini ta'minlovchi ishonchli ko'rsatkichlar shular jumlasidandir.

Odamning sovuq qotishidan himoyalash uchun albatta issiqni ushlab turuvchi mato zarur. U haroratga qarshi turuvchi va havo o'tkazuvchi kompleks materiallardan iborat bo'lib, mahsulotlar paketi tarkibiga kiradi.

2.11-jadval.

Issiqlikni ushlab turuvchi kiyimga bo'lgan talablar

Iqlim zonalari	Qish oylarida havoning o'rtacha harorati, °C	Libos turi	Paketning qalinligi, mm.	Havo o'tkazuvchanligi, $\text{dm}^3/(\text{m}^2/\text{s})$
I va II	-25	Palto, uzun kurtka shimi bilan komplektda va yarim kombinezon	16-20	7-10
III	-15	Palto	9-12	10-60
IV va V	-5	Palto, kurtka, issiqlikni ushlab turuvchi astar bilan qoplangan yomg'irpo'sh	4-6	60 va undan ortiq

Palto, ayniqsa, bahorgi-kuzgi kiyimning yuqori qismidagi material issiqlikni ushlab turuvchi funktsiyani bajarishda katta rol o'ynaydi. Qishki kiyimlarning issiqlikni ushlab turuvchi xususiyati, asosan, uning sovuq o'tkazmaydigan va shamoldan himoyalovchi astarlari bilan belgilanadi.

Kiyimning yuqori qismidagi materialning nam o'tkazuvchanligiga katta ahamiyatga berish lozim. Chunki kiyimda namning yig'ilib qolishi, odamning issiqlik quvvatini yo'qotishiga va issiqlikning tezda sovurilib ketishiga olib keladi. Bundan tashqari, kiyimning yuqori qatlamlaridagi katta nam o'tkazuvchanlik va gigroskoplik atmosfera namligi va kiyimdagi issiqlikni ushlab turuvchi xususiyatning intensiv ravishda pasayib ketishiga olib keladi. Sof jundan tayyorlangan qalin movut (drap)ning umumiy nam o'tkazuvchanligi – $95-100 \text{ g}/(\text{m}^2 \cdot \text{ch})$, teng o'tkazuvchalik – $40-45 \text{ g}/(\text{m}^2 \cdot \text{ch})$ tashkil etadi. Yarimjundan tayyorlangan qalin movutlar ancha past darajada nam o'tkazuvchi sanaladi – $80-90 \text{ g}/(\text{m}^2 \cdot \text{ch})$. Palto uchun mo'ljallangan sintetik materiallarning nam o'tkazuvchanligi – $60 \text{ g}/(\text{m}^2 \cdot \text{ch})$ dan oshmaydi.

Binobarin, libos uchun materiallar paketida paketning tashqi qatlamida gidrofob materiallardan foydalanilgani yoki suv yuqmaydigan so'nggi sayqalli bo'lishi natijasida atmosfera namligi kamaygan bo'lishi mumkin.

Qishki kiyimning ancha murakkab materiallar paketiga matoning yuqori qismi, shakl turg'unligi, sovuq o'tkazmaydigan va shamolga dosh beradigan qistirma va astarlar kiradi. Bu – qishki kiyimni hech bir issiq xossaliga mo'ynadan qolishmaydigan, issiqni yaxshigina ushlab turuvchi xususiyatga ega, jun materiallardan yaratish imkonini beradi.

Materiallar paketida shamolga dosh beruvchi astarlar bo'lmasa, kiyimning issiqlik ushlab turuvchi xossasiga nisbatan shamolning ta'sir darajasi kuchli bo'ladi. Bu o'z navbatida, asosiy matoning havo o'tkazuvchanligining pasayib ketishiga olib keladi. Palto matolarining havo o'tkazuvchi qoplamasi $7-60 \text{ dm}^3/(\text{m}^2 \cdot \text{s})$ oshmagan holda, ko'proq shamolning tezligiga ham bog'liq bo'ladi.

Palto uchun taqdim etilgan materiallarga qo'yilgan talab, hududning tabiiy-mo'tadil iqlimidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Ayniqsa, qattiq talablar, nihoyat darajada sovuq bo'lgan o'lkalarda qo'llaniladigan materiallarga nisbatan taqdim etiladi. Kiyimning turli qatlamlaridagi issiqni ushlab turuvchi funktsiyalar, turlicha, ya'ni bir xil darajada bo'lmaydi. Ana shu sabab, ularning tuzilishi va fizik-mexanik xususiyatlari ham turlicha bo'lishi shart.

Qoplama matodan issiqni yuqori darajada ushlab turuvchi xususiyat doim ham talab etilavermaydi. Ba'zida undagi estetik ko'rsatkich va uning iste'moldagi ishonchliligi muhim jihatlardan biri sanaladi. Mato, albatta go'zal, ko'zga quvonch beruvchi, yumshoq, uncha og'ir bo'lmasligi (ayniqsa, ayollar va bolalar mahsulotlari), kamg'ijimlanuvchi, pishiq-puxta, gidrofobli, havoning o'zgaruvchanligiga bardosh beradigan, shuningdek, yuvishga qulay bo'lishi lozim.

Jun palto matolarining yuqori qismidagi qalinligi va zichligining taxminiy mazmun-mohiyati TSNIISHP tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uning fasllar hamda yosh bilan bog'liq belgilari muvofiq tarzda 2.12-jadvalda keltirilgan.

2.12-jadval.

Turli maqsadlarga mo'ljallangan jun palto materiallarining yuqori qismning qalinligi va zichligining belgilangan me'yorlari

Matoning xususiyatlari	Yozgi palto	Bahorgi-kuzgi palto			Qishki palto		
		erkaklar	ayollar	bolalar	erkaklar	ayollar	bolalar
Yuqori qismdagi zichlik, g/m ²	200-300	500-700	350-600	300-500	450-550	250-350	250-450
Mato-ning qalinligi, mm.	0,5-1,3	2,5-4,5	1,5-3,5	1,3-2,5	2,3-2,8	1,0-1,5	1,0-2,3

Bahorgi-kuzgi va qishki paltolar uchun mo'ljallangan matolar qoplamasining qalinligi, belgilangan maqsadga ko'ra, 1,0-4,5 mm. tashkil etadi.

Paltolarga mo'ljallangan materiallarning qattqlik darajasi 2.4-jadvalda keltirib o'tilgan. Qimmatbaho matolardan tikilgan mahsulotlarning yaroqlilik muddati besh yildan oshmasligi kerak. Paltoning shamoldan himoyalovchi (shamolga qarshi turuvchi) astari yengil, yumshoq bo'lishi, darajasi ega bo'lgan holda $7-40 \text{ dm}^3/(\text{m}^2 \cdot \text{s})$ atrofida bo'lib, u qadar qimmat bo'lmasligi zarur. Agar materialning qoplama qismi yetarli darajada bo'lib, kam havo o'tkazuvchanligi 7 dan $10 \text{ dm}^3/(\text{m}^2 \cdot \text{s})$ gacha bo'lsa, unda bunday holatda shamoldan himoyalovchi astar qo'llanilmaydi.

Palto qismlariga shakliy barqarorlikni qo'llashda, shuningdek, eksplutatsiya jarayonida mahsulotning turg'unlik darajasini ushlab turishda bevosita qistirma materiallardan foydalaniladi. Shu bilan bir qatorda u, avvalo, texnologik hamda konstruktorlik talablariga ham javob berishi lozim, ya'ni, qattqlik ko'rsatkichlariga munosib tarzda ega bo'lishi; egiluvchan va kam cho'ziluvchan; shakl hosil qilishi hamda yaxshigina shakl mustahkamligi qobiliyatiga ega bo'lish; mahsulotni og'irlashtirib yubormaslik. Shuningdek, qistirmalar ergonomik va ishonchlilik talablariga ham javob berishi – badanga yengillik baxsh etuvchi va havo o'tkazuvchi, gigroskopik, issiq o'tkazuvchi va issiqqa qarshilik ko'rsatuvchi alohida xususiyatlarni ham o'z ichiga qamrab olishi zarur.

Kiyish jarayonida tashqi ko'rinishning barqarorligi va palto mahsulotiga qarash, bitta uslubda (kimyoviy tozalash orqali) qarashda qistirmalarni tanlash ta'minlanadi. U palto komplekt materiallarining xomashyosi tarkibi orqali aniqlanadi.

Palto paketiga kiradigan *issiqlikni o'tkazmaydigan yoki istadigan qistirmalar*, eng avvalo, quyidagi ergonomik talablarga javob berishi kerak: kerakli qalinlikda, kichik og'irlik hajmli, yo'g'onlikning yuqori darajada barqarorligi, yengil bo'lishi, g'ovakli va gigroskopiklik. Qistirmalar shuningdek, loyihaviy-texnologik talablarga javob berishi va mahsulotni qayta ishlashini og'irlashtirmasligi lozim.

Paltoning ichki tomonini bezaydigan *astar* libosni kiyib-yechish oson bo'lishi uchun kichik koeffitsientli ishqalanishda silliq yuzali bo'lishi kerak. U quruq va nam ishqalanishga yuqori bardoshlilikka ega bo'lishi va qoplama materialning rangiga mos kelishi lozim. Astar materiallarning asosiy xususiyati ko'rsatkichlarining me'yorlari 2.1-2.8 jadvalda ko'rsatilgan. Palto uchun materiallar assortimentiga an'anaviy pal'to matolari, tabiiy mo'yna, tabiiy charm va zamsha, trikotaj polotnolar v.b. kiradi. Ushbu ko'p xillikda katta talabga asosan sof junli va yarim junli palto matolari, yozgi mahsulotlar uchun esa – ipak va ipgazlama matolar egadir.

Tabiiy xomashyodan bo'lgan doimiy materiallar bilan bir qatorda ko'pincha materiallarning yangi turlari: sun'iy tolali matolar va kimyoviy preparatda sayqallangan sun'iy mo'yna, sun'iy charm va zamsh, shuningdek, ushbu material turlari bilan birikmalardan foydalaniladi.

Tabiiy mo'yna. Eng ma'qul va go'zal issiq libos — mo'ynali libos hisoblanadi. Mo'ynaning yuqori issiqlik himoya xususiyati uning charm matosini past darajada (mo'ynaning havo o'tkazuvchanligi ko'p hollarda $1 \text{ dm}^3/(\text{m}^2 \cdot \text{s})$ dan oshmaydi) havo o'tkazuvchanligi bilan, shuningdek, ahamiyatli darajada tuk qoplamasida havo qatlami zichligi bilan izohlash mumkin. Bundan tashqari, mo'ynali mahsulotlar to'g'ri parvarish qilganiga qarab uzoq vaqt kiyiladi (15-20 yilgacha). Biroq mo'ynaning xomashyo resurslari chegaralangan, narxi baland, shuning uchun issiq himoyali liboslarda faqatgina mo'ynadan tayyorlashga tayanish mumkin emas.

Mo'ynadan kiyim tayyorlash uchun asosan momiq-mo'yna yarim tayyor mahsulotdan foydalaniladi. Momiq-mo'yna yarim tayyor mahsulot ning assortimenti

turlidir. U o'z ichiga qimmatbaho mo'ynalarni – sobol, suvsar, qorakuzan, oqsichqon, kumushrang-qora va qora-qo'ng'ir tulki v.b., hamda arzonroq mo'ynalar – yovvoyi quyon, uy quyoni v.b.

Libosni ishlab chiqarish, yangilash, ta'mirlash hamda bezak berishda (yoqa, manjetlarga) momiq terilardan, qorako'l-qo'zi terisidan, qo'y-po'stin terilaridan, dengiz hayvonlari terisidan v.b.lardan foydalaniladi.

Jun matolar palto materiallari assortimentida foydalanish kengligiga ko'ra birinchi o'rinni egallaydi. Ularni kamvol va yupqa movut qilib ishlab chiqarishadi. Alohida kichik guruhlarga drap, movut va tukli matolarga ajratilgan.

Kamvol matolar nisbatan yengil bo'lib, asosan ayollar va erkaklar paltolari uchun foydalinaladi, ular demisezon, yozgi va qishki issiq astarli; yuza tomonida to'qilgan aniq rasm bor. Bu gabardinlar, diagonallar, kreplar, bukle va yangi assortimentdagi palto matolar – gabardinga o'xshash va kamvol-movut matolar, ularning teskari tomoniga apparat tizmida yigirilgan ip pahmoqlanib chiqarilgan.

Yupqa movut palto matolari kamvollariga qaraganda yanada yengil va qayishqoq, u turli to'qilishlar orqali ishlab chiqiladi. Matoning yuza tomonida odatdagidek mayda yoki yirik kashta to'qilmali aniq rasmlı, fasonli yigirilgan ipdan katak yoki yo'l-yo'l yoki buklırovkali bo'lishi mumkin. Palto matolarni kalta yoki presslangan tukli, yuza tomonidan bezalishi bo'yicha drapga o'xshash qilib ishlab chiqarishadi, biroq zichligi, sifatılligi va og'irligi bilan unga qaraganda past darajadadir.

Palto matolarning badiiy-koloristik bezagi drapga qaraganada ta'sirchan, turli-tuman, yorqin va ko'rkamdir. Ranglar gammasi modaga muvofiq o'z ichiga bo'yoqlarni barcha ranglarini qamrab olib, o'zgarib turadi – pastel ranglardan yorqin ranglargacha.

Shuningdek, ravon bo'yoq berilgan, olachipor, guldor matoli, ingichka pishiq ipdan tayyorlangan mato va h.k.lar matolar ham ishlab chiqariladi.

Erkaklarning klassik matolariga tvidlar kirsı, ayollarnikini buklelar tashkil etadi. Buning barobarida flanel (ip yoki jundan ishlangan yengil mato)lar, ratin (jingalak

tukli jun gazlama)lar, drap(qalin movut)lar, turli xildagi movut va h.k.lar ham keng qo'llaniladi.

Palto uchun ipak matolar u qadar ko'p emas. Palto uchun qo'llaniladigan ipak matolar assortimentini baxmallar, movutlar, tukli duxobalar va anchayin shakl turg'unligini ushlab turuvchi, kimyoviy usulda olingan tola hamda ipdan tayyorlangan matolar tashkil etadi.

Ip-gazlamali matolar – olachipor, guldor matoli, ingichka pishiq ipdan tayyorlangan matolar asosan maxsus kiyimlarni tayyorlashda ishlatiladi, ammo ba'zida bolalar paltosi va kundalik turmushga mo'ljallangan palto mahsulotlari uchun ham qo'llaniladi (masalan, issiq tutadigan kurtkalar). Paxmoq (chiyduxoba, baxmal) va jinsi gazlamalari esa yoshlarbop palto mahsulotlari uchun ishlatiladi.

Trikotaj matolar. Ayollar va erkaklar paltosi, issiq tutadigan kurtkalar va kalta kamzullarni tayyorlashda asosan og'ir, zich, turg'un shaklga ega, matolardan foydalaniladi. Ular jun va omuxta yigirilgan ipni yumaloq shaklga soluvchi mashina va kam cho'ziluvchan usulda tayyorlanadi.

Sun'iy paltoli materiallar – mo'yna, charm, zamsh – qishki va bahor-kuz fasllariga mo'ljallangan erkaklar, ayollar va bolalar paltolarining qoplamasi uchun keng qo'llaniladi. Materiallar turli xildagi uskunalar va turlicha uslublar yordamida olinadi.

Kiyim uchun foydalaniladigan tabiiy charm, kiyimning yuqori qismini tayyorlashda – paltoni tikishda, kalta palto, kurtkalar va boshqa shu kabi mahsulotlar, kiyimni ta'mirlash va yangilashda, shuningdek, bezak berishda ham keng qo'llaniladi. Tabiiy charmning assortimenti asosan qo'y va cho'chqa terisini xromli oshlash hisobiga boyitiladi.

Palto, shuningdek kostyumlar uchun astar materiallar muhim rol o'ynaydi: ular estetik, ergonomik va mahsulotni ishlatishdagi xususiyatini yaxshilaydi, vaqtidan avval eskirish va kirlanishdan muhofaza qiladi, paltoning odam qomatiga monand bo'lishini ta'minlaydi.

2.9. Kurtka va yomg'irpo'sh(plash)lar uchun mo'ljallangan materiallarni konfeksiyalash. Yomg'irpo'sh va kurtkalar bu – suv o'tkazmaydigan, yengil turdagi

mahsulot sanalib, u asosan shamol va yomg'irli havo uchun mo'ljallangan. Ular issiqlik o'tkazmaydigan kiyimlar turiga mansubdir. Palto va kostyumlarga o'xshash tarzda, yomg'irpo'shlar ham odamni zarur izolyatsiya bilan ta'minlaydi, uni sovuq qotishidan himoya qiladi. Shuning uchun undagi konfeksiyalash tamoyillari palto va kostyumlardagi kabidir.

Yomg'irpo'sh va kurtkalarining himoyalash funktsiyalari, haroratga qarshi tura olishi, suv o'tkazmaslik va material qoplamasining past darajada havo o'tkazuvchanligi alohida ahamiyatga ega.

Yomg'irpo'sh va uning matolariga bo'lgan talab va materiallar tanlovi, uning ishlatilish sharoitidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bu mahsulotlar faqatgina yog'ingarchilikdan himoya qilish uchun mo'ljallangan bo'lmay, balki yengil palto sifatida ham foydalaniladi. Namgarchilikka qarshi turishi bilan bir qatorda, issiqlikni ushlab turuvchi ma'lum bir xususiyatlarga, shuningdek, o'zining estetik ko'rsatkichlari bilan ham zamonaviy modalar yo'nalishiga mos bo'lishi kerak.

Yomg'irpo'sh matolarining yuqori qismidagi zichligi turlicha bo'lib, u 50-300 g/m² ni tashkil etadi.

Yomg'irpo'sh matolarining asosiy xususiyatlari tola tarkibiga bog'liq bo'ladi. Yuqori qismdagi zichlik va ishlab chiqarish usuli: ip-gazlama matolar uchun GOST 9009-77, sintetik iplardan tayyorlangan ipak matolar uchun GOST 28486-90.

Yomg'irpo'sh materiallarining namgarchilikka chidamlilik xususiyatini yanada kuchaytirish maqsadida, unga maxsus ishlov beriladi.

Yomg'irpo'shlarni tayyorlashda ishlatiladigan matolar asosan uch turga bo'linadi: suv yuqmaydigan gidrofob singdirlan polimerli qoplama va rezinli qoplama. Yomg'irpo'sh matolar xomashyo tarkibiga ko'ra, ip-gazlamali, ipakli va yarimjunli bo'lishi ham mumkin. Kurtkalar esa yomg'irpo'shga ishlatiladigan bo'lib maxsus materiallardan tayyorlanadi. Odatda ular yengil zichlikdagi poliamid tolalardan iborat bo'lib, sadaf rangli, kumush va tilla rangdagi plyonka, shuningdek, lateks bilan qoplangan, lake bezakli bo'ladi, shamolga bardosh beruvchi, suv o'tkazmaydigan matolar ham shular jumlasidandir.

Nam o'tkazmaydigan yomg'irpo'sh, palto va bosh kiyimlar kompleks va plyonkali materiallardan tayyorlanishi ham mumkin. Bunga tabiiy yo'sun'iy charm va zamshni misol keltirish mumkin.

Suv yuqmaydigan shimdirigan ip-gazlamali yomg'irpo'sh matolar bu – yomg'irpo'sh uchun mo'ljallangan bir xildagi astarbop gazlamalar, bo'rtma qiya yo'lli (diagonal) va yomg'irpo'sh polotnosidir.

Sintetik yomg'irpo'sh matolar. Ushbu matolarning katta qismi plyonka qoplamali kapron iplari (nam va sovuq havoni o'tkazmaydigan)dan tayyorlanadi. Bir qatlamli matolar ayollar va bolalar kiyimlari uchun mo'ljallangan bo'ladi. Erkaklar kiyimlariga ancha yuqori qavat zichligiga ega uch qatlamli matolarni ishlatishadi.

Kompleks kapron iplardan bo'lgan matolar yuqori issiqlik o'tkazuvchanlik, past havo va bug' o'tkazuvchanlikka egaligi sababli, uni yilning issiq kunidagi yomg'irlardan himoya qiladigan yomg'irpo'shlar uchun qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Issiqdan himoyalovchi kundalik va sport liboslar uchun bu kabi matolardan yuza qatlami sifatida qo'llaniladi.

Yomg'irpo'sh matolarining ma'lum bir qismi poliefirli tekstulangan iplardan tayyorlanadi, uning asosini arkok ham tashkil etadi, shuningdek, kapron iplar tandagi va arkokdagi poliefirli tekstulangan iplardan ishlanadi. Yomg'irpo'sh matolarining yana bir qismi lavsan tolali(sintetik tola turi) yigirilgan iplardan tayyorlanadi.

Yomg'irpo'sh uchun astarli materiallar — kostyum va paltolarning astarlariga aynan o'xshash bo'ladi.

2.10. Bolalar kiyimlari uchun materiallar konfeksiyasi. Bolalarning fiziologik xususiyatlari hamda organizmini hisobga olgan holda, ularning kiyimlari spetsifik (o'ziga xos) talablarga javob berishi kerakki, bu o'z navbatida kiyimni loyihalashda e'tiborga olinishi lozim.

Bolalar kiyimiga bo'lgan talab, nafaqat undan foydalanishdagi maqsad va shartlarga, balki bolaning yoshi bilan ham aloqador ekanligini unutmaslik darkor.

Bola organizmi davomiy o'sish va rivojlanish holatida bo'ladi. Bolalarning kattalarga nisbatan yupqaroq va nozik teriga ega bo'lishlari hech kimga sir emas. Bolalardagi tezda sovuq qotish, birinchidan ulardagi epiteliy to'qimasining yupqaligi,

ikkinchidan, terining qalin qismidan arimas miqdordagi qonning oqib o'tishi sabab bo'ladi. Shuning uchun bolalarning terisi kattalarga nisbatan, ularni tashqi muhit haroratining tebranishidan bilinar-bilinmas darajada himoya qiladi. Ana shularni hisobga olgan holda, yilning sovuq faslida bolalar kiyimlari kattalarnikiga qaraganda ancha issiq bo'lishi va organizmning issiqlik ajratib chiqarishiga hech qanday to'sqinlik qilishi kerak emas. Shuningdek, kiyimlar bolaning bo'yi, qomati va o'lchamiga muvofiq bo'lishi lozim. Kiyimlarning sezilarli ravishdagi massasi (og'irligi) serharakat yoki mushaklari nimjon rivojlanayotgan bolalarga qattiq ta'sir qilishi ehtimoldan yiroq emas. Bu tabiiyki, bola organizmining toliqishiga olib keladi. Bola kiyimining og'irligini kamaytirish va asosiy gigienik talablarni qondirish uchun, kiyimga ratsional tuzilishga ega va yengil matolarni tatbiq etish nihoyatda zarur sanaladi.

Gigienik talablarni qondirish uchun bolalar ichki va tashqi kiyimlari va trikotaj matolar 7 % kam bo'lmagan gigroskoplikka ega bo'lishi kerak. Yozgi ichki va tashqi kiyimlarning havo o'tkazuvchanligi $135 \text{ dm}^3 / (\text{m}^2 \cdot \text{C})$, qishkilari uchun $100 \text{ dm}^3 / (\text{m}^2 \cdot \text{C})$ hamda issiq o'tkazuvchanlik koeffitsienti $0,069 \text{ Vt/m} \cdot \text{C}$ tashkil etishi maqsadga muvofiqdir.

Bolalar kiyim-kechaklari materiallarini konfeksiyalashda sanitar-gigienik qoidalarga va kimyoviy tolalarning tarkibi me'yorlariga amal qilish nihoyatda zarur sanaladi. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yoshidagi o'quvchilarning kiyim-kechaklariga ishlatiladigan sintetik va atsetat tolalar 20% dan oshmasligi kerak. Jun va nitron aralashmasidan (ot 20 do 60%) tayyorlangan bolalar kiyim-kechaklarining fiziologik-gigienik bahosi tabiiy sharoitlarda shuni ko'rsatdiki, 30% dan ortiq tolaning aralashmasi kiyim ostidagi havo namligining oshishiga olib keladi. Bu o'z navbatida, bolaning eti junjikishiga sabab bo'ladi (bunda o'rtacha teri haroratining pasayishi kuzatiladi). Shuningdek, materialning yuqori qismida elektrostatik maydon kuchlanishining kattalashishiga ham olib keladi.

Sintetik tolalarning materiallarga qo'shilishi inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatishi sabab, ulardan chaqaloqlar va bog'cha yoshidagi bolalarga mo'ljallab kiyim tayyorlashda foydalanish qat'iy tavsia etilmaydi.

Bog'cha va maktab yoshida bo'lgan bolalarning qishki kiyimi to'rtinchi qatlam tarkibidagi gidrofob va atsetat tolalar 50% dan oshmasligi kerak.

Bolalarning faol jismoniy fe'li, shuningdek, kiyimning konstruksiyasi va meteorologik parametrlarining o'zgaruvchanligi hisobga olgan holda, organizmning ortiq qizib ketmasligi uchun, kiyimning issiqlikka qarshi kurasha olish jihatlarini ham avvaldan ko'ra bilish lozim. Ana shu maqsadda maxsus ventilyatsion qurilmalar, yechiladigan issiqlik moslamalari va h.k.lardan foydalanish ham mumkin. Ammo bir narsani hisobga olish kerak: tashqaridan kelayotgan sovuq havo odamning tanasini zabt etishidan oldin, u kiyimning ichki qatlamlarida issiq havoga aylanib olishi lozim.

Bolalar kiyim-kechaklari o'zining uyg'unligi, mutanosibligi, chiroyli chiziqlari, shuningdek, rangi, rasmlari, materialning sifati, tuzilishi va bezaklari bilan ko'zni quvnatishi kerak. Kiyim avvalo yengil, harakat jarayoniga xalaqit bermasligi, ishlov berishda va foydalanishda qulay bo'lishi lozim.

Bolalar kiyim-kechaklarining materiallari o'z vaqtida kiyim osti bo'shlig'idagi namlikni bartaraf etish maqsadida nam o'tkazuvchan ham bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Biroq materiallar jamlanmasining ma'lum bir qalinlikda bo'lishi bois, qishki kiyimlardagi nam o'tkazuvchanlik chegaralangan. Shu sababli, kiyimdan uzoq muddat foydalanish oqibatida, unda namlikning yig'ilishiga hamda kelgusida issiqlikka qarshi kurashish qobiliyatining pasayishiga olib keladi.

Bolalar kiyim-kechaklarini yaratishda bola organizmi faoliyatiga muvofiq shart-sharoitlarni ham hisob olish muhim sanaladi. Bu o'z navbatida, bolaning harorat holati me'yorlashini osonlashtiradi, organizmdagi issiqlik yo'qotilishi va kiyimda namlikning to'planishini kamaytiradi.

Bolalar kiyimida siluet va shakl katta ahamiyat kasb etadi. Uning tuzilishi harakat qilish, nafas olish va organizmda qon aylanishini erkin ta'minlashi darkor. Bolalar ustki kiyimi issiq, yengil bo'lishi va eng asosiysi, bolaning harakatlanishiga qarshilik qilmasligi kerak.

Tor hamda zich yopishib turuvchi kiyim bolaning tanasini siqib qo'yishi bilan bir qatorda, kayfiyatining yomonlashuviga ham sabab bo'ladi. Ana shu sababdan bolalar kiyimlari yengil, bolaning o'lchamiga muvofiq bo'lishi, asosan yelka qismiga

yaxshilab o'rnashishi muhim sanaladi. Tanani kamar, tarang rezina tasma bilan tortib bog'lash, baland tor yoqalardan foydalanish tavsiya etilmaydi. Bolalar kiyimlarini yaratuvchilar — modellar, bola qad-qomatining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olishlari lozim. Bunda kiyim qulay bo'lishi, oson tozalanishi, yuvilishi va dazmollanishi kerak. Bog'cha va boshlang'ich ta'lim yoshidagi qizlarga mo'ljallangan ko'ylaklar erkin (kengroq), ulama emas, balki burama, shartli ravishda beli xipcha bo'lishi lozim, shuningdek, bostirib tikilgan yubka kiyish tavsiya etiladi. Har qanday vaziyatda ham mana shu yoshdagi bolalar qad-qomatining o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinishi kerak.

O'g'il bolalarga kaltaroq yoki uzunroq shim kostyumi bilan tavsiya etiladi (kamzul, kurtka). O'g'il bolalar uchun uzun yoki qisqa elkabog'ichli va yarim kombinezonlar anchayin qulay sanaladi.

Bog'cha yoshidagi bolalarga mo'ljallangan palto yengil, erkinroq uslubda tikilgan bo'lishi, harakatlanishga monelik qilmasligi zarur. Ammo hajmi yetarli darajada kichik va shu bilan birgalikda issiq bo'lishi lozim. Yana ushbu yoshdagi bolalarga issiq kombinezonlar (junli yoki issiqni ushlab turuvchi astar bilan) ham nihoyatda qulay sanaladi. 3-6 yoshdagi bolalarga mo'ljallangan qishki va bahor-kuzgi mavsumiy paltolar shakl jihatidan bir-biridan nihoyatda oz farq qiladi. Qizlarga tayyorlanadigan paltoning quyi qismi biroz kengroq bo'lishi, o'g'il bolalarniki esa to'g'ri bichimda, erkaklarning paltosi detallariga monand: qopqoqli cho'ntaklar, belbandlar, qaytarma yoqali bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalar bilan bog'cha yoshidagilarning kiyim-kechaklari orasida deyarli farq bo'lmaydi. Ushbu yoshdagi bolalar qad-qomatidagi o'zgarishlar kiyimlardagi mutanosiblikda o'z aksini topadi. Ular uchun tayyorlanadigan paltolar qaytarma qalpoq (kapyushon) yoqali va biroz uzunroq bo'lishi tavsiya etiladi.

O'rta yoshdagi maktab o'quvchilari qad-qomatining proportsiyali o'zgarishlari kiyimning tuzilishida o'z aksini topadi. Ushbu yoshdagi qizlar uchun paltolar to'g'ri bichimda yoki yarim yopishgan, quyi tomoni keng holatda bo'ladi.

O'g'il bolalar paltosi — shakliy jihatdan sodda; qishki palto esa, yechiladigan issiq astardan iborat bo'ladi. Shuningdek, yoz va qish mavsumlari uchun biroz kengroq, qadama yengli, baland ilmali va qaytarma qalpoqli — turli xildagi sport kurtkalari tavsiya etiladi.

O'smir yoshidagi maktab o'quvchilarining kiyimlari katta yoshdagilarnikiga anchayin yaqin bo'lgani bois, u ham, albatta gigiyenik talablarga javob berishi kerak.

Bolalarning xiyla yupqa, nozik va jarohatga moyil terisi, kiyim loyihasini tayyorlash paytida gazlamaning yumshoq, gigroskopik va namlik sig'imiga ega hamda oson yuvilishini hisobga olishni taqozo etadi.

Bolalar kiyim-kechaklarini tayyorlashda ip-gazlama matolardan foydalanish tavsiya etiladi. Bular: chit, paxmoq, flanel (ipdan yoki jundan to'qilgan yengil mato), pleten va h.k; shuningdek, jun va ip-gazlamadan yigirilgan trikotaj mato, sun'iy toladan tayyorlangan iplar hamda ularning birikuvi.

Bolalar ko'ylaklari, ko'ylak-kostyumlari uchun quyidagi matolar tavsiya etiladi: ip-gazlamadan tayyorlangan yupqa g'ijim gazmol, jun ipgazlama, flanel, paxmoq va h.k. Shuningdek, shtapel matolar.

Katta bo'lmagan guruhni pishiq tizimga ega ip-gazlamalar tashkil etadi; shuningdek, uning ichiga bolalar ko'ylak va kostyumlariga tavsiya etilgan gazlama va terilarga oxirgi ishlov berishda qo'llaniladigan modda (appretura) ham kiradi. Shuningdek, ko'ylak-kostyumlarga mo'ljallangan ip-gazlamadan tayyorlangan og'ir, zich matolar ($153\text{--}227\text{ g/m}^2$) guruhini ham ko'rib chiqsa bo'ladi. Ba'zida ataylab qo'pol usulda to'qilgan polotno, rogojka (yo'g'on ipdan siyrak to'qilgan dag'al gazlama), bir xildagi astarbop gazlamalar ularga zig'ir monandlikni baxsh etadi. Bolalar guruhiga taalluqli zig'ir matoli ko'ylaklarda butunisicha yoki nihoyatda oz miqdorda (8 %) gacha sintetik tolalar ishtirok etadi.

Asosan uning tashqi zichligi $112\text{--}190\text{ g/m}^2$ bo'lib, zig'ir tolali ipgazlamadan tayyorlanadi va unda bolalar mavzuiga muvofiq kichik masshtabli bostirma rasm yoki naqsh rasmlardan foydalaniladi. Bundan tashqari bolalar mahsuloti uchun mos bezak berilganda kattalar assortimentidagi zig'ir tolali ipgazlamadan foydalanish mumkin.

Zig'ir tolali ipgazlamali yo'l-yo'l matolar turli rangli rasmlari to'g'ri masshtabli katak, yo'l-yo'l, ba'zida esa sherik-mato tarzida ishlab chiqiladi; ular tashqi zichlikning yengilligi bo'yicha 130—160 g/m², o'rtachasi bo'yicha 165—220 g/m² va juda og'iri bo'yicha 250 g/m²gacha bo'ladi, bolalar ko'ylagi va ko'ylak-kostyumi uchun qo'llaniladi.

Bolalar ko'ylak mato guruhining assortimentini viskozali qiyalama eshilgan kompleks iplardan polotnoli, sarja va krepo'rilshli bir tekis bo'yalgan, bostirma va yo'l-yo'l bezakli matolar tashkil etadi.

Bolalar ko'ylak mahsuloti uchun viskozali ipgazlamani asos bo'yicha viskozali kompleks ipdan va ipgazlamali yigirilgan ipdan arkok bo'yicha ishlab chiqiladi. Ular ipak jilvali paxta sifat ko'rinishga ega. Bu matolar yengil – 80—100 g/m², yupka 0,18—0,26 mm, yuqori gigroskopiklikka ega.

Sun'iy tolalar bolalar yo'l-yo'l matosi mayda va o'rta katak rasmlari, yanada ingichka rangli iplar o'tgani bilan ajralib turadi, ba'zida turli ranglar gammasiga ega.

Jun va yarimjun matolardan yumshoq, egiluvchan va issiq xususiyati yuqorilik qabi afzalliklarga ega. Bu talablarga tarkibida sun'iy va sintetik tolalarbor kamvol, mayin movut va yarimjun ko'ylakli matolar javob beradi. Ularni oddiy, krepli va kareтали to'qilmali, biroz tashqi zichlik va qalinlikda ishlab chiqadi.

Bolalar ko'ylagi, bluzka, ko'ylak-kostyumlarni tayyorlash uchun ipak va ipgazlamali tikma polotnolardan foydalaniladi. Ular iplarning turli xil birikmasi, turli ko'rsatkichli tashqi zichlik va qalinlikda ishlab chiqiladi.

Bolalar sport kostyumi va kurtkalari uchun satin o'rilshdagi bir tekis bo'yalgan tukli-taralgan matolardan (movut, vel'vet va zamsh) foydalanish mumkin, ular yuza tomonidan kalta quyuq taralgan tukka ega. Bu matolarni qalinligi va zichligi bo'yicha ajratish mumkin: zamsh – eng zich va sifatli mato, movut esa – ulardan ko'ra ingichka, yumshoq va g'ovaklidir.

Qishki bolalar libosi uchun g'ovak to'qilmali ipgazlama matolar tavsiya etiladi: krep, junsimon ipgazlama, eponj v.b.lar. Eponj – fasonli kurtka yigirilgan ipdan ipgazlama (ba'zida ipak). Eponj ilmoqli yigirilgan ipi tufayli sifatli mato taassurotini beradi va boshqa ipgazlamaga qaraganada past darajada g'ijim bo'ladi. Bu

gazlamalarning ko'p qismi katak qilib ishlab chiqiladi; ular yuqori burmaboplik va cho'ziluvchanlikka ega, bichilgan vaqtda chekkadagi iplari to'kiladi, yuvilganda esa – ko'pdarajada kichrayadi.

Ipgazlamaning qishki kichik guruhini zich bir tomonlama yoki ikki tomonlama tukli taralgan gazlamalar tashkil etadi, ular yuqori darajada issiqdan himoyaga va yuqori gigroskopiklikka ega. Matoni bir tekis bo'yalgan va bostirma rasmlari qilib chiqariladi, ular demisezon va qishki bolalar assortimenti mahsulotlari orasida keng qo'llaniladi.

Ipgazlamalardan chiyduxoba-kord, velvetonlar yuqori issiqdan himoya qilish xususiyatiga ega. Biroq ular og'ir – ularning tashqi zichligi $245\text{—}320\text{ g/m}^2$, uning tashqi zichligi erkaklar kostyumi uchun mo'ljallangan og'ir matoga muvofiqdir.

Bolalar issiq ustki kiyimi uchun tabiiy va sun'iy mo'ynalar, ba'zi kompleks materiallar, g'ovak tuzilmali yarimjun va jun matolar, yengil paltolar uchun – pike turidagi matolar, bir tekis bo'yalgan va bosma tukli matolar tavsiya etiladi.

Yomg'irpo'sh va kurtkalar uchun bir qatlamli qoplamali yomg'irpo'sh mato mo'ljallangan.

Bolalar paltosini tayyorlashda bort qistirmasining asosiy qatlami, bir qatlamli bort qistirmasi, yelkani yopib turadigan qismlarda ishlatishda qattiq bo'lmagan bort matolaridan foydalaniladi.

Old qismlarni yoppasiga takrorlashda viskoza va ipgazlamalardan, tashqi zichligi $100\text{—}160\text{ g/m}^2$ bo'lgan poliamid yelim qoplamali to'qilmagan gazlamalardan foydalaniladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, bolalar kiyimi uchun materiallar assortimentida yengillashtirilgan to'zilishdagi matolar kam. Ko'p hollarda bolalar kiyimini tayyorlashda kattalar kiyimi uchun mo'ljallangan matodan foydalaniladi.

2.11. Liboslarni yangilash va ta'mirlashda materiallar konfeksiyalashuvi.

Libosni yangilash va ta'mirlash xizmatlarini aholini maishiy xizmat qilish tizimining tikuv korxonalari bajaradi. Ushbu xizmat turlari libosning asosiy maqsad funksiyalarini tiklashga, uning vazifasi va libosning iste'mol sifat darajasi, shuningdek, uning xizmat muddatini oshirishga imkon tug'diradi.

Libosni yangilash va ta'mirlashda materialni tanlash masalasi yuzaga chiqadi, ularni yechishda o'ziga xos yondashuv talab qilinadi. Libosni yangilash va ta'mirlash turiga qarab materiallarni tanlash buyurtmachini istak va imkoniyati hamda mahsulotni siyqalanish topografiyasini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Zamonaviy moda yo'nalishiga javob bermaydigan, ijtimoiy eskirgan liboslar modeli uchraydi, biroq u tayyorlangan materialining yetarli darajada mustahkam bo'lishida yangilanishning bir necha xil uslublaridan foydalaniladi:

- assortiment o'zgarishida butunlay yoki qisman qayta bichish e'tiborga olinadi;
- assortiment o'zgarmasdan butunlay yoki qisman qayta bichish, qo'shimcha bezak materiallarini kiritish ko'zda tutiladi.

Mahsulotni yangilash tanlash uslibi uning siluet shakli, zamonaviy modaning yo'nalishi, shuningdek, buyurtmachining istaklaridan kelib chiqadi. Yangilash uchun materiallarni tanlash uni bajarish uslubidan kelib chiqadi.

Materiallarni tanlashda assortiment o'zgarishi vaqtida materialnig asosiy xomashyo tarkibi va yangilangan modelning siluet shakli, shuningdek qo'shimcha uchun material kaytadan tanlanadi. Ustki kiyimni yangilashda matolardan qo'shimcha material sifatida turli badiiy-koloristik bezak mahsuloti qoplama matolaridan, (kamvol-matolar), shuningdek, boshqa uslubda olinadigan libos uchun materiallardan (trikotaj matolar, sun'iy mo'yna va charm, zamsh) foydalanish mumkin.

Bunday hollarda libosga qarash uslubining birlik printsiplari, qo'shimcha hamda boshqa materiallar paketining fizik-mexanik xususiyatlariga qat'iy ravishda rioya qilish lozim. Bezak materialini tanlashda yanada ahamiyatlisi bu estetik talablardir, unga rioya qilish mahsulotnig kompozitsion yaxlitligini va uning tashqi ko'rinishini oshiradi. Ustki kiyim va kostyum assortimenti uchun asosiy talablar bo'lib, yuqori shakl saqlash xususitidagi mahsulot loyihasini yaratish hisoblanadi. Qistirma va astar materiallarni konfeksiyalashuvi liboslarni tayyorlashda qanday bo'lsa, shu kabi amalga oshiriladi, bunda yangilangan mahsulotni paketga yig'ish vaqtida fizik-mexanik xususiyatlarining birlamchi ko'rsatkichi va mahsulotga qarash uslubi orqali o'tkaziladi.

Assortiment o'zgarasdan materiallarni tanlash masalasi mahsulotning hajmini o'zgarishi va bezak qismlarini tayyorlash uchun bezak materiallarini tanlash orqali yechim topadi. Bunday hollarda yangilangan mahsulot va uning maqsadi umumiy talablardan kelib chiqish lozim.

Assortiment o'zgarasdan butunlay yoki qisman bichilgan materiallarni tanlashda yuqorida keltirilgandek, yordamchi, qistirma va astar materiallardan foydalaniladi. Libosni yangilashda yordamchi materiallarni tanlash uning funktsional maqsadi va modelining kompozitsion yechimiga bog'liqdir.

Libosni ta'mirlash libos qismlarini tashqi qo'rinishni o'zgartirish yoki almashtirish yo'li bilan uning iste'molchi talablarini qonuniyatlari. Ular mexanik, fizik-kimyoviy va biologik omillarning murakkab kompleksi ta'siriga duch kelgan, bu esa tashqi ko'rinishni o'zgarishiga va fizik-mexanik xususiyatlarni yomonlashuviga to ularning butunlay buzilib ketishigacha olib keladi. Bunday hollarda, qoidaga ko'ra, libosning ko'proq yeyilishga molik joylari ajratiladi: mahsulotning pastki qismi va yenglarining qaytarilgan joyi, bort chekkasi, bo'ylash chizig'i bo'ylab yoqa, taqilma, cho'ntakka kirish chizig'i, yengning tirsak atrofi.

Mexanik kuchga qisqa muddatli ta'sir libosdan foydalanish jarayoni vaqtida material ko'taradigan darajadagi cheklangan yorilish kuchidan oshib ketishi materiallarning mahalliy shikastlanishiga olib keladi – kesilish, ta'mirga muhtoj libosning turli qismlarida yorilib ketishi.

Ta'mirlash vaqtida materiallarni tanlash libosning ta'mir qismining qayerda joylashganiga qarab aniqlanadi va mahsulotga qarash uslubi hamda fizik-mexanik, fizik-kimyoviy xususiyatlarning birlikdagi talablariga rioya qilgan holda bajariladi. Misol qilib aytganda, libos ta'miri vaqtida mahsulotning etak chizig'i, eng chekkasi hamda bortida qo'shimcha materialdan foydalanish imkoniyati mavjud, bunda u funktsional vazifasidan tashqari yana bezak vazifasini ham bajarishi mumkin. Ushbu materiallar sifatida mo'yna, charm, trikotaj, tasma, yordamchi-mato v.b.lardan foydalaniladi. Libosni ta'mirlash vaqtida yengning tirsak chizig'i bo'ylab yoki mahalliy zararlanishni bartaraf etishda koplama yoki applikatsiya ko'rinishidagi yordamchi materiallardan foydalaniladi. Ushbu qismlarni asosiy material bilan ulash

ipyoki yelim uslubi orqali amalga oshiriladi, bunda yelim, ulanadigan materiallarning tola xususiyatiga va mahsulotga qarash uslubiga ko'ra, tanlanadi.

Yangilanish va ta'mirlashda materiallarni asoslangan tanlovi asosida material harajati orqali libosning iste'mol sifat darajasi tiklashga imkoniyat beradi.

III BOB

LIBOSLAR UCHUN MATERIALLARNI TANLASH

3.1. O'zbekistonning geografik joylashishi va iqlimi. Yoz kunlari odam organizmi yuqori harorat ta'siri ostida bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Markaziy Osiyo respublikalarida ushbu muammo jiddiy ahamiyatga ega. Keng miqyosda o'tkazilgan ilmiy izlanishlar Markaziy Osiyo regioniga ta'alluqli iqlimiy, gidrologik va ekologik muammolarga bag'ishlangan. Hozirgi vaqtga qadar mazkur hududga oid iqlimiy rayonlashtirishning variantlari ishlangan bioiqlim kartalar komplekti tuzilgan, turli iqlim va bioiqlim ta'riflar, atlas va ma'lumotnomalar mavjud. Hududga xos atmosfera jarayonlarining xususiyatlarini o'rganish maqsadida tadqiqotlar o'tkazilmoqda [21].

O'zbekiston respublikasi EvroOsiyo kontinentining markaziy qismida shimoliy kenglikning o'ttiz yettinchi – qirq beshinchi graduslari va sharqiy uzunliklarning ellik oltinchi va yetmish uchinchi graduslari orasida joylashgan; uning umumiy maydoni 447,4 ming km² ga teng.

O'zbekiston shimolda va g'arbda Qozog'iston bilan, janubda – Turkmaniston va Afg'oniston, sharqda esa Tojikiston va Qirg'iziston bilan chegaradoshdir.

Respublikani 78,8 foizi – tekisliklar, qolgan 21,2 foizi — tog'lar va tog'lararo cho'nqirlarga bo'linadi.

Respublika hududi Osiyoning quruq zonasiga kiradi. Uning 70 foizdan ko'prog'i iqlimiy o'zgarishlarga moyil sahro va dashtlardan iborat [27].

Iyul oyining o'rtacha harorati tekisliklarda shimolda 26°C dan janubda 30°C gacha o'zgaradi, maksimal ko'rsatkichlari 45-47°C gacha ko'tarilishi kuzatiladi. Yanvar oyining o'rtacha harorati janubda 0°C dan shimolda – 8°C gacha pasayishi mumkin. Havo yog'ingarchiligi asosan kuz-bahor mavsumlarida kuzatiladi. Tekisliklarda bir yil mobaynida 80-200 mm, tog'lar etagi va adirlarda 300-400 mm, tog' tizmalarining g'arbiy va janubiy-g'arbiy yonbag'irlarida 600-800 mm. gacha yog'adi.

Mazkur hududga turli havo oqimlari bemaolol kira oladi. Shimoldan, g'arbiy shimoldan va g'arbdan keng tekisliklarga o'zgargan atlantik va sovuq arktika havo oqimlari kirib keladi. Qishda issiq sektorlardan janubiy siklonlar keltiradigan tropik havo oqimlari orqali kunlar birdan isiy boshlaydi.

Respublika hududi baland frontal oqimlar mintaqasida joylashgan. Yilning sovuq vaqtiga kelib bu oqimning harakati tezlashadi, natijada, tsiklonlar harakati ham kuchayadi. Ular Markaziy Osiyoni kesib o'tganda ob-havo keskin o'zgarib turadi.

Yozda juda qizigan keng sahro ustida quruq tropik kontinental havo oqimi hosil bo'ladi. Bu yerda havo yog'ingarchiligi juda oz miqdorda (80-200 mm. gacha), maksimumi mart-aprelga to'g'ri keladi. Yog'ingarchilik juda o'zgaruvchan, havo yog'inlari yillik majmuining o'zgarish koeffitsienti 0,5 gacha yetadi.

Havo yog'inlarining miqdoriga Orol dengiziga jiddiy ta'sir etolmaydi, faqat qirg'oq bo'yidagi yerlarda havo namligi ko'tarilishi mumkin.

O'zbekiston hududa tabiiy – iqlim sharoitga mos holda qator ekosistemalar farqlanadi: sahroli tekisliklar ekosistemalari, tog' etaklari va adirlar, daryo va qirg'oq bo'ylariga oid ekosistemalari, daryoning tarmoqlangan mansabi va namli hududlar ekosistemalari, tog'lar ekosistemalari. Ularning har biri flora va fauna turkumlarining rivojiga va faoliga ta'sir etadigan tabiiy komponentlar kompleksidir.

Sahroli tekisliklar ekosistemalari Qizilqum sahrosini, Ustyurt yassi tog'lari, Qarshi adirlari, respublika janubini va Farg'ona vodiysini o'z ichiga olgan. Tuprog'ining tuzilishi bo'yicha sahrolar territoriyasi qumli, sho'rxok yer, sertuproq yerlar va toshli (gipsli) sahrolardan tashkil topgan.

Qumli sahrolar respublika tekislik qismining 27 foiz maydonini egallaydi. Eng yirik qumli joyilar – Qizilqum, Sundukli va Kattaqum. Toshli sahrolar Ustyurt yassi tog'ining, Qizilqum qismining va janubda tog'lar etagining xarakterli landshaftidir. Sho'rxok yerlar Ustyurt yassi tog'ida va uning tog' bag'irlarida, suvi oqib chiqib ketmaydigan havzalarda va hozirgi Amudaryoning tarmoqlangan mansabida joylashgan.

Sho'rxok yerli sahrolarga tuproqning ustki qatlamlari tarkibida ko'p miqdorda tuzlarning bo'lishi, doimiy namlik va vaqtinchalik suv havzalarining mavjudligi xos.

Tog'lar etagidagi adirlar dengiz sathidan 800-1200 m. balandlikkacha, 30-50 km. kenglikda tog'lar tizmasini o'z ichiga olgan holda respublika tog'li hududining 2/3 maydonini egallaydi.

Daryo va qirg'oq bo'yidagi yerlar ekosistemalari – Amudaryo va Sirdaryo vodiylarining tekis qismlari hamda Zarafshon va Surxondaryo quyi qismlaridir.

Namgarchilik yuqori bo'lgan hududlar ekosistemalari (ichki suvli to'qayzor ekosistemalar) tabiiy va antropogen turlariga ajratiladi. Ular daryo va qirg'oq bo'yidagi yerlar ekosistemalariga o'xshashdir, ammo ulardan katta suv maydoni bo'lishi bilan va yuqori namgarchiligi bilan farqlanadi. Tabiiy holda namlangan hududlar Amudaryoning tarmoqlangan mansabida joylashgan. Ularning maydoni taxminan 700 ming ga ni tashkil etadi.

Tog'li ekosistemalar bo'ylana zonalar xususiyatiga, tuproqqa oid sharoitlarga, namliklarga va tog' bag'irlari turiga mos holda joylashadi. Tog'ning yaproqli daraxtsimon o'rmoni 1000 m. dan 2500 – 2600 m. gacha balandlikda nisbatan kichik maydonlarni egallaydi.

Qator ma'lumotlarga ko'ra, Markaziy Osiyo va O'zbekiston iqlim o'zgarishining dinamikasini o'rganish chog'ida regionda iqlimiy tizimning turli komponentlari bo'yicha o'zgarish jarayonlari bo'layotganligi kuzatilmoqda. Kuzatishlar tahlili asosida respublikaning butun hududida ham sovuq, ham issiq yarim yilliklarda harorat ko'tarilishi kuzatilmoqda, ya'ni havo haroratini ifodalaydigan qatorlarda trendlar mavjudligi aniqlanadi.

Iqlim o'zgarishlar respublika hududining iqlimiga, suv balansiga va suv resurslariga ta'sir etadi.

Respublikaning tog'li qismida muzliklar degradatsiyasi va ular maydonining qisqarishi kuzatilmoqda. Ma'lumotlar tahlili tog'li daryolar basseynida qor qatlamlari yil sayin kamayishini ko'rsatdi.

Hududning tekislik qismida havo yog'inlarining yillik to'plami biroz oshgan. Tog'li va tog'lar etagida statistika jihatdan ahamiyatli trendlar aniqlanmagan.

3.2. Yuqori haroratli sharoitlariga mos kiyim loyihalash asoslari. Har jihatdan qulay kiyimni yaratish uchun kiyim ostidagi mikroiklimga, kiyimning odam organizmiga ta'siriga oid miqdoriy bog'lanishlarni aniqlash kerak.

Qishki ratsional kiyimni loyihalash borasida qator fundamental tadqiqotlar o'tkazilgan. Biroq, issiq havo ta'siridan himoya izlash hozirgi kunda dolzarb masaladir. Uning yechimi murakkab hisoblanadi. Chunki odamni tashqaridan kelayotgan issiqlik oqimidan muhofaza qilish darkor. Shuningdek, organizmda hosil bo'lgan issiqlikni tashqariga chiqirish jarayoni ta'minlanishi zarur. Ayni holda muayyan muhit sharoitiga mos kiyimning konstruksiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqori haroratli va intensiv quyosh radiatsiyalari quyosh radiatsiyasi oqimining ta'sirini kamaytiradigan, o'z vaqtida kiyim ostidan organizm hosil qiladigan ter bug'larini va karbonat angidridni tashqariga chiqaradigan kiyim paketining qobiliyati muhim ahamiyatga molik [31].

Kiyimning ushbu funktsiyasi samarali bajarilishi esa uni tayyorlash uchun ishlatilgan materiallar xususiyatiga va buyumning konstruktiv tuzilishiga bog'liq. Buyum konstruksiyasi odam qomatining o'lchamlariga, kiyimning muayyan to'kisligini (qulayligini) ta'minlaydigan qo'shimchalar qiymatiga uzviy bog'liqdir.

Yozgi kiyimni loyihalashda quyidagi talablarga amal qilinadi [36]:

- tana atrofida yetarli maromda havo bo'shlig'ini hosil qilish. Demakki, kiyim tanaga zich yopishib turmasligi kerak. Havoli bo'sh joylar teri yuzasidagi namning bug'lanishiga va organizmdan ko'proq issiqlik chiqishiga yordam beradi;

- kiyim ostida havo almashib turishi kerak. Bunga erishmoq uchun havo o'tkazuvchan materiallar va konstruktiv vositalar (masalan, maxsus kiyimlarda havo o'tkazadigan maxsus teshikchalar) tanlanadi;

- yuqori haroratli sharoitda, odam ko'p terlaganda materialning namlik sig'imi muhim ahamiyatga ega. Chiqqan terni shimadigan material uning oqishiga yo'l qo'ymay, terlanish samarasini oshiradi;

- materialning tez qurish xususiyati havoning yuqori haroratida manfiy natijalarga olib keladi, chunki nam tez bug'langanda tana tez soviydi. Ayniqsa

kiyimning tanaga yopishib turgan joylarida. Negaki, bir gramm namlikning bug'lanishi uchun ham tanadan anchagina issiqlik sarflanadi;

- kiyim materiallari tanaga yopishmasligi kerak. Yopishgan nam material terining terlash xususiyatini pasaytiradi. Material tanaga yopishmasligi uchun matolar sathi g'adir-budur va notekis bo'lishi kerak;

- materiallar kam issiqlik o'tkazadigan bo'lishi, quyosh nuridan himoyalashi, g'ovaklik hosil qiluvchan bo'lishi lozim.

3.3. Libos uchun material tanlash ishlari. Ma'lum bo'lishicha, kundalik libos uchun moda barqaror emas. U o'zgaruvchan, shuning bilan birga u libos silueti va shakli hamda alohida elementlarni o'zgarishiga olib kelmoqda. Bu o'zgarishlarni ishlab chiqarishga tayyorlanadigan yoki chiqariladigan libos uchun to'qimachilik va boshqa materiallarning sifatini shakllantirishda hisobga olmaslik mumkin emas. Shuning uchun materialning fizik-mexanik xususiyatlariga talab uzoq vaqt davomida barqaror bo'lmaydi, ular ishlab chiqiladigan libos modelining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib to'g'irlanadi. Material xususiyati va tuzilishni libosga bo'lgan moda talablariga ko'ra vaqti-vaqti bilan aniqlab turish lozim. Ushbu shartni bajarmaslik xomashyoni behuda yo'qolishi va mehnatning sarf bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Shuni ta'kidlash joizki, materiallarga bo'lgan texnik talablarni o'zgarishi ko'p materiallarning klassik turlariga tegmay o'tishi mumkin. Material xususiyati ko'rsatkichi talablari materialni o'tkazish (realizatsiya) bosqichida emas, balki avvalroq – libos uchun materialning istiqbolli namunalarni va texnik vazifani ishlab chiqish bosqichida o'zgaradi.

Tikuvchilik buyumlarini o'tkazish va zamonaviy ishlab chiqarishning ob'ektiv sharoiti mahsulot sifatini sotuvga chiqargandan keyin emas, balki oldinroq aniq aytib berishi uchun bora-bora ko'p darajada aql-farosat talab etmoqda. Masalan, amaliy-tuzilish ishlari, badiiy loyihalash, shuningdek, mahsulot sifatini boshqarish tizimi va zamonaviy uslublardan foydalanishda tikuvchilik buyumlarining modeli va tuzilish xususiyatlarini ishlash bosqichida tikuvchilik buyumlarini uchun materiallar sifatini oldindan aytib berish.

Tikuvchilik buyumlarini uchun material tanlashning mavjud amaliyoti korreksiya va mukammallikka muhtojdir. Ma'lumki, ko'pgina badiiy-loyihaviy yechimlar va libosning rassom-modelyerlarining takliflari taqdim etilgan zamonaviy rang va koloristik bezak berilgan yangi materiallar tuzilish ko'rsatkichi va fizik-mexanik xususiyatlar ko'pincha libosning original, zamonaviy shakl, chiziqlar va boshqa elementlari sababli amalga oshirilishi mumkin bo'lmaydi. Materialning loyihaviy texnologik, ergonomik va boshqa xususiyatlarini, uning xavfsizligini, ishonchliligini, mahsulotdan foydalanishni saqlashni xarakterlaydigan ko'pgina muhim ko'rsatkichlar zamonaviy libos modelini yaratishda va undan foydalanishni oldindan aytib berish juda muhim bo'lib hisoblanadi. Biroq mahsulot uchun materiallarni tanlashda, shuningdek, yangi materialni tayyorlash va ishlab chiqarishda texnik vazifani ishlab chiqishda hisobga olinmaydi.

Bunda libos modasining yo'nalishini ishlash bosqichida materialning modeli, tuzilish-texnologik va boshqa omillari, shuningdek, mahsulotdan foydalanish shartlari va maqsadini hisobga olib, tabiiy-mexanik xususiyatlariga aniq talabni yuzaga chiqarishga alohida e'tibor qaratish lozim.

3.4. Kiyim-kechaklar uchun materiallar tanlashda ularga qo'yiladigan talablar. Kiyim materiallariga qo'yiladigan talablar, inson – atrof-muhit – buyumlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorliklarni chuqur tahlildan o'tkazish hisobiga amalga oshishi lozim. Barcha talablarning xilma-xilligini ikki guruhga ajratish qabul qilingan: iste'molchi va ishlab chiqarishga oid.

Iste'molchi talablari mahsulot va undan foydalanish shartlariga qarab aniqlanadi. Ular sharoit, qulaylik, foydalanishdagi xavfsizlik, estetik ko'rinishni o'z ichiga oladi. Aftidan belgilangan va foydalanish shartlari bilan bog'liq holdagi tikuvchilik buyumlarini ba'zi ko'rsatkichlari ancha muhim ahamiyatiga ega bo'lsa, qolganlari kamroq ahamiyatiga ega.

Sovuq iqlim sharoitida foydalaniladigan mahsulotlar o'zining pishiqligi va tortilganda cho'ziluvchanlik, yeyilishga bardoshlilik, qayta-qayta cho'ziluvchanlik va egiluvchanlik, qayishqoqlik, normal sharoitlarda va haroratning tushib ketishida issiqlikni ushlab turish kabi muhim ko'rsatkichlarga ega. Mahsulotlar xossasidagi

asosiy ko'rsatkichlardagi saqllovchilik funksiyalari ham muhim ahamiyatga ega: bir necha bor, qayta-qayta sovugan yoki isigan holatlardan so'ng, yuqori namlik miqdori yoki boshqa shunga o'xshash suyuqlikni ushlab turish, shuningdek, atmosfera sharoitlari, nurlanish va boshqa omillar bosimiga bardosh berish.

Ishlab chiqarish talablari guruhi buyumning texnologik jihatlari, standart holati, birxillashtirish, tashishga qulayligi, shuningdek, patent bilan bog'liq huquqiy talablarni o'z ichiga oladi.

Kiyimlarga bo'lgan talabni tuzishda ishning eng asosiy bosqichi bu – materiallarni tanlash bilan bog'liq jarayondir. Ana shu talablarga tayangan holda, mahsulot xossalari ko'rsatkichining asosiy nomenklaturasi belgilanadi, so'ngra esa, mazkur mahsulot materiallariga bo'lgan talab ifoda etiladi.

3.5. Kiyimlar uchun materiallar tanlashda hal etilishi kerak bo'lgan vazifalar. Tikuv mahsulotlaridagi funktsional-strukturali tahliliy tizim, tikuv mahsulotlari uchun materiallar tanlashda bir qator vazifalarning yuzaga chiqishiga turtki berdi.

To'qmachilik materiallaridan tayyorlangan tikuvchilik buyumlari vazifalarini muvofiq ravishda ikki tipga ajratish mumkin.

Bir xil tipdagi masalalar dastlabki talablarni tuzishni va modeli, yangi loyihalashtiriladigan mahsulotning tuzilish-texnologik xususiyatlari, uning maqsadi va foydalanish shartlarini hisobga olgan holda materialning sifat ko'rsatkichining nomenklaturasini ishlashni ko'zda tutadi. Yaxshilangan tuzilish ko'rsatkichli, tabiiy-mexanik xususiyat va badiiy-koloristik bezakli mavjud materiallarni mukammallashtirish yoki yangilarini ishlash maqsadida texnik topshiriq tayyorlanadi. Bu kabi materiallarni qo'llash barcha modeli va loyihaviy xususiyatlarini mahsulotda tiklashga yo'l qo'yadi.

Masalaning ikkinchi jihatida tikuvchilik buyumlari uchun materiallar tanlash bilan bog'liq, tabiiyki, bu narsa korxona tomonidan o'zlashtirilgan bo'ladi. Ushbu mahsulotlarga ishlatiladigan materiallar iste'molchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Ammo turli sabablar tufayli, mavjud assortiment ichidan boshqa xildagi materiallarni tanlash zarurati tug'ildi. Albatta, ular mazkur

mahsulotlarni tayyorlashga yaroqli bo'lishi, faoliyatdagi texnologiya usunalariga mos kelishi talab etiladi.

Ammo bir narsani unutmaslik zarur: boshqa turdagi materiallarning qo'llanilishi mahsulot sifatining yanada yaxshilanishiga xizmat qilishi ham mumkin.

Ikkala tip vazifasi yechimini hal etishda umumiy uslubiy asosga tayaniladi: ularni hal etishdagi algoritm keyingi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

1. Dastlabki vaziyatning tahlili.

2. Mahsulotning aynan turiga mo'ljallangan materialga talab darajasida ishlov berish va iyerarxik tizim asosida sifat ko'rsatkichiga baho berish.

- 2.1. Materiallar talablariga va ularning xususiyat nomenklaturasiga ishlov berish.

- 2.2. Materiallar sifati ko'rsatkichida iyerarxik tizimga ishlov berish.

- 2.3. Ko'rsatkich sifatining ahamiyatli (ishonchli) jihatlariga tavsif berish.

- 2.4. Sifat ko'rsatkichining uslubiy jihatlarini aniqlash.

- 2.5. Sifat ko'rsatkichining o'rtanilgan oralig'dagi o'zgarishlarning ahamiyati.

- 2.6. Ko'rsatkichlarning tayanch jihatlarini tanlash (ko'rsatkich normativlari).

- 2.7. Ko'rsatkichlar xususiyatlari orasida o'zaro bog'liqlik va ularning o'lchamsizligi.

- 2.8. Tanlash usuli va ko'rsatkichlar sifatining kompleks baholashning mazmun-mohiyati.

- 2.9. Karta tuzishning texnik darajasi va materiallarning sifati (GOST 2.116-84).

3. Yangi materiallarga ishlov berishda ishlab chiqarishdagi topshiriqlarga texnik tayyorgarlik ko'rish, aniq materiallar tanlovi va zarur qo'shimcha sinovlarni o'tkazish.

4. Tikuchilik ishlab chiqarishda qayta ishlangan materiallarning o'ziga xosligi borasida xulosa va tavsiyalar, mahsulotlar konstruktsiyasini aniqlash va ishlov berish uslublarini yana takomillashtirish.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan birinchi ikki bosqich kiyimlarga materiallar tanlashga bag'ishlangan, ana shu sabab, quyida aynan ular ko'rib chiqilmoqda. Birinchi bosqich – dastlabki vaziyatning tahlili – mahsulotning ayni shu turi bo'lgan

talablar haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirish, foydalanishning turlari va shart-sharoitlari, iste'molchilar guruhi, buyumning modaga muvofiqligi, texnologik va konstruktorlikdagi o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, qayta ishlash bilan bog'liq iqtisodiy ko'rsatkichlar, buyumlarni tayyorlash va foydalanishga topshirishdan iborat. Ayni turdagi tikuvchilik buyumining kengaytirilgan xususiyatida, uning konstruktiv xossalari, tashqi ko'rinishi, shakli, chizmasi, yopishib turish darajasi, shuningdek, rang, rasm, materialning fakturasi bilan bog'liq fikrlar ko'rib chiqiladi (albatta o'zgarayotgan modaga muvofiq ravishda), qo'llanilinayotgan texnologiyalarning o'ziga xos jihatlari ochib beriladi (masalan, yelim yordamida birlashtirishdan foydalanish) va h.k.

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, asosiy e'tibor mahsulotning xavfsizligiga qaratiladi. Bunga belgilangan maqsaddan qat'iy nazar mahsulotning sifati va foydalanish shartlariga ham kiradi. Yana tikuvchilik buyumi xavfsizlik talablari u bilan bog'liq turli xil ta'sirlarga bardoshliligi – mexanik (cho'zilganda, bukilganda, ishqalanganda), fizik-kimyoviy (suv, chiroq, issiq, sovuq, nurlanish, kimyoviy kirishuvlar va h.k.), – mahsulotning ta'mirlashga yaroqliligi, uning massasi va h.k.lar bilan ajralib turadi.

Kiyimning ichki qavati ma'lum bir mikroiklim bilan ta'minlashi, shuningdek, u odamni o'rab turgan atrof-muhitning ko'ngilsiz holatlaridan himoya qilishi, uning bir maromda hayot kechirishi uchun durust shart-sharoit yaratishda ko'maklashishi lozim.

Ikkinchi bosqichda materiallarga bo'lgan talab ishlab chiqiladi, ularning asosiy xossalari ro'yxati va sifat ko'rsatkichi nomenklaturasi belgilanadi. Bunda materiallarning sifatida asosiy baho, ularning kompleks, jamoaviy va yagona ko'rsatkichlarga asoslanib aniqlanadi.

Materiallar sifati ko'rsatkichlarining taxminiy ro'yxati va ularning muhim tomonlari quyidagi 5.1– jadvalda keltirib o'tilgan.

Material sifat ko'rsatkichlari turi va uning ahamiyati

Kompleks ko'rsatkich	Guruh ko'rsatkichi	Birlamchi ko'rsatkich
1	2	3
Ijtimoiy ahamiyati	Jamiyat talabi	Materialni ishlash va chiqarishning maqbulligi Talab hajmi Iste'molchilarning manzili
	Sotish imkoniyati	Materialning optimal assortimentga muvofiqligi Mavsumiy ehtiyoj Yemirilish Ijtimoiy ta'sir
Funksionalligi	Himoya (manfaatparast) malomati	Issiqlik qarshiligi yig'indisi Havo o'tkazuvchanligi Bug' o'tkazuvchanligi Chang o'tkazuvchanligi Suv o'tkazuvchanligi Nur o'tkazuvchanligi Kislota o'tkazuvchanligi Ishqor o'tkazuvchanligi Neft-yog' o'tkazuvchanligi
	Harakat funktsiyasini ta'minlash	Tashqi zichlik Dag'allik To'liq deformatsiya va uning komponentlari Cho'ziluvchanlik
Ishonchliligi	Chidamliligi	Kuchlanish: Yorilishda; Yirtilishda; Bosilishda Tukning pishiqligi Tukning yopishqini mustahkamligi Bardoshliligi: Tekislik bo'yicha ishqalanishi; Bukilish joylarida yeyilishi; Ko'p marotaba cho'zilishda; Ko'p marotaba bukilishda Ta'sirlarga bardoshliligi: Yorug'lik; Mikroorganizmlarga;

		Kimyoviy tozalashga; Yuvishga; Yuqori haroratda; Past haroratda
	Saqlanishi (tashqi ko'rinish va shakl)	G'ijim bo'lmasligi To'liq deformatsiya va uning komponentlari Pillilanishi Kirishib qolishi: Ivitgandan so'ng; Yuvilgandan; Nam-issiqlik bilan ishlov berish O'lcham bardoshliligi Terlashga chidamliligi Bo'yoq bardoshliligi
Estetikligi	Ifodaliy	Badiiy-koloriik bezak Rangi Yaltiroqligi Oqligi Tiniqligi Rasmi
	Tovarning ko'rinishi	O'rilishi Yuza fakturasi Tushe (grif) Bezak effekti
Ergonomiklik	Gigiyeniklik	Nam o'tkazuvchanligi Gigroskopikligi Suv shimishi Bug' o'tkazishi Havo o'tkazuvchanligi Chang o'tkazuvchanligi Elektr o'tkazuvchanligi Yopishuvchanligi Issiq o'tkazuvchanligi Haroratga chidamliligi
	Foydalanish qulayligi	Dag'alligi Bo'rmabopligi Tashqi zichligi Tangentsial qarshilik Ifloslanishi Yuvilishi (kimyoviy tozalash)
	Fizilogik va psixofiziologikligi	Tashqi zichligi Cho'ziluvchanligi Qattiqligi

Ekologikligi	Atrof-muhit uchun zararsizligi	Ishlab chiqishda ajratilish darajasi: Chang zarralari Zararli gaz va aralashmalar
	Yuivilishi (kimyoviy tozalash)	Kirlanishi Kimyoviy tarkib toksikligi
Loyihaviy- texnologik		To'kilishi Iplarning siljishi Yorib o'tmoq Shakliy holati Qalinligi Issiqlikka chidamliligi To'liq deformatsiya va uning komponentlari Kirishish: Ivutilganda: Issiq-nam dazmol qilganda Tangentsial qarshilik Dag'alligi Bo'rmabopligi

Ikkinchi bosqichda materiallarga bo'lgan talablarni ishlab chiqishda, ularning xossasidagi nomenklatura, materiallar sifati ko'rsatkichining iyerarxik tizimi, ko'rsatkichlarning salmog'ini aniqlash va bu kabi ba'zi bir boshqa holatlarda ekspert baholash uslubidan keng ko'lamda foydalaniladi. Ko'rsatkich sifatining ahamiyatini, mazmunini belgilashda, zarur muqobil materiallar tanlovi, yurtimiz va xorijdagi maqtovg'a arzigulik ishlab chiqaruvchilar, shuningdek, materialshunoslar tadqiqotlari, korxona va tashkilotlarning tajribasi, standart, me'yoriy-texnik hujjatlardan bevosita foydalaniladi.

Materiallarni tanlash jarayonining barcha bosqichlarda materialshunos-mutaxassislarining ishtiroki zarur sanaladi. Zero, modeler va konstruktorlar bilan hamkorlikda rejalashtirilayotgan mahsulotning model va konstruktorlik tahlili asosidagi tadqiqotlar, materiallarni tayyorlash va foydalanishga qo'yiladigan dastlabki talablarni belgilab beradi. Yangi mahsulotning nusxa yoki andazalarini yaratishda, mavjud materiallarning ham imkoniyatlari o'rganiladi yoki yangi tizim asosida, materiallarning o'ziga xosligini yaratishni taqozo etadi. Yana avvalgi

andazalardan yaroqli bo'lgan g'oyalarni tikuvchilik buyumlarining yangi nusxalariga ham qo'llash mumkin.

Ekspert uslublardan foydlanganda materialshunoslar nafaqat maslahatchi yoki ishchi guruhining a'zosi sifatida, balki so'rovnomalar kartasini tuzishda, asosiy parametrlar tizimiga bo'lgan talablarni aniqlashtirish maqsadida, ekspertiza ishlarini tashkil etish va o'tkazish, shuningdek, materiallarga badiiy bezak berishda ranglar uyg'unligi va fizik-mexanik xossalarni o'rganish, ishlab chiqarishdagi texnik-iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga chiqarish, mo'yna va teri materiallarini tanlashda materiallardagi ko'rsatkichlar sifatining nomenklaturasini ishlash, ham ishtirok etishadi. Mo'yna yoki teridan kiyim tayyorlashda materiallarni tanlashda, avvalo materialning zarur turini ajratib olish kerak bo'ladi: shevret, movut, upuka (opoek), zamsh, spilok — bular teri uchun; mo'yna, qo'yteri-po'stin, yarimfabrikat mo'yna — bular mo'yna uchundir.

Mo'yna va teri mahsulotlari uchun materiallar tanlashdagi bosqichda algoritmnini qo'llagan holda ham masalani echish mumkin. Shuningdek, kiyimlar uchun to'qmachilik materiallarini tanlashda yuqorida ta'kidlab o'tilgan masalani hal etishdagi kabi yondoshish, uning asosiy elementlarini o'rganish kerak bo'ladi. Biroq bunda mo'yna terisi yoki charm kichik hajmlar(uncha katta bo'lmagan maydon)ga ega ekanligini unutmaslik darkor. Shu sababdan, odatda kiyimlar uchun mo'ljallangan bir nechta terilar, o'ta sinchkovlik bilan tanlab olingan bo'lishi lozim. Terilarni saralash yoki ularni ishlab chiqarishda navlarga ajratish, bir qancha ko'rsatkichlar yordamida amalga oshiriladi: charm uchun – rang, qalinligi, qattiqligi va h.k.; mo'yna uchun – rang, yungining zichligi va sifati, yumshoqligi yoki mayinligi, yaltiroqligi va boshqa ko'rsatkichlar sanaladi.

3.6. Libos uchun material tanlashning avtomatlashgan boshqaruv tizimi va uning tuzilishi. Tikuvchilik buyumlarini ishlab chiqarish – o'zaro aloqador ishlab chiqarish bo'g'inlardan iborat kompleksni ham o'z ichiga qamrab oladi. Bularga – rejalashtirish, boshqarish, xomashyo manbalari, loyihalash, texnologiya, mashulot ishlab chiqarish, hamkorlar orasidagi o'zaro bog'liqliklar kiradi. Hamkorlarning

asosiy vazifasi tikuvchilik buyumlarini ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy talablar darajasida hamda belgilangan ko'lamda sifatli ishlab chiqarishdan iborat.

Bundan tashqari, zamonaviy ishlab chiqarish ilmiy-texnik yutuqlar va axborot texnologiyalarning barcha bosqichlaridan keng ko'lamda foydalanishni ham nazarda tutadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tikuvchilik buyumlarini assortimentining doimiy yangilanib turishi va yangidan-yangi materiallar turlarining paydo bo'lishi, ishlab chiqarishning turli bosqichlarida sifatni boshqaruv tizimining keng funktsiyalaridan foydalanishni, shuningdek, jumboqlarni tuzilish va informatsion muammolarni hal etishni talab etadi. Ana shu sabab, mahsulotning sifatini nazorat qilishda turli avtomatlashtirilgan tizimlarni yaratishga ehtiyoj tug'ildi.

Shuningdek, bu o'z ichiga tikuvchilik buyumlarini sifatli tarzda ishlab chiqarishda materiallarni muqobil variantini boshqaruv tizimini ham oladi. Mana shu tizimning funktsiyalanishidan asosiy maqsad shundaki, bunda iste'molchi turli maqsadlarga mo'ljallangan yangi materiallar haqida ma'lumot ola bilishi lozim. Bu kabi ma'lumotlar iste'molchiga materiallarni tanlashda qat'iy bir qarorga kelishiga imkon beradi.

Kiyimlarga materiallarni tanlashdagi avtomatlashtirilgan tizim boshqaruvi o'zaro tizimosti majmui ko'rinishida ham taqdim etilishi mumkin: informatsion ta'minot, matematik tahlil, materiallar haqida ma'lumotlar bankasi, shuningdek, tashqi manbalar asosidagi axborotni biriktirish yoki qo'shish.

Kiyimlar uchun materiallar tanlash va tayyorlash bosqichi hamda ishlab chiqarish jarayonida EHMDan muvaffaqiyatli foydalanish uchun yetarli darajada axborot ta'minotiga ega bo'lish, shuningdek, uni o'tkaziladigan jarayonlarga muvofiq tarzda shaqllantirishi talab etiladi.

Tikuvchilik buyumlari haqidagi talab etiladigan axborot, ayniqsa, uning konstruksiyasi borasidagi o'ziga xos xususiyatlarni boshqa ASUlarining biriktirish yoxud qo'shish bloklaridan olish yoki kiritish mumkin. Materiallarning ko'rsatkich xossalari, shuningdek, tikuvchilik buyumlari aniq turlarining normativ ahamiyatga

ega materiallar xossalari ko'rsatkich tizimining «ma'lumotlar banki»da saqlanishi kerak.

Kiyim ishlab chiqarishdagi funktsional-tizimli tahlil jarayoni asosida, texnologik masalalar va avtomatizatsiya rejimidagi materiallar tanlovi dasturning blok-sxemasi tuziladi. Ushbu dastur quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- 1) tikuvchilik buyumlari aniq andazasining umumiy tavsifini tuzish;
- 2) tikuvchilik buyumning aniq andazasi materiallariga bo'lgan talablarni ishlab chiqish;
- 3) materiallar sifat ko'rsatkichi nomenklaturasini ishlab chiqish va ko'rsatkichlar bo'yicha me'yorni belgilash;
- 4) ma'lumotlar takibidagi axborotlarni shakllantirish, materiallarning xususiyatlari va tuzilishi, mahsulotni ishlab chiqarishga yaroqliligi, materiallarning o'rnatilgan talablarga muvofiqligini baholash.

Tikuvchilik buyumlarining sifatini yanada oshirish uchun materiallarni tanlashdagi avtomatik tizim boshqaruvi, bir qator ishlarni amalga oshirish kerak bo'ladi:

- 1) sifatli tikuvchilik buyumlari uchun materiallarni avtomatlashtirilgan tarzda tanlashda axborot tartibini tizimlashtirish;
- 2) tikuvchilik buyumlari va materiallar haqidagi ma'lumotlar aloqadorligini ta'minlashda ma'lumotlar bazasini loyihalashtirish;
- 3) materiallar haqidagi ma'lumotlarni olish, tahlil qilish va hujjatlashtirish;
- 4) iste'molchilar talabining tahlili va foydalanuvchilar maqsadining muvofiqligi;
- 5) materiallarni tanlashda avtomatlashtirilgan tizim dasturi va dastur modullarini ishlash.

Avtomatlashtirilgan tizimning ilmiy va amaliy qimmatini shundaki, u o'z ichiga zamonaviy va istiqbolli materiallar haqidagi ma'lumotlarni tizimlash va kompyuterlashtirishni oladi. Bu iste'molchilarning materiallar haqidagi ma'lumotlardan tezkor ravishda xabar topishlariga ham katta ko'mak beradi.

Materiallarning sifat ko'rsatkichi muqobil nomenklaturasini belgilashdagi asosiy bosqichlardan biri bu – tikuvchilik buyumlariga materiallarni

avtomatlashtirilgan tarzda tanlash, shuningdek, materiallar haqidagi ma'lumotlar bankini shakllantirish sharti bilan belgilanadi.

Ko'rsatkichlar tizimi va materiallarning xossalari haqidagi ma'lumotlarni tizimlashtirish aniq materiallar turlarida davlat standartlari va texnik ta'rif (TT) mazmunini o'z ichiga qamrab oladi. Bunda u tikuvchilik buyumlari uchun avtomatik tizim boshqaruvi yordamida materiallarni yo ishlab chiqaruvchi korxona darajasida yoki bir nechta korxonani birlashtirish darajasida, yo munitsipal va hududiy korxona darajasida, yoki federal darajasida tanlash imkonini beradi.

Kiyimlar uchun materiallar tanlashdagi avtomatik tizim boshqaruvini yaratish, tikuvchilik buyumlari tayyorlash uchun muqobil materiallarni tanlash jarayonini ancha osonlashtiradi.

3.7. Tikuvchilik buyumlari uchun yangi materiallarni konfeksiyalash tizimi.

Sifati yaxshilangan tikuvchilik buyumlari uchun yangi to'qimachilik materiallarini konfeksiyalash tizimi – asosiy qoidalarni yaxlit holga keltirgan tarzda sifatni avtomatik tizim boshqaruvi orqali foydalanishga asoslangandir. Shuningdek, unga «Libos» SAPR printsiplarni shakllantirish, ma'lumotlar bazasini tuzishda loyiha uslublari, tikuvchilik buyumlari uchun materiallarni avtomatik tizim boshqaruvi orqali tanlash kabilar ham taalluqli sanaladi.

Bunday tizimning algoritmik asosiga yangi materialning sifatini solishtirish printsipli qo'yilgan bo'lib, bu o'z navbatida, tikuvchilik buyumlari yaratishda nihoyatda muhim jarayondir. Yana mana shu turdagi tikuvchilik buyumlari tayyorlashga tavsiya etishda, materiallarning sifatini e'tiborga olishni unutmazlik zarur.

Taklif etilayotgan har bir mahsulotning turi mazmun-mohiyat nuqtayi nazaridan o'sha seriyada ishlab chiqarilayotgan tikuvchilik buyumlarining prototipi sanaladi, mana shu turda tayyorlanayotgan tikuvchilik buyum va materiallariga bo'lgan me'yoriy talab esa, boshlang'ich axborot sifatida xizmat qilishi mumkin.

Seriya ishlab chiqariladigan tikuvchilik buyumlari sifat ko'rsatkichi va asosiy talablar keltirilgan I-turdagi tikuvchilik buyumni uchun bazali bo'lib chiqishi

mumkin, ushbu mahsulot uchun materialning sifat ko'rsatkichi nomenklaturasi va hujjatlarda bayon etilgan texnik ko'rsatkichlar bo'yicha normativlar dastlabki ma'lumotlar bazasi sifatida va ma'lumotlar bazasini loyihalash bo'yicha asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Aniq guruh (yoqi turdagi) tikuvchilik buyumlarining foydalanish shartlari va vazifasiga ko'ra aniq talab va sifat ko'rsatkichlari bilan xarakterlanadi. Ushbu ma'lumlarni mahsulotning ma'lumotlar bazasi bilan solishtirish tikuvchilik buyumlarining farqli xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Keyin esa shunday mahsulotni tayyorlash uchun yaroqli materiallarga talabni ifodalab beradi.

Misol uchun yaxshilangan sifatdagi tikuvchilik buyumni uchun yangi to'qmachilik materialini konfeksiyalash tizimini ko'rishimiz mumkin. U mato haqida ma'lumotlar bankida mavjud bo'lgan zamonaviy yoki istiqbolli matolar assortimenti uchun me'yoriy miqdorli matoning sifat ko'rsatkichining belgilangan miqdorini nisbiy baholashni o'tkazishni ko'zda tutadi. O'xshash ko'rsatkichlar darajasi; mato xususiyati va tanlangan matolar muqobilligini xarakterlaydi.

Tikuvchilik buyumlari uchun to'qmachilik materiallarini konfeksiyalashuv tizimi tikuvchilik buyumni va to'qmachilik materiallarini tayyorlash uchun muhim ma'lumotlar bazasini kompyuterlashgan shakldagi tizimni yaratishni taxmin qiladi.

Ushbu tizimning asosiy holati va belgilari quyidagilardan iborat.

Ma'lumotlar bazasining hayotiy-davriy tizimini ikki davrga bo'lish mumkin. Birinchi davr – tahlil va loyihalashtirish. U o'z ichiga quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

- ta'rif bermoq va talablar tahlili (taqdim etilgan ma'lumotlar mazmunini qayta ishlash borasida talablar yig'ish, iste'molchilar maqsadlarini muvofiqlashtirish va ularning informatsion oqim borasidagi tasavvurlarini taqdim etish);
- kontseptual loyihalash (iste'molchilarning informatsion talablarini birlashtirgan holda informatsion tizimni barpo etish);
- loyihani amalga oshirish (ma'lumotlar bazasini loyihalash, ya'ni, ma'lumotlar bazasi boshqaruvi tizimini yaratish, SUBD va dasturlar ta'minoti);
- fizik loyihalash (ma'lumotlar bazasining fizik tizimini tashlash va

keyingi bosqich uchun aniqlangan dasturiy modullarni to'g'rilash).

Ikkinchi davr – ma'lumotlar bazasi realizatsiyalash va funktsiyalash o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- ma'lumotlar bazasi (ma'lumotlar bazasi va qo'shimcha dasturlarni yaratish, shuningdek, ma'lumotlar bazasini yuklash, bu – iste'molchilarning talablarni qondirishda ma'lumotlar bazasidan foydalanishni ta'minlaydi);
- ishlash tahlili va dasturlarni qo'llab-quvvatlash (bunda iste'molchilar talablarining asoslilik darajasi aniqlanadi va ishlamay (to'xtab) qolgan dasturni tiklashning imkoni bo'ladi);
- turlanish (modifikatsiya) va soddalashtirish (adaptatsiya) (yangi talablar va amaldagi dasturlar modifikatsiyasi paydo bo'lganda, o'zgartishlar kiritish imkonini nazarda tutadi).

Nazorat uchun savollar

1. Kiyimga material tanlashda qanday tipik masalalarni hal etish kerak bo'ladi?
2. Kiyimga material tashlashda masala yechimidagi algoritmning mohiyatini ochib bering.
3. Kiyimlar va materiallarning ko'rsatkich sifati nomenklaturasini belgilashda qanday iste'mol va ishlab chiqarish talablari asos bo'ladi?
4. Kiyim va uning mohiyati uchun materiallarni avtomatik tizim usulida tanlash qanday e'tiborli jihatlarga ega?
5. Kiyim uchun materiallar tanlashda avtomatik tizim qanday maqsad va vazifalarni hal etadi?

IV bob

LIBOSNING TUZILISHI VA BARDOSHLILIGI

4.1. Tikuvchilik buyumlarining ko'rik tasniflanishi. Tikuvchilik buyumni tashqi murakkab shakl majmuini ifoda etadi. Libosning ko'rinishini ko'zdan kechirganda, albatta uning tashqi hamda ichki ko'rinishini farqlay bilish kerak.

Garchi libosning ichki ko'rinishi, o'lcham va odam tanasining qaddi-qomati bilan belgilansada, ammo u odamning aniq nusxasi hisoblanmaydi. Ichki ko'rinishi, jiddiy ravishda odamning libos kiyib yurishidagi qulayliklarga albatta o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Tashqi ko'rinish esa libos kompozitsiyasining asosiy aqsiatiridan biri bo'lib, u ko'rinishning ichki tomoni bilan bevosita aloqador sanaladi. Shuningdek, u aynan hozirgi davrdagi moda yo'nalishlariga mos ekanligi bilan ajralib turishi lozim. Libosning tashqi ko'rinishi uni estetik idrok eta olish bilan belgilanadi, ana shu bois, kelajakda ko'rinishning tuzilishi va shaklan bardoshlilik masalalari ko'tarilganda, aynan libosning tashqi ko'rinishini chiqiladi.

Quyida taqdim etilayotgan tikuvchilik buyumlarining tasnifi, libosdagi qismlar va mahsulotning yaxlit bir qobig'i pozitsiyasi nuqtayi nazaridan ishlab chiqilgan. Tikuvchilik buyumlarining ko'rinishning tasniflanishining ko'rib chiqamiz.

1. Libosning shaklini birinchi navbatda siluyet (bir rangda ishlangan kontur surat)ga bog'liq bo'lmagan tarzda ajratiladi. *Siluyet* — bir tekisdagi tasvir bo'lib, u predmetning tashqi ko'rinishi sanaladi. Shuningdek, u modani belgilab beradigan kompozitsiyaning asosiy aqsiatiridan biri hisoblanadi. Zamonaviy modellashda liboslarning bir qancha yetakchi ko'rinishlari qabul qilingan bo'lib, u odamning tanasiga yopishib turishi bilan farqlanadi. Uchta asosiy siluyet klassik sanaladi:

- a) yopishib turuvchi (xipcha belli);
- b) yarim yopishib turuvchi;
- v) bir tekis turuvchi.

Ayrim bir davrlarda boshqa siluyetlar ham modaga aylanadi. Bunga trapetsiya siluyetini misol sifatida keltirish mumkin.

Shuningdek, libosning shaklini siluyet chiziqlari bilan ham belgilashadi, u o'z navbatida, mahsulotni fa va kesim shaklida idrok etishga ko'mak beradi, libos shaklining hajmi hamda tashqi ko'rinishidagi mutanosiblikni tavsiflaydi. Ana shu tarzda siluyet chiziqlar, mahsulotning siluyetini hosiyalaydi.

2. Libosning shakli bichim(andaza)iga qarab ham ajratiladi. *Bichim* (andaza) libosning umumiy konstruktiv xususiyatini belgilaydi. Bichimni libosning yelka va bel qismiga ajratishadi. Libosdagi yeng bichimi qo'l qismining bichimi bilan ulanishida va mahsulotning asosiy qismlaridagi bo'ylama hamda ko'ndalang choklarni ajratishda namoyon bo'ladi. Libosning bel qismi choklarning o'rnashgan yo'nalishi va miqdori bilan xarakterlanadi. Shuningdek, tikuvchilik buyumlarining qismlari butunligicha va yaxlit bichilgan ham bo'ladi.

Bichim o'zining mavjudligi, joylashganligi va mahsulotning yuqori qismidagi konstruktiv shaklga ega chiziqlari bilan ham ajralib turadi. Konstruktiv chiziqlar – shunday chiziqlarki (asosan choklar), ular shaklning hajmini yaratish maqsadida, libosning yuqori qismini alohida qismlarga bo'lishda ishlatiladi.

3. Libosning yuqori qismi odamning tanasi bilan aloqaga kirishish turiga qarab tayanuvchi va tayanmaydiganga ajratiladi.

Yuqori tayanch qismiga libosning aloqaga kirishuvchi joylari va odamning tanasi kiradi. Libosning yuqori qismidagi tayanch biroz ko'proq yoki kamroq darajada odam tanasiga zich yopishgan holda uning qomatini takrorlaydi. Ba'zi bir mahsulotlarning yopishib turuvchi elka qismidagi zichlik ikkita – yuqori va pastki tayanch nuqtalariga ega bo'lishi ham mumkin. Yuqori qismdagisi ko'tarib turuvchi, quyi qismdagisi esa, urinma tayanch nuqtalari sanaladi. Tayanch bo'lmagan hududlarga deb libosning ichki yuqori qismi bilan odam tanasi o'rtalig'idagi oraliqlarga aytiladi. Libosning tayanch bo'lmagan yuqori qismlari odam tanasini yetarli darajada aniq ko'rsatmaydi yoki unga umuman muvofiq kelmaydi.

4. Tikuvchilik buyumlari qismlarining tekislikda joylashtirilishi bo'yicha fazoviy va yassi qobiqdek tasniflanishi qabul qilingan. Fazoviy qobiq – tikuvchilik buyumlarining bo'rtma qismlari tekislikka to'liq joylashmaydi (old qism, ort qism v.b.). Yassi qobiq – tikuvchilik buyumlari qismi bo'lib, to'liq bichilgan matolar

yoyilmasini qiyshiq chizig'ini yegiltirish yo'li bilan va tekislikka joylashtirilishi (yeng, yoqa v.b.) orqali tashkil topgan.

5. Tikuvchilik buyumlarining shakliy tuzilish qismlari uslubiga ko'ra, konstruktiv, texnologik va kombinatsiyalangan uslubda olingan qobiqlarga bo'linadi.

6. Tikuvchilik buyumlari qismi shakliy mustahkamlik usuliga ko'ra, konstruktiv, texnologik va kombinatsiyalangan uslubda olingan qobiqlarga bo'linadi.

7. Libos qismlarining material qatlamlari soni bir qavatli, ikki qavatli yoki ko'pqavatli qobiqlarni o'zida aks ettiradi.

Bir qavatli qobiq libosning yuqori qismidagi materialni tashkil etadi. Ikki yoki undan ortiq qavatli qobiq libosning yuqori qismidagi material va qo'shimcha qatlam materiallardan iborat bo'ladi. Bunda u turli xil funksiyaga ega vazifalarni – mahsulotlar shaklini qayd etish, qistirma materiallar, issiqlikni ushlab turuvchi materiallar, astarbop materiallar va h.k.larni qamrab oladi. Tikuvchilik buyumlarini tasniflashda ko'rib chiqilgan belgilar 4.1-jadvalda keltirilgan.

4.1-jadval.

Tikuv mahsulotlari shaklining tasnifi

№	Tasniflash belgilari	Qobiqlarning gradatsiya shakli
1	Siluyet	Yopishib (zich) turuvchi Yarim yopishib turuvchi Bir tekis Boshqalar (modaning yo'nalishlariga qarab).
2	Bichim	Yelkaga oid libos: yengning astari; bel va old bo'laklarni turi va yo'nalishi bo'yicha ajratish; Libosning belbog' qismi: bo'ylamasiga ajratish bilan; ko'ndalangiga ajratish bilan.
3	Odamning tanasi bilan bo'ladigan aloqa turi	Tayanch (tutib turuvchi va urinma to'g'ri chiziq) Tayanch bo'lmagan.


4	Bir tekisda yotqizmoq	Makonga oid Yassi, bir tekis
5	Shakliy tuzilish uslublari	Mavjud uslublar: konstruktiv; texnologik; kombinatsiyalangan.
6	Shakliy mustahkamlik usuli	Mavjud usullar: konstruktiv; texnologik; kombinatsiyalangan.
7	Materiallarning qavatlar miqdori	Bir qavatli Ikki qavatli Ko'pqavatli

4.2. Libos qismlarining qo'rinish-tuzilish uslublari. Tikuvchilik buyumlarining asosiy sifat ko'rsatkichi, yassi materiallar (matolar, trikotaj polotnolari va h.k.)dan olingan shakl hajmining bardoshlilikida namoyon bo'ladi. Bunda tikuvchilik buyumlarining qo'riqni uslublari bilan shakliy tuzilishning amaldagi usullarini aniq-tiniq farqlay bilish kerak. Tikuvchilik buyumlarining qo'rinish-tuzilish uslublari, uning konstruksiyasini ishlash jarayonida loyihalashtiriladi. Shu bilan bir qatorda yassi materialdan istalgan qo'rinishning hajmini olish usullari ham ishlab chiqiladi. Endi tikuvchilik buyumlari qismlarining qo'rinish tuzilishi metodlari bilan batafsil tanishib chiqsak (4.1-sxema).

Qo'rinish tuzilishni uchta asosiy uslubga ajratish mumkin: konstruktiv, texnologik va kombinatsiyalangan (qurama).

Konstruktiv uslub. Konstruktiv uslub bu – yaxlit tarzda gazlama va yaxlit tarzda to'qilgan libos turlarini yaratish uslubi sanaladi. Shuningdek, u o'z ichiga libos turlari va ularni yaratish uslubi, yassi qismlarni birlashtirgan holda qo'rish hajmiga erishish kabilarni qamrab oladi. Yaratilgan shakl (qiyofa) tikuvchilik buyumning talab qilingan ko'rinishiga erishishga imkon beradi.

Yaxlit tarzda gazlama va yaxlit tarzda to'qilgan matolar bevosita to'qish uskunasi yoki trikotaj mashinasida tayyorlanadi.



4.1-sxema. Tikuv mahsulotlari qismlarining qo'rinish tuzilish uslublari sxemasi.

Mahsulotning qo'rinish hajmidagi shakllanish, materialning xarakterli tizimi o'zgarishi hisobiga boyib boradi. Masalan, agar materialning zichligi gorizontal bo'ylab kattalashsa (matoning asosidagi iplar miqdori yoki trikotaj matolardagi izmalar miqdori), unda uning eni borasidagi geometrik o'lchamlari kichrayadi. Shuningdek, material tuzilishida cho'ziluvchan (elastik) iplardan foydalanishning hisobiga mahsulotning geometrik o'chamlarini o'zgartirish ham mumkin.

Konstruktiv uslubda libos qismining hajmli shakli materialni turli tekis shaklli qismlarga bo'lish, shuningdek, konstruktiv elementlarni kiritish hisobiga vujudga keladi: vitachka, relyef, burma v.b.

Libos detallarining shakliy hajmini konstruktiv uslub orqali olish jarayonida materiallarning xususiyatlari amalda hisobga olinmaydi.

Konstruktiv uslub bir qator e'tiborli jihatlarga ega. U universal, uni barcha turdagi materiallarga qo'llash mumkin, shuningdek, u libosga talab etiladigan darajadagi ko'plab shakliy hajmlarni pishiq, mustahkam tarzda biriktirish va bexato ishlab chiqarish imkonini ham beradi.

Biroq ushbu uslubning kamchiligi sifatida shu narsani ta'kidlab o'tish joizki, unda shakl hajmiga ega bo'lishda bo'laklarga ajralish miqdori ortadi, bu esa, o'z navbatida material xarajatining o'sishiga hamda tikuvchilik buyumlarini tayyorlashda sermashaqqat mehnatni talab etadi.

Shuningdek, materiallardan tikuvchilik buyumlarini tayyorlashda konstruktiv uslubdan foydalanilgan vaqtda, u baland darajadagi berchlik (qattiqligi) bilan farqlanadi. Bunda olingan shakl o'zining serqirraligi hamda chiziqlarning silliq emasligi bilan ko'zga yaqqol tashlanib turadi.

Shaklning yanada silliq va uyg'unlik kasb etishida qo'shimcha ravishda texnologik usullardan foydalanish lozim bo'ladi.

Texnologik uslub. Turli xildagi tikuv mahsulotlari qismlarining shakl hajmini yaratishda texnologik uslub – yassi material shaklini o'zgartirishda (deformatsiyalashda) quyidagilar hisobiga o'z ta'sirini o'tkazadi:

- qalin materialni siqish (qisish);
- materialning cho'zilishi;

- matoda tanda va arkok iplari, shuningdek, trikotaj matolarda izma qatori va ustuni orasidagi burchaklarni o'zgartirish;
- materialni majburiy ravishda qisqartirish (kirishtirish);
- materialni egish (bukish);
- materialga turli kombinatsiyalar orqali ta'sir o'tkazish;
- tik chiziqli yassi materialga shaklni o'zgartiruvchi kuchlar orqali ta'sir o'tkazish (sitmoq);
- mahsulotni tolali mars yordamida bosish;
- polimerlar qorishmasi yoki ularning eritmasidan libos qismlarini quyish.

Tikuvchilik buyumlarini tayyorlashda qalin materialni siqish (qisish), siqilishning kuchlanishi (cho'kishi) natijasida ro'y beradi va undan tez-tez foydalaniladi. Tikuvchilik buyumlarini qismlariga: libos yoqasi orasiga qo'yiladigan dag'al matoning chetlari, qaytarma yoqaning chiziqlari, yenglarning quyi qismi va, umuman, butun mahsulotga ishlov berishda materialning botishi (cho'kishi) muhim ahamiyatga ega. Biroq, shuni ham ta'kidlash joizki, hozirgi paytda yuqori sifatli tikuvchilik buyumlari – liboslar, qirralarining hajmi bilan farqlanadi. Ammo ushbu qismlarga presslash jarayonlari qo'llanilmaydi. Bu, shubhasiz tarzda zamonaviy moda tendensiyalari tomonidan bayon etilgan.

Shu bilan bir qatorda fazoviy qo'rinish ko'p ham ahamiyat kasb etmaydi, sababi, liboslar uchun mo'ljallangan qalin materiallarning ko'pchiligi, libosning boshqa geometrik o'lchamlariga nisbatan kamchilikni tashkil qiladi.

Libos qismlarining fazoviy shakl tuzilishida ko'pincha cho'ziq (uzaytirilgan) materiallardan foydalaniladi; ushbu material, kuchli cho'zish (kengaytirish) yordamida hosil bo'ladi.

Libos qismlari shaklining turliligi cho'zilish kuchi turli yo'nalishlarda ishlatiladi, u materialning asosiy tuzilish elementlari deformatsiyasiga sabab bo'ladi, shuningdek, tanda va arkok iplari hamda trikotaj matolarda izma qatori va ustuni orasidagi burchaklarni o'zgartiradi. Turli xildagi mahsulotlar qismlarining qo'rinish tuzilishida cho'zish (kengaytirish) usulidan foydalaniladi. Texnologiyada, bir qator holatlarda ushbu harakat uzaytirish deb ham ataladi.

Libos qismlarining shakliy tuzilishida qo'llaniladigan cho'zish (kengaytirish)dan tashqari, yana yassi materialni siqish (qisish) dan keng foydalaniladi. Shakliy tuzilishning ana shunday uslubini *majburiy qisqartirish* yoki *kirishtirish* deb ataladi. U masalan, ko'krak atrofida shakliy hajmni olishda ishlatiladi. Shuningdek, erkak va ayollar ustki libosining orqa tomonidagi shakliy hajmni yaratishda kirishtirish – elka kesiklari va o'muz bo'ylab o'tkaziladi.

Cho'zish va majburiy qisqartirish yordamida bir qator buyumlarning shakliy hajmini olishda bir vaqtning o'zida libosning qo'shni qismlaridan ham foydalaniladi. Masalan, englar va libosning yuqori qismiga shakliy hajm, engning tirsak kesigi va old tomon kesigi cho'zilishining majburiy qisqartirilishi hisobiga amalga oshiriladi.

Trikotaj mato (qalin turi) va matolar to'rsimon materiallar sirasiga kiradi. Shuning uchun iplar asosidagi burchaklar ostiga berilgan cho'zish kuchi (yoki trikotaj matolarga yo'naltirilgan izma ustunchalari) matoning to'rsimon burchaklaridagi o'zgarishlarga olib keladi.

Deformatsiyaning ushbu turidan foydalanish libos qismlarining ko'plab murakkab shakllariga ega bo'lishga imkon tug'diradi. Birinchi marta matoning yuqori qismini qo'rinish bo'yicha shakliy bo'yicha kiyintirish masalasi matematik, akademik P.L.Chebeshev tomonidan hal etilgan. Yoyilmani hisobining asosiy masalasi bu ratsional shaklni aniqlash, chokning oz miqdori va yoyilmaning minimal maydonida eng oddiy uslubda berilgan yuzani tekis materialda kiydirishni ta'minlash bo'ladi. Yassi va sath qobiqlarini materialga ishlov berish asnosida ta'sir o'tkazish hisobiga olish mumkin. Bu, o'z navbatida, burchak to'rlarining o'zgarishiga olib keladi. Qoidaga ko'ra, ushbu qo'rinish buyicha tuzilish uslubidan foydalanganda, bir vaqtning o'zida materiallar elementlarida sodir bo'ladigan cho'ziluvchanlik tuzilishi 2%dan oshmasligi lozim. Ushbu o'chlam u qadar ahamiyatli emasligi bois, unga e'tibor qilmasa ham bo'ladi. Shuningdek, ushbu uslubdan foydalanish libosning butun qismlariga ega bo'lish imkonini beradi va u libosni ekspluatatsiya qilish davrida o'zining yuqori darajadagi bardoshlilik bilan ajralib turadi. Xususan, butun bichimli yenglar va kostyumlar, palto hamda boshqa turdagi ustki kiyimlarni ham

olish mumkin bo'ladi: old osti butun bichimli mahsulotlar, yoqalar, butun bichimli quyi yoqa, shimlar (yon tomondagi choklarsiz) va boshqalar.

Jo'n tarzidagi silliq geometrik shakllarga ega mahsulotlar (silindr, konus), materialning egiluvchanligi hisobiga olinadi. Bu holatda mahsulotning cho'ziluvchanlik darajasi uning tuzilishi va berq materialning egiluvchanlikka moyilligi bilan belgilanadi. Materialning drap(qalin movut)liligi hisobiga yanada murakkab shakliy hajmlarni yaratish mumkin. Ushbu turdagi mahsulotlarga erkin, yumshoq buramali yubkalar, englarning ba'zi bir formalari, burmalar, jabo (yoqaning chetidagi to'r yoki matodan qilingan burma hoshiya) va boshqalar kiradi.

Tayanchga ega bo'lmagan mahsulotlarni yaratishda shakliy hajm va aniq ko'rinishdagi siluyetni ta'minlash talab etiladi. Ana shu jihatni albatta hisobga olish kerak bo'ladi. Shu bois, materialning bir paytdagi qattiqligi va egiluvchanlik xususiyatini aks ettiruvchi burmaboplik ham inobatga olinishi zarur bo'ladi.

Liboslarning ko'plab turlaridagi shakliy hajmi egalik, materialga har xil kombinatsiyalar orqali ta'sir o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, libosning bir qator qismlarini olishda, bir paytning o'zida buyumning boshqa qismlarida ham cho'zish va majburiy qisqartirishdan foydalaniladi. Libosda burama hosil qilishda, birdaniga materialni egish va eni bo'ylab siqish jarayoni olib borilsa, yassi qobiqlarning qo'rinish tuzilishini hosil qilishda esa, yoyilgandagi egiluvchanlik va materialning tarmoqli burchaklari orqali amalga oshiriladi.

Termoplastikli sintetik materiallardan tayyorlangan libos qismlarining shakliy tuzilishini siqib chiqarish (sitish) uslubi orqali o'tkazsa ham bo'ladi. Ushbu uslubni amalga oshirish uchun, namlik berilmagan holda, materiallarga turli rejimlarda termik ta'sir o'tkazish lozim. Libos qismlari hajmining shakliy bardoshliligini hech qanday choklarsiz, shuningdek, ichiga qaytarib tikiladigan zaxira choklarni olish maqsadida, listlangan materiallarni bosish (siqish) ishlari olib boriladi (misol uchun, siynabandlarning palla shaklidagi o'yiqlari, bosh kiyimlari, kostyumlardagi qistirmalar va h.k.).

Shuningdek, ba'zi bir buyumlarning shaklini (masalan, bosh kiyimlar) sertolali massani bosish orqali paydo bo'lgan mahsulotlar yordamida ham olishadi.

Libosning turli qismlarini polimerlar eritmasi va ularni quyish uslubi orqali ham tayyorlash mumkin (masalan, qo'lqoplar, nishonlar va shunga o'xshash buyumlar).

Kombinatsiyalangan (qurama) uslub. Libos qismlarining shakliiy tuzilishida xilma-xil ta'sirlar va texnologik uslublardan foydalanilayotganda, ko'pincha kombinatsiyalangan uslubni qo'llashadi. Zero, ushbu uslub konstruktiv va texnologik yechimlar uyg'unligini o'zida mujassam etgan. Masalan, ayollar liboslarining yuqori qismi: kurak hududi atrofida barcha detallarning shakliiy tuzilishida zaxira choklar va majburiy qisqartirishlar qo'llaniladi.

Shakliiy tuzilishning texnologik uslubini amalga oshirishda qisish, cho'zish, to'rli burchaklarning o'zgarishi, majburiy qisqartirishlar va kombinatsiyali ta'sir o'tkazish hisobiga shaklning hajmini qo'lga kiritish nazarda tutiladi. Bunda o'z navbatida, namchil hamda iliq-issiq qayta ishlashdan foydalaniladi. Iliq-issiq va namchilikning birgalikdagi ta'siri shakliiy tuzilish jarayonini ancha yengillashtiradi, mexanik ta'sir esa, materialni yassi holatdan erkin holatga o'tkazadi.

Iliq-issiq va namlik ishlov berishda shaklning o'zgarish jarayoni statistik va dinamik rejimlar orqali sodir bo'ladi.

Shaklning statistik o'zgarishi uzluksiz ravishda materialga bosim o'tkazish orqali yuzaga keladi. Shuningdek, bu holat bir vaqtning o'zida press uskunasi orqali presslash yordamida issiq va namchilikka ta'sir o'tkazish yoxud bug'li manekenlar, yoki yassi shablonlar orqali ham ro'y berishi mumkin (yassi qobiqlarning shakliiy tuzilishi uchun).

Shakldagi dinamik o'zgarish materialga issiq va namlik bilan birgalikda yoki shakliiy tebranishning davriy mexanik ta'siri ostida amalga oshiriladi.

Issiq-namlilik qayta ishlovi, liboslar qismlarida turli shakliiy hajmiga ega bo'lish imkonini beradi: old qism, orqa (bel) qismi, yenglar, yoqalar va boshqalar.

Materialni egish yo'li bilan yuqori qismidagi tayanchga ega bo'lmagan shaklni olishda, shakliiy tuzilishning maxsus usullaridan foydalanish talab etilmaydi. Zero,

mahsulotdagi shaklni materialning qattiqligi va bo'rmabopdan ratsional foydalangan holda olinadi.

Shunday qilib, tikuvchilik buyumini tayyorlayotganda uning shakliy tuzilish uslubini aniq tasavvur eta olish darkor. Ammo tikuvchilik buyumini tayyorlashda shakliy hajmiga ega bo'lishning o'zi yetarli emas. Bunda libosdan foydalanish jarayonida shaklning saqlanib qolinishini ta'minlash lozim.

Qismlarning shaklning mustahkamlash usullari hamda libosning qo'rinish holatiga ta'siri masalalarini ko'rib chiqish, yana bir muhim omil sanaladi.


4.3. Libos qismlarining shaklini puxtalash uslubi. Tikuvchilik buyumlarini loyihalash va tayyorlash jarayonida bir tekis materiallardan turg'un hajmning shaklini yaratish masalalari hal etiladi. Libosning shakliy holati – libos kiyilganida rejalashtirilgan vaqt mobaynida ishlab chiqarish jarayonida, shuningdek, ishlab chiqaruvchining foydalanish uchun belgilangan shartlarini bajarishda mahsulotning shaklini saqlab qolish layoqatini o'zida mujassam etadi.

Libosning shakliy holati eng birinchi navbatda foydalaniladigan materiallarning quyidagi xususiyatlari: cho'ziluvchanligi, tarangligi, qattiqligi, bo'rmabopligi, g'ijimliligi va h.k.lar bilan belgilanadi. Libosni loyihalash va tayyorlashning barcha bosqichlarida ratsional shartlarni hisobga olgan holda materiallarni to'g'ri tanlay bilish, qo'rinishni yahshi bo'lgan buyumni olish imkoniyatini beradi.

Libos shaklini yaxshilashning uch xil usulini ajratib ko'rsatish mumkin: konstruktiv, texnologik va kombinatsiyalangan (aralash) (4.2.rasm). Libos qismlarining shakliy tuzilishi uslubi bevosita u yoki bu usullarni tanlash bilan belgilanadi.

Shakl tuzilishining konstruktiv uslubidan foydalanilganda shakl hajmini yaxshilash usullarini qo'llash mutlaqo kerak emas. Shakl tuzilishining texnologik va kombinatsiyalangan uslubidan foydalanish materialga turli deformatsiya kuchlarning ta'siri orqali ko'zda tutiladi. Natijada mahsulot shaklining hajmi materialga o'tkazilgan deformatsiyalar tufayli yuzaga keladi. SHubhasiz ushbu deformatsiyalar mustahkamlangan bo'lishi kerak. Aks hollarda keskin deformatsiya holatiga kelgan

mahsulotda relaksatsion jarayon rivojlanadi, u bo'lsa o'z o'rnida mahsulot shaklini o'zgarib ketishiga olib keladi.



4.2. Libos shaklini mustahkamlash uslubi sxemasi.

Libos qismlari shaklini mustahkamlashning konstruktiv usullari. Libos qismlari shaklini mustahkamlashning konstruktiv usullari juda yuqori turg'unlikni ta'minlab beradi. Birinchi navbatda, shaklni mustahkamlashning konstruktiv usullariga mahsulotning shaklan bardoshlilikini yaratish uchun juda muhim sanalgan ratsional loyiha kiradi. Mahsulot inson tomonidan foydalanish qulayligi bilan butunlay ta'minlanadigan holatdagina loyiha ratsional bo'lib hisoblanishi mumkin,

ya'ni inson tanasiga statik va dinamik muvofiq bo'lsa. Statik muvofiqlik tushunchasi libos loyihasining inson tanasining shakli (balans) va o'lchamlar mutanosibligiga muvofiqligini o'z ichiga oladi. Dinamik muvofiqlik mahsulotning etak qismi qo'l ko'tarilgan vaqtda o'zgarishi, kiyingan insonning harakatda maksimal tebranishi va foydalanish jarayonida libos qismlarini deformatsiya darajasiga qarab baholanadi. Ratsional loyihadan foydalanish mahsulot materialining shakliga ko'pmarotaba cho'ziluvchanligi va qaytarilishi ta'sirini minimumga olib keladi va shu yo'l orqali ularni shaklan bardoshlilik bilan ta'minlaydi.

Materialni qurishib qolishi hisobiga hajmli shaklni olish holatlarida mahsulot qismlarida kesilgan joylarni mustahkamlash uchun choklar, kromkalar, tasmalar hamda mahkamlovchi choklardan foydalaniladi.

Yuza tayanchi tuzilishida mahsulot shakli inson tanasi shaklidan juda farqli darajada ajralib turishi mumkin. Ko'p hollarda bu libosni loyihalash vaqtidagi moda tendensiyalariga bog'liq. Bunday mahsulotlarning shaklan bardoshlilikini ta'minlash uchun qo'shimcha tayanch qismlari, masalan, yelkaga qo'ygichlar, podokatniklar, yeng qaytarilishni kuchaytiruvchi v.b.lardan foydalaniladi. Yelkaga qo'ygichlar mahsulotning yelka tomonini shakllantirishga, podokatniklar – klassik ulama yengning chiroyli shakldagi o'mizga ega bo'lishiga yordam beradi. Yeng o'mizini kuchaytirgichlari, qattiqligi turg'un shaklga ega bo'lishiga yo'l qo'ymaydigan materiallardan bo'lgan yenglarni orzudagi shaklini yaratish uchun ishlatiladi.

Hozirgi vaqtda liboslarning ko'p turlari turli qistirma materiallardan foydalanilgan holda tayyorlanadi, ular mahsulotning qattiqligi va elastikligini va mexanik ta'sirlarga (ko'p marotaba cho'ziluvchanligini, qisilishini, qaytarilishini v.b.) bardoshlilikini oshiradi.

Shaklan bardoshli mahsulotni yaratish uchun yuqori va qistirma materiallarning oriyentatsiyasi katta ahamiyatga ega. Jumladan, to'rsimon tuzilmasi bilan ajralib turadigan matolardan foydalanishda qistirma materialni yuqori matoning asosidagi iplarning yo'nalishi tomon 45° burchak ostida joylashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu hollarda libos paketi elastikligi va uning mexanik ta'sirlarga bardoshlili oshadi.

Libos qismlari shaklini mustahkamlashning texnologik usuli. Libos shaklini mustahkamlash uchun texnologik usul keng ko'lamga egadir, u quruq, issiq va nam-issiq ishlovdan (NII) foydalanishni ko'zda tutadi.

Quruq issiq ishlovdan shakliiy tuzilish uslubi va shaklan mustahkamlash usuli bilan bir qatorda foydalaniladi. Ushbu usul faqatgina sun'iy materiallar uchun qo'llaniladi. Polimer materialning yuqori harorati ta'sirida yopishqoq-oqadigan holatga keladi, u bo'lsa o'z o'rnida osongina turli shakl berishga yordam beradi. Haroratning pasayish vaqtida mahsulot shaklini mustahkamlanish yuzaga keladi. Olingan shakl qo'shimcha mustahkamlash usullariga muhtoj emas (choklar, vitachkalar, tikma choklar v.b.) va foydalanish jarayonida bardoshlilik bilan ajralib turadi. Siqib chiqarilgan hajmli shakldan tashqari quruq issiq ishlov usuli tekis barma shakllarini yaratish uchun ham qo'llaniladi: burma, plisse, gofre.

Nam-issiq ishlov shakliiy tuzilish jarayonini osonlashtirish va mahsulot shaklini mustahkamlash uchun qo'llaniladi. NIIning har xil turlari tadbiiq etiladi: faqat nam-issiq ishlov, kimyoviy moddalar bilan oldindan shimdirilgan materiallarning nam-issiq ishlovi; materiallarni elimli qistirma, to'rlar bilan (dublirovanie) qilinadi; ters tarafidan kimyoviy moddalarni oldindan surtish yo'li bilan materiallarga nam-issiq ishlov berish.

Nam-issiq ishlovning yuqori namlikdagi va haroratdagi materialga ta'siri sifatida kengligi bo'yicha siqilishga yo'l qo'yilgan mahsulot qismini qotirish uchun qo'llaniladi. Bundan tashqari NII yordamida tortilish, kichrayish va mahsulot qismlariga ta'sir kombinatsiyalari orqali olingan shakl mustahkamlanadi (masalan, qayiltirish va siqish). NII yordamida mahsulot shaklini qotirishni jun va yarimjun materiallar uchun o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Biroq, olinadigan shakl keraklixa turg'un emas. Bu libosning relaksatsion jarayon o'tishi boshlanayotgan tarang-deformatsiyalangan qismlarini olish bilan bog'liq.

Nam-issiq ishlov yeng, yoqa, turli mahsulot ort qismlari, shimlarni mustahkamlash uchun qo'llaniladi.

Ustki kiyim old qismlari, pidjaklar va boshqa mahsulotlarning shakli hamda foydalanish jarayoni vaqtida ularning yaxshi saqlanishiga ancha yuqori talablar

qo'yilmoqda. Shuning uchun, shaklni mustahkamlashga faqatgina NIIning o'zi kamlik qiladi. Ushbu mahsulotlarning shaklan bardoshlilikini oshirish uchun qo'shimcha yelimli qistirma materiallar, termoplastik materiallardan to'rlar, kimyoviy pastalar va singdiriladigan moddalardan foydalaniladi.

Hozirgi vaqtda yelimli qotirma materiallar bilan umumiy yopishtirish keng tarqalgan, uning jarayonida libos qismlarining shakliy tuzilishi va shaklan mustahkamlash yo'li bilan qistirmalarni ulash yuz bermoqda.

Turli bosh kiyimlar, ust kiyim old qismlari va boshqa mahsulotlarning shaklini mustahkamlash uchun turli qalinlikda va turli diametrli katakchali termoplastik to'rlardan foydalanish mumkin [10].

Biroq qo'shimcha qistirma materiallardan foydalanish olingan mahsulot paketining deformatsion xususiyatini, uning cho'ziluvchanligi pasaytiradi. Shuni hisobga olib, qistirma materiallar o'rniga mahsulotning ichki tomonidan surtiladigan maxsus pastalardan foydalanish mumkin. Ustki qism materialining qattiqligi pastani zich surtilganligi hisobiga oshgan bo'lishi mumkin, bunda material tuzilishi harakati o'zgarmaydi.

Mahsulot shaklini mustahkamlashning texnologik usuliga oldindan kimyoviy vositalar yordamida oldinroq ishlov berilgan materialdan bo'lgan libosni nam-issiq ishlovini kiritish mumkin. Masalan, ipgazlama va ipak tolalardan tayyorlangan ba'zi matolar to'quvchilik ishlab chiqarish sharoitida «forniz» nomli maxsus bezak qo'yiladi. So'ngi bezak bosqichida ularni kimyoviy vositalar (karbamol TSEM va metazin) orqali ishlov berishadi. Tikuv korxonalarida matoni bichishadi va mavjud texnologiya orqali mahsulot tayyorlashadi. Mahsulotlarga shakl NII yordamida beriladi va mahsulot termokameralarda ishlov berilib qotiriladi [5].

Libos qismlari shaklini mustahkamlashning kombinatsiya usuli. Shaklni mustahkamlashning kombinatsiya usuli o'zida konstruktiv va texnologik usullarni jamlagan. Qoidaga ko'ra, libosning shaklan bardoshli bo'lishi uchun mahsulotning turli qismlari, shaklni mustahkamlashning har xil usullari ta'siriga uchraydi. Masalan, shimning shakli NIIning ta'sirida kesiklarning berilgan maydonlarida

materialni cho'zish va kichraytirish hisobiga vujudga keladi. Olingan shakl NII va choklar orqali qotiriladi.

Kuv mahsulotlarini shaklan bardoshliligi NII dan qo'llaniladigan rejimlarga, ya'ni havo harorati, material namligi, materialga bosim va chidamlilik vaqtiga bog'liq. Ishlov parametrlari materialning tuzilishi va tolali tarkibi orqali aniqlanadi. Hozirga kelib, NII rejimlarini tayinlash texnologiyasi yaxshi ishlab chiqilgan va turg'un shakldagi mahsulot olish imkoniyatini beradi. Biroq libos uchun materiallar assortimenti tezda kengaymoqda va yangilanib bormoqda. Yangi xususiyatga ega materiallar paydo bo'lmoqda. Shu munosabat bilan NIIning ratsional rejimlari masalasini ishlab chiqish aktual bo'lib qolmoqda.

4.4. Tikuv mahsuloti, materiallar va paketlarning shaklan bardoshliligini baholash. Libosning shaklan bardoshliligiga ta'sir etuvchi omillar. Shaklni bardoshliligi ostida libos qismlarining plastik deformatsiyalarni yig'masdan, turli xarakterga ega ko'pgina ta'sirlarga chidamliligi yotadi. Shaklan bardoshlilik tushunchasi materialda ikki sifat mavjudligini taxmin qiladi: keltirib chiqaruv omillar (ko'p bora cho'ziluvchanligi, qaytarilishi v.b.) ta'siriga qarshilik qilish va uning ta'sirlari so'nggida avvalgi holatini tiklash xususiyatlari. Mahsulotning unga berilgan shaklini turg'un holatda saqlash xususiyati bir qator omillar orqali aniqlanadi, bulardan asosiysi: tolali tarkib, material tuzilishi va uning xususiyatlari, shuningdek, materiallar paketining tuzilishi, texnologik tartib va ishlov parametrlari, mahsulotdan foydalanish shartlari hisoblanadi.

Materialning deformatsiyasi hisobiga vujudga kelgan va tarang-o'zgartirilgan holatda turgan hajmli shakl vaqt o'tib, relaksatsiya bo'ladi va o'zgaradi. Shuning uchun shaklning bardoshliligi shakl mavjud qilgan ushbu deformatsiyalarnining bardoshliligi orqali aniqlanadi va material tuzilmasini (NII, qistirma, choklar, kromkalar v.b.) mustahkamlash uslubiga bog'liq.

Odatga ko'ra, materialning shaklan bardoshliligi bir marta va ko'pmarotaba quyidagi deformatsiya turlarining ta'siri orqali baholanadi: qaytarilishi, g'ijim bo'lish (mo'ljallangan va mo'ljallanmagan), cho'ziluvchan (bir o'qli va ko'po'qli, tekis va hajmli).

Libos shaklan bardoshliligining mezonlari. Shaklan bardoshlilikning mezonlarini ko'rib chiqamiz, uning sifatida material xususiyatining turli xususiyatlari qo'llanilishi mumkin.

Bir marotaba qaytarilishda shaklan bardoshlilik mezoni sifatida quyidagi xususiyatlalar qo'llanilishi mumkin:

- qayiltirgandan keyin tarangligi;
- qaytarilish deformatsiyasini hosil qilgan tarang-elastiklik.

Ko'p marotaba qaytarilish deformatsiyasining mezoni quyidagilar bo'lishi mumkin:

- chidamlilik;
- kesilish burchaklarining bardoshliliigi.

G'ijim qiladigan og'irlikni bir yoki ko'p marta bosishda quyidagi mo'ljallangan va mo'ljallanmagan g'ijimlik ko'rsatkichlardan foydalanishadi:

- burmani ochish burchagi;
- naychasimon namunalarni tiklash ko'rsatkichi (NSTP-4 asbobida).

Har xil turdagi cho'ziluvchanliklarda shaklan bardoshlilik mezoni sifatida turli xarakteristikalaridan foydalanish mumkin, bir o'qli cho'ziluvchanlikda:

- umumiy deformatsiya (%);
- qoldiq deformatsiya (%);
- kesilish burchagi kattaligi.

Ko'po'qli cho'ziluvchanlikda sinovdagi material namunasi qoidaga ko'ra, o'zi bilan doiraning qismini tasvirlagan fazoviy shaklga ega bo'ladi (4.3-rasm). Shuning uchun shaklan bardoshlilik mezonlari bo'lib namunaning geometrik parametrlari va uning yotish jarayonida yoki turli ta'sirlardan keyin o'zgarishi hisoblanadi:

- yuza egriligi radiusi Y_a ;
- yuqori nuqtadagi namunaning balandligi N ;
- namunaning gorizonta proektsiyasining maydoni S ;
- namuna kesimi maydonining etalondan og'ishi;
- yuqori nuqtadan o'tgan namuna kesimining kontur chizig'i uzunligi, tanda L_{S_0}

va arkok bo'yicha L_{Su} ;


- namuna yuzasida chizilgan aylana radiusi;
- hajmli namunaning qarshilik kuchini sharcha bilan bosish orqali o'zgarishi.

Tadqiqot ishlarini olib borishda shuningdek, boshqa mezonlarni ham qo'llash mumkin. Ko'p hollarda materiallarning shaklan bardoshliligini baholash uchun quyidagi shaklni saqlash ko'rsatkichlaridan foydalaniladi:


- matoda ipning kesish burchagini relaksatsiyasi;
- materialni siqish va cho'zish deformatsiyasini relaksatsiyasi;
- shakllangan hajmli namunalarning balandligining o'zgarishi.

Darhaqiqat, libos qismlari shakli, shaklan bardoshlilik jarayoni davomida materialga o'tkazilgan deformatsiya relaksatsiya bo'lganda buziladi. Mato deformatsiyasining relaksatsiyasi normal saqlash sharoitida o'rtacha namoyon bo'ladi, u namlik va mexanik ta'sir ostida jadallashadi.

Materialning shaklan bardoshliligini baholash uslublari. Materialning shaklan bardoshliligini baholash uchun oldiga qo'yilgan maqsadga qarab tanlangan turli uslublardan foydalanish mumkin.



4.3-rasm. Baholash uchun shakl namunalari.



4.4-rasm Ekspress-uslub.

Materialning shaklan bardoshliliği.

1. Qattqlik va taranglikni PJU-12M (GOST 8977—74) asbobda aniqlash. Bu hollarda shaklan bardoshlilik, materialni tashqi kuch ta'siriga qarshilik qilish, shuningdek, berilgan shaklni tiklash xususiyatlarga egaligi bilan xarakterlanadi.

2. Ekspress-uslub, uzuk shaklda tayoqchasi 10 diametrli namunalarni osib chiqishni hamda 1o'q egilishini 24 soat oralig'ida o'lchashni mo'ljallaydi. (4.4-rasm). SHaklan bardoshlilik ko'rsatkichini F , %, shaklni yo'qotish ko'rsatkichi orqali

hisoblanadi P_f , %:

$$P_f = [100(l-l_0)]/l_0;$$

$$F = 100 - P_f.$$

Organoleptik uslub mahsulot shaklini baholash va uni foydalanish jarayonida, his organlari yordamida o'zgartirishga asoslangan. Bu uslublar sub'ektiv va matematik aniqlik bilan farq qilmaydi.

Laboratoriya uslubiga, hammamizga ma'lum bo'lgan materialshunoslik kursidan, mahsulotda material deformatsiyasini o'lchov uslublarini keltirish mumkin: «ip» va tenzometrli uslublari. Shuningdek, laboratoriya uslubiga teodolit suratga olish (s'yomka) uslubini kiritish mumkin, uning maqsadi teodolit yordamida tikuvchilik buyumning foydalanishdan oldin va keyin hamda kelgusi qiymatlarini solishtirgan holda gorizontol kesimlarini suratga olish hisoblanandi.

Shaklan bardoshlilikni baholashning barcha uslublarini ikki guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruhga, shaklan bardoshlilik, materialning taranglik xususiyati sifatida qabul qilingan hamda qaytarilish, g'ijim bo'lish va cho'zilish deformatsiyalari namunasiga bir yoki ko'pmarotaba bo'lgan ta'sirlar aniqlanadi. Namunalar (bir yoki ko'pqatlamli paketlar), oldindan shakllanmaydi, tekis namunalarga o'tkazilgan deformatsiyalarni qotirish uchun namissiq ishlovdan foydalaniladi.

Birinchi guruhda shaklan bardoshlilik quyidagicha xarakterlanishi mumkin:

- deformatsiyalarga bardoshlilik hisobiga olingan shakl;
- shaklan bardoshlilik ko'rsatkichlari, o'q egilishi yoki namuna balandligini aniq vaqt oralig'i o'tgandan so'ng o'zgarishini xarakterlaydi.

Ikkinchi guruhga avvaldan pressda shakllangan hajmli probalar va tikuvchilik buyumlarning shakl o'zgarishini baholash uslubi kiradi. Bunday hollarda shaklan bardoshlilik mezonlariga quyidagilar kiradi:

- to'rtli burchaklar relaksatsiyasi qiymati;
- shaklangan namunalarning balandligi o'zgarishi;
- libos qismlarining shakllangan maydoni chiziqli o'lchamlarini o'zgartirish.

Barcha ko'rib chiqilgan uslublarda, kompleks laborator ta'sirlardan so'ng material namunalarini baholash o'tkazildi. Unda tayyor mahsulotning shakl bardoshliligiga ta'sir qiladigan texnologik va foydalanish omillar taqlid qilinadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan libos, material va paketning shaklan bardoshliligini baholash uslublari universal hisoblanadi va turli materiallardan bo'lgan mahsulotni shaklan bardoshliligini tadqiq qilish va oldindan aytib berishda qo'llanilishi mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Libos qismlarini shakllantirish uchun qanday ishlov uslublarini qo'llash mumkin?
2. Libosning shaklan bardoshliligi usulini klassifikatsiyalashning asosiy alomatlarini ko'rsating.
3. Libos va materialning shaklan bardoshliligi qaysi ko'rsatkichlarga ko'ra baholanadi?

V bob

LIBOSNI TAYYORLASH JARAYONIGA TA'SIR QILADIGAN MATERIAL XUSUSIYATI

5.1. Ulanadigan to'qimachilik materiallarini ip bilan birikkan parametrlariga ta'siri

Ishlab chiqarishning effektivligini oshirish, tikuvchilik buyumlarinig sifatini yaxshilash va material ketishini kamaytirish masalalarini yechishda mahsulotni loyihalash va tayyorlashda material xususiyatlaridan yanada to'liq foydalanish, libos uchun material tanlashning mukammal uslubini qo'llash talab etiladi.

To'qimachilik materiallar rassom, konstruktor, texnolog uchun tayanch nuqta sifatida libosning yangi modellarini ishlash bilan aloqador, shuningdek, tikuvchilik buyumlari tayyorlash jarayonida loyihaviy-texnologik ishlab chiqarishni tayyorgarliklarida xizmat qiladi.


Ma'lum bo'lishicha, kundalik libos uchun moda o'zgaruvchandir. U o'zi ketidan alohida elementlarni, libos siluyeti shaklini o'zgarishiga olib kelmoqda. Libos uchun boshqa materiallarni chiqarish va ishlab chiqarishga tayyorlaydigan shakllanish sifatidagi o'zgarishlarni hisobga olmaslik mumkin emas. Shuning uchun materialning tabiiy-mexanik xususiyati ko'rsatkichlariga talab uzoq vaqt doimiy bo'lolmaydi, ular ishlab chiqariladigan libos modellarini o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda to'g'irlanib boradi. Materialning tuzilishi va xususiyatlari libos modasiga bo'lgan talabga qarab vaqti-vaqti bilan aniqlanib turilishi lozim. Moda yo'nalishini ishlash bosqichlarida asosiy e'tibor materialning modeli, loyihaviy-texnologik va boshqa omillarini, shuningdek, foydalanish shartlari va maqsadini hisobga olgan holda tabiiy-texnologik xususiyatlariga aniq talabni yuzaga chiqarishga qaratilishi lozim.

Libos uchun to'qimachilik materiallarining ko'pxilliligi g'oyatda yuqoridir va koloristik bezak hamda bezak turi va qurilish xususiyatini o'zgartirish hisobiga to'qimachilik sanoatida yaratiladi.

Tikuvchilik korxonalarida qayta ishlanadigan to'kimachilik materiallar turli spetsifik sharoitlarda ularning fe'l-atvorini aniqlaydigan xususiyatlarning muhim kompleksini o'zida

jamlagan bo'lishi kerak. Ularning orasida ayniqsa texnologik va loyihaviy xususiyatlar qiziqarlidir.

Libos uchun materiallarning *texnologik xususiyatlarida* mahsulot loyhasini ishlab chiqishda, materiallarni konfeksiyalashuvi, ishlab chiqarishni takomillashtirish, asbob-uskunani tanlashda bichishdan to nam-issiq ishlovgacha bo'lgan uning texnologiyasi hisobga olinadi.



5.1-sxemasi. Iplarni birikish parametrlariga ta'sir qiladigan tekstil materiallarining xususiyatlari ro'yhati.

Tikuvchilik buyumlarini tayyorlashda texnologik ishlov keng tarqalgan masala bo'lib, iplarni birikmasidan foydalangan holda tikuvchilik buyumlarini yig'ishni qat'iy belgilangan rejimlarini asoslash va tanlash hisoblanadi. Asosiy xususiyat va xarakteristikalar ro'yhati 5.1-sxemasida keltirilgan.

Birikadigan (asosiy va amaliy) materiallarning xususiyatlarining tikilish texnologiyasiga ta'siri turli darajalarda namoyon bo'ladi. Bir xildagi xususiyatlar juda qattiq ta'sir etadi, boshqalarning ta'siri esa ancha pastdir.

Misol uchun, mato yo'g'onligi choklarning tuzilishiga, yo'g'on joylarini kesish bo'yicha qo'shimcha jarayonlarni kiritishga, tikuv mashinasining turini tanlash va tikuv iplarini sarf qilinishiga ta'sir o'tkazadi. Boshqa xususiyati esa – matoning (duxoba, baxmal, chiyduxoba) tuki yo'nalgan bo'lishi – tikilishda qismlarni ulash yo'nalishini tanlashga va uni siqish kuchiga ta'sir etadi.

Ipning birikish texnologiyasiga materiallarning *tukli tarkibi* jiddiy ta'sir o'tkazadi. Ushbu ko'rsatkich (tuklarning protsentli miqdori)ga qarab, tikuv mashina, ip va ignaning turi va markasi tanlanadi, tarkibida sintetik tola mavjud materiallarda ignaning qizib ketishi ularning issiqlikdan yemirilishi (erishi) sababli biriktirish rejimlari tayinlanadi.

To'qimachilik materiallarning o'ziga xos *deformatsiali* xususiyatlari tikuv mashinalarda ipli choklarni bajarishda namoyon bo'lishiga quyidagilar kiritiladi:

- 1) Pastki qatlamning (qisqartirish) o'tirishi;
- 2) materialning ikkala qatlamini (qisqartirish);
- 3) materialning bir yoki ikkala qatlamini cho'zish.

Ushbu xususiyatlarni materialda aks etishi, yuqori va pastki qatlamlarini turli reaksiyasi, uning tuzilishini o'ziga xos xususiyatlari, materialni ulashda yuz beradigan turli kuchlar ta'minlaydi. Bu kabi hodisalar choklar bajarilgandan so'ng materialning to'liqsimonligida aks etadi.

Qo'ndirish deb, pastki materialning yuqoridagisiga nisbatan siljishi ataladi. Pastki materialni qo'ndirishning asosiy sababi bu materialni qo'zg'alishini turli shartlari hisoblanadi, bunda yuqoridagi material biroz cho'ziladi, pastkisi esa – tortiladi.

Cho'zilish deb, tikiladigan materiallarni qisqarilishi, choklar ikkala materiallarni deformatsiyasi, ya'ni uni ipli choklar bilan siqish natijasida bajarilishi ataladi. Cho'ziltirish miqdori materialning tuzilishi harakatiga va uning qattiqligiga bog'liq. Masalan, vatin turidagi to'qilmagan isitiladigan hajmli materiallarni tikishda cho'ziluvchanlik 2 % dan oshishi mumkin.

Materiallarning cho'ziluvchanligi deb, chok bajarilgandan so'ng bir yoki ikkala materiallarni uzaytirilishi ataladi. Materiallarning cho'ziluvchanligi o'z o'rnini shunday vaqtda topadiki, qachonki ulanadigan materiallarni kesimlari asosning ipi yo'nalishi bo'yicha bichilgan bo'lsa, material g'ovakli haraktchan tuzilmali bo'lganda yoki birikadigan materiallar o'zining tuzilishidan farq qilganda. Bu kabi hodisalar choklar bajarilgandan so'ng materialning to'liqinsimonligida aks etadi.

Shunday qilib, to'qimachilik materiallarning deformatsiali xususiyatlari olingan ipli birikmalar xususiyatiga muhim darajada ta'sir etadi. Birikadigan choklar asosan cho'ziladigan kuchlarga duch keladi. Misol uchun, shimlarda cho'ziluvchanlik deformatsiyasi 10%ga yetishi mumkin.

Ipli birikmalarni vujudga kelish shartlarini aniqlashning umumiy qoidasi bo'lib, ipli chok va materialning cho'ziluvchanligiga muvofiqligi xizmat qiladi.

Materialning *yo'g'onligi* ta'sir etadi:

- chok tuzilmasini tanlashga;
- ipli birikmalar rejimiga;
- tikuv mashinasini turi va ortexonastika vositalarini tanlashga;
- tikuvchilik buyumlarini yig'ish sxemasiga.

Material *yo'g'onligining* oshishi bilan uning *yo'g'onligini* pasaytirish maqsadida materiallarning qatlamlari *yo'g'onligi* bilan taxlanadigan choklar tuzilmasiga o'zgarishlar kiritiladi. Bu kabi tadbirlar ko'phollarda kostyum va pal'to matolari uchun qo'llaniladi.

Ipli birikmalarning *rejimlari* ulanadigan materiallarning *yo'g'onligiga* qarab tanlanadi. Materiallarning *yo'g'onligini* oshishi uni igna bilan teshish kuchi ortadi va qaviq ko'rinishi shartlari yomonlashadi.

Birikadigan materiallarning yo'g'onligiga qarab turli tikuv mashinalari va ularga moslamalar qo'llaniladi.

To'kilish deb, iplarni matoning ochiq kesimlaridan to'qilishi ataladi. U matoning tuzilish xususiyatiga bog'liq va kesim qiyaligi burchagidan to asosning ipi yo'nalishiga qarab o'zgaradi. Ko'p xildagi matolarning maksimal to'kilishi 15° va 75° burchagi ostida asosdan ipga qarab, minimali esa – 45° burchagi ostida qismlarni bichish vaqtida kuzatiladi.

Tikish va foydalanish jarayonida qismlar kesimlarida to'kilishni kamaytirish uchun quyidagi texnologik usullar qo'llaniladi:

- 1) «Tikuv mahsulotlari. Qaviq, chok, baxyalarga bo'lgan texnik talablar» GOST 17-835—80da keltirilgan chok eni oraliq masofasi maksimal miqdorgacha oshirish;
- 2) ko'klanadigan choklarni bajarishda 10 mm. chokda qaviq miqdorini oshirish;
- 3) yengil to'qiladigan materiallarning kesimlarini ko'klashda kantli tasmadan foydalaniladi. Tasmadan kesimlarni ko'klash bilan birgalikda foydalinladi;
- 4) kesimlarni yelimli polimer kompozitsiya bilan sindirib qotiriladi;
- 5) agarda kesimlar inson tanasi bilan kontakda bo'lmasa, tarkibi 65 % dan yuqori bo'lgan termoplastik sun'iy tola va ipli matoning kesimlarini eritish;
- 6) chiziqli zichligi 31 teks.dan oshmagan tikuv ipini ko'klash uchun qo'llaniladi.

Birikadigan materiallarni teshib, ignada baxyalash vaqtida, iplar yoki kerish yo'li bilan tolalar orasiga yo bo'lmasa ipga (tolaga) tegishi mumkin. Oxirgi holatda ipdan tuzilgan tolalarni qisman yoki iplarni butunlay buzilishiga olib keladi.

Ipda bir qancha tolalarni qisman buzilishi yashirin kesilishi (prorubaemost'), iplarni butunlay buzilishi esa – aniq kesilish deyiladi.

Kesilish mahsulotning tashqi ko'rinishini yomonlaydi va ipli choklarni mustahkamligini pasaytiradi. Kesilish materialning xususiyatiga va tikish rejimlariga bog'liq.

Kesilish cheklab bo'lmaydigan nuqson hisoblanadi. SHuning uchun yangi materiallardan bo'lgan modellarni ishlab chiqarishga tushirishdan oldin kesilishga sinovlar o'tkaziladi.

Kesilishni pasaytirish bo'yicha asosiy tadbir bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1) dumaloq konusli qayralgan tig'li emas, balki sharsimon ingichka tikuv ignalarni qo'llash;

2) Ignali plastinada igna teshigining diametrini kattalashtirish.

Kesilishning pasaytirilishi boshqa texnologik usuli bo'lib, birikma turlarini – ipni zaklyopkaga almashtirish hisoblanadi. Bunday almashinuv ayniqsa ilgaklarni tayyorlashda effektiv bo'ladi.

5.2. Buyumni tikish jarayoniga tikuv iplari xususiyatining ta'siri

Libos qismlarining ipli birikuvining sifati quyidagi omillarga bog'liq:

- qo'llaniladigan tikuv iplarini assortimenti (tolali tarkib, texnik xarakteristikalar, xususiyatlar);

- choklarni bajarishdagi texnologik parametrlari;

- tikuvchilik iplarining to'qimachilik materiallarning birikuv xususiyati bilan mosligi;

- ipli birikmalarga qo'yilgan talabni ta'minlash.

Ipli birikma sifati choklarni bajaradigan ratsional texnologik parametrlar bilan ta'minlanadi. Shunday qilib, qaviqlarning takrorlanishi tikuvchilik iplarining mustahkamligiga ta'sir qiladi: u qancha ko'pbo'lsa, ipning mustahkamligi shunchalik yo'qoladi.

10 mm. chokli qaviqlar miqdori 2.5dan to 7.0gacha oshishi ipgazlama iplarni 14-17 %gacha, armirli 19 %gacha, lavsan kompleksini – 9 %, shtapellarini – 10 %gacha mustahkamligini yo'qolishini oshishiga olib keladi. Armirli iplarda paxta tolasi kompleks iplarni yuzasi bo'yicha siljiydi.

Ipli birikmalar sifatiga katta ta'sirni texnologik uskunani to'g'ri tanlash ko'rsatadi: tikuvchilik mashinasining toifasi, turi, ignaning qayralishi shakli va diametri, tikuvchilik mashinasining bosh valini aylanish tezligi. Ignaning qayralishini shaklini to'g'ri tanlash tikuvchilik ipning yo'g'onligini to'g'ri tanlash bilan mos bo'lishi kerak.

Tikuvchilik buyumlarining texnologiyasiga iplarning ba'zi parametrlari va birikadigan materiallar turiga ta'sir ko'rsatishi 5.1. jadvalda keltirilgan.

Choklarni tayyorlashning texnologik talablari (GOST 28073-89)

Iplarning nomi	Natijalovchi chiziqli zichlik, teks	Qaviq miqdori 50 mm.ga	Igna diametri, mm.	Igna plastinasining teshigi diametri, mm.	Mato nomi
Ipgazlamali,	23,0 gacha 23,0-40,0	24-25	0,75	1,4-1,5	Ipgazlama, aralash, yuza zichligi 110-150 g/m ²
armirli,	40,0-50,0	24-25	0,90	1,4-1,5	
	60,0-85,0	21-22	1,00	2,1-2,2	Aralash yigirilgan ipdan kostyumli, yomg'irpo'shli mato, yuza zichligi 200-270 g/m ²
ipak, sun'iy (shtapelli)		60,0-85,0	19-20	2,9-3,0	Yarim ipak, aralash yigirilgan ipli x/b, yuza zichligi 270 g/m ² dan oshmaydi

5.3. Tikuvchilik buyumlarini nam-issiq ishlov jarayonida to'qumachilik materiallarning ta'siri

Nam-issiq ishlov berish ko'p bosqichli jarayon bo'lib, har bir bosqichda to'qumachilik materiallarini jiddiy ish tartibi asosida, o'zgarishlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Har bir bosqichning boshlanishida to'qumachilik materiallarida ma'lum o'zgarishlar ro'y berishi lozim. Masalan, materialni formalashni (muayyan shaklga keltirish), (shaklni o'zgartirish), faqat uni keyingi bosqichda plastiklashdan (mutanosiblik) so'ng o'tkazish mumkin bo'ladi.

Ipning birikish holatidagi kabi barcha jarayonlarning miqdoriy ahamiyatini aniqlash boshlang'ich ma'lumotlar tahliliga asoslanadi. Bunda u o'z ichiga qayta ishlangan materiallar xossalari ko'rsatkichini oladi.

Istalgan to'qumachilik materiallarida bajarilishi mumkin bo'lgan ipning birikish amaliyotidan farqli o'laroq, namchil-issiq ishlov berish joyi chegaralangan bo'ladi. Chegaralanishning sabablari quyidagilardan iborat:

1) nam-issiq ishlov berishni o'tkazishda hamda so'nggi barqaror texnologik ta'sirga ega bo'lish uchun, bir qator zarur to'qumachilik materiallari xossalarining etishmasligi;

2) nam-issiq ishlov berilganidan so'ng, matodagi tashqi ko'rinishning yomonlashuvi.

To'qmachilik materialini qizdirish va namlash — materialni deformatsiyalashda zarur bo'lgan engillikni tug'diradi.


Materialni deformatsiyalash va deformatsiya holatida etganida mustahkamlash, nam-issiq ishlov berishning asosiy mazmuni sanaladi.

Garchi nam-issiq ishlov berishning asosiy parametrlari u qadar katta emas (ular to'rtta: ishchi organ harorati va issiqlik tarqatuvchi, ortiqcha namlik, mexanik ishning kattaligi va vaqt), ularning katta miqdordagi xossalarga bog'liqligi va ishlov berilayotgan to'qmachilik materiallarining xususiyati ratsional rejim ishlovini o'ta darajada murakkablashtiradi.

5.2-sxemada namchil-issiq ishlov berishning barcha bosqichlaridan o'tuvchi shartlarga ta'sir qiluvchi to'qmachilik materiallarining xossalari ko'rsatib o'tilgan [34].

Nam-issiq ishlov berishning ratsional rejimini aniqlash jarayonida yuqorida sanab o'tilgan xossalarga e'tiborsizlik quyidagicha aks etishi mumkin:

- namchil-issiq ishlov berishni o'tkazishda sifatsiz jarayonlar o'tkazish (talablarning texnologik ta'sir shartlariga ko'ra bo'lmasligi);
- tashqi ko'rinishdagi nuqsonlarning ko'zga tashlanishi (yaltiroq dog'lar, ranglarning o'zgarishi, issiqlikdagi kirishish);
- bartaraf qilib bo'lmaydigan nuqsonning yuzaga kelishi (bezakli buyumlarga ishlatiladigan detallar, lokal termoqisqarish);
- jarayonning noratsional qurilishi (muddatning uzayishi, energiya sarfining o'sishi);
- ish joyida mehnat talablarining murakkablashishi — agar ularda termik ajralish holati ro'y bersa, gazsimon mahsulotlar, tola bo'yog'i va pardozlash mahsulotlaridan ishchi hududga havo ajratish;
- vizual yo'qolmagan, ammo ekspluatatsiya vaqtida matolarning iste'mol xususiyatlari ko'rsatkichining yomonlashuvi (pardozlash moddasining qisman buzilishi, ishqalanishga bo'lgan bardoshlilikning pasayishi va h.k.).



Sxema 5.2. Nam-issiq ishlov berish jarayoniga ta'sir etuvchi to'qmachilik matollarining xossalari va xususiyatlari

Tolali tarkibga kiruvchi to'qmachilik materiallarining o'ziga xos xossa va xususiyati muhim ahamiyatga ega. Sababi, u qolgan ko'rsatkichlarning xossalarini ahamiyatga ega bir darajada, muayyan shaklga soladi.

Materiallarning tolali xossasi quyidagilarga o'z ta'sirini o'tkazadi:

1) jarayonlarining rejimi va ularni o'tkazishda texnik talablar;

- 2) nam-issiq ishlov berishdan so'ng, nuqsonlarning xarakteri va soni;
- 3) termobardoshlilik;
- 4) nam tortuvchanlik.

Nam-issiq ishlov berilgandan so'ng, noto'g'ri tanlangan usul ko'ngilga xush kelmaydigan nuqsonlarni yuzaga keltirishi ham mumkin. Ularning orasida qo'shimcha texnologik jarayonlar yordamida bartaraf etish mumkin bo'lgan nuqsonlar va to'g'rilab bo'lmaydiganlari ham uchrab turadi.

Ko'pchilik to'qmachilik materiallari qizish va namlanish jarayonida o'zlarining shakl o'zgarishidagi xususiyatlarini o'zgartira olish qobiliyatiga ega. Mana shu narsa libos tayyorlashda nam-issiq ishlovdan foydalanishni taqozo etadi.

Shakl o'zgarishi tarkibiy qismini boshqarish quyidagilarni tayyorlaydi:

- 1) to'qmachilik materialining haroratini o'zgartirish yo'li bilan (barcha materiallar uchun);
- 2) to'qmachilik materiallarining harorati va ulardagi ortiqcha namchilikni o'zgartirish yo'li bilan (ko'proq o'zida tabiiy tolaga ega bo'lgan matolar).

To'qmachilik materiallarning shaklni o'zgartirish xususiyatlarida quyidagilar nazarda tutiladi.

- 1) detallar konstruktsiyasini ishlash jarayonida;
- 2) texnologik jarayonlarni ishlash vaqtida;
- 3) nam-issiq ishlov berish uchun ishchi organlar uskunalari loyihalash.

Nam-issiq ishlov berish jarayonida to'qmachilik materiallari 100-150°S darajaga qadar qizdirilishi va ularning og'irligidan kelib chiqqan holda, namlikni yutish miqdori 20-30% tashkil etishi mumkin. Tekstil materialiga mana shunday katta ta'sir o'tkazish quyidagi ichki jarayonlarning rivojlanishiga olib keladi:

- 1) iplarning qisqarishi, tola va iplar bo'rtishi natijasida ulardagi eg'ilishning ortishi;
- 2) ularni ishlab chiqarishda vujudga keladigan tolalarning qoldiqli kuchlanish relaksatsiyasi, to'qa va matolar.

Nam-issiq qayta ishlashdan so'ng, mana shu ikki omil to'qmachilik materiallari chiziqli o'lchamlarining o'zgarishiga asosiy sababchilardan biri sanaladi.

Issiqdan kirishish tikuvchilik buyumning tayyorlashda tuzatishlar kiritishga turtki beradi va uni konstruktiv ishlashda hisobni amalga oshirishni talab etadi. Texnologiyada issiqdan kirishish hisobi quyidagi o'zgarishlarga olib keladi:

- 1) o'lchamlarga yanada aniqlik kiritish maqsadida qo'shimcha jarayonlarni qo'llash va ularga issiq ta'sir o'tkazilganidan so'ng qismlarni qirqish;
- 2) birikadigan kesimlarda qo'shimcha nazorat belgilar qo'yib chiqiladi.

Bir qancha materiallardan tashkil topgan tikuvchilik buyumlarini montaj qilishda issiqdan kirishishga negativ ta'sirning mustasno holatida, yig'ish tartibiga o'zgartirish kiritiladi. Masalan, astar matoni issiqdan kirishib qolishi sababli ayollar pal'tosining astarini pastki qismini choklash va tikish oxirgi NIIdan so'ng amalga oshiriladi.

Mahsulotning konstruksiyasini ishlash jarayonida aynan xuddi o'sha qismning ishlab chiqarish jarayonida necha marta isitish qayta ishloviga duch kelishini ham hisobga olish lozim bo'ladi.

Issiq o'tkazuvchanlik material va materiallar paketining qizish tezligini va NIIning alohida bosqichlarini uzayishini aniqlaydi. To'qmachilik materiallar uchun harorat ko'tarilishi bilan issiq o'tkazuvchanlikni ortishi o'ziga xosdir.

Issiq o'tkazuvchanlik, turli materiallardan va har xil issiq o'tkazuvchanlikka ega presslanadigan paketga issiq o'tkazish yo'nalishini tanlashga ta'sir ko'rsatadi.

Issiqlik chiqarish to'qmachilik materiallarning bug'lanish va deformatsiyadan so'ng sovutish tezligini aniqlaydi. Bardoshli qotishi uchun NII o'tkazilgandan so'ng material qisqa vaqt mobaynida sovishi shart. Ushbu jarayonni o'tishi uchun materialning tuzilishi xususiyatlari ta'sir ko'rsatadi.

To'qmachilik materialini tezda sovitish uchun uning ichidagi havoni qisqa vaqt oralig'ida sovitish lozim. Boshqa so'z bilan aytganda, to'qmachilik material ichida joylashgan issiq havoni sovuq havoga almashtirish kerak.

Bunday sovitish original texnologik echimini qo'llash yo'li bilan amalga oshadi. To'qmachilik materiallarining tuzilishi xususiyatlarini hisobga olib, maxsus vakuum-otsoslar yordamida to'qmachilik materialdan ishlab chiqarish xonasining havosini so'rib olish yo'li orqali amalga oshiradi.

Havo o'tkazuvchanlik to'qmachilik materiallarining asosiy tikuv ko'rsatkichlaridan bo'lib, NII jarayonlarida uning issiqfizik xususiyatlarini aniqlaydi. Havo o'tkazuvchanlik materialning xususiyati (tuzilishi, yo'g'onligi, hajmli og'irligi) va tashqi sharoitlar (havo bosimi, presslashni kuchaytirilishi, bir vaqtning o'zida presslangan qatlamlar) orqali aniqlanadi.

NII vaqtida to'qmachilik material orqali havoli bug' aralashmasi uni qizdirish va plastifikatsiyalash hamda keyingi sovishi uchun havo bosib chiqariladi. Tabiiyki, aytib o'tilgan gaz aralshamalarining material yoki paket orqali o'tish tezligi uning bosqich davomiyligi va bajarish sifatiga ta'sir etadi.

NII dan so'ng materiallarning havo o'tkazuvchanligi tolalarning issiqdan kirishishi va mato ichidagi kovaklar kichrayishi tufayli kamayishi mumkin.

Materialning yuzasi holatini baholashda asosiy e'tiborni quyidagi omillarga qaratish lozim:

- 1) yo'naltirilgan rasmlil bo'lishi;
- 2) tukli (taralgan yoki kesma) bo'lishi;
- 3) kamchiliklarni (arkokli iplarini nuqsoni, kromkani tortilgani, har xil tusli) bo'lishi.

Katak yoki yo'l-yo'l klassik rasmlil matolar bir tekis bo'yalgan matolarga nisbatan qayta ishlanishi murakkabdir. Yo'nalgan rasmlil bo'lishi uni mos keltirish zaruriyati tufayli, ya'ni berilgan yo'nalishni ta'minlash uchun simmetrik qismlar va tugunlarni tayyorlash ishlarini murakkablashtiradi. SHuning uchun mahsulotni bichish maxsus qoida orqali bajariladi, uning texnologiyasiga esa libosga bo'lgan moda talablariga qarab o'zgartirishlar kiritiladi. Bunda moda yo'nalishi bilan hamohang ravishda ishlash bosqichida asosiy e'tibor modeli, loyihaviy-texnologik va boshqa omillar, shuningdek, maqsadi va foydalanish shartlarini hisobga olib, materialning tabiiy-mexanik xususiyatlariga aniq bir talabni yuzaga chiqarishga qaratilishi lozim.

Tikuvchilik sanoatida materiallarni xususiyatini ko'ptomonlama hisoboti zamonaviy talabga javob beruvchi mahsulotni yaratishga— «inson — mahsulot — atrof-muhit» tizimida mahsulotdan foydalanishda ham, tayyorlashda ham maksimal foydali effekt olishga yordam beradi.

GLOSSARIY

Libos – ishlov berilgan buyum yoki uning majmui sanalib, o'z ichiga manfaatdorlik hamda estetik funktsiyalarni qamrab oladi va bevosita inson tomonidan kiyiladi.

Libos assortimenti – muayyan belgilarga ega, mustaqil guruhlariga birlashgan libosdir. Birlashish belgilariga quyidagilarni kiritish mumkin: materiallar, belgilangan maqsad va h.k.

Tikuv mahsulotlari – ishlab chiqarish jarayonida barcha turdagi materiallardan tayyorlangan liboslar, ichki kiyim mahsulotlari.

Trikotaj – trikotaj ishlab chiqarishda trikotaj gazlama yoki to'qima matodan tayyorlangan mahsulot.

Yelka libosi – tananing yuqori tayanch qismiga tayanib turadigan libos, yuqoridan tananing bo'yin va qo'l-oyoqlarni, pastdan esa – kurak va ko'krakning bo'rtib turgan nuqtalaridan o'tuvchi chiziq bilan chegaralangan.

Bel libosi – tananing pastki tayanch qismiga tayanib turadigan libos, yuqoridan bel chizig'i, pastdan esa – bo'ksa chizig'i bilan chegaralangan.

Libos jamlanmasi – ikki yoki undan ortiq mahsulotdan iborat libos bo'lib, ularning har biri jamlanmaning tarkibiy qismi sanaladi.

Ustki (uning) libos (mahsulot) – bu libos (mahsulot)ga korset mahsulotlari, ichdan kiyiladigan ichki kiyim va (yoki) kostyum-ko'ylak guruhidagi mahsulot kiradi.

Ichki kiyim mahsuloti – kundalik turmush va tana uchun muhim gigiyenik sharoit yaratish uchun tikuv va trikotaj mahsuloti. Ichki kiyim buyumlariga ichdan kiyiladigan, to'shak va oshxonadagi yumushlar uchun foydalaniladigan mahsulotlar kiradi.

Korset mahsuloti – alohida tana qismlarini ushlab turish va shakllantirish hamda chulkini ushlab turish maqsadida bevosita tanaga kiyiladigan tikuvchilik va trikotaj mahsuloti.

Bosh kiyim – trikotaj yoki maxsus materialdan tikilgan, boshga kiyish uchun mo'ljallangan mahsuloti.

Chulki-paypoq mahsulotlari – bevosita tanaga kiyiladigan va tananing pastki qismi va (yoki) oyoqlarni, to'piq bilan qo'shganda, har birini alohida yopib turadigan trikotaj mahsulot.

Qo'lqop mahsuloti – bevosita tanaga kiyiladigan va qo'lning pastki qismni hamda bilakni yopib turuvchi tikuvchilik va trikotaj mahsulot.

Sharf-ro'mol – trikotaj yoki maxsus materialdan tikilgan, bosh hamda bo'yinni yopib turish uchun mo'ljallangan mahsulot.

Ma'lum mavsumga mo'ljallangan libos – libos bahor-kuz oylarida kiyiladi.

Barcha mavsumlarga mo'ljallangan libos – libosni yilning istalgan faslida kiyish mumkin.

Chaqaloqlar uchun kiyim–9 oygacha bo'lgan bolalarga mo'ljallangan.

Yasli yoshidagi bolalar uchun kiyim- 9 oylikdan 3 yoshgacha mo'ljallangan.

Maktab yoshigacha bo'lgan bolalarga –3 yoshdan 7 yoshgacha mo'ljallangan.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari uchun kiyim – 7 yoshdan 12,5 yoshgacha o'g'il bolalar hamda 7 yoshdan 11,5 yoshgacha bo'lgan qizlarga mo'ljallangan.

Katta yoshdagi maktab o'quvchilari uchun kiyim –12,5-15,5 yoshdagi o'g'il bolalar va 11,5-14,5 yoshdagi qizlar inobatga olingan.

Balog'at yoshidagi –15,5-18 o'g'il bolalar va 14,5-18 yoshdagi qizlar uchun mo'ljallangan.

Maishiy libos (fuqaro libosi kirmaydi) – turli maishiy va jamiyat sharoitida kiyiladigan libos.

Kundalik libos – har kuni kiyiladigan libos.

Bayram libosi – tantanali marosimlarda kiyiladigan libos.

Uy kiyim – uydagi kundalik ishlarda yoki dam olish chog'ida kiyiladigan libos.

Ish kiyim – kundalik yumushlarni bajarish vaqtida, ish yoki uyda kiyiladigan libos.

Sport kiyimi – sport mashg'ulotlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan.

Milliy libos – millatning madaniyati va urf-odatini o'ziga xos jihatdan aks ettiruvchi kiyim.

Ishlab chiqarishga oid libos (ishchi libos kirmaydi) – xalq xo'jaligining turli tarmoqlarining ishlab chiqarish sharoitida kiyish uchun mo'ljallangan libos.

Maxsus libos (himoya libosi kirmaydi) – xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining ta'siridan himoya uchun mo'ljallangan ishlab chiqarish libosi.

Sanitar libos – ishlab chiqarishda umumiy ifloslanishlaridan ishchini va mehnat predmetlarini ishchidan himoya qilish uchun mo'ljallangan ishlab chiqarish libosi. Sanitar libos turiga mehnat predmetlarni himoyasi uchun mo'ljallangan texnologik libos kiradi.

Maxsus kiyim – harbiy xizmatchilar, maxsus soha vakillari hamda o'quvchilar uchun tayinlagan kiyim turi.

Keng omma uchun ishlab chiqarilgan kiyim-kechak – uzluksiz ishlab chiqarilgan va bir kator seriyalarga ega bo'lgan, barcha toifadagi qaddi-qomat egalariga mo'ljallangan libos.

Shaxsiy buyurtma bo'yicha libos (buyurtma libosi kirmaydi) — inson va taqdim etilgan modelning qomati o'lchovi orqali tayyorlangan libos.

Tayyor libos – texnologik ishlov berish majmuidan o'tgan, foydalanish uchun tayyor bo'lgan mahsulot.

Yarimtayyor libos – texnologik ishlov berish majmui yakunlanmagan libos.

Yelka kiyim-kechaklari

Palto – kesilgan yoki yuqoridan pastga qadar tugmali, tashqarida kiyiladigan tikuv yoki trikotaj yengli yelka libosi.

Kalta palto – paltoning qisqartirilgan turi.

Yomg'irpo'sh (makintosh kirmaydi) – yuqoridan pastga qadar tugmali, yog'ingarchilikdan himoya uchun mo'ljallangan yengli elka libosi.

Nakidka – eng va o'mizsiz yengil shakldagi tikuv va trikotaj yelka libosi.

Izoh. Nakidka turiga pelerina kiradi.

Kurtka – qirqadigan yoki tugmali, qattiq belgilangan shaklli tikuv yoki trikotaj yengli yelka libosi.

Bluza – yuqorida kesilgan yoki tugmali kurtka.

Pidjak – tana va qisman bo'ksani yopib turuvchi yuqoridan pastga qadar tugmali, kesilgan qattiq belgilangan shaklli tikuvchilik yoki trikotaj yengli erkaklar va bolalar yelka libosi.

Kalta kamzul (jaketka) – tana va qisman bo'ksani yopib turuvchi kesilgan yoki yuqoridan pastga qadar tugmali tikuvchilik yoki trikotaj yengli yelka libosi.

Jemper – tana va qisman bo'ksani yopib turuvchi, tugmasiz yoki yuqoridan taqiladigan trikotaj yengli yelka libosi. Jemporning turi pulover hisoblanandi.

Nimcha – yengsiz va o'mizli tikuvchilik yoki trikotaj yelka libosi.

Sviter – tana va qisman bo'ksani yopib turuvchi, baland yoqali (5smdan yuqori), tugmasiz, uzun yengli trikotaj yelka libosi.

Kombinezon – yengli lifdan, shim, short, reytuza, trusikdan tashkil topgan va ularni birlashtirgan tikuvchilik va trikotaj libos. Kombinezon to'piqni ham berkitishi mumkin.

Yarimkombinezon – yengsiz lifdan, shim, short, reytuza, trusikdan tashkil topgan va ularni birlashtirgan tikuvchilik va trikotaj libosi. Yarimkombinezon to'piqni ham berkitishi mumkin.

Polzunki (polzunka -emaqlaydigan bolalarning mahsus kiyimi) – emaklab yuradigan bolalar uchun maxsus kiyim. CHaqaloq va yasli guruhdagi bolalarga mo'ljallangan kombinezon va yarimkombinezon ko'rinishdagi tikuvchilik yoki trikotaj libosi. Polzunki shim ko'rinishida bo'lishi va to'piqni ham berkitishi mumkin.

Ko'ylak – lif va yubkadan tashkil topib, bir butun birlashtirilgan ayollar va qizlar tikuvchilik va trikotaj yelka libosi. Ko'ylak turiga sarafan kiradi.

Xalat – kesilgan yoki yuqoridan pastga qadar tugmali, tana va oyoqni qisman yoki butunlay yopib turadigan tikuvchilik va trikotaj yelka libosi.

Bluzka (kofta, koftochka kirmaydi) – tanani va qisman bo'ksani yopib turuvchi ayollar va qizlar tikuvchilik va trikotaj yelka libosi.

Koftochka (kofta kirmaydi) – chaqaloq, bog'cha va maktabgacha ta'lim guruhidagi bolalar uchun tanani qisman yoki butunlay yopib turadigan tikuvchilik va trikotaj yengli yelka libosi.

Ustki sorochka (ko'ylak kirmaydi) – tanani va qisman bo'ksani yopib turuvchi yengli, tugmali, yoqali erkaklar va bolalar tikuvchilik va trikotaj yelka libosi.

Ichki sorochka (kunduzgi sorochka kirmaydi) – tanani va qisman bo'ksani yopib turuvchi yengli, yoqasiz erkaklar va bolalar tikuvchilik va trikotaj yelka libosi, ayollar va qizlar uchun esa – tana va qisman oyoqlarni berkitib turuvchi korset mahsulotga yoki bevosita tanaga kiyiladigan libos.

Tungi ko'ylak – tana va qisman oyoqlarni berkitib turuvchi bevosita tanaga kiyiladigan, uxlash uchun mo'ljallangan tikuvchilik va trikotaj yelka libosi.

Fartuk (perednik, ko'krakpech kirmaydi) – ifloslanishdan saqlaydigan tikuvchilik va trikotaj libosi. Fartukning turiga libosning ko'krak qismini ifloslanishdan saqlaydigan hamda bolalar uchun oshxo'rak fartugi kiradi.

Kombinashka – tana va qisman oyoqlarni berkitib turuvchi bevosita tanaga yoki korset mahsuloti ustidan kiyiladigan ayollar va qizlar trikotaj libosi.

Raspashonka (chaqaloqlar yaktakchasi) – chaqaloqlar uchun keng shakldagi, engli, yuqoridan pastga qadar old yoki orqa tarafdin kesilgan, bevosita tanaga kiyiladigan tikuvchilik yoki trikotaj elka libosi.

Bolalar ko'ylakchasi – chaqaloqlar uchun yuqori qismida old yoki orqa tarafdin kesilgan, bevosita tanaga kiyiladigan tikuv yoki trikotaj elka libosi.

Issiq to'qima ko'ylak (fufayka) – korset mahsulotlari yoki bevosita tanaga kiyiladigan, tanani qisman yoki butunlay yopib turadigan trikotaj elka libosi.

Mayka – bevosita tanaga kiyiladigan, tanani qisman yoki butunlay yopib turadigan, engsiz, tugmasiz trikotaj elka libosi.

Cho'milish kostyumi – tananing ko'krak, bel va bo'ksa qismiga yopishib turadigan, cho'milish uchun mo'ljallangan ayollar hamda qizlar tikuvchilik va trikotaj libos.

Bel libosi

Shim – tananing pastki qismini va oyoqlarni, umuman har birini alohida yopib turadigan, tikuvchilik va trikotaj bel libosi. SHimning turiga ko'krakpech va elka bog'li shimlar kiradi.

Shortlar – tizzadan baland bo'lgan shimning kalta bir turi.

Reytuza – tananing pastki qismi va oyoqlarni to'piqqacha har birini alohida zich qoplab turadigan tikuvchilik va trikotaj bel libosi.

Yubka – tananing pastki qismini va oyoqlarni birga qoplab turadigan, turli uzunlikdagi ayollar hamda qizlar tikuvchilik va trikotaj bel libosi.

Ichki yubka – yubka yoki ko'ylak ostidan kiyiladigan, turli uzunlikdagi ayollar hamda qizlar tikuvchilik va trikotaj bel libosi.

Kalta ishton (trusik kirmaydi) – bevosita tanaga kiyiladigan, tananing pastki qismini va oyoqlarning yuqori qismini, har birini alohida qoplab turadigan tikuvchilik va trikotaj bel libosi. Kalta ishton turiga ko'krakpech va elka bog'li ishtonlar kiradi.

Plavka – tananing pastki qismiga yopishib turadigan, cho'milish uchun mo'ljallangan kalta trusik.

Erkaklar ishtoni – tananing pastki qismini va oyoqlarni to'piqqacha har birini alohida zich qoplab turadigan, erkaklar hamda o'g'il bolalar tikuvchilik va trikotaj bel libosi.

Pantalon – bevosita tanaga kiyiladigan, tananing pastki qismini va oyoqlarning yuqori qismini, har birini alohida qoplab turadigan ayollar hamda qizlar tikuvchilik va trikotaj bel libosi.

Liboslar majmui

Kostyum – tikuvchilik yoki trikotaj mahsuloti majmui bo'lib, u o'z ichiga ikki-uch maxsulotini oladi.

Erkaklar kostyumi – u kostyum va shimdan iborat bo'ladi.

Izoh: kostyum to'plamiga nimcha ham kirishi mumkin.

Ayollar kostyumi – u yubka va jaketdan iborat bo'ladi.

Izoh: kostyum to'plamiga nimcha ham kirishi mumkin.

Shimli kostyum – elka libosining har xil turidan va shimdan tashkil topgan ayollar va qizlar tikuvchilik yoki trikotaj liboslar majmui.

Cho'milish libosi – u xotin-qizlarning cho'milishiga mo'ljallangan bo'lib, siynaband, trusik yoki ikkisi birlashtirilgan (butun) holdagi kiyimni o'z ichiga oladi.

Plyaj majmui – libosning asosiy qismini cho'milish kostyumi yoki plavka tashkil etadigan tikuvchilik yoki trikotaj liboslar majmui.

Pidjama – kurtka (fufayka, bluza) va turli uzunlikdagi shimdan iborat bo'lgan, uxlash uchun mo'ljallangan tikuvchilik yoki trikotaj liboslar majmui.

Korset mahsulotlar

Byustgalter (lif, siynaband kirmaydi) – ko'krak bezlarini ushlash va shakllantirish uchun mo'ljallangan ayollar va qizlar korset mahsuloti.

Gratsiya – ko'krak bezlarining yuqori qismidan to dumbaning qatigacha ushlash, tanani shakllantirish uchun mo'ljallangan hamda uzun paypoqlarni ushlab turadigan ayollar va qizlar korset mahsuloti.

Yarim gratsiya – ko'krak bezlarining yuqori qismini to belga qadar ushlash va shakllantirish uchun mo'ljallangan ayollar va qizlar korset mahsuloti.

Korset – ko'krak bezlarining yuqori qismidan to dumbaning qatigacha ushlash, tanani shakllantirish uchun mo'ljallangan hamda uzun paypoqlarni ushlab turadigan korset mahsulot.

Yarim korset – tananing bel qismidan to dumbaning qatigacha ushlash, tanani shakllantirish uchun mo'ljallangan hamda uzun paypoqlarni ushlab turadigan korset mahsulot.

Chulki uchun kamar (kamar kirmaydi) – tananing pastki qismini qoplab turadigan, chulkini ushlab turish uchun mo'ljallangan ayollar va qizlar korset mahsuloti.

Bosh kiyimlar

Quloqchin telpak – quloqli soyabon va bortli tikuv bosh kiyimi.

Kepi (kepka kirmaydi) – soyabonli yumshoq fordli tikuv bosh kiyimi.

Shlyapa – turli shakldagi boshchali tikuv bosh kiyimi.

Izoh. Shlyapa turiga panama kiradi.

Shapka – boshga zich yopishib turadigan trikotaj bosh kiyim.

Beret – soyabonsiz, dumaloq oval shaklli tikuv yoki trikotaj bosh kiyimi.

Shlem (aviatka kirmaydi) – boshga zich yopishib turadigan va quloqlarni berkitadigan tikuv yoki trikotaj bosh kiyimi.

Jokeyka – boshning yuqori qismiga zich yopishib turadigan soyabonli tikuvchilik bosh kiyimi.

Pilotka – to'g'ri burchakli yoki oval shakldagi, boshning yuqori qismini yopib turadigan tikuv bosh kiyimi.

Kapor – iyakning ostidan bog'lanadigan, old tomonda soyabonli yoki soyabonsiz, ayollar va qizlar bosh kiyimi.

Chepchik – iyak ostidan bog'lanadigan, boshga zich yopishib turadigan chaqaloqlar uchun tikuvchilik va trikotaj bosh kiyim.

Furajka – soyabonli va qattiq gardishli erkaklar hamda o'g'il bolalar uchun mo'ljallangan tikuvchilik bosh kiyimi.

Soyabonsiz shapka – gardishi bo'yicha tasmali soyabonsiz furajka.

Do'ppi – dumaloq yoki oval shakldagi milliy bosh kiyim. Do'ppi to'qilgan yoki tikilgan kashta bilan bezatilgan bo'lishi mumkin.

Chulki-paypoq mahsulotlari

Podsledniki – oyoq tovonini qisman yoki butunlay qoplaydigan ayollar va qizlar chulki-paypoq mahsuloti.

Paypoq – oyoqning pastki qismini to'piq yoki to'piq bilan boldirning bir qismini qoplab turadigan chulki-paypoq mahsuloti.

Yarim chulki – oyoqning pastki tizzagacha bo'lgan qismini qoplab turadigan chulki-paypoq mahsuloti.

Chulki – oyoqni va qisman bo'ksani qoplab turadigan ayollar hamda qizlar chulki-paypoq mahsuloti.

Getr – tovonni berkitmaydigan chulki yoki yarim chulki mahsulot.

Kolgotka – tananing pastki qismin va oyoqni qoplab turadigan chulki-paypoq mahsuloti.

Qo'lqgi mahsulotlari

Boshmaldoqli qo'lqop– qisman bilakni, kaftni, to'rtta barmoqni birga va katta barmoqni alohida qoplab turadigan trikotaj mahsulot.

Qo'lqop– qisman bilakni, kaftni, to'rtta barmoqni birga va katta barmoqni alohida yoki uchta barmoqni birga, katta va ko'rsatkich barmoqlarni alohida qoplab turadigan tikuv mahsulot.

Qo'lggi – bilakni qisman yoki butunlay, kaftni, beshta barmoqni, har birin ialohida qoplab turadigan trikotaj mahsulot.

Qo'lgopcha – chaqaloqlar va bog'cha yoshdagi bolalar uchun, qisman bilakni, kaftni hamda beshta barmoqni birga qoplab turadigan trikotaj mahsuloti.

Ro'mol-sharf mahsulotlari

Ro'mol – kvadrat shakldagi ayollar va qizlarning ro'mol-sharf mahsuloti.

Kiyik ro'mol – uchburchak shakldagi ayollar va qizlarning ro'mol-sharf mahsuloti.

Sharf – to'g'ri to'rtburchak shakldagi ro'mol-sharf mahsuloti. Sharf turiga kashne ham kiradi.

Libosga taalluqli bo'lmagan mahsulotlar

Yotoq uchun mo'ljallangan g'iloflar majmui – yotoq joyida kerakli gigienik sharoitlar yaratish uchun tikuv mahsuloti.

Choyshab – yotoq joyini qoplash uchun to'g'ri to'rtburchak shakldagi yoki jild ko'rinishdagi g'iloflar majmui.

Yostiq jild – yostiqqa, to'shak, to'shakka yoki parto'shakka kiydiriladigan, bir tomondan taqiladigan tugmali yoki klapanli jild ko'rinishidagi g'iloflar majmui.

Ko'rpa jild – jild ko'rinishdagi ko'rpa uchun yotoq g'ilofi majmui.

Yo'rgak – to'g'ri to'rtburchak shaklidagi chaqaloqlarni o'rash uchun mo'ljallangan tikuv mahsulot. Yo'rgakning burchak tomonlari aylana shaklida ham bo'lishi mumkin.

Choyshabcha – chaqaloqlarni o'rash uchun mo'ljallangan kashta yoki to'rli, to'g'ri to'rtburchak yoki kvadrat shakldagi tikuv yoki trikotaj mahsulot.

Taglik – chaqaloqlar uchun mo'ljallangan yo'rgakni ifloslanishidan saqlab turuvchi tikuv yoki trikotaj mahsulot.

Qavima choyshab – bir yoqdan-ikkinchi yoqqa o'tgan yirik choklar bilan qavib chiqilgan, ikki qavat mato va ularning orasida shaklan o'zgarmas materiallardan bo'lgan qistirmadan tashkil topgan tikuv mahsulot.

Qavma ko'rpa – bir yoqdan-ikkinchi yoqqa o'tgan choklar bilan qavib chiqilgan, ikki qavatli mato va ularning orasida issiq tutadigan qistirmadan tashkil topgan tikuvchilik mahsuloti.

Chaqaloqlar uchun konvert – bolaning uxlashi va aylanishi uchun mo'ljallangan konvert shaklidagi tikuvchilik yoki trikotaj mahsulot. Konvertning yuqori qismi kapyushon va (yoki) eng bilan bezatilgan bo'lishi mumkin.

Sifatga taalluqli bo'lgan terminlar

Sifat – o'ziga xos xossalari majmuining talablarga muvofiqlik darajasi. «Sifat» termini yomon, yaxshi va a'lo sifatlar bilan ishlatilishi ham mumkin. «O'ziga xos» termini «o'zlashtirilgan» termindan farqli o'laroq, nimagadir ega bo'lishni anglatadi. Eng avvalo, bu doimiy xossalari ga kiradi.

Ehtiyoj – o'rnatilgan ehtiyoj yoki natija odatda taxmin qilinadi yoki majburiy bo'ladi. «Odatda taxmin qilinadi» degani, bu ko'rib chiqiladigan ehtiyoj va natijalar taxmin qilinadigan tashkilot, uning iste'molchilari va boshqa manfaatdor tomonlarning umumqabul etilgan tajribasidir. Aniq bir turga bo'lgan talabni quyidagi so'zlarda ham ifodalash mumkin: mahsulotga, sifatga bo'lgan talab, iste'molchining talabi. SHuningdek, belgilangan rasmiy talablar bo'lib, ularga misol tariqasida hujjatlarni kiritish mumkin. Talab turli qiziqishga ega bo'lgan tomonlar tarafidan ilgari suriladi.

Gradatsiya (bir bosqichdan ikkinchi bir bosqichga o'tishdagi izchillik) – turli talablarga tayinlangan sinf, nav (tur), bosqich yoki toifani mahsulotning sifatiga, jarayonlarga va tizimning xuddi shunday funktsional qo'llanilishiga ega. Misol uchun, mehmonxona ma'lumotnomasida aviachipta va mehmonxona darajasi ko'rsatib o'tiladi. Odatda, sifatga bo'lgan talab aniqlanadigan vaqtda gradatsiya o'rnatiladi.

Iste'molchi talablarini qondirish – bu talablarni bajarish darajasining iste'molchilar tomonidan qabul qilishdir. Iste'molchining da'vosi, iste'molchi talablarining qondirish darajasi past ekanligini bildiradi, biroq talabning yo'qligi doim ham iste'molchining yuqori darajada qoniqishini bildirmaydi. Agarda iste'molchilarning talablari ular bilan kelishilgan holda amalga oshirilsa-da, ammo bu

iste'molchilarning yuqori darajada qoniqishini anglatmaydi. **Imkoniyatlar** – mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida unga bo'lgan talabdan kelib chiqqan holda yondashiladi. Bunda albatta tashkilot, tizim yoki jarayon ham hisobga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Алыменкова Н.Д. Ассортимент плательных тканей. М., 1995.
- 2.Ассортимент, свойства и технические требования к материалам для одежды / Гущина К. Г., Беляева С. А. и др. Л., 1978.
3. Бузов Б.А., Румянцева Г.П. Материалы для одежды. Учебное пособие. Изд-ский центр «Академия» 2010 г.
- 4.Бузов Б. А., Модестова Т. А., Алыменкова Н. Д. Материаловедение швейного производства. М., 1986.
- 5.Беляева С. А. Оптимальные пакеты швейных изделий различного ассортимента для обеспечения выпуска высококачественной одежды. М., 1989.
- 6.Град И. Н., Авсеев Е. П., Летроченко В. Ф. Организация рационал'ного использования материалов в швейной промышленности. М., 1986.
7. Делль Р. А., Афанасьев Р. Ф., Чубарова З. С. Гигиена одежды. М., 1991.
- 8.Иванникова И. М. Ассортимент и свойства л'няных и шелковых тканей. М, 1985.
- 9.Иванова М. И., Шакланов И. Г., Панасенко В. А. Товароведение обувных товаров. М., 1990.
- 10.Козлова Т. В., Рывинская Л. Б., Тимашова З. Н. Моделирование и художественное оформление женской и детской одежды. М., 1990.
- 11.Комплексная оценка качества текстильных материалов / Чайковская А. Е., Полищук Л. В., Галык И. С. и др. Киев, 1989.
- 12.Колесников П. А. Основы проектирования теплозащитной одежды. М., 1971.
- 13.Конфекционирование материалов для одежды: Методические указания к выполнению лабораторных работ / Розаренова Т. В., Орленко Л. В., Антипина Н. В. М., 1994.
- 14.Кукин Г. Н., Соловьев А. И. Текстильное материаловедение. М., 1996.
15. Мальцева Е. П. Материаловедение текстильных и коженно-меховых материалов. М., 1989.
- 16.Мальцева Е. П. Материаловедение швейного производства. М., 1986.

- 17.Месяченко В. Т., Кокошинская В. И. Товароведение текстильных товаров. М., 1987.
- 18.Общесоюзный классификатор промышленной и сельскохозяйственной продукции. Высшие классификационные группировки. М., 1975.
19. Орленко Л.В, Гаврилова Н.И. Конфекционирование материалов для одежды Учебное пособие.М Форум-Инфра-м 2010 г.
- 20.Орленко Л. В. Терминологический словарь одежды. М., 1996.
- 21.Основные принципы конфекционирования материалов в пакете одежды в СССР и за рубежом / Гущина К. Г., Беляева С. А. и др. // Швейная промышленность. Обзорная информация. Вып. 1. М, 1980.
- 22.Основы конструирования одежды / Коблякова Е. Б. и др. М, 1980.
- 23.Пархоменко В. Г. Товароведение текстильных товаров. М., 1966.
- 24.Пожидаев П. Н., Симоненко Д. Ф., Савчук Н. Г. Материалы для одежды. М., 1975.
- 25.Розаренова Т. В., Стельмашенко В, И. Ассортимент нетканых и трикотажных полотен для одежды. М., 1982.
26. Стельмашенко В.И., Розаренова Т.В. Материалы для одежды и конфекционирование. Учебник. М Изд-ский центр «Академия» 2010 г.
- 27.Склянников В. П. Потребительские свойства текстильных товаров. М., 1982.
- 28.Склянников В. П., Афанасьева Р. Ф., Машкова Е. Н. Гигиеническая оценка материалов для одежды. М., 1985.
- 29.Стельмашенко В. И., Розаренова Т. В. Ассортимент и свойства прокладочных и скрепляющих материалов, используемых при изготовлении одежды. М., 1982.
- 30.Стельмашенко В. И., Розаренова Т. В. Материалы для изготовления и ремонта одежды. М. 1997.
- 31.Царева В. Н. Товароведение пушно-мехового сырья и готовой продукции. М., 1982.
- 32.Руководящий документ РД 17-03-024—89. Система качества продукции. Ткани и штучные тканые изделия. Чистошерстяные, шерстяные и

- полушерстяные. Номенклатура показателей. М., 1989.
- 33.Эксплуатационные свойства материалов для одежды и методы оценки их качества / Гущина К. Г., Беляева С. А. и др. М., 1984
- 34.Эткин Я. С. Товароведение пушно-мехового сырья и Готовой продукции. М., 1990.
- 35.Назарова А. И., Куликова И. А., Савостицкий А. В. Технология швейных изделий по индивидуальным заказам. М., 1986.
- 36.Кузьмичев В. Е., Ефимова О. Г. Свойства текстильных материалов, влияющие на технологию изготовления швейных изделий. М., 1992.
- 37.Орленко Л. В. Деловая игра «Ателье»: Методические указания к проведению учебной деловой игры по материаловедению. М.: МТИ, 1988.
- 38.Сухарев М. И. Материаловедение. М., 1973.
- 39.Баженов В. И. Материалы для швейных изделий. М., 1982.
- 40.Макарова Т. А., Потапова Л. В. Текстильное материаловедение. М., 1986.
- 41.Орленко Л. В. Принципы конфекционирования материалов для разных пакетов одежды. М.: МГУС. 2004.
- 42.Орленко Л. В. Роль и задачи конфекционирования в современном дизайне одежды. Сб. тезисов докладов. М.: МГУС, 1999.
- 43.Орленко Л. В. Конфекционирование материалов для одежды и маркетинг. М.: МГУС, 2004.

Ta'limning interaktiv uslublari **«Konfeksiyalashuv» ishchi o'yini**

O'quv ishchi o'yin – bu kelajak mehnat kasbini qurish shakli, ishlab chiqarishda mutaxassis faoliyati uchun xarakterli bo'lgan shu holat va aloqalar tizimini modellashtirishdir.

O'quv ishchi o'yinini o'tkazishda qoidaga ko'ra, mutaxassisning real faoliyatida vujudga keluvchi eng tipik kasbiy muammo va vaziyatlarni soddalashtirish shakli tiklanadi. O'yindagi ishtirok talabalarda aniq muammolarni echishga ko'nikma hosil qiladi, savollar echimiga kompleks yondashish qobiliyatini, ijodiy tafakkurni rivojlantiradi va o'rganiladigan predmetga qiziqishni uyg'otadi. Albatta, talabalar uchun real, masalalar qo'yish va bir vaqtda unga echim topish imkoniyati bilan ta'minlash kerak.

Quyida shaxsan iste'molchi uchun libosni tayyorlashda korxonada (atel'e, Modalar uyi va h.k.) ishchi vaziyat namunali tashkillashtirish keltirilgan.

1. Ishchi o'yini tuzish

O'quv-ishchi o'yin «Libos uchun materiallarning konfeksiyalashuvi» kurslarini 5A150901 – Liboslar dizayni va 5A320902 – Tikuv buyumlari konstruktsiyasini ishlash va texnologiyasi, 5A111001- Kasb ta'limi (Engil sanoat buyumlari konstruktsiyasini ishlash va texnologiyasi) mutaxassislikdagi talabalarga o'rgatish asnosida o'tkaziladi.

O'quv o'yini amaliy mashg'ulotlarda o'tkazish rejalashtirilgan. O'yining davomiyligi 4-6 s. Unga qadar talabalar materialshunoslik, materiallar assortimenti va liboslar uchun materiallar konfeksiyalashuvi borasidagi zarur nazariy bilimlarga ega bo'lishlari lozim.

1.1. Ishchi o'yinning maqsadi. Ishchi o'yinning maqsadi: kundalik liboslar uchun qo'llaniladigan to'qimachilik materiallar (matolar, trikotaj va to'qilmagan polotnolar) assortimenti va xususiyati doirasida olingan bilimlarni mustahkamlash va modellarni tanlashning muqobil variantini izlashda ko'nikma hosil qilish, libosni

tayyorlashda materiallar aholining o'ziga xos buyurtmasi asosida tanlanadi; libosni loyihalash va tayyorlash texnologiyasi va boshqa shu kabi yo'nalishlar bilan materialshunoslikning o'zaro aloqadorligi.

O'yinni o'tkazish materialshunoslik nazariy kursini o'rganish, to'qimachilik materiallarning xususiyatlari va assortiment masalalari bilan bog'liq adabiyotlar bilan tanishish, shuningdek, «Matolar assortimenti», «Trikotaj polotnolar assortimenti», «To'qilmagan polotnolar assortimenti» kabi mavzularda laboratoriya ishlarini o'tkazish, liboslar uchun har xil turdagi materiallar assortimenti (tabiiy va sun'iy mo'yna va charmlar, bezak materiallar) bilan tanishish; materialshunoslik laboratoriyasi xonasida mavjud bo'lgan, yuqorida qayd etilgan materiallar turlari va materiallar namunasi al'bomidagi narh-navolar bilan tanishish.

1.2. Ishchi o'yin mazmuni. O'quv o'yinida Modalar uyi yoki atel'eda faoliyat yurituvchi rassom-modeler, muhandis-konstruktor yoki bichuvchining buyurtmachi (iste'molchi) uchun libos modeli va materialini tanlashdagi o'rnini o'xshatishga harakat (taqlid) qilinadi.

SHaxsiy buyurtma bo'yicha libosni tayyorlash sharoitida model va paket uchun materiallarni tanlashda turli nizoli vaziyatlar (noaniqliklar) bo'lishi mumkin. Bunda nizo ostida turli qiziqishlar va shu qiziqishlarga mos harakatlar uchun hammabopimkoniyatlar bilan turli tomonlar ishtirok etishi tushuniladi. Ana shu tarzda asosiy noaniqlik quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi: insonni modaga muvofiq kiyintirish, buyurtmachi ehtiyojini qondirish.

Masalan, aniq bir mahsulot uchun materiallar paketini tanlashda «Buyurtmachi – libos – modeler (konstruktor)» tizimida quyidagi vaziyatlar vujudga kelishi mumkin:

- a) buyurtmachi mahsulot fasoni (model loyihasi) tanlangan biroq, material yo'q: unga material tanlashda yordam berish;
- b) buyurtmachining o'zinda materiali bor, lekin aniq modeli yo'q; mahsulotning zamonaviy modelini tanlash talab etiladi;
- v) buyurtmachida ikkalasi ham bor: material imkoniyatlarini tahlil qilish, uni tanlangan modelga hamda buyurtmachi tashqi ko'rinishi va modaning zamonaviy yo'nalishiga muvofiqligini tahlildan o'tkazish kerak;

g) buyurtmachida na material va na aniq bir fason bor, lekin u chiroyli, zamonaviy kiyinishni xohlaydi: unga konsul'tatsiya yoki maslahat kerak;

d) buyurtmachi modadan chiqqan mahsulotini yangilamoqchi;

e) buyurtmachi mahsulot modelini o'zgartirishni hohlaydi va h.k.. SHubhasiz, aniq bir mahsulot uchun materiallar paketi va materialni tanlashda boshqa vaziyatlar ham bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, har bir keltirilgan vaziyatlar murakkablashishi mumkin:

- buyurtmachini tashqi ko'rinishi, yoshi va qomati bilan;
- taklif etilgan to'qimachilik materialni hozirgi vaqtdagi moda yo'nalishiga mos kelmasligi;

- zaruriy yordamchi material va bezak elementlarining etishmasligi;
- tanlangan modelning badiiy-koloristik bezagi va xususiyati bo'yicha materialga mos kelmasligi;

- korxonaning texnik imkoniyatlariga (uskunaning eskiligi, moslamalar yo'qligi);

- yuqori darajadagi mutaxassislarning yo'qligi v.b.

O'yining mazmunida ishtirokchilarning quyidagi harakatlari ko'zda tutiladi:

1. Bitta materialning mavjudligida mahsulot modelining muqobil variantdagi (yoki bir-necha variantdagi) suratini chizish, modelning ta'riflash va unga ishlov berishda qisqa tavsiyalar berish.

2. Mahsulot modelining suratini chizish va ta'riflash so'ngra, ushbu model uchun assortimentdan materiallarning muvofiq paketini tanlash.

3. Uning uchun tanlangan material va mahsulotlarga talabni bayon qilish.

4. To'qimachilik materiallarining hech qaysi bir xususiyati bilan e'tiborsiz bo'lmaslik, «Material shaklni aniqlaydi» formulasini esda tutish.

1.3. O'yinni moddiy-texnik ta'minlash. O'yinni o'tkazish uchun turli xildagi materiallar namunalaridan iborat albomlar, trikotaj va mato bo'lmagan polotnolar, libosni tayyorlash, ta'mirlash va qayta tiklashda foydalanish maqsadida pardozlangan materiallar, mo'yna, teri hamda boshqa turdagi materiallardan foydalanish shart bo'ladi.

Bunda talabalarni modaga oid al'bom va jurnallar, turli xil tovarlarning narx-navosi aks etgan jadvallar bilan ta'minlash maqsadga muvofiq sanaladi. O'yin ishtirokchilari zarur o'quv va uslubiy adabiyotlarga ega bo'lishlari lozim.

Kelajak(istiqbol)da — komp'yuter texnikasi ta'minoti bo'lib, unda ekranda libos modeli surati va uning mavjud variantlarini namoyish etish, matoning iqtisodiy va texnologik, shuningdek, buyurtmachi va korxonaning imkoniyatlari hisobga olinadi.

2. Ishchi o'yinning vazifasi va uning ijtimoiy mohiyati

Aholining shaxsiy buyurtmasi asosida libosni tayyorlash sharoitida materiallarni tanlash katta ahamiyatga ega. Kelgusi mutahassisning ijodiy mehnat ob'ekti bo'lib insonning o'zi, uning ko'rinishi va libos uchun ko'pgina materiallar xizmat qiladi.

Rassom-modelerlar shunday mahsulot yaratishi kerakki, unda inson yashaydigan moddiy muhit uning tarkibiy qismi bo'lishi lozim. Libosning ijodiy muammolari iqtisodiyot, ishlab chiqarish, madaniyat, psixologiya va mafkura, milliy an'analar va boshqa shu kabi sohalar bilan bog'liq. SHuning uchun talabalar bilan har bir alohida holatda «libos kim uchun, nimadan va qanday maqsadda yaratiladi» formulasiga qat'iy rioya qilish talab etiladi. U inson va libosni uning faoliyatini barcha sohalar bilan o'zaro aloqadorligini ifodalaydi.

Libosning o'ziga xos xususiyati uning modaga berilishi bo'ladi. Uning ta'siri hech qaysi bir boshqa narsaga liboschalik bo'lmaydi. Modaning harakatlar maromi tezlashadi, sanoat ishlab chiqarishning butun tarmoqlarini yangilashga majbur qiladi. Ayniqsa moda omili bozor aloqalari sharoitida libos sanoatiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Shakliy tuzilish va moda harakatining murakkab jarayonlari bizning mamlakatimizda libos ishlab chiqarishini rivojlantirishda kuzatib turiladi. Ko'pincha bizda chet el namunalariga birlamchi manbalarga tayanib, uni ko'chirib olish holatlari uchrab turadi.

Rassom-modeler va konstruktorlarning asosiy maqsadi kiyimlarni ijtimoiy xarakatirini ta'minaladir. Ularning mevasi mahsulot sifatiga bog'liksiz ta'sir kiladi va qelgusida mag'rurlanib yuradi. Amaliy uyinnig asosiy vazifasi ushbu vaziyalardan chiqib ketish:

- libosni kim kiyadi?
- qanday sharoitlarda (qachon va qaerda)
- mahsulot qanday materiallardan tayyorlanadi?

3. Ishchi o'yinni tashkil etish

O'quv-ishchi o'yinni o'tkazishda 8-10 kishidan iborat guruh tuziladi. Albatta guruhdagi vaziyat ijodiy bo'lishi kerak. Ijodga samimiylilik, muhabbat va ishonch ko'mak beradi. Qabul qilingan qaror yoki so'zlangan g'oyalarga qarshi keskin tanqid qilish bundan mustasno bo'lishi lozim, zero, bu narsa ijodiy izlanishlarni va barcha aloqalarni barbod qilishi mumkin.

Guruhdagi boadab do'stona aloqalar ishchi o'yinning eng yaxshi shartlaridan biri sanaladi. Zero, guruh a'zolari o'rtasidagi turli ixtiloflar ish jarayoni hamda uning muvaffaqiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ishchi o'yinda g'alaba yoki muvaffaqiyatsizlik muhim ahamiyatga ega bo'lmasa-da, ammo ularga erishilgan yo'l e'tiborli sanaladi. O'yindan darslarni chiqarib tashlash, olingan axborotni tushuna olish, munosabatlar uslubini anglay bilish ham o'z-o'zini, ham san'atni yuqori darajada tahlil qila olish orqali amalga oshadi. SHuning uchun ham, o'yin ishtirokchilari o'rtaga tashlangan savollarga o'z xatti-harakatlarini anglagan tarzda javob qidirishlari lozim.

Guruhning ishi o'rganilayotgan muammo yoki vaziyatni birgalikda muhokama qilish orqali amalga oshirilishi darkor. O'yinning har bir ishtirokchisi quyidagi talablarni bajarishi shart.

1. O'yinga o'rtaga tashlangan masalaga echim topishga tayyor holda kelish, nazariy materiallarni bilishi kerak bo'ladi.

2. O'z fikrlarini qisqa, lo'nda etkaza bilish (albatta vaqt chegaralangan), savollarni to'g'ri bera olish yoki masalani ta'riflash.

3. Boshqa ishtirokchilarning qarorlariga xayrixoh bo'lish, agar echim mazkur masalaga mos kelmasa yoki xato bo'lsa, o'zining avvalroq aytgan qaroriga qaytishga majburlamaslik.

4. Mehnat (o'quv) intizomi va o'yinda zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarga qat'iy rioya qilish.

Bundan tashqari, ish davrida har bir talaba faqat o'ziga berilgan masalaning natijasi bilangina qiziqib qolmay, balki o'yin guruhidagi sherigining yutug'iga ham katta qiziqish bilan qaraydi. O'zaro do'stona yordamga ruxsat beriladi va u rag'batlantiriladi.

3.1. O'yin ishtirokchilari guruhlarini shakllantirish. Ishchi o'yinda ishtirok etadigan barcha guruhlar – kichik-kichik guruhlarga bo'linadi (ularni brigadalarga ham bo'lish mumkin):

1-kichik guruh — «buyurtmachilar», 2-3 kishidan iborat (undan ham ko'proq bo'lishi mumkin);

2-kichik guruh — «bajaruvchilar» (model'er-rassomlar, rassom-texnologlar, muhandis-konstruktorlar), 3-4 kishi;

3-kichik guruh — ekspert-nazoratchilar, 2-3 kishi.

«Buyurtmachilar» guruhi «bajaruvchilar»ga bolalar, ayollar yoki erkaklarning istalgan turdagi kiyimini taklif qilishadi. Ularning vazifasiga mahsulotning aniq bir modelini «buyurtma» berish kiradi:

- o'z materiallariga ega bo'lmagan holda, modelning xomaki nusxasini ko'rsatish;
- o'z materiallari yoki xomaki nusxa bilan, yoki unga ega bo'lmagan holda;
- na modelning chizmasi va na materialga ega bo'lmagan holda;
- boshqa variantlar (modelni yangilash, o'zgartirish va h.k.).

«Buyurtmachi»lar masalani savodli tarzda qo'yishlari, shuningdek, nimani istashlarini aniq va lo'nda ifodalab berishlari lozim. Vazifaning sifatli bajarilishi bevosita aniqlik bilan bog'liqdir. Masalan, libosning turi (pal'to, ko'ylak, kostyum va boshqalar), uning vazifasi (kundalik yoki ishchi, sport uchun, ma'lum bir tantana va marosimlar uchun, estrada yo'nalishi va uy sharoitiga mo'ljallangan), mavsumiy (qishki, yozgi) va h.k; shuningdek, ular turlicha bo'lishi ham mumkin (kutilmagan — buyurtmachining istagiga ko'ra buyurtma berilgan libos).

Izoh:

1. Ishni maqsadga muvofiq tarzda taqsimlashni guruh talabalarining o'zlariga topshirish lozim. Ana shunda o'yinda ishtirok etayotgan guruhlar o'rtasida o'zaro

psixologik moslik yaxshi ta'minlanadi hamda bir-birlarini tushunishda to'siqlarga uchrashmaydi.

2. Ishchi-o'yin «buyurtmachi»lar kichik guruhlariga ishtirokchi sifatida, bo'lajak mutaxassislardan materiallarni tanlash va modellar bo'yicha maslahatlar olishni istagan o'qituvchilar, shuningdek, boshqa guruh va kurslardan talabalarni ham taklif qilish mumkin.

Ishchi-o'yin qatnashchilarining ikkinchi kichik guruhi – «bajaruvchilar»ni 2-3 kishidan iborat brigadalarga bo'lish mumkin. Brigadaning har bir a'zosi bir paytning o'zida rassomchilik, konstruktor va texnolog vazifalarini mujassamlashtirishi mumkin. Ushbu vazifalarni taqsimlash variantlari ham yo'q emas.

Ushbu kichik guruh ishtirokchilari oldida buyurtmachining talab va ehtiyojlarini qondirishdek anchayin murakkab masala turadi. Guruh ishtirokchilari sanalmish talabalar mahsulotning nusxasini tanlash, uni chiza bilish, to'qimachilik materialining belgilangan vazifasi nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, uning imkoniyatlarini baholash, konstruktor-texnologik parametrlarini ko'ra olishlari lozim. Undan tashqari, ushbu guruh ishtirokchilari buyurtmachilar bilan qanday muomala qilishni ham bilishlari lozim: buyurtmachini tinglay olishlari, unga libos yoki material tanlashda maslahatlar berish (taklif etilgan buyumni ma'qullash yoki uni nazokat bilan, iltifot ko'rsatgan holda boshqasiga almashtirish), materialni tanlashda o'z fikr-mulohazalarini bildirish, buyurtmachining iltimosiga ko'ra mahsulotning taxminiy narxini aytish.

Izoh:

1. Taqiqlanadi: odobsizlik, loqaydlik, kinoya, yosh yoki buyurtmachining ko'rinishini tanqid qilish.

2. Ruxsat beriladi: imkon qadar ijodiylik va g'oyalar.

Bo'lajak mutaxassisning oldida har qanday yuzaga keluvchi vaziyatlar ichida eng asosiy masala sifatida – odamni chiroyli kiyintirish turadi. Rassom-model'er yoki konstruktor shuni unutmasliklari kerakki, ularning shaxsiyati va liboslarining madaniyligi buyurtmachi uchun namuna bo'lishini lozim. O'quv-ishchi o'yinning

uchinchi kichik guruh ishtirokchilari – ekspert-nazoratchilar bo'lib, u o'z ichiga o'qituvchi (yoki assistent) va 2-3 talabani qamrab oladi.

Bu erda eng murakkab vazifalar ikkinchi kichik guruh ishtirokchilariga yuklatilganini ham hisobga olish kerak. Ana shu sabab, guruhdagi barcha talabalar liboslar dizayneri rolida ishtirok etishi lozim.

3.2. O'yinni o'tkazish. Liboslar uchun materiallar assortimenti mavzusidagi birinchi ma'ruzadan so'ng, o'yin ishtirokchilariga vazifalar berish kerak bo'ladi. Ishchi o'yinning ilk yig'ilishida ishtirok etuvchilarning funksiyasi, guruhlar orasidagi vazifalarning variantlari va aniq ishtirokchilar bevosita talabalar tomonidan belgilanadi. Vazifalarni topshirishning ikki variantini tavsiya etish mumkin.

I-variant – vazifa «buyurtmachilar» tomonidan beriladi.

«Buyurtmachilar»ni jalb etish maqsadida bir chetga muvofiq tarzda e'lon ilib qo'yish ham mumkin. Qabul qilib olingan vazifa «buyurtmalar jurnali»dagi jadvalga kiritiladi. SHuningdek, u erga buyurtmachi, material va nusxasi haqidagi ma'lumotlar ham yozib qo'yiladi (1-jadval).

«Buyurtmalar jurnali»

1-jadval.

№	Buyurtmachining ism-sharifi	Mahsulotning nomi	Buyurtmachi haqida ma'lumotlar	Buyurtmachi tomonidan berilgan material haqida ma'lumotlar	Libos nusxasining chizmasi
	2	3	4	5	6

Izoh: ishchi o'yinning vazifasiga faqatgina maqsadga muvofiq tarzda material va libosning andazasini tanlash kirishi bois, buyurtmachidan hech qanday o'lchamlar olinmaydi, libosning konstruksiyasini ishlab ham ko'zda tutilmaydi, «buyurtmachi haqida ma'lumotlar» degan katakka quyidagi tashqi ko'rinish borasidagi ma'lumotlar kiritiladi: yosh guruhi, to'laligi, bo'yi, qad-qomat haqida ma'lumotlar, gavda, sochlarning rangi, yuzning tuzilishi va h.k.

II-variant – vazifalar ekspert-nazorat guruhi tomonidan beriladi (ularni oldindan buyurtma-kartochkalar ko'rinishida ham tayyorlab qo'yish mumkin). Muammoli masalalarning namunaviy nusxalari (v p. 5) berilgan.

3.3. Ishchi o'yindagi masalalarni bezash. Tasdiqlangan jadvalga jamoaning mas'uliyat bilan qat'iy yondashayotgani hamda jamoadagi har bir ishtirokchining o'ziga xos xususiyatini ko'rsatish maqsadida, kichik guruhlar berilgan vazifani jamoa bo'lib bajarishlari shart (referat yoki hisobot). Vazifaning ilk sahifasi titul varaq bo'lib, unda berilgan topshiriq, bajaruvchilar va rahbar (o'qituvchi) ko'rsatilgan bo'ladi.

Hisobotda topshiriqqa muvofiq aniq ko'rinishli libosga asosiy talablar ifodalanadi va model va ustki material (yoki materiallar paketi)ni tanlash bilan aylanadi. Bundan tashqari hisobotda, buyurtmachining tashqi ko'rinishiga muvofiq va moda yo'nalishini hisobga olgan holda eng yaxshi fason echimlari namunalari ko'rib chiqiladi. SHuningdek, har bir o'yin ishtirokchisining shaxsan bajarilgan ishga qo'shgan hissasi ko'rsatib o'tiladi. Hisobotning taxminiy tuzilishi va mazmun-mohiyati quyida berilgan. Hisobotning taxminiy tuzilishi:

1. Olingan vazifaning aniq ifodasi. Uning maqsadi.
2. Material haqida ma'lumotlar (tolaning tarkibi haqida qisqacha xarakteristika, tuzilishi, ranglari; pardozi, qalinligi, vazifasi va h.k. Agar material bo'lsa, 3x3 sm.li namuna yopishtirib qo'yish mumkin).
3. Buyurtmachi haqida ma'lumotlar.
4. Buyurtma berilgan mahsulotga qo'yiladigan talablar.
5. Mahsulotlar paketiga kiruvchi materiallarga qo'yiladigan talablar.
6. Mahsulot andazasining suratlari (iloji bo'lsa, bir necha variantda).
7. Taklif etilgan andazaning ta'rifi.
8. Mahsulotga ishlov berish va uning konstruksiyasi bo'yicha qisqacha tavsiyalar berish (tanlangan materiallarning asosiy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda).
9. Vazifa bajarildi (talabalarning har biri qaysi bir ishni aniq amalga oshirdi va ularning ism-sharifini ko'rsatish).
10. Ishni qabul qilib olishdi (ekspert guruhi).

11. Xulosa (bajarilgan ishga qo'yilgan baho va tanbehlar). Ishchi o'yinning bezagiga qo'yilgan umumiy talab, uning aniq tuzilishi, lo'ndaligi, aniq ifoda etilganligi va tavsiyalarning aniqligida namoyon bo'ladi. Andazalarning chizmasi yoki suratlari oq-qora yoki rangli ishlanishi ham mumkin. Vazifaning bajarilish hajmi 5–8 betdan oshmasligi lozim.

Izoh: Ishchi o'yinni mashq tariqasida «Ekspress-o'yin» tariqasida, og'zaki ravishda o'tkazish ham mumkin. Kichik guruhlariga vazifalar kartochkalar ko'rinishida beriladi. Qisqa bir maslahatlashishdan so'ng, kichik guruh vakili yuqorida qayd etilgan tartibda og'zaki javob beradi.

3.4. Bajarilgan vazifalarni baholash. O'quv-ishchi o'yinida talabalar tomonidan berilgan vazifani ekspert-nazorat kichik guruhi, besh balli tizim asosida, jadvalda belgilangan muddatga qarab baholaydi.

SHuningdek, referatlarning o'zaro taqrizi va andazalarga ishlov berish borasida talabalarning muhokamasi ham o'tkaziladi. Eng yaxshi referatlar so'nggi mashg'ulotda e'lon qilinadi.

Semestrda intizom uchun baho qo'yishda, ishchi o'yinga bag'ishlangan referatlarning sifati va olgan bahosi albatta hisobga olinishi lozim.

4. Ishchi o'yin uchun dastlaki ma'lumotlar

Ishchi o'yinni o'tkazish uchun dastlabki ma'lumotlar quyidagilardan iborat bo'ladi:

- buyurtmachi va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotlar;
- mahsulot paketi uchun mavjud bo'lgan materiallar assortimenti;
- aniq turdagi libos uchun qo'yiladigan asosiy talablar;
- mahsulot paketiga kiruvchi tekstil materiallariga bo'lgan talablar;
- modaning yo'nalishi haqida ma'lumotlar (al'bomlar, moda jurnallari).

4.1. Libos uchun materiallar assortimenti. Maishiy hayot uchun mo'ljallangan libosga materiallar paketini tanlashda, ma'lum bir tovar turlari

preyskurantidan foydalanish tavsiya etiladi (preyskurant № 030, preyskurant № 032, preyskurant № 034, preyskurant № 036).

Undan tashqari, talabalar laboratoriya yoki kafedrada mavjud bo'lgan to'qmachilik materiallari namunalari (jumladan, istiqbollilari) aks etgan al'bomlardan ham foydalanishadi.

Aniq bir model uchun tanlangan yoki tavsiya etilgan material haqidagi ma'lumotlar «buyurtmalar jurnaliga» qayd etib qo'yiladi (1-jadval, 4-katak).

4.2. Libosga qo'yiladigan asosiy talablar. Libosning ma'lum bir turiga qo'yiladigan aniq talablar, ishchi o'yinning mas'uliyatli bosqichlaridan biri sanaladi. Ana shu talablar asosida tanlangan mahsulotga mo'ljallangan materiallarga qo'yiladigan talablar shakllanib boradi. Libosga qo'yiladigan talablar ikki guruhga ajratiladi:

- iste'molchi, bunda libosning maqsadi va ekspluatatsiya qilish shartlari hisobga olinadi;
- ishlab chiqaruvchi, bunda ishlov berish uslublari, mavjud uskunalardan foydalanish imkoniyatlari, ish unumdorligini ko'tarish va h.k.lar hisobga olinadi.

Libosga bir qator talablar qo'yilayotgan paytda, uning turidan qat'i nazar, maqsadi, ishlatilish shartlari albatta hisobga olinadi. Bunda ba'zi bir talablar birinchi darajali bo'lsa, boshqalari u qadar ahamiyatga ega bo'lmaydi, ba'zi talablar esa, umuman hisobga olinmaydi ham. Masalan, kelin uchun tikiladigan ko'rkam, bezakli libos uchun qo'yiladigan birinchi darajali talab bu – estetik talabdir. Kundalik libos uchun ishonchli, foydalanishda qulay va gigienik talablar muhim ahamiyat kasb etadi.

Libos uchun asosiy talablar 2-jadvalda ko'rsatib o'tilgan.

Libosga qo'yiladigan asosiy talablar

Talablar guruhi	Libosga qo'yiladigan talablar	Xususiyatlar ko'rsatkichi xarakteristikasi	Ko'rsatkichlar mazmun-mohiyati
1. Iste'molga oid	Mahsulotning ishonchliligi	Turli ta'sirlarga (mexanik, fizik-kimyoviy va boshqa) bardoshliligi	Har bir ko'rsatkichning ahamiyati libosning maqsadi va ekspluatatsiya
	Foydalanishdagi qulayliligi	Kiyish va echishdagi qulaylik; odamning erkin harakatlana olishi	
	Foydalanishdagi xavfsizlik	Sovuq, issiq va h.k.larga bardoshliligi	
	Nafosatlilik	Moda yo'nalishiga muvofiqligi, tashqi ko'rinish va silueti	
	Gigiena qoidalariga muvofiqligi	Issiq o'tkazmaydigan xususiyatlar, havo o'tkazuvchanlik va boshqalar	
2. Ishlab chiqarishga oid	Mahsulotning texnologik jihatlari	Ishlov berish usullarini soddalashtirish imkoniyati, operatsiya jarayonlarini o'tkazishda maksimal mexanizatsiyani qo'llash	Ishlov berish uslublari va konstruksiyasini tashlashda hisobga olinadi, materiallar sarf-xarajatiga ta'sir qiladi, mahsulotning
	Tejamliligi	Material sarfini minimal darajada ta'minlash, maxsus andzani ratsional taqsimlash, ko'pmehnat talab qiluvchi operatsiyalarni kamaytirish	
	Rentabellik	Foyda ko'rish imkoniyatlari	

4.3. Materiallarga qo'yiladigan asosiy talablar. Buyumning tashkil etuvchi matolarni paketlariga ko'yiladigan talablar o'rnatilishda, kiyish sharoitlari va uni vazifalari hisobga olingan holda aniq kiyim turiga mos talablar ko'yiladi. Ushbu talablar matolarning tashqi ko'rinishiga zamonaviy nigohini aniqlaydi, kiyim tayyorlashda matolarning xususiyatlari konstruktsiya va texnologiyasiga ta'sir etishini hisobga olingan holda, kiyish mudatini aniqlash, narxi va h.z..Kiyimlar uchun matolarga ko'yiladigan talablarni 6ta guruhi 3.jadvalda taqdim etilgan.

3-jadval.

Materiallarga qo'yiladigan talablar

Guruhlar	Xususiyatlar xarakteristikalarini (ko'rsatkichlar)	Ko'rsatkichlar mazmuni
1	2	3
1. Umumiy (standart) talablar	tolalar tarkibi yuqori qismdagi zichlik matoning zichligi chiziqli shaklidagi iplar zichligi zo'riqtiruvchi og'irlik zo'riqtiruvchi cho'zish matoning kengligi (eni)	Standart normalar asosida materiallar muvofiqligini ifodalaydi
2.Konstruktor-texnologik	qalinligi qattiqligi drapililigi g'ijimlilik (g'ijimlanmasligi) shakli tuzilishga qobilligi tangentsial qarshilik iplarning surilishi iplarning to'kilishi (titilishi) igna bilan tesha olish imkoniyati kirishish	Konstruktsiya layoqatliligi, tayyorlash texnologiyasi, mahsulotning hajmi va shakliga ta'sir o'tkazadi
3. Ergonomiklik (gigienik)	havoo'tkazuvchilik suv-bug'o'tkazuvchanlik gigroskopik namlik kapillyarlik ranglilik ifloslanish darajasi issiqlikka qarshilik va	Kiyim osti qatlamida qulay sharoit yaratish va libosning himoya funktsiyalarini ta'minlash bilan bog'liq

1	2	3
	boshqalar	
4.Siyqalanish (eyilishga) bardoshlilik	Bardoshlilik: ishqalanishga, pillininga, ko'pbor bukilish va cho'zilishga, ob-xavoga, ko'pbor yuvilishlarga ter chiqishiga baland va past haroratga	Libosning ishonchli va uzoq muddatga chidamliligiga ta'sir o'tkazadi
5. Estetik	Modaning yo'nalishiga muvofiqligi rang (to'yingan, tus) oqlik yaltiroqlik shaffoflik rangmosligigi faktura Tushe (grif)	Libosning tashqi ko'rinishi va estetik idrokiga ta'sir o'tkazadi, qomatni aniq namoyon etadi yoki berkitadi
6. Iqtisodiy	materialning bahosi mahsulotga engil qarash ta'mirlashga yaroqliligi	Mahsulotning bahosi bilan bog'liq

Libos ko'pqatlamli tizim bo'lgani sabab, mahsulot paketiga kiradigan barcha materiallarga: yuqori qism, astar, pardozi ishlariga talablar qo'yilishi lozim. Turli ko'rinishdagi liboslarga mo'ljallangan materiallarga qo'yiladigan talablar birdek bo'lmaydi. Bu ko'proq uning ahamiyati, libosdan foydalanish shartlari va boshqa faktorlarga ham bog'liqdir. Materiallarga qo'yiladigan talablarning taxminiy ko'rinishi 4-jadvalda aks etgan.

Turli maqsad va ko'rinishga ega libos uchun materiallarga qo'yilgan
talablarning taxminiy ahamiyati

Liboslar turlari va ularning ahamiyati	Materiallarga qo'yiladigan talablar va ularning ahamiyati				
	Estetik	Konstruktor- texnologik	Gigienik	Siyqalanish ga bardoshlili k	Iqtisodiy
	Ayollar ko'ylaklari				
Uy sharoitida,	2	5	1	3	4
ishchi, bashang	1	3	2	4	5
	Erkaklar ko'ylaklari				
kundalik, sport	3	4	1	1	2
bashang	1	3	2	4	5
	Kostyumlar				
Tantanali marosimlar uchun	1	2	3	4	5
kundalik, ishchi	2	5	4	1	3
bolalar	3	5	1	4	2
sportga oid	3	5	1	2	4
rasmiy idoralar	2	5	3	1	4
	Palto				
yozgi, ayollar uchun	1	2	3	4	5
bahor-kuz va qishki	1	3	1	2	4
qiz bolalar uchun	2	3	1	4	4
erkaklar uchun	2	3	1	1	4
o'smir va yoshlar uchun	2	5	1	3	4
bolalar uchun	3	4	1	5	2

4.4. Buyurtmachi haqida ma'lumotlar. Tashqi ko'rinish xarakteristikasi, buyurtmachining bo'y-basti, gavdasi o'quv-ishchi o'yinning ajralmas qismi sanaladi. Talabalar ko'zdan kechirish asnosida buyurtmachi haqida: yoshi, ko'z va

sochlarining rangi, gavda tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari va h.k.lar haqida qisqacha ma'lumot berishlari lozim.

Mahsulotning bichimi va tekstil materialni tanlashda odamning yoshi muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shuning uchun, eng avvalo, buyurtmachi qaysi yosh — kichik, o'rta yoki katta yosh guruhiga mansub ekanligini aniqlashtirib olish darkor.

Kichik yoshga mansub guruh buyurmachilari libos tanlashga ishtiyoqmand bo'lishadi: qizlarning ayollik (ko'krak, bel, tos) va o'smirlarning erkaklik jihatlarini (elkalar, qad-qomat) ta'kidlovchi tomonlar keskir modani tanlashni afzal ko'radi.

O'rta yoshli guruh klassik ishchi uslub(stil')ga tarafdorligi bilan xarakterlanadi, shuningdek, xayoliy (fantaziy) echimlarga, ayniqsa, tantanavor holatlar uchun liboslarda; umumiy zamonaviy moda yo'nalishi izidan borish ma'qul bo'ladi.

Katta yoshdagi guruhga mansub buyurtmachilar libosning modeli va materiallar tanlashda ko'proq klassik uslubni afzal ko'rishadi va bunga anchayin sokin munosabat bilan yondashishadi. O'tkir modalar masalasiga u qadar ro'yxushlik bildirishmaydi.

Gavda bichimi bir qator tashqi alomatlariga ko'ra aniqlanadi, bu eng avvalo mushaklar rivojlanishi va yog' ajratmalari darajasiga bog'liq, u ko'krak qafasi, qorin va orqaning shaklida aks etadi.

Ushbu belgilarni keyingi variantlarga karab ajratiladi [21]:

- mushaklarning rivojlanishi: sust, o'rtacha, kuchli;
- yog' ajratmalari rivojlanishi: sust, o'rtacha, ko'proq;
- ko'krak qafasining shakli: yassi, tsilindr, konus shaklida;
- qorin shakli: botq, tekis, yumaloq-do'ng;
- belning shakli: shrtacha, bukchayganroq, to'g'ri.

Gavda. Qomat shakli, orqa tomondan gavdaning tashqi konturi shakli bo'yicha qomatni yon tomondan ko'rinishiga qarab aniqlanadi. Gavdaning orqa konturi qiyofasi faqat umurtqa ustunining egilishiga emas, balki kurakning turtib chiqish darajasi, mushaklar rivojlanishi va bo'yin, orqa, dumba atrofidagi yog' ajratmalarga ham bog'liq bo'ladi. Tikuv sanoatida qomatning uch xil turdagi shakli mavjud: bukchaygan, normal va gerdaygan.

Buyurtmachi haqida ma'lumot, uning tashqi ko'rinishi xarakteristikasi «Buyurtma jurnali»ga kiritiladi. (1-jadval, 5-ustun).

4.5. Modaning yo'nalishi haqida ma'lumotlar. Libosda moda yo'nalishi, zamonaviy bosqichda tekstil materiallar (mato, trikotaj v.b.), modali siluyetlar, mahsulot uzunligi, elka shakli va bel chizig'i holati, konstruktiv-dekorativ elementlar v.b. – bularni hammasini talabalar modalar jurnalidan olishadi va u ishchi o'yinni ta'minlashi shart.

5. Ishchi o'yinda muammoli vaziyatlar yaratish uchun masalalarning ibratli namunalari yaratiladi.

O'yinchilarga nazorat-ekspert guruh tomonidan vazifa («Buyurtma») beriladi.

Vazifada tekstil materialning berilgan namunasini aniq yoki tahminiy buyurtmachining tashqi ko'rinishi uchun mahsulot modelini tanlash zaruriyati ko'rsatilgan yoki aksincha, mahsulotning mavjud modeliga buyurtmachi haqidagi ma'lumotni hisobga olib material tanlash kerak bo'ladi.

Talabalar mavjud matoning berilgan namunalari, modalar jurnalidan foydalanib hamda material va libosga bo'lgan talabni hisobga olib, vazifani bajarishi va uni referat shaklida muhokamaga qo'yishi kerak.

1-topshiriq. Yorqin rangdagi sof jun mato uchun art. 1203 (boston) bahorgi-yozgi davr va har kuni kiyishga mo'ljallangan erkaklar kostyumi turini tanlash talab etiladi. Buyurtmachi o'rta yoshdagi guruhdan, qad-qomati tik (sportchilarniki kabi), bo'y-basti me'yorida.

2-topshiriq. Art. 1359 «Atlant» yo'l-yo'l jun matodan 2-yoshdagi guruhlariga mo'ljallangan yoshlarbopva o'rta yoshdagi erkaklar kostyumini tanlash talab etiladi. Kostyumlar bahor-kuz davrida kundalik maishiy hayotda kiyish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Buyurtmachilarning bo'y-basti o'rtacha, mushaklarining rivojlanishi o'z me'yorida.

3-topshiriq. Kelinlik libosining turi uchun oq krepdeshin(yupqa, pishiq ipak gazmol) tanlash. Buyurtmachi kichik yoshdagi guruh vakilasi sanaladi, bo'yi o'rtacha, gavda tuzilishi o'z me'yorida.

4-topshiriq. Art. 1104. matodan bitiruv kechasi uchun ko'ylak turini tanlash lozim. Buyurtmachi moviy ko'zli, bo'yi baland, qaddi biroz bukilganroq, gerdaygan komat. Ko'ylak turining mavjud variantlarini taqdim etish lozim.

5-topshiriq. Tantana marosimlariga mo'ljallangan ko'ylak turlarini taqdim etish uchun (modalar jurnalidan) ipak shoyi matolari tanlanadi. Buyurtmachi o'rta yosh guruhiga mansub. Gavda tuzilishi o'rta, bo'yi baland, sochlari qora.

6-topshiriq. Adras aralashgan ipak matolardan tikilishi rejalashtirilgan, bitiruv kechasiga mo'ljallangan bir qancha turdagi ko'ylaklarni ishlab chiqish. Buyurtmachi kichik yoshdagi guruhga mansub bo'lib, o'rtacha gavda tuzilishiga ega.

7-topshiriq. Xon-atlasdan tikilgan, tantana marosimlari uchun mo'ljallangan bir qancha turdagi ko'ylaklar tavsiya etiladi. Buyurtmachi o'rta yosh guruhiga mansub. O'rta bo'y, gavda tuzilishi me'yorida yog' ajratmalari o'rta rivojlanishi bilan.

8-topshiriq. Bahor-kuz mavsumlariga mo'ljallangan ayollar pal'tosi modeli uchun mato tanlash. Buyurtmachi kichik yoshdagi guruhga mansub, tim qora sochli, o'rta bo'yli, baland poshnali poyafzal kiyadi.

9-topshiriq. Bahor-kuz mavsumlariga tavsiya etilgan ayollar pal'tosi modeli uchun mato tanlash. Buyurtmachi katta yoshdagi guruhga mansub, o'rta bo'y, yog' ajratmalari rivojlanishi ko'p, past poshnali poyafzal kiyadi. Tanlangan turdagi pal'toni buyurtmachining tashqi ko'rinishiga muvofiq keladigan boshqa pal'toga almashtirish ehtimoli ham yo'q emas.

10-topshiriq. Kichik yoshdagi guruhga mansub buyurtmachiga kurtka modellarning bir qancha modellarini taqdim etish. Buyurtmachi baland bo'yli, gerdaygan komat, poshnasiz poyafzal kiyadi. Material — bir xildagi, uzun bo'lmagan tuklardan iborat sun'iy mo'yna.







11-topshiriq. Kurtkaning bir qancha variantdagi modellarini buyurtmachi-talaba uchun ishlab berish. Bo'y baland, qad-qomat sportchilarniki kabi. Material — plashbopmato.

12-topshiriq. O'rta yosh guruhiga mansub buyurtmachiga qishki pal'to tikish uchun material tanlash. Pal'toning modelini tavsiya etish. Buyurtmachining bo'yi o'rtacha, gavda tuzilishi o'z me'yorida.

Ekspert-nazorat guruhi topshiriqlarning boshqa variantlarini ham tavsiya etishi mumkin. Undan tashqari, chetdan taklif etilgan «buyurtmachilar» tomonidan ham topshiriqlar qabul qilinishi mumkin.

5-jadval.

Tikuv va trikotaj mahsulotlarga qarash usullarining shartli belgilari

	Kirni yuvish vaqtida ehtiyotkorlik talab etilmaydi. Libosni bemalol qaynatish mumkin.
	Kirni yuvish vaqtida ehtiyotkorlik talab etiladi. Libos 60 °S darajadan oshmagan holatda yuvilishi lozim.
	Kirni yuvish vaqtida ehtiyotkorlik talab etiladi.
	Libos 40-30°S darajadan oshmagan holatda yuvilishi mumkin.
	Libosni yuvish ta'qiqlanadi.
	Libosni dazmollash vaqtida ehtiyotkorlik talab etilmaydi. Libosni 160 °S darajadan oshgan holatda dazmollash mumkin.
	Libosni dazmollash vaqtida ehtiyotkorlik talab etiladi. Libosni 160 °S darajadan oshmagan holatda dazmollash mumkin.
	Libosni dazmollash vaqtida o'ta ehtiyotkorlik talab etiladi. Libosni 120 °S darajadan oshmagan holatda dazmollash mumkin.
	Libosga dazmol bosish taqiqlanadi.
	Kimyoviy tozalashda ehtiyotkorlik talab etilmaydi. Mahsulotni barcha qabul qilingan erituvchilar orqali tozalash mumkin.
	Kimyoviy tozalashda ehtiyotkorlik talab etiladi. Libosni tetraxloretilen va og'ir benzin (uayt-spirit) bilan ishlov berish lozim bo'ladi.
	Kimyoviy tozalashda o'ta ehtiyotkorlik talab etiladi. Libosni og'ir benzin (uayt-spirit) bilan ishlov berish lozim bo'ladi.

	Tikuv mahsulotlari kimyoviy tozalanmaydi.
	Tikuv mahsulotini xlor aralashgan yuvish vositalar orqali oqartirish mumkin.
	Tikuv mahsuloti xlor aralashgan yuvish vositalari bilan oqartirish man etiladi («S1» harfisiz qo'llashga ruxsat beriladi).